



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**TERMIZ MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA
INSTITUTI**

“MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA FAN SOHALARIDAGI MUAMMOLAR: YECHIM VA TAKLIFLAR”





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**



**TERMIZ MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA
INSTITUTI**

**“MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA FAN SOHALARIDAGI
MUAMMOLAR: YECHIM VA TAKLIFLAR”**

**mavzusidagi professor-o'qituvchilari va talabalarining ilmiy
izlanishlari natijalariga bag'ishlangan
I-ilmiy-texnik anjumanning**

MATERIALLARI TO'PLAMI

II-QISM

Termiz - 2022

Ushbu to'plamda Oliy ta'lim muassasalar va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchi va talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari e'lon qilingan. Anjuman materiallari institut Kengashining qarori asosida nashrga tavsiya etildi (Bayonnoma №10, 10.05.2022 yil).

Mas'ul muharrir:

O'.Axmedov Termiz muhandislik-texnologiya instituti rektori

Tahrir hay'ati:

M. Majidov	Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, tashkiliy qo'mita raisi
M.Urozov	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, tashkiliy qo'mita rais o'rinbosari
Z. Xudoyqulov	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais o'rinbosari
B. Amanov	Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, tashkiliy qo'mita kotibi
M. Kichkilova	Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini tashkil qilish bo'limi boshlig'i, a'zo
X. Jumaev	Tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i, a'zo
B. Xushboqov	Energetika va transport tizimlari fakulteti dekani, a'zo
F. Eshqurbonov	Yengil sanoat va kimyo texnologiyalari fakulteti dekani, a'zo
Q. Bobomuradov	Elektr energetika kafedrasi mudiri, a'zo
A. Allanazarov	Umumkasbiy fanlar kafedrasi mudiri, a'zo
O. Ochildiyev	Kimyo va ekologiya kafedrasi mudiri, a'zo
S. Xo'jamqulov	Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyalari kafedrasi mudiri, a'zo
V. Sakbayeva	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, a'zo
O'. Sultonova	Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, a'zo
L. Eryigitova	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi mudiri, a'zo
F. Baxramov	Transport tizimlari va texnologik mashinalar kafedrasi mudiri, a'zo
M. Karimov	Transport inshootlari va avtomobil yo'llari kafedrasi mudiri, a'zo

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda PQ-30-son "Termiz muhandislik-texnologiya instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ilmiy faoliyatni rivojlantirish, ilmiy ishlarning natijadorligini ta'minlash, professor-o'qituvchilar va xodimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb etish, Web of Science, Scopus, Google Scholar kabi xalqaro ma'lumotlar bazalarida ilmiy maqolalarni chop etish va iqtiboslik darajasini oshirish, amaliy, fundamental va innovasion tadqiqotlar mavzularini hududiy va ishlab chiqarish sohalari muammolarini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish, xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarda muntazam ravishda ishtirokini ta'minlash" belgilab quyilgan.

Faoliyatini boshlaganiga besh yil bo'lgan institutimizda 130 dan ortiq professor-o'qituvchilar 65 nafar magistrant va 4261 nafar talabalarga tahsil berish bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarida ustoz shogird tizimi tashkil qilingan hamda yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Institut miqyosida ilk bor tashkil etilayotgan anjuman o'z oldiga iqtidorli yoshlarni tanlash, ularga shart-sharoit yaratish, ilmiy izlanishlarga keng jalb etish maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birgalikda institutda muhandis-texnolog kadrlar tayyorlanishini hisobga olgan holda eng yaxshi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, iqtidorli ixtirochi, injener-konstruktor, dasturchi, rasionalizatorlarni tanlash hamda keyingi bosqichga yo'naltirish anjumanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Texnika va texnologiya yo'nalishlarida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlar, zamonaviy texnologiyalar, fan sohalaridagi muammo va echimlarni muvaffaqiyatli qilishga bag'ishlangan anjuman tarmoqning yanada rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Anjumanda ishtirok etish istagini bildirgan xorijiy mutaxassislariga alohida minnatdorchilik bildirgan holda ularni tegishli sohalar bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalariga chorlab qolamiz.

O'ylanmanki, institutimizda ilk bor o'tkazilayotgan anjuman ilmiy izlanishlardagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ilmiy tadqiqot ishlarini amaliyotga joriy etish bilan birgalikda yoshlarning iqtidorini namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Eng asosiysi institut rahbariyatining kelgusidagi talaba yoshlar va yosh o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda muhim yo'nalishlarni belgilab beradi.

Institut rahbari sifatida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, ushbu anjuman orqali eng kamida bir nafar talabani ilmga yo'naltira olgan bo'lsak oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimizga erishdik deb hisoblashimiz mumkin.

Institut rektori

O'ral Axmedov

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ SMART-ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

Абдирахмонов И. С- ТМТИ студент

Аннотация. В статье рассматривается использование умных технологий среда обуче-ния. Вопросы использования умных устройств в учебном процессе процесс, инновационные методы визуализации образовательных данных и в дизайне создание интерактивной аудитории. Предлагается технически реализовать взаимодействие датчиков и исполнительных механизмов через систему беспроводной связи интерактивной обучающей среды.

Ключевые слова: активизация обучения, smart-технологии, интернет вещей(IoT), планшет, датчики, сенсорные сети, компьютер.

Вобразовательном процессе происходят инновационные изменения в использовании преподавателями на занятиях новых педагогических технологий иметодик.

Современный преподаватель связывает свои творческие устремления с новым исредствами обучения, которые направлены на выявление и развитие творческих возможностей обучающихся. Новые подходы визуализации учебного материала способствуют положительной мотивации в процессе обучения.

Современное общество можно назвать новым Smart-обществом, в котором происходит создание с помощью современных информа-ционных и организационных систем новой интеллектуальной, высокотехнологичной, комфортной для человека среды образования.

Smart-устройства в образовании. Использование электронных устройств в образовательном процессе вызывает интерес обучающихся. Работа с электронными устройствами имеет ряд преимуществ. Преподавательна занятиях может отправлять материалы на планшеты, открывать доступ в Интернет, проводить практические работы.

Интерактивная аудитория. Методология подачи информации развивается сточки зрения использования современных технологий. Системы дистанционного управления предоставляют функционально контролировать производительность электронных технических устройств (машин, приборов, инструментов) при отсутствии непосредственного контакта с ними. Смартфон обладает мно жествомразличных интерфейсов, которые можно использовать в связке с цифровыми устройствами и интернет-вещами. Технология интернет-вещей связана с радиочастотой идентификацией - RFID и беспроводными сенсорными сетями. Применение данной системы - одно из

современных решений автоматизации различных структур, в нашем случае образовательных (рис. 1)



Рис-1. Устройства интерактивной аудитории.

задействованы в обеспечение учебного процесса на новом уровне интерактивной аудитории. Освещение. В аудитории может быть настроено светодиодное освещение с датчиками освещенности помещения, регулируемые жалюзи, датчики движения, входящие в систему управления через смартфон.




рис-2. Управление датчиками в аудитории

Преподаватель с помощью цифрового интерактивного устройства может управлять освещенностью в аудитории, работой планшетов, компьютеров и проекторов. Элементы и системы дистанционного управления цифровыми мультимедийными устройствами могут быть задействованы в обеспечение учебного

Датчики движения способствуют повышению эффективности использования электроэнергии; датчики освещенности, применяемые в аудиториях, могут переключаться с искусственного освещения на естественное посредством замера света в аудитории и регулирования работой жалюзи. Преподаватель также будет иметь доступ к управлению элементами аудитории с помощью RFID, беспроводных сетей; система имеет возможность синхронизироваться с

облачным пространством.

Датчики освещенности, входящие в систему в комплексе аппаратно-программных средств, связаны с элементами автоматики и робототехники, например Intel Edison, применяющий USB-интерфейс (рис. 3).

Электричество и розетки. Использование цифровых розеток поможет повысить техническую безопасность всего здания и защиту от различных несчастных случаев, например, учебные стенды, в которых идут работы непосредственно с электрическим током. С помощью цифровой системы освещения, на базе платы Intel Edison, можно управлять мультимедийными устройствами через сенсорную сеть.




Схема подключения датчика освещенности к автоматизированной системе робототехники Intel Edison. (Рис-3)

Заключения. Мультимедийная система позволяет проводить семинары и лекции на новом технологическом уровне. Проектирование системы **интернет-вещей для интерактивной аудитории**, применение инфографики и smart-технологий на сегодняшний день являются неотъемлемым элементом обеспечения современного образовательного процесса.

Список литературы:

1. Борисенко И.Г. Виртуальные тенденции в глобальном образовательном пространстве: smart-технологии // Философия образования. - 2015. - № 3 (60). - С. 55 – 64
2. Семенов О.Ю. Компетентностный подход в проблемном обучении на уроках физики // Образование. Технология. Сервис. -2012.-Т.1.-№1 (3). - С. 201 – 205
3. Иванченко Д.А. Управление мобильными технологиями в информационном пространстве современного вуза // Высшее образование в России. - 2014. - № 7. - С. 93–100.
4. Ганиев М.И., Дёмко А.И., Семенов О.Ю., Шафикова А.Ф. Моделирование передачи данных с применением технологии ортогонального частотного мультиплексирования // Научный потенциал молодежи и технический прогресс: материалы II Междунар. науч.-практ. конф. – СПб.: СПбФ НИЦ МС, 2019. – С. 69 - 71.

5. Гриншкун В.В. Взаимосвязь компьютерной техники, датчиков и исполнительных устройств в рамках реализации основных принципов «умной аудитории» // Вестник РУДН. Сер. «Информатизация образования». - 2016. - № 1. - С. 42-46.

6. Usenkov N.O., Semenov O.Yu. Smartfon yordamida Bluetooth orqali elektron qurilmalarni boshqarish // 60-parallel fani: XXII ochiq hududning tezislari. stud. ilmiy konf. ular. G.I. Nazina. Surgut, 2018 yil 4 aprel - Surgut: ITs SurGU, 2018. - P. 255, 256.

TRANSPORT TUNNELLARINI TA'MIRLASH VA SAQLASH. TUNNELNI SUN'IY SHAMOLLATISH, YORITISH.

Abduraxmonov.A.M – TMTI talabasi

Tunnellar uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan eng ma'suliyatli, murakkab va qimmatbaho sun'iy inshootlarga tegishlidir. Tunnellar va ularda mavjud qurilmalarni joriy saqlanishining asosiy ta'moyili transportlarning to'xtovsiz harakatlanishini ta'minlaydigan soz holatda doimiy tutib turishdan iborat. Bunga tunnellar va ularning qurilmalari ustidan doimiy nazorat, inshootlar ayrim elementlarining xizmat muddatlarini cheklaydigan nuqsonlarni aniqlash va ularning sabablarini o'rganish, hamda ularni iloji boricha qisqa muddatlarda bartaraf etish, transport harakati uchun xavfsiz bo'lgan yanada yirikroq va jiddiyroq deformatsiyalar- ning rivojlanishidan ehtiyot bo'lish orqali erishiladi.

Tunnelning asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyasi – obdelka – tog' o'yig'ini qotiradi va ta'sir etayotgan barcha yuklarni o'ziga qabul qiladi, uning foydalanishdagi shart-sharoitlari o'ta murakkab va ko'p qirralidir. Obdelkaning yuk ko'tarish qobiliyati uni o'rab turgan jinsning bosimiga mos kelishi, obdelkaning materiali esa uning uzoqqa chidamliligini ta'minlamog'i lozim. Tunnel obdelkasining ekspluatatsion va statik ish sharoitlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar 4 guruhga ajratilishi mumkin. Tashqi tabiiy sharoitlar (geologik, gidrogeologik, iqlimiy sharoitlar va seysmik ta'sirlar) tunnel inshooti holatiga kuchli ta'sir etadi. Istalgan tog' o'yig'ida ko'chkilar, siljimalar, o'ta cho'kishlar vujudga kelib, inshootda deformatsiya va nuqsonlarni paydo qiladi.

Ushbu hodisalar relyef, qoplama qatlam qalinligi va xususiyati, jinsning ichki ishqalanishi va yopishuvchanligi, yer osti suvlarining yo'sini, sirpanish sirtlarning hamda massivda karst bo'shliqlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Ko'pincha, tunnel qurilgunigacha barqaror turgan massiv ekspluatatsiya jarayonida tunnel o'yig'iga hamda drenaj inshootlariga ko'p suv oqib kelishi oqibatida siljiy boshlaydi. Foydalanishdagi tunnellarini diagnostika qilishda, shikastlanishlar xususiyatini ochishdan tashqari, nuqsonlarning rivojlanish darajasini ham aniqlash va ularni

bartaraf qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni belgilab olish zarurdir. Tunnellar me'yoriy ekspluatatsiyasiga ta'sir etadigan asosiy omillar, ularning paydo bo'lish sabablari va inshoot hola- tini baholash jadval shaklida keltirilishi va tunnel kitobiga sanab o'tilgan nosozliklar ularning xususiyati va hajmiga bog'liq holda joriy ta'mirlash jarayonida ham, kapital ta'mirlash, qayta tiklash yoki rekonstruksiya jarayonida ham bartaraf etilishi mumkin. Nuqsonlarning indeksatsiyasi va belgilanishi inshoot holati to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olish imkonini beradi. Tunnel inshootlari ustidan texnik nazoratning asosiy vazifasi – obdelkalar va yo'ldagi suv qochirish hamda tunnel uskunalari- da har qanday nosozliklarni paydo bo'lishining oldini olish, ushbu nosozliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni oshkor qilish va ularni tezlikda bartaraf etishdir. Texnik nazorat va kuzatuvlarning to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan boshqaruv va nazorat yo'l masofasi boshlig'i zimmasiga yuklatiladi.

Tunnellarning geometrik ko'rsatkichlari va konstruktiv xossalari (uzunligi, ko'ndalang kesimi, rejasi, bo'ylama profili, obdelkasi, portali, tuynuklarining materiallari va konstruksiyasi, gidroizolyatsiyasi, suv qochirish va drenaj inshootlari va h.k.) avtoyo'l tunnellarini ekspluatatsiya qilish sharoitlari uchun juda muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy ventilyatsiyaga ega tunnelning shamollatish shartlari asosan uning geometrik ko'rsatkichlariga bog'liqdir. Tunnel qanchalik uzun bo'lsa, shunchalik havo almashinishi qiyinlashib, zararli gazlarning obdelka materialiga ta'siri shunchalik shiddatli bo'ladi.

Yer osti sun'iy bo'shliqlariga tushayotgan havo tarkibi sun'iy bo'shliqni o'rab olgan muhit va qurilish jarayoni ta'sirida sezilarli darajada o'zgaradi. Temiryo'l va avtomobil yo'llari tunnellaridan foydalanish jarayonida dvigatellarda yonilg'i yonishidan hosil bo'lgan katta miqdordagi quyidagi zararli gazlar ajralib chiqadi:

- karbonat angidrid gazi - CO_2 ;
- uglerod oksidi - CO ;
- metan gazi - CH_4

Tunnel havosi odatda ortikcha namlangan va yuqori haroratga ega bo'ladi. Ishlayotgan mashina va mexanizmlar, yoritish jihozlari va tunneldagi odamlar ham issiklik chiqaradi. Ba'zi hollarda tunnellarda yer osti gazlari ajralib chiqishi mumkin.

Tunnelni shamollatishdan maqsad:

- tunnel havosi tarkibini me'yoriy holatga maksimum yaqinlashtirish;
- zararli gazlar va yuqori harorat yo'l va ta'mirlash ishlarini bajaruvchilarga ta'sirini kamaytirish;
- tunneldagi ko'rinishga ta'sir qiladigan tutun bosimini yo'qotish.

Me'yoriy ish sharoitini ta'minlash uchun sun'iy bo'shliqdagi xavo tarkibidagi kislorod 20% dan kam bo'lmashligi, karbonat angidrid gazi esa 0,5% dan oshmasligi lozim. Eng xavfli gaz - bu uglerod oksidi SO dir.

Xavoda uning tarkibi kamayishi bilan bir vaqtda tunnelni tutun bosimi kamayadi, harakatdagi qo'rinish yaxshilanadi. Shamollatish xajmi tunneldagi qulay harorat holati (+2°S dan baland, +25°S dan past)ni ta'minlash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Tunnellarning yaxshi yoritilganligi ulardan to'g'ri foydalanishning zaruriy shartlaridandir. Yorituv hizmat ko'rsatuvchi xodimlarning o'tishi uchun yetarlicha ko'ra olish imkonini, ta'mirlash ishlarini va ekspluatatsion nazoratni amalga oshirishda xavfsiz sharoitlarni ta'minlashi kerak. Barcha avto- yo'l tunnellari umumiy yorituvga hamda ta'mirlov ishlarini va ko'riklarni amalga oshirishda mahalliy ko'chma yorituvni qo'shish uchun jihozlarga ega bo'lishi kerak. Faqatgina uzunligi to'ppa-to'g'ri uchastkalarda 300 m dan kam hamda egri uchastkalarda 150 m gacha bo'lgan tunnellardagina yaqin o'rtada elektr- energiya mavjud bo'lmaganidasun'iy yorituvni o'rnatmaslik mumkin.



Xulosa

Barcha avto – yo'l tunnellari umumiy yorituvga hamda ta'mirlov ishlarini va ko'riklarni amalga oshirishda mahalliy ko'chma yorituvni qo'shish uchun jihozlarga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гидроэлектростанции малой мощности. Под ред. В.В. Елистратова. - Санкт- Петербур, СПбГПУ, 2005, 431с.
2. Muxammadiev M.M., Nizomov O.X. Gidroturbinalar. O'quv qo'llanma.- T., 2006, 152 bet.

3. Губин Ф.Ф., Кривченко Г.И. Гидроэлектрические станции - М., Энергия, 1980, 367 ст.

4. Muxammadiev M.M. Gidroenergetikaga kirish. Ma'ruzalar matni. ToshDTU, Toshkent, 2006, 71 bet.

ЎЛЧАШ ВОСИТАЛАРИНИНГ МЕТРОЛОГИК ТАЪМИНОТИ МУАММОЛАРИ

Абдухолиқов А.У.- ТМТИ ассистенти

Мелиев Т.М.- ТМТИ талабаси

Аннотация. Ушбу мақолада метрологик таъминотнинг асосий вазифалари ва корхоналарда ўлчаш воситаларини танлашда юзага келаётган муаммолар тўғрисидаги маълумотлар таҳлил қилинган. Муаммоларни бартараф этиш учун таклифлар берилган.

Аннотация. В данной статье анализируются данные об основных задачах метрологического обеспечения и проблемах, возникающих при выборе средств измерений на предприятиях. Были внесены предложения по решению этих проблем.

Annotation. This article analyzes data on the main tasks of metrological support and the problems that arise when choosing measuring instruments at enterprises. Proposals were made to solve these problems.

Бутун дунё йиллар давомида иқтисодий ўзгаришлар шароитда яшамокда. Шу вақтлар ичида ишлаб чиқариш ҳолати сезиларли даражада ўзгарди ва унинг мақсадлари ва вазифалари ҳам ўзгарди. Бундай шароитда ҳеч ким ишлаб чиқаришнинг турли тармоқларида ўлчаш воситаларини ўрни, яъни метрологик таъминлашнинг мақсади, вазифалари ва ролини қайта кўриб чиқиш зарурлигига шубҳа қилмайди.

Метрологик таъминот асосий вазифаси уни тўғри бошқариш орқали ўлчаш усули, ўлчаш воситаси, ўлчаш жараёни ва ўлчаш натижаларини таҳлилини тўғри қўллаш билан керакли аниқликка эришилади ва натижалар ижобий чиқишини таъминлайди. Ҳар қандай технология, жамиятнинг ўсиб бораётган эҳтиёжлари ва имкониятлари билан боғлиқ ўзгаришларни бошдан кечирмокда. Бу эса метрологияга ва унинг таъминот учун ҳам янгидан янги талабларни қўймоқда. 20-аср охириларида бошлаб ишлаб чиқарилаётган жиҳозларда ўлчаш воситалари ва датчиклари сони ҳар йили бир неча фоизга кўпайиб борди. Битта техник мажмуада ўтган ўн йиллар давомида ўлчаш датчиклари сони бир неча маротаба кўпайди: уларнинг минглаб қисми самолётда ва ракетада, ўнлаб мингтаси эса бир қатор корхоналарда бор.

Метрологик ишларнинг меҳнат интенсивлигини сақлаб қолган ҳолда, операцион харажатлар тез ўсиб бормоқда.

Бироқ рақобат уларни камайтиришга, ускуналарнинг ишлаш жадаллигини оширишга мажбур қилади. Ўлчаш воситасини ўрнатишдан уни калибрлаш интервали келганда олиб, метрологик лабораторияга етказиб беришни, сўнгра калибрлашдан кейин уларни асл жойига қайтаришни кўзда тутадиган процедура тобора қийинлашиб бормоқда.

Бугунги кунда саноатининг энг муҳим мақсадларидан бири бу янги замонавий технологияларини ишлаб чиқиш ва яратиш, яъни ҳар бир давлатнинг ички ва ташқи бозорда талабга эга ва рақобатбардош юқори сифатли, юқори технологик маҳсулотни яратиш ва ишлаб чиқаришдир. Бунга эришиш учун сўнгги йилларда ривожланган давлатларда ишлаб чиқаришнинг барча тармоқлари учун катта молиявий ресурслар ажратилмоқда. Барча давлатларнинг саноат маҳсулотларининг сифати муаммоси ишлаб чиқаришни метрологик таъминлаш билан бевосита боғлиқдир, чунки бу ҳар қандай ишлаб чиқариш корхонасининг сифат тизимининг асосини метрологик таъминот ташкил этади.

Замонавий корхоналар ва ташкилотлар ўз ресурсларини узлуксиз сифатни яхшилаш ва технологияларни модернизация қилишга қаратмоқда. Сифатни таъминлаш мутахассисларнинг ижодий салоҳияти ва амалий тажрибасини бирлаштиришни талаб қилади. Корхоналар ва ташкилотлар ўз мижозларини сақлаб қолиш учун мавжудлик ва сотувдан кейинги хизматни тақдим этишлари керак, чунки замонавий истеъмолчи маҳсулот танлашда камчиликларни кўрсатиб ўтмоқда. Сифат маҳсулотнинг тавсифлари ва хусусиятлари мажмуи сифатида унинг фойдаланиш ва мақсадга мувофиқлигини белгилайди. Бу хусусиятлар мижозларнинг талабларига қараб маҳсулот яратишда шаклланади. Сифат талаблари меъёрий ва меъёрий-техник ҳужжатлар, давлат ва саноат стандартлари; маҳсулотларни лойиҳалаш ёки модернизация қилиш бўйича техник шартлар ва техник вазифалар; чизмалар ва технологик хариталар; технологик регламентлар ва назорат хариталари ва бошқа ҳужжатларда белгиланган [1].

Бизга маълумки, корхона ишлаб чиқариш жараёни, тайёр маҳсулот ва хизматлар сифатини назорат қилишда турли усуллардан фойдаланилади. Масалан: тажриба, органолептик, статистик, эксперт ва бошқалар. Ушбу мақолани таҳлил қилиш ва тайёрлашда метрологик ишларни амалга оширувчи ишлаб чиқариш, саноат ва илмий лабораторияларнинг метрологик таъминоти масалаларини ёритишда статистик таҳлил усулларида кенг фойдаланилди. Яъни ишлаб чиқариш жараёнларида, синов ва илмий лабораторияларда ва ўлчашлардаги камчиликлар сабабли юзага келаётган нуқсонлар ва ушбу

камчилик ва нуқсонларни бартараф қилишда метрологик таъминот ўрни кўрсатиб ўтилди.

Узоқ муддатли механизмларга бўлган эҳтиёж, шунингдек, кўп йиллар давомида инсон аралашувисиз ишлаши керак бўлган воситаларни, шу жумладан интеллектуал воситаларни яратиш билан боғлиқ. Метрологик таъминот яъни ўлчаш воситаларининг ишчи ҳолатини таъминлаш вазифаси долзарб бўлиб қолмоқда.

Бироқ, датчикларнинг узоқ муддатли ишлаши билан таъсир қилувчи омилларнинг роли ортади, уларнинг оқибатлари тўпланади (материалларнинг маънан эскириши, ташқи таъсирларнинг кўпайиши, магнит хусусиятларининг ўзгариши ва бошқалар.), ва метрологик носозлик хавфи ортади.

Айниқса, транспортда, шунингдек, энергия талаб қиладиган ва хавфли соҳаларда ишлатиладиган асбоб-ускуналарни назорат қилишни автоматлаштириш метрологик муваффақиятсизликнинг аҳамиятини ва шунга мос равишда ўлчаш маълумотларининг ишончилигига бўлган талабларни оширади.

Хитойлик мутахассисларнинг маълумотига кўра, саноатдаги нуқсон ва аварияларнинг 60% гача датчиклардаги нуқсонлардан келиб чиқади. Асбоб-ускуналарнинг эскиришини камайтириш ва нуқсон ва авариялар хавфини камайтириш учун ўлчаш воситаларининг метрологик хизмат кўрсатувчанлиги тез - тез текширилиши ва ускуналарнинг ишлаш самарадорлигини ошириш-иложи борица камдан-кам ҳолларда бўлиши керак.

Бунинг учун метрологик таъминот масалалари билан шуғулланувчи ташкилотлар, илмий, ишлаб чиқариш ва саноат корхоналарининг лабораторияларини таъминотини назорат қилиш ва уларни керакли ўлчаш воситалари билан таъминлаш талаб этилади. Аммо бу ерда ҳам муаммолар юзага келади метрологларнинг ҳар бири лаборатория учун сотиб олинаётган учун етказиб берувчи томонидан реклама қилинган қурилма сотиб олинган вазифаларни самарали ҳал қила олмаган бўлса, ўлчаш воситасини сотиб олиш билан салбий натижалар юзага келади. Яъни олинган ўлчаш воситаси керакли вазифаларга тўлақонли мос келмаслиги мумкин. Бу эса ушбу соҳага тегишли мутахассисларга катта масулият юклайди. Ҳозирги кунда айрим асбоб-ускуналар сотиб олаётганда корхоналар ҳеч қачон талабга жавоб бермайдиган қўшимча вариантлар учун кўп пул тўлайди. Кўпинча янги сотиб олинаётган қурилмаларда мунтазам керакли муҳитни таъминлашни ташкил этиш билан боғлиқ қийинчиликлар бўлади.

Бизнинг тажрибамиз шуни кўрсатадики, бу муаммоларнинг аксарияти янги ўлчаш асбобини сотиб олиш тўғрисида қарор қабул қилиш босқичида вазифа аниқ шакллантирилмаганлиги, уни ҳал қилишнинг барча усуллари

ҳақида тўлиқ маълумот тўпланмаган ва батафсил техник вазифа тайёрланмаганлиги билан изоҳланади. Бу муаммо, аввало, корхоналарда мутахассислар ўртасида қарор қабул қилиш учун зарур маълумотларнинг йўқлиги билан боғлиқ. Бугунги кунда кўпгина корхоналардаги лабораториялардаги ўлчаш ускуналарининг аксарияти 25 йилдан ортиқ хизмат муддатига эга, метрологларнинг кўпчилиги илғор ўлчаш усуллари ва замонавий қурилмаларнинг реал имкониятлари ҳақида етарли маълумотга эга эмас. Бу ҳолат асосан реклама мақсадида етказиб берилган асбоб-ускуналар ҳақида маълумот берувчи, кўпинча улар сотадиган асбоб-ускуналар имкониятларидаги чекланишларни эслатиб ўлчаш воситаларини ишлаб чиқарувчилар ва етказиб берувчилар томонидан қўлланилади. Катта ҳажмдаги реклама ойнасида қурилманинг реал хусусиятларини кўриш қийин. Кўпинча, чиройли пакетда етказиб берувчи "охирги ютуқ сифатида" эскирган ускуналарни таклиф қилади.

Агар биринчи бор кўрган янги асбоб ва ускуналар бўйича ҳеч қандай маълумотга эга бўлмасангиз, ўлчаш воситаси барча имкониятларини, унинг иш хусусиятларини баҳолаш деярли мумкин эмас, бундан ташқари, у қандай самарадорликка эга бўлади баҳолаш қийин.

Келтирилган маълумотларни таҳлил қилиш асосида метрологик таъминот ва лабораторияларга ўлчаш воситаси ва ускуналарни танлашда метрологлар олдида катта вазифалар қуйилмоқда. Ҳозирги кунда фан-техниканинг ривожланиши асосида интеллектуал ўлчаш воситаларини ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланишда уларнинг таркибий қисмларини билиш ва ундан фойдаланиш талабларига риоя қилиш муҳим ҳисобланади. Лабораториялар учун олинаётган ўлчаш воситалари танлашда алоҳида бир нарсага тўхталиб ўтиш зарур. Яъни баъзи ўлчаш воситалари ва лаборатория ускуналари дастурий таъминотини янгилаб бориш талаб этилади. Бунда айрим вақтларда ишлаб чиқарувчи томонидан берилган кодлар ва пароллар керак бўлиши мумкин. Бу эса мутахассисларни хушёр бўлишини талаб этади. Демак вақт ўтиши билан метрологик таъминот доирасидаги ўлчаш воситалари метрологик ўз-ўзини кузатиш билан ўлчаш воситаси анъанавий факторларни сезиларли даражада алмаштиради. Мунтазам метрологик процедуралар қисқаради, аммо янги ўлчаш воситасини ишлаб чиқишда иштирок этувчи юқори малакали метрологларга эҳтиёж ортади.

Адабиётлар

1. Тарбеев Ю.В., Кузин А.Ю., Тайманов Р.Е., Лукашев А.П. Новый этап в развитии метрологического обеспечения датчиков.// Измерительная техника. - 2007. - №3. - С.69.

2. Александров В.С., Тайманов Р.Е., Чуновкина А.Г. Проблемы метрологического обеспечения компьютеризированных средств измерений. //Датчики и системы. - 2009. - №12 - С.55.

ENERGETIKA SOHALARIDAGI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

Avazova.B.T - TMTI assistenti

Cho'tboyev.F.S – TMTI talabasi

Tayanch so'zlar: Texnologiya, transformatsiya, innovatsiya, standart, ko'nikma, iste'molchi, malaka.

Jahon energetika tizimida iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortib borayotganligini ta'minlash, to'rtinchi sanoat inqilobi natijasida erishilgan imkoniyatlardan foydalanish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir ko'rsatish va shu bilan bog'liq ravishda elektr energiyasiga bo'lgan talab xususiyatlarining sifat jihatidan o'zgarishi nihoyatda dolzarb bo'lib bormoqda. So'nggi yillarda innovatsiyalarning umumiy sur'ati oshdi, energetika sohasidagi innovatsiyalar uzoq muddatli murakkab muammoga aylandi. O'zbekiston elektroenergetika sanoatini raqamlashtirish sanoatni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biridir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi innovatsiyalarning mavjud tasniflarini elektr energetika nuqtai nazaridan ko'rib chiqish va O'zbekiston elektroenergetika sanoatiga innovatsiyalarni joriy etish qanday sifat va miqdoriy ta'sir ko'rsatishini aniqlashdir.

Birinchi marta texnologiya o'zgarishi va bozor o'zgarishlari bilan bog'liq elektr energetikasi innovatsiyalari turlarining tasnifi taklif qilindi. Har bir innovatsiya turining ta'siri ham hisoblab chiqiladi.

Energiya innovatsiyasi - bu foydalaniladigan energiya resurslari xilma-xilligini oshiradigan, energiya tizimlarining ishonchliligini oshiradigan, ishlab chiqarish va tarqatish bilan bog'liq iqtisodiy, ekologik va siyosiy xarajatlarni kamaytiradigan yangi yoki mavjud texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladigan jarayonlar to'plami [1]. Mualliflar energiya texnologiyalari innovatsiyasini to'rt toifaga ajratadilar: innovatsion siyosat, innovatsion resurslar, innovatsion jarayon va innovatsion tashkilot.

Energiya texnologiyalari innovatsiyasi - bu bozor ulushida va yangi energiya texnologiyalarining tarqalishi bilan bog'liq boshqa omillarda aks ettirilgan jarayon. Jarayon texnologiya ixtirosi bilan boshlanadi va uning tarqalishi bilan tugaydi [1]. Energiya innovatsiyalarining tarqalishi energetik innovatsiyalarni tijoratlashtirishda muhim rol o'ynaydigan ko'rgazmali loyihalarni anglatadi [2]. Elektr energetikasidagi texnologiyalarning yangilik darajasi ularni taqsimlashda asosiy rol o'ynaydi [3].

Energetika sohasidagi innovatsiyalar texnologiyadagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq, ammo bu sanoatda mumkin bo'lgan yagona innovatsiya turi deb bahslashmaslik kerak. Elektr energetika sanoati va elektr energetika kompaniyalari bozor muhitidagi o'zgarishlar tufayli tashkiliy innovatsiyalarni joriy etish bilan o'zgarib bormoqda [4.5].

Energetika sohasidagi innovatsiyalarning nazariy asoslarini o'rganish qo'shimcha tasniflashni talab qiladi, chunki energetika sohasidagi texnologik innovatsiyalar ikki tomonlama mohiyatga ega. Bir tomondan, energiya ishlab chiqarish omili sifatida ma'lum qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish omilidir [6]. Boshqa tomondan, energiya transformatsiyasi innovatsion jarayonning bir qismi bo'lib, buzg'unchi innovatsiyalarni yaratadi [7].

"Innovatsiya" tushunchasi va innovatsiyalarning tegishli tasnifi adabiyotda turli nuqtai nazarlardan faol ko'rib chiqiladi [8]. Umumjahon tasnifida innovatsiyalarning quyidagi turlari ajratiladi:

Mahsulot innovatsiyalari - bu kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning xususiyatlaridagi sezilarli o'zgarishlar. Bu ilgari mavjud bo'lmagan tovarlar va xizmatlar yoki sezilarli yaxshilangan mahsulotlar bo'lishi mumkin;

Jarayon innovatsiyalari mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va etkazib berish usullaridagi sezilarli o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi;

Tashkiliy innovatsiyalar - tadbirkorlik amaliyotida, ish joylarini tashkil etishda, shuningdek, tashkilotning tashqi aloqalarida innovatsiyalar;

Marketing innovatsiyalari - mahsulot dizayni va qadoqlash, joylashtirish, narxlash usullaridagi o'zgarishlar [9].

Innovatsiyalar yangilik darajasiga ko'ra tasniflanadi:

Kompaniyaning unumdorligini sezilarli darajada oshirishi yoki mavjud texnologiyalarning ish faoliyatini yaxshilashi mumkin bo'lgan, lekin katta o'zgarish bo'lmagan qo'shimcha innovatsiyalar;

Yuqori darajadagi noaniqlik bilan bog'liq va noyob xususiyatlarga ega yangi mahsulot xizmatni yaratishni ta'minlaydigan radikal innovatsiyalar;

Yangi texnologik tizimlar - umumiy texnologik bazaga ega bo'lgan va xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan innovatsiyalar majmuidir. Bu innovatsiyalar mahsulot va xizmatlardagi tub va qo'shimcha innovatsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin;

Texnik va iqtisodiy paradigmadagi o'zgarishlar (texnologik inqilob) uzoq muddatli innovatsiyalar bo'lib, iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlariga ta'sir ko'rsatadigan texnologiyaning tubdan o'zgarishiga olib keladi, yangi bozorlarni yaratishga olib keladi [10].

Elektr energetikasi haqida gapirganda, tovar sifatida elektr energiyasining o'ziga xosligini hisobga olish kerak: har qanday vaqtda uning iste'moliga teng

miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarilishi kerak [11]. Texnologiya tashkilotning raqobatbardoshligi va samaradorligida muhim rol o'ynasa ham, muvaffaqiyatning yagona omili emas [12]. Innovatsiya va texnologiya o'rtasidagi bog'liqlik aniq.

Innovatsiya murakkab jarayonning natijasi bo'lishi va uning strategik talablariga mos keladigan imkoniyatlar to'plamiga bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu imkoniyatlar to'plami innovatsion qobiliyatni shakllantiradi, bu firma boshqa firmalar bilan raqobat qilish uchun muhim bo'lgan yangi mahsulotlar va yangi jarayonlarni tezda joriy etish qobiliyatida ifodalanadi [13].

Tashkilot o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga qarab texnologik, operatsion, boshqaruv va tranzaksion innovatsiyalardan foydalanishi mumkin. Ushbu innovatsiyalarni boshqarish va u yoki bu turdagi innovatsiyalar bilan bog'liq ta'sirlarni aniqlash masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Elektr energetikasida ro'y berayotgan o'zgarishlarga muvofiq, P.A.Zavislak tasnifini moslashtirish taklif etiladi. [14]

Elektr sanoatida texnologik innovatsiyalar elektr energiyasini tovar sifatida ishlab chiqarish usulini o'zgartirmoqda. Innovatsiyalar - bu quyosh energiyasi, shamol va boshqalardan elektr energiyasini ishlab chiqarish imkonini beruvchi texnologiyalar. Texnologik innovatsiyalar taqsimlangan ishlab chiqarish potentsialini oshiradi, masalan, Daniyada taqsimlangan kogeneratsiyaning rivojlanishi elektr energiyasini iste'mol qilishni 11% ga kamaytirishga, shuningdek CO₂ chiqindilarini yiliga 4,5 million tonnaga kamaytirishga imkon berdi.

Jarayon yangiliklari elektr ta'minoti jarayonini yaxshilaydi. Masalan, "aqlli" hisoblagichlar iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun to'lovlar shaffofligini oshirish, elektr energiyasi iste'moli darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni onlayn rejimda olish, hisoblagichsiz elektr energiyasi iste'molini aniqlash imkonini beradi.

Boshqaruv innovatsiyalari elektr energiyasini o'zlari ishlab chiqarishga va ortiqcha elektr energiyasini bozorga sotishga qodir bo'lgan yangi turdagi elektr energiyasi iste'molchilarining shakllanishi munosabati bilan elektr energetikasi uchun dolzarbdir. Boshqaruv innovatsiyalari iste'molchilarni rag'batlantiruvchi to'lovlarga javoban elektr energiyasini iste'mol qilish jadvalini odatdagi iste'mol profilidan o'zgartirishga rag'batlantirish uchun talabni boshqarish tizimlarini o'z ichiga oladi. Energiyani tejash tizimlari turar-joy binolarida ham, ofis va sanoat binolarida ham energiya tejash texnologiyalaridan foydalanish orqali energiya sarfini boshqarish imkonini beradi.

Transaksion innovatsiyalar etkazib beruvchilar va mijozlar bilan munosabatlarning tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirish uchun mo'ljallangan. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan innovatsiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda "aqlli" tarmoqlar turli sub'ektlar: iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar, tarmoq

kompaniyalari va boshqalar o'rtasida ochiq o'zaro hamkorlikni ta'minlaydigan elektr energiyasi bozorining yangi modelining asosi hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya rivojlanish uchun katta imkoniyatlar ochadi va elektroenergetika sanoati uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Elektr energetikasi sohasidagi innovatsiyalarni tasniflash kompaniya rahbarlariga u yoki bu turdagi innovatsiyalarni joriy etish to'g'risida ko'proq asosli qarorlar qabul qilish, shuningdek ularni amalga oshirishning mumkin bo'lgan oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Elektr energetikasiga innovatsiyalarni joriy etish nafaqat mavjud tizimlarning shaffofligi va nazorat qilinishini oshirish, balki uzoq muddatli istiqbolda yuqori iqtisodiy samarani ham ta'minlaydi.

Ushbu tadqiqotning cheklovi ba'zi ta'sirlarni taxminiy baholashdir, chunki innovatsiyalarning alohida komponentlari tartibga soluvchi organlar va konsalting kompaniyalari tomonidan sanoat hisobotlarida ta'kidlanmagan.

Kelajakda tadqiqotchilar innovatsiyalarning qo'shimcha kichik turlarini aniqlashlari va aniqroq ma'lumotlar mavjud bo'lsa, amalga oshirish samarasini hisoblashlari mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Gallagher, K. S., Holdren J.P., Sagar A.D. (2006). Energy-Technology Innovation // Annual Review of Environment and Resources. Vol. 31. P. 193-237.

<https://doi.org/10.1146/annurev.energy.30.050504.144321>.

2. Lefebvre L.A., Lefebvre E. (1993). Competitive positioning and innovative efforts in SMEs // Small Business Economics. Vol. 5, N 4. P. 297-305. <https://doi.org/10.1007/BF01516250>.

4. Trachuk A.V. (2010 b). Riski rosta kontsentratsii na rynke elektroenergii // Energorynok. № 3. S. 28-32.

5. Trachuk A.V. (2011 a). Razvitie mekhanizmov regulirovaniya elektroenergetiki v usloviyakh ee reformirovaniya // Ekonomika i upravlenie. № 2 (64). S. 60-63. (2011 b). Reformirovanie estestvennykh monopolii: tseli, rezul'taty i napravleniya razvitiya. M., 2011.

6. Hicks J.R. (1932). The Theory of Wages. London: Macmillan and Co. Ltd.

7. Govindarajan V., Kopalle P.K. (2006). Disruptiveness of innovations: measurement and an assessment of reliability and validity // Strategic management Journal. Vol. 27, № 2. P. 189-199. <https://doi.org/10.1002/smj.511>.

8. Trachuk A.V., Linder N.V. (2019). Innovatsionnaya deyatel'nost' promyshlennykh kompanii: izmerenie i otsenka effektivnosti // Strategicheskie resheniya i risk-menedzhment. T. 10, № 2. S. 108-121.

<https://doi.org/10.17747/2618-947X-20192108121>.

9. Oslo Manual (2018). Guidelines for collecting, reporting and using data on innovation // OECD.

<https://www.oecd.org/science/oslo-manual-2018-9789264304604en.htm>.

10. Freeman C., Clark J., Soete L. (1982). Unemployment and Technical Innovation: A Study of Long Waves and Economic Development. London: Frances Printer. Vang C.H., Lu I.Y., Chen C.B. (2008).

11. Khovalova T.V., Zholnerchik S.S. (2018) Effekty vnedreniya intellektual'nykh elektroenergeticheskikh setei // Strategicheskie resheniya i risk-menedzhment. № 2.

Noaniqlik sharoitida firmaning texnologik innovatsiyalar qobiliyatini baholash // Technovation. jild. 28, No 6. P. 349-363.

12. Patel P., Pavitt K. (1997). The technological competencies of the world's largest firms: complex and path-dependent, but not much variety // Research Policy. Vol. 26, № 2. P. 41-156.

13. Guan J., Ma N. (2003). Innovative capability and export performance of Chinese firms // Technovation. Vol. 23, № 9. P. 737-747. [https://doi.org/10.1016/S0166-4972\(02\)00013-5](https://doi.org/10.1016/S0166-4972(02)00013-5).
<https://doi.org/10.1016/j.enpol.2016.01.026>.

14. Zavislak P., Fracasso E., Tello-Gamarra J. (2018). Sanoat firmalarida texnologik intensivlik va innovatsion qobiliyat // Innovatsiyalar va boshqaruv sharhi. jild. 15, No 2. S. 189-207. <https://doi.org/10.1108/INMR-042018012>.

15. Zavislak P.A., Alves A., Tello-Gamarra J. va boshqalar. (2013). Firmalarning ichki imkoniyatlarining ularning innovatsion faoliyatiga ta'siri: Braziliyada amaliy tadqiqotlar // Xalqaro menejment jurnali. jild. 30, № 1.

ВОЛЬФРАМ КАРБИД СТРУКТУРА-ФАЗАЛАР ТАРКИБИГА КАРБИДЛАШ ЖАРАЁНИ ВАҚТ ДАВОМИЙЛИГИНИНГ ТАЪСИРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Алланазаров А.А. - ТМТИ доценти


Шукуров Ж.Л. - ТМТИ магистри

Юлдошов Б.Б. - ТМТИ магистри.

Карбидлаш жараёни бўйича натижалар асосида жараён вақтининг вольфрам карбид структура-фазалар таркибига таъсирини тадқиқ қилиш учун вольфрам ва углерод кукунларидан ташкил топган аралашмани карбидлаш жараёни вақт давомийлигини 3, 4, 5, 6 соат қилиб, ҳароратини эса 2200 °С қийматларда белгиладик.

Бир хил ҳароратда ва турли вақтлар давомийлигида карбидлаш жараёнидан ўтган намуналар структура-фазалар таркибининг таҳлилини Ultima IV – рентгенли дифрактометрида (XRD) амалга оширдик. Бунда биз ҳар бир вақт давомида олинган намуналарда сифатли ва миқдорий рентгеноструктура фазалар таҳлилини ҳамда келтирилган тартибда намуналардаги боғланган ва эркин углеродлар миқдорини аниқлаб бордик [1].

2200 °C ҳароратда ва 3 соат давомида карбидлашдан ўтган намунанинг сифатли рентгеноструктура таҳлили натижасида олинган рентгенограмманинг штрих-диаграммаси 1 – расмда келтирилган.



1 – расм. 2100 °C ҳароратда ва 3 соат давомида карбидланган намуна рентгенограммасининг штрих-диаграммаси

Бир хил ҳарорат ва турли вақт давомида карбидлаш жараёнидан ўтган намуналарнинг рентгеноструктура-фазалар таҳлили шуни кўрсатдики, 2200 °C ҳароратда ва 3 соат давом этган карбидлаш жараёнида 1 кг миқдордаги аралашма тўлиқ WC – фазасидан ташкил топган, фазадаги боғланган углерод миқдори 6,0% ташкил этди. Карбидлаш жараёни 4 соат давом этган намуна ҳам фақат WC – фазадан ташкил топган бўлиб, ундаги боғланган углерод миқдори 6,12%. Карбидлаш жараёни 5 ва 6 соат давом этган намуналарда WC – фазасида боғланган углерод миқдори 6,12% дан ошмади [1].

Олинган натижалар шуни кўрсатдики, 2200 °C ҳароратда 5 ва 6 соат давомида карбидланган намуналарда WC – фазасидаги углерод миқдори 6.12% бўлиб, улар бир хил. Фикримизча, 4 соат давом этган карбидлаш жараёнида кукун заррачалар юзасидаги WC – фаза углеродлар билан тўйиниши натижасида углероднинг кукун заррачалар марказига диффузияланиш тезлиги сезиларли камайган.

Турли вақт давомида карбидлаш жараёнидан ўтган намуналарда эркин углеродлар миқдорлари устида кимёвий таҳлиллар ўтказдик. Турли вақт давомида карбидланган намуналарда аниқланган углеродлар миқдорлари 1 – жадвалда келтирилган

Намуналарни углерод миқдори бўйича ўтказилган таҳлиллар натижасига кўра (1 – жадвал) 4, 5 ва 6 соат давомида карбидланган намуналарнинг таркибидаги эркин углероднинг миқдори бир хил 0,03% ни ташкил этди.

1 – жадвал.

**2200 °C ҳароратда ва турли вақт давомида карбидланган
намуналардаги углерод миқдорини аниқлаш бўйича ўтказилган таҳлил
натижалари**

Углерод, %	Карбидлаш жараён вақтининг давомийлиги, соат			
	3	4	5	6
Боғланган углерод, $C_{\text{бғ}}$	6,0	6,12	6,12	6,12
Эркин углерод, $C_{\text{эрк}}$	0,13	0,03	0,03	0,03
$C_{\text{бғ}} + C_{\text{эрк}}$	6,13	6,15	6,15	6,15

Аммо намуналарга киритилган бошланғич углерод миқдорига нисбатан 0,02% кўп натижа олдик. Фикримизча, бунинг асосий сабаби намунага киритилган углерод кукуни доимо водороднинг кимёвий таъсирида бўлади:



Бу кимёвий реакцияда ҳосил бўлган газ вольфрам билан қуйидагича таъсирлашади:



Бу иккала кимёвий реакция оралиғида 2200 °C ҳароратда нафақат кукун аралашмасидаги углерод кукуни водород билан таъсирлашади, балки бу жараёнда кукун аралашма ортилган графит ҳамда печнинг графит найининг деворларидаги графит атомлари ҳам қатнашади. Чунки 2200 °C ҳароратда вольфрам кукуни билан туташган графит активлиги бўйича углерод кукуни билан бир хил [2]. Шунинг учун вольфрам кукунларини карбидлаш реакциясида қатнашган ва қатнашмаган углерод миқдори бўйича фарқ қилиши табиий.

Карбидлаш жараёни 6 соат давом этган намуна бошқа 3, 4 ва 5 соат давомида карбидланган намуналардан фарқли равишда вольфрам карбиди кукунларининг заррачалари бир - бирига пишган (ёпишган) ҳолда печдан чикди (2 – расм).



2 – расм. 2200 °C ҳароратда ва 6 соат давомида карбидланган намуналар

Хулоса

Биз томондан олиб борилган карбидлаш жараёнининг вақт давомийлигини вольфрам карбид структура-фазалар таркибига таъсирини тадқиқи бўйича олинган натижаларга кўра, 2200 °C ҳароратда 4, 5 ва 6 соат давомида олинган намуналарнинг: структура-фазалар таркиби; боғланган ва эркин углеродлар миқдори бўйича ТУ 48-19-265 талабларига тўлиқ ($C_{\text{боғ}} 6,0...6,12$; $C_{\text{эрк}} < 0,1$) жавоб беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Алланазаров А.А. Туз конлари машиналари учун кескич материалининг янги таркиби ва олиш технологиясини ишлаб чиқиш. Диссертация Тошкент-2021
2. Курлов А.С., Ремпель А.А., Благовещенский Ю.В., Твердые сплавы WC 6% масс % CO и WC 10 масс. % CO на основе нанокристаллических порошков. Доклады академии наук. М.: Российская академия наук – 2011. – Т. 439 – № 2 – С. 215-220
3. ГОСТ 22662. Порошки вольфрам карбида. Определение гранулометрического состава. -М.: Издательство стандартов, 2010.
4. A.X. Rasulov, S.D. Nurmurodov A.A. Allanazarov Influence of structural – textural features of turbo – alloy products using tungsten treatment on their strength properties. TECHNICAL SCIENCE AND INNOVATION, Tashkent, №1/2020 pp 178-186.

ВОЛЬФРАМ КАРБИДИ СТРУКТУРА-ФАЗАЛАР ТАРКИБИГА КАРБИДЛАШ ҲАРОРАТИНИНГ ТАЪСИРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Алланазаров А.А. - ТМТИ доценти


Шукуров Ж.Л. - ТМТИ магистри.

Хамзаев Ш.А. - ТМТИ талабаси

Вольфрам карбиди кукунининг сифати асосан WC – фазаси ва уни углерод билан тўйинганлиги ҳамда таркибидаги эркин углерод миқдори билан аниқланади. Шунинг учун биз синаб текшириш тадқиқотда, карбидлаш жараёни ҳароратини WC - структура-фазалар таркибига ва ундаги боғланган ҳамда эркин углерод миқдорини аниқлаш орқали амалга оширдик.

Карбидлаш жараёни ҳароратининг WC кукунини структура-фазалар таркибига таъсирини тадқиқ қилишни: 1900, 2000, 2100, 2200 °C ҳароратлар орасида олиб бордик. Бунда жараённинг вақт давомийлигини барча ҳароратлар учун бир хил 2 соат деб белгиладик.

Турли ҳароратларда ва бир хил вақт давомийлигида карбидлаш жараёнидан ўтган намуналарни структура-фазалар таркиби таҳлилинини Ultima IV – рентгенли дифрактометрида (XRD) амалга оширдик [1]. Бунда биз ҳар бир ҳароратда олинган намуналар таркибидаги мавжуд бўлган фазаларни аниқлаб бордик. Ҳар бир намуна устида олиб борилган сифатли рентгеноструктура таҳлили натижасида олинган рентгенограмманинг штрих-диаграммаси 1 – расмда келтирилган.



а – 1900 °C; б – 2000 °C; в – 2100 °C; д – 2200 °C

1 – расм. Турли ҳароратларда ва 2 соат давомида карбидланган намуналарнинг дифрактограмманинг штрих-диаграммаси

Турли ҳарорат ва бир хил вақт давомийлигида карбидлаш жараёнидан ўтган намуналарнинг сифатли рентгеноструктура таҳлили натижаларига кўра 1900°C ҳароратда 2 соат давом этган карбидлаш жараёни натижасида (1,а – расм) намуна W – карбидланишга улгурмаган вольфрам фазаси; W₂C – куйи вольфрам карбидининг фазаси ва WC – юқори вольфрам карбидининг фазаларидан ташкил топган. 2000 °C ва 2100 °C ҳарорат ва 2 соат давом этган карбидлаш жараёни натижасида намуналар икки: W₂C ва WC фазаларидан ташкил топган, бу намунада W – фаза аниқланмади (1, б, в – расмлар). Аммо улар бир - биридан W₂C ва WC – фазаларнинг интенсивлиги бўйича фарқ қилди. 2200 °C ҳароратда 2 соат давомида карбидланган намуна тўлиқ WC – юқори вольфрам карбиди фазасидан ташкил топган.

Олинган натижаларга кўра, вольфрам кукунини карбидланиши, асосан углерод атомларини вольфрам заррачаси юзасида тез ҳосил бўлган WC қатламидан заррача ичкарасига диффузияланиш тезлигига боғлиқ ҳолда содир бўлган (1, а – расм.). Чунки жараён ҳарорати 2000 °C га ошиши билан углерод атомини WC – фаза қатламидан заррача ичкарасига диффузияланиш тезлиги ортган, бунинг натижасида углерод атоми, заррача марказигача етиб борган, шунинг учун штрих-диаграммада W – фаза йўқ. Бу ҳолатни намуналарда W₂C – куйи вольфрам карбид фазаси миқдорининг WC – фазасига нисбатан ортиши ҳам тасдиқлайди (1,б – расм.). Ҳароратни 2100 °C га ортиши билан W₂C – фазани углеродга тўйиниш тезлиги ортган ва бунинг натижасида намунада WC – фазанинг миқдори ортиб бошлаган (1,в – расм). Ҳароратнинг янада 2200 °C га ошиши заррачалар марказидаги W₂C – фазани углеродга тўйинишини таъминлаган, аммо WC – фазасини углерод билан тайинишига жараён вақтининг давомийлиги етмаган, шунинг учун WC – фазасида углероднинг миқдори 5,64% ни ташкил этган. Бу эса йирик донали вольфрам кукун заррачаларининг тўлиқ карбидланиши нафақат жараён ҳароратига боғлиқ, балки жараён вақтига ҳам боғлиқ эканлигини кўрсатади.

Хулоса

Ўтказилган тадқиқотларнинг натижалари, йирик донали вольфрам кукун заррачалари тўлиқ карбидланиши нафақат жараён ҳароратга боғлиқ балки жараён вақтига ҳам боғлиқ эканлигини кўрсатди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Алланазаров А.А. Туз конлари машиналари учун кескич материалининг янги таркиби ва олиш технологиясини ишлаб чиқиш. Диссертация Тошкент-2021

2. Бабич Б.Н., Вершинина Е.В., Глебов В.А. и др. Металлические порошки и порошковые материалы: справочник/ под ред. Ю.В. Левинского. – М.: ЭКОНОМЕТ, 2005. – 520 с.

3. ГОСТ 22662. Порошки вольфрам карбида. Определение гранулометрического состава. -М.: Издательство стандартов, 2010.

4. A.X. Rasulov, S.D. Nurmurodov A.A. Allanazarov Influence of structural – textural features of turbo – alloy products using tungsten treatment on their strength properties. TECHNICAL SCIENCE AND INNOVATION, Tashkent, №1/2020 pp 178-186.

ШИРИН ҚАЛАМПИР ЎСТИРИШДА ТАРМОҚ КУЧЛАНИШИНИНГ СУНЬИЙ ЁРИТИЛГАНЛИКГА ТАЪСИРИ

Байзаков.Т.М. - т.ф.н. доцент “ТИҚХММИ” МТУ,

Юсупов.Ш.Б - стажёр тадқиқотчи “ТИҚХММИ” МТУ,

Нематов.С.Н. - “ТИҚХММИ” МТУ талаба,

Эсонов.Ж. - “ТИҚХММИ” МТУ талаба

Аннотация Ушбу мақолада қишлоқ хўжалиги соҳаси, жумладан, иссиқхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш, йилнинг куз-қиш мавсумида қўшимча нурлатиш (LED нурлатгич) билан сутка давомида 6-8 соатлик ўсимликларнинг фотосинтез жараёнини суний давом эттириб ширин қалампир каби полиз экинлари кўчатларни етиштириш каби тармоқнинг энг илғор тажрибаларига оид кенг қамровли илмий ва амалий тажрибаларга таянган маълумотлар ёритилган.

Калит сўзлар: Ширин қалампир, сабзавот экинлари кўчатлари, вегетация даври, самарадорлик, LED лентали нурлатгич ва унинг тавсифи, тармоқ кучланиши.

Аннотация

В данной статье освещены передовой опыт агропромышленного комплекса, в том числе производство продукции в теплицах, выращивание рассады бахчевых культур типа сладкого перца путем искусственного продолжения процесса фотосинтеза растений в течение 6-8 часов в сутки при дополнительном освещении (LED светильники) в осенне-зимний период приведены данные, основанные на научном и практическом опыте.

Ключевые слова: сладкий перец, рассада овощных культур, период вегетации, КПД, светодиодная лента и ее описание, напряжение сети.

Abstract

This article discusses the best practices of the agro-industrial complex, including the production of products in greenhouses, growing seedlings of melons such as sweet peppers by artificially continuing the process of plant photosynthesis for 6-8 hours a day with additional lighting (LED lighting).) in the autumn-winter period, data are given based on extensive scientific and practical experience.

Key words: allspice, vegetable seedlings, growing season, efficiency, LED strip and its description, mains voltage.

Кириш.

Дехқончиликнинг Ўзбекистон шароитида сабзавот экинларининг қарийб 60 фоизи кўчатидан экиб ўстирилади. Серқуёш ўлкамизда сабзавотлардан йилига 2-3 марта ҳосил олишда кўчатидан етиштириш ва ҳимояланган ер иншоотларидан унумли фойдаланиш имконияти мавжуд. Республикамиз аҳолисини сабзавот маҳсулотларига бўлган талабини қондириш ва дунёда юз бераётган озиқ-овқат муаммосининг олдини олишда бу имконият муҳимдир[3].

Президентимизнинг “Ўзбекистон Республикасида боғдорчилик ва иссиқхона хўжалигини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 20 мартдаги ПҚ-4246-сон қарорида республикамизда мавсумдан ташқари муддатларда сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқариш, экспорт ҳажмини ошириш, соҳада юқори даражали рақобатбардош кадрлар тайёрлаш вазифалари белгиланган. Аҳолини арзон, сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш, ишлаб чиқаришни кўпайтириш мақсадида республикада ташкил этиладиган иссиқхоналар ва уларда сабзавот экинлари кўчатларини замонавий етиштириш усулларини қўллаш ҳозирги кунда долзарбдир[1,2].

Сабзавот ва полиз экинлари ичида ширин қалампир кўчати одатда энг узоқ 80-90 кун мобайнида ўстирилади. Ўсимлик ривожланишидаги эришилган илгарилаш эрта ҳосил олиш имконини беради. Эрта олинган ҳосилни юқори баҳоларда сотиш кўшимча даромад олишни таъминлайди. Илгарилаш туфайли услуби кўчат ўсиш даврини тезлаштириш имконини беради. Бу ўсимлик ҳосилдорлигини оширади ва ўсиш даври узоқ давом этадиган, аммо иссиқлик етишмайдиган ҳамда уруғдан экилганда ҳосилни тўлиқ тўплай олишга шароит бўлмайдиган шимолий минтақаларда иссиқсевар экинларни етиштиришга ва у ердаги сабзавотлар турини бойитишга имкон яратади [4,5,6].



1-расм. Ширин қалампир кўчатларини ўстириш учун мўлжалланган нурлатиш қурилмаси.

Ширин қалампир ўсимлиги иссиқсевар ўсимлик ҳисобланади, шунинг учун унинг кўчатини етиштиришда иссиқхонада мўтаъдил ҳарорат 24-36 °C даражада сақланиши билан биргаликда шунга яраша ёруғлик ҳам талаб этилади. Ўсимликлар физиологиясидан бизга малумки сабзавот ва полиз экинлари яхши ўсиб ривожланиши учун уларнинг фотосинтез жараёни суткасига 14-16 соат давом этиши зарур [7,8]. Ўсимликлар дунёси куёшдан келадиган кўринувчи табиий ёруғлик нурунинг кўк ва қизил спектрларини яхши ҳазм қилади. Бу спектрларда ўсимликларнинг фотосинтез жараёни мўтадил кечади. Кузги-қишки, қишки-баҳорги мавсумларда ширин қалампир кўчати вегетация даври 60-90 кунга қадар чузилиши кузатилади. Бунинг асосий сабаби табиий ёруғликнинг етишмаслигидир, табиий ёруғликни қоплаш мақсадида бир неча суний ёритиш манбаларидан ва бир неча хил нурлатиш технологияларидан фойдаланиш мумкин. Ширин қалампир кўчатларини йил давомида кўчатхоналарда кузги-қишки, қишки-баҳорги мавсумларда ва такрорий экин сифатида экиб маҳсулот етиштирилади [5].

Иссиқхоналар учун оқилона ёритиш; барқарор ёруғлик оқими ўсимликнинг ўсиш сифати ва ҳосилдорлигини ошишини таъминлайди; юқори ёруғлик самарадорлиги ва хизмат муддатининг давомийлиги мавжуд манбаларга нисбатан унинг афзалликларини кўрсатади. Ёруғлик диодли лампалар: LEDларни ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш технологиялари жадал ривожланмоқда, энди ҳозиргача уларни натрий каби эмас балки бизнинг шароитда сутканинг кундузги қисмини яратиш учун сунъий LED ёритгичларини фойдаланиш мумкин. Бундай қурилмалардан фойдаланиш

сабзавотчиликда фито LED ленталаридан фойдаланиш учун кўплаб янги имкониятлар очилади (2-расм). Ёритгичлар учун ҳар қандай ранг танланиши мумкин, юқори босимли натрий ёритиш манбасилар спектри чекланган [9,10].



2-расм. Турли спектр тарқатувчи LED ленталари

Нурланиш мосламаларининг асосий ёруғлик, қуёш нурланишининг хусусиятлари, иншоотларнинг конструктив хусусиятлари ва электр параметрларини аниқлашда КМК 2.09.08-97 (СНиП 2.10.04-85) га мувофиқ, фотосинтетик фаол нурлатиш ҳудудида таъсир қилишнинг этарлилиги мезонини ҳисобга олиш керак.

Нурлантирувчиларнинг спектри кўринадиган ёруғликнинг тўлқин узунликлари оралиғида, фотосинтетик фаол нурлатиш ҳудудида эса камида 25% бўлиши керак.

Кўчатларни этиштириш учун энг камида 14 соат давомида минимал рухсат этилган нормаллаштирилган нурланиши $25-40 \text{ Вт/м}^2$ ни ташкил қилиши керак.

Вояга этган экинларни этиштириш учун энг камида 16 соат давомида минимал рухсат этилган нормаллаштирилган нурланиш 70 Вт/м^2 ни ташкил қилиши керак.

Вояга этган экинларни этиштириш учун энг камида 16 соат давомида оптимал рухсат этилган нормаллаштирилган нурланиш 100 Вт/м^2 ни ташкил қилиши керак[8].

Нурлатишнинг максимал қийматидан кейинги максимал қийматгача бўлган вақт оралиғида ўсимликлар томонидан қабул қилинган доза ва нурлатишнинг юқори жадаллиги ва паст интенсивлиги ўзгариши содир бўладиган таъсир қилиш давомийлиги кўчат ўсиш тезликка боғлиқ.

$$H_i = \int_a^b (E_i t_i) dt = E_i \int_a^b (t_i) dt = E_i (T(b) - T(a)), (1)$$

бунда: E_i - нурлатгичнинг бир марталик нурлатиши, Вт / м

t_i - максимал таъсир қилишдан кейинги максималгача бўлган вақт оралиғи, с.

$$t_i = \frac{L}{v}, (2)$$

бунда: L - нурлантирувчининг тўлиқ нурлатиш баландлиги, м;

v - нурлатиш тезлиги, м / кун.




$$H_i = E_i \frac{h}{v} = E_{гориз} \frac{h}{v}, (3)$$

Бундан кўринадики, нурлатгичларнинг баландлиги қанчалик юқори бўлса, ўсимликлар томонидан қабул қилинган нурлатишнинг дозаси шунчалик паст бўлади. Аммо шуни таъкидлаш керакки, фотосинтез жараёнида оптик нурлатишнинг ютилган энергиясининг атиги 1,3% ишлатилади. Фотосинтез жараёни узлуксиз нурлатишда содир бўлади. Аммо оптик нурлатиш энергияси фақат фотосинтезнинг ёруғлик босқичида берилса, нурлатиш учун оптик энергияни йўқотиш ва электр энергиясини истеъмол қилишни сезиларли даражада камайтириш мумкин.

Битта тажриба доирасида ўтказгичларнинг тезлиги $v=const$, нурлатиш доза узунлиги $L=const$, бир хиллик коэффициенти сирт юзанинг қиялик бурчагига боғлиқ ва қуйидагича [11]:

$$H_i = \frac{L}{v} \int_a^b E_i dE (4)$$

LEDлар, шубҳасиз, истикболли ёруғлик манбаларидир, аммо иссиқхонанинг нурлатиш қурилмаларига нисбатан улар ҳали ҳам юқори босимли натрийли ёритиш манбаларидан истеъмол қуввати пастроқдир, чунки ўзгартиргичларни ҳисобга олган ҳолда 50-70 Вт қувватга эга LED ёритиш манбасиларнинг ёруғлик тарқатиши совуқ оқ ранг учун ҳатто 80...100 лм/Вт дан ошмайди ва юқори қувватли ёритгичлар учун бу ундан ҳам паст. Бинобарин, LED ёритиш манбаларига ўтишда электр энергияси нархи камида 1,5 баравар ошади ва уларнинг ишлаб чиқариш таннархидаги улуши 40% гача ошиши мумкин [7,8,9].




3-расм. LED нурлатгичларини лаборатория синовини ва унинг ёритилганлигини ишлаш давомийлигига, муҳит ҳароратига боғлиқлик графиги ва ВАХарактеристикаси.

Униб чиққан кўчатлар вегетация даврини қисқартириш мақсадида, кўчатлар яхши ўсиб

ривожланиши учун иссиқхоналарда иситиш тизими яхши ишлаши ва фотосинтез жараёни давом этиши учун сунъий нурлатгичлар талаб қилинади. Ўсимликларда фотосинтез жараёни нормал давом этиши учун фитонурлатгич LED лентали нурлатгичдан фойдаланиб ширин қалампир кўчатларини ҳар хил баландликларда, икки хил, сунъий ва табиий+сунъий шароитларда ўсиб ривожланишларини кузатган ҳолда қуйидаги ижобий натижаларга эришилди.

Ҳар хил LED нурлатгичларини нурлантирилганлиги лаборатория шароитида ўлчаниб унинг графиги олинди (3-расм). Тажрибаларда олинган натижаларнинг таҳлили бўйича, ўсимликларни вегетация даврини қисқартириш учун ултрабинафша нур берувчи манбалардан бемалол фойдаланиш мумкинлиги аниқланди. Нурлатгичнинг турли хил версиялари учун ёритилганликнинг масофага боғлиқлик графиги қурилган. Экспериментал натижаларни таққослаш шуни кўрсатдики, энг катта таъсир 0.7 метр баландликдан нурлатиш ҳолати ва ёритиш манбасининг LED лентали нурлатиш манбаси версияси томонидан узатилади. Ўсимликларнинг фотосинтез жараёнида кўринувчи нурларнинг кўк ва қизил спектрларини яхши ҳазм

қилишини ҳисобга олинадиган бўлса, бемалол қабул қилиш мумкин. Ушбу ҳолат 4-расмда кўрсатилган нурлатиш қурилмаси спектрал оқимнинг тақсимотига мос келади.



4-расм. Нурлаш қурилмаси ёритилганлигининг кучланишга боғлиқлик графиги.

Хулосалар

Нурлатиш қурилмасининг самарадорлигини оширишнинг асосий усули – нисбий ёритилганлигидан фойдаланиш коэффициентини ошириш, нур қайтаргичнинг акс эттирувчи хусусиятларини яхшилаш, бутун хизмат муддати учун самарадорлик хусусиятларини аниқлаш, юқори ёруғлик самарадорлиги ва барқарор нурли ёритиш манбалари ёрдамида эришиш мумкин.

LED лентали нурлатгичларидан фойдаланилганида сабзавот ва полиз экинлари кўчатларини етиштириш жараёнини тезлаштириш ҳисобиға иссиқхоналарда экин экишнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш имкониятини беради, бу эса таклиф этилган электротехнологияни қишлоқ хўжалигида бемалол татбиқ этиш мумкинлиги кўрсатади.

Жуда кўп маҳаллий деҳқонларимиз сабзавот экинларини кўчатидан ўстириб, очик майдон ва иссиқхоналарда эртачи маҳсулот етиштириш фойдасини билади. Аммо айрим фермер ва аҳоли томорқа эгалари учун сабзавот кўчатларини тайёрлаш бўйича энерго-расрустежамкор технологияларни қўллаш бўйича маълумот ва тажриба етишмовчилиги мавжуд.

ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ БАКАЛАВРОВ ПО НАПРАВЛЕНИЮ ПОДГОТОВКИ «ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКА»

Бердимуратов.Ж – ТМТИ ассистенту

Традиционная задача ВУЗов – научить людей жить на уровне культуры и наиболее прогрессивных идей своего времени. Реализация этой задачи не может происходить без создания соответствующей материальной среды, наполненной продуктами человеческой деятельности. В этом смысле требования к профессиональным компетенциям специалистов, призванных формировать эту среду, выстраиваются в направлении «знать – уметь – владеть». Философской основой такой направленности является модель «4П», изложенная в стандартах Всемирной инициативы CDIO: «Планировать – проектировать – производить – применять» инженерные продукты, процессы и системы в современной среде, основанной на командной работе специалистов.

Предложенные реформы образования бакалавров происходят через практико-ориентированное обучение, осуществляются с помощью инновационных интерактивных форм и методов преподавания. Практика применения этих методов на занятиях с бакалаврами направления «Электроэнергетика и электротехника» не мыслится без SMART-технологий. Задача устранения противоречия между теорией и практикой решается повышением интереса к содержанию учебного курса, что важно в процессе всех видов учебной деятельности.

Для этого, например, прямая информативная логика лекции изменяется так, чтобы очередное логическое звено было завершено маленьким открытием, умозаключением, сформированным самими студентами.

Допустимым и желаемым является диалог между преподавателем и слушателями. Важно при этом, чтобы каждому слушателю были понятны и содержание и логика, в которой оно разворачивается. Наглядное представление объектов и процессов с применением мультимедийных технологий завершается построением кластеров, графов, опорных конспектов с трассировкой взаимосвязей между физическими величинами или частями конструкции. На каждом этапе обучения применяется рефлексия и саморефлексия, благодаря чему контролируется степень восприятия материала, корректируется уровень сложности по ходу лекции, развиваются коммуникативные качества и формируются общие компетенции.

В данной модели коммуникации не просто допускаются высказывания обучающихся, что само по себе является важным, а предполагается привнесение в образовательный процесс их знаний. Возникает диалог на языке, понятном и

интересном для обоих его участников, что делает предмет обсуждения близким и «своим».

Анализ и коррекция материала для дальнейшего изучения происходит без потери уровня научности, но с помощью структуризации предмета для более легкого усвоения.

Углубленное изучение материала лекций продолжается на лабораторных занятиях.

При выполнении лабораторных работ формируются компетенции производственно-технологической, организационно-управленческой, сервисно-эксплуатационной деятельности.

В этом случае применим метод коллективного минипроекта, так как сама практическая деятельность на таком занятии предполагает и теоретическую подготовку, и реальный результат, и работу в малых группах. Но реализация алгоритма «знать – уметь – владеть» не срабатывает уже на первом этапе: проваливается звено «знать». Это чаще всего происходит в случае обращения студентов к SMART-ресурсам Интернета низкого качества, разрозненных и бессистемных. Причина – отсутствие бесплатной интерактивной базы знаний по предмету.

В процессе защиты лабораторной работы теория по традиции проверяется практикой, но облекается в форму образовательных игр, имитаций, анализа казусов, мозгового штурма. Инфопродукт, необходимость которого формируется в процессе применения перечисленных интерактивных методов, может быть продемонстрирован на семинарских занятиях или использован как доступное средство обучения.

Хочется акцентировать внимание на функции преподавателя в ходе обучения. Это – фасилитация, целью которой становится направление процесса в нужное русло, помощь в принятии группового решения, повышение продуктивности деятельности каждого студента.

Таким образом, сочетание интерактивных форм обучения со SMART-технологиями позволяет получить высокие результаты обучения при реализации компетентностного подхода в образовании.

Список литературы:

1. Всемирная инициатива CDIO. Стандарты: информационно-методическое издание. /Пер. с англ. и ред. А. И. Чучалина, Т. С. Петровской, Е. С. Кулюкиной. Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2011. 17 с.

2. Шаталова Н. В. SMART-образование и качество обучения бакалавров. //Электронное образование: перспективы использования SMART-технологий

QUYOSH QUTISI

Bobomurodov A.I. - TMTI talabasi

Omonov F.B. - TMTI assistenti

Xozirgi kunda tabiiy zaxiralar kamayib, energiya etishmasligi boshlanayotganligi xech kimga sir emas. Shuning uchun mavjud imkoniyatlarni o'rganib energiya tejashni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, quyosh yerdan 150 million km masofada joylashgan. Quyosh energiyasining juda kichik (qariyb 100 milliondan 1 foizi) yerga tushadi.

Qutisimon quyosh o'choqlari quyosh nuri yordamida boshqa energiya manbaidan foydalanmasdan ovqat tayyorlash uchun eng sodda qurilma. Undagi harorat 180-200°S gacha yetishi mumkin.

Birinchi quyosh o'chog'i 18 asr oxirida, fransuz kimyogari A.Lavuaze tomonidan yaratilgan. Bu o'chog'ning harorati 1650°C gacha yetardi. Unda vakuumda va maxsus kimyo atmosferasida materiallar namunalari qizdirilib tadqiqotlar olib borilgan. Bu o'choq yordamida uglerod va platina xususiyatlari o'rganilgan. Ovqat tayyorlash uchun birinchi quyosh o'chog'i 1767 yilda, alpinizm talablari uchun Oras Benedikt de Sossyur tomonidan yasalgan. O'zbekistonda 1987 yilda materialshunoslik Instituti hududida, Respublika fanlar akademiyasiga qarashli Fizika quyosh ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan quvvati ming kilovatt bo'lgan Katta quyosh o'chog'i ishga tushurildi. Bunday o'choqlar dunyoda bor yo'g'i ikkita, ikkinchisi Fransiyada joylashgan.

O'zbekistonda quyosh o'choqlaridan faol foydalanish uchun hamma sharoit mavjud. Chunki yil davomida 300 kun quyoshli bo'ladi.



Qutisimon quyosh o'chog'i oson topiladigan materiallardan quriladi. U ichki yon devorlari nurlarni qaytaruvchi folga bilan qoplangan, tubi esa qora rangga bo'yalgan taxta qutidan iborat. Qutichaning qopqog'i oynadan yasalgan. Quyosh

nurlari oynadan kirib qora rangli tubi orqali yutiladi va issiqlikka aylanadi. Qurilmaning ichki qismi germetik bo'lganligi sababli, issiqlik to'lqinlari yon devor folgasidan



akslanib, oynadan qaytib, o'choq ichida yig'iladi va haroratni 100°S dan yuqoriga ko'taradi.

Materiallar:

1. Qalinligi 4 mm li fanera, o'lchovi 330 mm*460 mm*175 mm bo'lgan yon devor – 2 dona.
2. Qalinligi 4 mm li fanera, o'lchovi 460 mm*175 mm bo'lgan old devor – 1 dona.
3. Qalinligi 4 mm li fanera, o'lchovi 330 mm*460 mm bo'lgan orqa devor – 1 dona.
4. Qalinligi 4 mm li fanera, o'lchovi 500 mm*470 mm bo'lgan o'choq tagi – 1 dona.
5. Qalinligi 4 mm li fanera, o'lchovi 530 mm*460 mm bo'lgan akslantiruvchi ekran – 1 dona.
6. Folga.
7. Oyna o'lchovi 520 mm*440 mm.
8. O'lchovi 30 mm*15 mm bo'lgan brusoklar.
9. PVA yelimi
10. Shuruplar.
11. Qora rangli vatman yoki qora qog'oz.

Tayyorlashni ikki bosqichda olib boramiz.

1-bosqich. O'choq tagini yasash.

1. O'choq tagining bir tomonida perimetri bo'ylab shurublar yordamida brusoklarni qotiramiz.

2. Ikkinchi tomoniga qora vatman yoki qora qog'oz yopishtiramiz.

2-bosqich. Quyosh o'chog'ining yuqori qismini yig'ish.

1. Quyosh o'chog'ining qolgan qismlarini ham kesib tayyorlaymiz.

2. PVA yelimi yordamida quyosh o'chog'ininig hamma (old, yon va orqa) tomonlarini folga bilan qoplaymiz (Folgani tekislash uchun yumshoq lattadan foydalanib, uni quyosh nurlari yaxshiroq akslanishi uchun o'choqning hamma tomonlariga tekis qilib yopishtiring).

3. Brusoklarni shuruplar yordamida quyosh o'chog'ining yon tomoniga rasmda ko'rsatilganidek qilib qotiring (Yuqoridagi brusoklarni oynani ushlashi uchun rasmda ko'rsatilganiday, ozgina chiqarib qotirish kerak).

4. Shuruplar yordamida quyosh o'chog'ini yon, old va orqa tomonlarini biriktiramiz.

5. Oynani qo'yib, brusoklar yordamida qotiramiz.

Ovqat tayyorlash uchun, o'rtacha hisobda 2 kg o'tin sarflanadi. Agar quyosh o'chog'ida yilni 300 quyoshli kunida 1 marta taom tayyorlasak, 600 kg o'tin tejashimiz mumkin. 600 kg o'tin taxminan 1 m³ o'tinga teng bo'ladi.

AVTOMOBILLARDA QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Jovliyev.M.M – TMTI talabasi

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda hayotiy ehtiyojimizni qondirish uchun xizmat qiladigan manbalardan asosiysi bu elektr energiyasidir. Mamlakatimizda muqobil energiya turlaridan foydalanish va ularni ishlab chiqarish bo'yicha ko'pgina



oshirilmoqda. ¹Eslatib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2013-yil 1-martda "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan.

Ushbu farmonda energiya tejaydigan tizimlarni joriy etish va ulardan foydalanishga doir kompleks chora tadbirlar ishlab chiqish, hamda amalga oshirish ko'zda tutilgan.¹

Huddi shunday mamlakatimizda muqobil energiyani doimiy ta'minlab berish maqsadida quyosh batareyalaridan foydalanish keng qo'llanilmoqda.

Quyosh batareyalaridan foydalanishda iqlim tomonidan qaraganda bizning hududimizga to'la mos keladi. Chunki O'zbekistonda yilning 320 kunidan

ko'proq muddatda quyosh charaqlab turadi. Shu sababdan mamlakatimizda quyosh energiyasidan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda quyosh batareyalaridan olinadigan energiya kelajak energiyasi nomi bilan ham atalmoqda. Bunga sabab bunday energiya turini istalgan sohada,



jumladan, transport sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. Hozirda butun dunyo bo'ylab keng tarqalayotgan quyosh energiyasi yordamida harakat qiladigan avtomobilar fikrimizga yaqqol misoldir. Bunday avtomobillar quyosh batareyalari sabab, bepul

yonilg'iga ega bo'lishlari bilan bir qatorda bu turdagi avtomobillardan atrof muhitga zararli gazlar chiqarilishi to'xtaydi.

Shu o'rinda gap quyosh batareyalari haqida borar ekan, tasavvur hosil qilish uchun uni quyidagicha tushunish mumkin, quyosh batareyalari quyosh radiatsiyasi energiyasini bevosita elektr energiyasiga aylantiradi va quyosh batareyasi elementlarining ishlashi ichki fotoeffekt hodisasiga asoslangan. Quyosh batareyalari yordamida elektr energiya olish boshqa energiya olish usullaridan afzalliklari shundaki, ekologiyaga hech qanaqa zararli ta'siri yo'q, kamxarajatli va oson elektr energiyasi bilan ta'minlab berish mumkin.

²Quyosh batareyalari yordamida harakat qiladigan avtomobillar birinchi marta 2013-yilda Niderlandiya talabalari tomonidan yaratilgan. Bu avtomobil dastlab bir zaryadlanish miqdori bilan 50-60 km masofani bosib o'tgan, og'irligi esa 850 kg ga teng bo'lgan². Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida quyosh batareyalari o'rnatilgan avtomobillardan foydalanish ommalashmoqda va dastlabki quyosh batareyalari yordamida harakat qiladigan avtomobilga qaraganda ancha quvvati katta. Quyosh batareyalari o'rnatilgan avtomobillar ishlab chiqarilish bo'yicha hozirda AQShning "Tesla" nomli kompaniyasi yetakchilik qilib kelmoqda.

Shu o'rinda, bu turdagi energiya olish haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmagan insonlarda quyidagicha turli savollar paydo bo'lishi mumkin.

Xo'sh, qanday qilib quyosh energiyasi sabab avtomobil harakatlanadi?

Avtomobil kuzovini yuqori qismida quyosh batareyalari o'rnatilgan bo'lib, u quyosh nurini bevosita elektr energiyasiga aylantiradi. Ushbu qurilmani tashkil etgan fotovoltaik (PhotoVoltaic kamera) kameralar mavjud bo'lib, quyosh nuri ya'ni energiyasi ushbu kameralarga tushganda, kamerada elektronlarni qo'zg'atadi va natijada elektr tokini paydo etib, ular elektr oqishiga imkon beradi. Hosil qilingan elektr enegiya avtomobil harakatlanishi, zaxira akkumlyatorni zaryadlash yoki avtomobil qo'shimcha qurilmalarini ishlatishga sarf etiladi. Odatda, fotovoltaik kameralar indiy, galiy va azot qotishmalari kabi yarim o'tkazgichlardan tuziladi.

Quyosh energiyasi avtomobil harakatlanishi bilan bir qatorda, qo'shimcha energiya talab qiladigan jihoz va qurilmalarni ham energiya bilan ta'minlab bera oladi. Masalan, agar o'rtacha quvvatga ega bo'lgan "Nissan" avtomobili issiqlik manbasi yoki konditsionerini ishlatishiga qarab harakatlanish masofasi 62-138 km orasida o'zgarib boradi.²

Quyosh batareyalari yordamida harakatlanadigan avtomobillarni o'rganar ekanmiz, ularni ba'zi modellari batareyadan foydalanadigan quvvatni to'ldirsa, boshqalari akkumulyatorni zaryadlash uchun batareyalardan foydalanishini ko'rishimiz mumkin. Bu turdagi energiya yordamida harakat qiluvchi avtomobillar quyoshli kunlarda samarali ishlaydi. Quyosh nuri cheklangan holatlarda, masalan, bulutli kunlarda avtomobil harakatlanishi uchun zaryadlangan zaxira akkumulyatori mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Internetning Uza.uz sayti ma'lumotlari
2. Internetning solarenergy-usa.com sayti ma'lumotlari

O'QUV JARAYONIGA TEGISHLI MALAKAVIY AMALIYOTNI TALABALAR O'TISHI SIFATI ZARURLIGI VA AHAMIYATI

Jumanazarov.Sh.Sh - TDTU doktoranti.

Mirxodjayev.B.I - TDTU dotsenti.

Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiya asosida amaliyotlarni tashkil etish orqali ta'limning sifat-samaradorligini oshirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek amaliyotda talabalarning bilim va mahoratini doimiy ravishda boyitib borishga bog'liq ekanligi ochib berilgan. Amaliyotda olingan tajriba oliygohda nazariy bilimlarni mustahkamlashini nazarga olgan holda mualliflar tomonidan bir necha tavsiyalar keltirilgan.

Ushbu muhim masala tog'risida, ya'ni – o'quv jarayonining uchinchi bosqichini yakunlovchi va o'quv rejada joy olgan hamda to'rtinchi bosqich fanlariga, kurs ishi, loyihalarga asos bo'luvchi malakaliy amaliyotni, ishlab chiqarish muassalarni talablarini inobatga olgan xolda, ikkinchi tomonini, o'qitish maqsadiga muvofiq, yoritish zarurligi sabablari bo'yicha, maqola mualliflari, o'z kamtarin fikrlarini yetkazmoqchi.

Muhokamaga taqdim etilgan shu masala, ya'ni bilim oluvchi talabalar to'liq, sifatli, dasturga mos amaliyotlarni, jumladan o'quv hamda malakaviy amaliyotlarni, o'tish – ko'p qirrali, ma'zmuni keng, jumladan Respublikamiz rivojlanishiga mineral-xomashyo bazasini kuchaytirilishi yo'nalishida, yangi, sanoat talablariga javob beruvchi, o'zlashtirish natijasida mo'ljallangan daromad beruvchi konlarni vujudga keltirish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi OTM-mutaxassislarni tayyorlab berish jarayoni poydevorini asosiy g'ishtlaridan biri bo'lib xisoblanadi.

Shu masalaga, murakkabligini xisobga olgan xolda, davlatimiz rahbari, O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari, o'zlarini

e'tiborlarini qaratkanliglari bejiz emas. 27 iyul 2017 yildagi, PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" to'g'risidagi Qarorlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Qaror tarkibiga muvofiq, O'zRes Geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi, ToshDTUning "Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya" fakulteti bilan hamkorlikda mahsus "Chora-tadbirlar rejasi", ishlab chiqilgan.

Rejada o'quv jarayoniga tegishli, professor-o'qituvchilar salohiyatini tubdan oshirishga mo'ljallangan tadbirlar bilan birga, talabalar tomonidan bilim olish jarayoni xolatlarini yaxshilash masalalari ham o'z joyini egallagan: fan va laboratoriya xonalarni, zamon talablarga mos, jixozlash, jumladan "Burg'ilash" tajriba xonasini takomillashtirish, mavjud bo'lgan muzeylar eksponatlarini yangilash va "Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi" kafedrasi uchinchi bosqich talabalarining ishlab chiqarish (malakaviy) amaliyotini unumli o'tkazishligi masalasi, o'ziga xos joy egalladi va mualliflar tomonidan diqqatga sazovar, amaliyotni yaxshilash qirralari quyidagilardan iborat:

1.Kafedra tomonida n tegishli hujjatlar bilan ta'minlanish shartligi: malakaviy amaliyot o'tish bo'yicha dastur, kundalik daftar.

2.Borgan joyida muassasa rahbarlari tomonidan mahalliy geolog – ustozga biriktirilishi.

3.Dastur tarkibidagi qism va bandlar talablariga muvofiq, mahalliy rahbari nazorati ostida amaliyot o'tash. Ayniqsa quyi yo'nalishlar bo'yicha boshlaang'ich amaliy tajribaga talaba ega bo'lishi- burg'ulashda texnika vatexnologiya jarayonini o'rganish, tog' lahimlardan hamda burg'ulash quduqlaridan namuna olish, ularga ishlov berish va tahlildan o'tkazish ishlarini o'zlashtirish. Undan tashqari zamon talabiga muvofiq geokimyo va geofizika usullarini amaliyotda qo'llanish uslubiyati bo'yicha kerakli ma'lumotga ega bo'lish.

4.Yig'ilgan dastur talabiga muvofiq ma'lumotlarni hisobotga taqdim etish maqsadida (amaliyot oxirida) reja bo'yicha tahlash.

5.Talaba amaliyot o'tagan geologiya qidiruviga tegishli ob'yekti bo'yicha, so'z fazilatini rivojlantirish maqsadida, albatta hisobotni ham og'zaki o'tkazish.

6. Xorijiy tajribadan, Moskva davlat geologo-razvedka 39-institut o'quv rejasidan mavzuimizga muvofiq, bir-necha lavhalarni keltirish mumkin:

4 yillik bakalavriat bilan 2 yillik magistraturadan tashqari, 5 yillik konchi-muhandis-geolog, ishlab chiqarish korxonalarda ish yuritish maqsadida, o'quv jarayoni tashkillashtirilgan. 5 yillik o'qish tarkibida, o'quv amaliyotlaridan tashqari, ikkita malakaviy (3 va 4 oylik), tog' kombinatlar va ekspeditsiyalarda o'tiladigan, amaliyotlar ham nazarga olingan. Bitiruvchilarga bilimi bo'yicha reklamatsiyalar xozirgi davrigacha yoq.

Yuqorida keltirilgan mualliflar fikrlaridan, tegishli xulosaga kelish mumkin:

1. Malakaviy amaliyotni o'tilishi, tegishli xujjatlar borligi, o'tish sharoitlari, oylik bilan ta'minlanishi, institut va mahalliy mutaxassislar tomonidan doimo nazorat ostida olish zarurligi.

2. Amaliyot natijalarini, kafedra yetakchi o'qtuvchilari, O'zdaVGeolqo'mga tegishli boshqarma xodimlaridan iborat bo'lgan komissiya qabul qilishi shart.

3. Shu bilan birga, talabalar amaliyot o'tganligiga ma'sullar ham o'z xisobotlarini komissiya a'zolariga keltirishi, lozim.

4. Aniq fanga ajratilgan o'quv soatlari hajmida amaliy va laboratoriya darslarining ulushi kamayish emas, aksincha-ko'payib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo'yicha qo 'shimcha chora tadbirlar to'g'risida qarori PQ-5083-son 2021 yil 21 aprel.

2. "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" to'g'risidagi qarori PQ-3151-son 2017 yil 27 iyul.

3. WWW.ziyonet.uz

GEOLOGIK QUDUQLARNI BURG'ULASH ORQALI GORIZONTLARNI OCHISHDA QO'LLANILADIGAN ZAMONAVIY BURG'ULASH USULLARI VA YUVISH SUYUQLIKLARI.

Jumanazarov.Sh.Sh - TDTU doktorant.

Rajabov.SH.X - TMTI assistent.,

Ziyayev.F.CH - TMTI assistent.

Eshnazarov.M.SH - TMTI assistent.

Maqolada geologik quduqlarni burg'ilashda samarali gorizontlarni ochishning zamonaviy usullarini qo'llash natijalari muhokama qilinadi. Samarali ishlarining zamonaviy usullari ko'rib chiqiladi, ular ikkita asosiy omil bilan tavsiflanadi: maydalangan tog' jinslarini chiqarib olish. Yuvish suyuqligi sifatida turli xil eritmalar qo'llaniladi, ularning eng yaxshisi chuqur zonaning o'tkazuvchanligini kamaytirmaydigan yoki mahsuldor gorizontning filtrlash xususiyatlarini minimallashtiradigan va uni ishlab chiqish bo'yicha uzoq va murakkab ishlarni talab qilmaydigan eritmadir.

Samarali gorizontlarni ochishning oqilona usulini tanlash geologik quduqlarni burg'ulashning zamonaviy texnologiyasining eng muhim va eng qiyin muammolaridan biridir. Ma'danli maydonining ochilish sifati, asosan burg'ulash usuliga hamda burg'ulashda ishlatiladigan burg'ulash suyuqligining turi va xususiyatlariga bog'liq.

Ma'danli maydonlarni qatlamlarini ochilishida bir xil burg'ulash suyuqligidan va bir xil burg'ulash texnologiyasidan foydalanish mahsuldor qatlamning tabiiy o'tkazuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois keyingi yillarda ma'danli qatlamlarni ochishning samarali usullarini ishlab chiqish va geologik quduqlarni o'zlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Keling, ikkita asosiy omil bilan tavsiflangan samarali ma'dan ochishning zamonaviy usullarini ko'rib chiqaylik: Ochishning eng keng tarqalgan usuli burg'ulashda yuvish suyuqligi bilan aylanadigan burg'ulash usuli hisoblanadi. Yuvish suyuqligi sifatida turli xil eritmalar qo'llaniladi, ularning eng yaxshisi chuqurlik zonasining (zaboy) o'tkazuvchanligini kamaytirmaydigan uni ishlab chiqishda uzoq va murakkab ishlarni talab qilmaydigan eritma hisoblanadi.

Gil eritmalarining o'ziga xos xususiyatlari - tinch holatda qalinlashishi va aralashtirishda ham suyultirish qobiliyati, o'tkazuvchan sirtida past o'tkazuvchan filtr hosil qilish, burg'ulangan tosh zarralarini suspenziyada ushlab turish va kimyoviy reagentlar ta'siriga moyillikdir. Xom ashyoning mavjudligi, arzonligi ularni burg'ulashda keng qo'llashga imkon berdi.

1,04-1,07 g/sm³ zichlikdagi past gilli eritmalar barqaror jinslarga kirib borish uchun tavsiya etiladi, bunda suvli qatlamlarning qatlam bosimi chuchuk suvning gidrostatik bosimidan oshmaydi. Past loyli eritmalarini olish uchun eritmaning past zichligini ta'minlaydigan yuqori sifatli bentonit gillari va yuqori molekulyar organik kimyoviy reagentlar - suyuqlik yo'qotilishini kamaytiradigan moddalar ishlatiladi. Ushbu echimlardan foydalanish samarali ma'danni tiqilib qolish darajasini sezilarli darajada kamaytiradi.

1,08-1,45 g / sm³ zichlikdagi oddiy gil eritmaları ishlov berilgan va ishlov berilmagan shaklda ishlatilishi mumkin. Tozalanmagan gil eritmaları sayoz gorizontlarni ochishda, quduq devorlarining qulashi tufayli bu maqsadda texnik suvdan foydalanish mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Agar ishlov berilmagan eritmalar parchalanish jarayoniga to'sqinlik qilmasa, unda ochilishda ularni kimyoviy qo'shimchalar qo'shish kerak bo'ladi. Oddiy gil eritmalarining xususiyatlarini tartibga solish uchun reagentlar sifatida siz USCHR, sunil, KSSB dan foydalanishingiz mumkin.

Ma'danlarni ochish uchun texnik suvning asosiy afzalligi - unumdor gorizontlarning ifloslanishini oldini olish, ularning tiqilib qolishini minimallashtirish, sifat sinovlarini o'tkazish imkoniyati, natijada gidrodinamik va ishlab chiqarish gorizontlarining boshqa parametrlarini aniqlash ishonchliligini oshirishga olib keladi. Yuvish suyuqligi sifatida texnik suvning afzalliklari uning yuqori harakatchanligi, past yopishqoqligi va past zichligini o'z ichiga oladi.

Bu omillar quduq tubi va unumdor gorizontdagi gidrostatik bosimning pasayishiga, suyuqlik harakati tizimidagi gidravlik qarshilikning kamayishiga, suv

nasoslarining ish sharoitlarining yaxshilanishiga va ularning mahsuldorligini oshirishga yordam beradi. Texnik suvni yuvish suyuqligi sifatida ishlatish imkoniyatini belgilaydigan asosiy shartlar:

- Burg'ulashda tog' jinslarining barqarorligi, yuvuvchi suyuqlik oqimining eroziv ta'siriga yuqori qarshilik;
- suv quvurlarida suv oqimining yuqori tezligini yaratishga imkon beruvchi kuchli nasoslarning mavjudligi;
- yuqori yutuvchanlik tufayli uzluksiz suv ta'minoti.

Ushbu usulning texnologik xususiyatlari (suvli qatlamlarni ajratish zarurati, burg'ulash paytida suv oqimi bilan kurashishning qiyinligi, tog' jinslaridan neft plombalarining shakllanishi) tufayli ma'danga boy gorizontni ochishda siqilgan havodan foydalanish keng qo'llanilmagan. Burg'ulash asbobida, 10 m dan ortiq chuqurlikdagi qumli suv bilan to'yingan qatlamlarni ochish qiyinligi va boshqalar)

Qulayliklarga quyidagilar kiradi:

- mexanik tezlikni oshirish;
- koronka va dolotlarni eskirishini kamaytirish;
- bosimi past bo'lgan suvli qatlamlarni sifatli sinovdan o'tkazish imkoniyati;
- muzlagan va oson eroziyalanadigan jinslar zonasida qo'llash samaradorligi;

Eritмага ko'pikli moddalar kiritilishi bilan ikki muhit chegarasida sirt tarangligi pasayadi va eng muhimi, yuvish eritmasining zichligi 40-50% ga kamayadi, bu esa ma'danga boy gorizontdagi eritmaning teskari bosimini kamaytiradi. va uning tiqilib qolishi. Gazlangan eritmada kichik havo pufakchalari mavjudligi, ikkinchi tomonidan kanallarini blokirovka qilishga olib keladi; quduqning devorlarida havo qatlamini yaratilishiga, bu qatlamga teskari bosimni kamaytiradi va uning tiqilib qolishini kamaytiradi.

Shunday qilib, mahsuldor gorizontlarni ochishda har bir yuvish suyuqligi o'zining ratsional qo'llanish sohasiga ega bo'lib, u mahsuldor gorizontning geologik va gidrogeologik sharoitlariga bog'liq. Shuning uchun unumdor gorizontlarni ochishning samarali usullarini ishlab chiqish muayyan sharoitlarga mos keladigan burg'ulash suyuqligini tanlashdan boshlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Басарыгин Ю.М. и др. Заканчивая скважин. –М.: Недра, 2000, 97 с.
2. Булатов А.И. и др. Тампонажные материалы. –М.: Недра, 1991, 228 с.
3. Иванников В.И. и др. Новая технология и технические средства для регенерации буровых растворов//НТЖ. Строительство нефтяных и газовых скважин на суше и море, 2004.

4. Рязанов Я.А. Энциклопедия по буровым растворам.—М.: Летопись, 148с.
5. Ziyonet.uz internet portali.
6. www.geokniga.org
7. www.atlaskopko.ru

O'LCHOV O'TKAZGICHLARNI TAHLIL QILISH

Jurayev A.Ch. – TMTI assistenti

Qurbonov A.R. – TMTI talabasi

BPT (Блок преобразователей термоэлектрических) turdagi termoelektrik konvertorlari bloki o'lchovlar sohasidagi ko'plab ishlashiga qaramay, hozirgi vaqtda bunday oqimlarni o'lchash usullari va asboblarning umumlashtirilgan tasnifi mavjud emas. Kontaktli va kontaktsiz o'lchovlarga bo'linish asosan qo'llaniladi; ishlatiladigan magnitometrik, magnit-rezonans, magneto-modulyatsiya turiga ko'ra bo'linish; turli strukturaviy diagrammalardan foydalanishga asoslangan konversiya turiga ko'ra bo'linish (199): to'g'ridan-to'g'ri konvertatsiya qilish, o'zgaruvchan magnit harakatlantiruvchi kuch manbai (to'g'ridan-to'g'ri oqim transformatorlarini o'lchash) va doimiy MMF manbai (magnit komparatorlar) bilan taqqoslash bilan muvozanatlash konvertatsiyasi.

O'lchovlar sohasi darajasida ham, elektron yechimlar darajasida ham ko'plab xususiyatlarni o'z ichiga olgan qurilma va bunday "kesilgan" tasnif yetarli emasga o'xshaydi, chunki u, xususan, barcha xilma-xillikda harakatlanishga imkon bermaydi yechimlar mavjud.

Shuningdek, adabiyotda berilgan tasniflarda ba'zi noaniqliklarga e'tibor qaratamiz, bu ham yaxshi yo'nalishga hissa qo'shmaydi. Bundan tashqari, IP (Измеритель потенциала ИП) rivojlantirish tendentsiyalari, shuningdek, boshqa ma'lumot konverterlash, ko'pincha mavjud tasniflash doirasida mos emas, ularning tizimli qurilish va ish tamoyillari uchun variantlari yanada turli olib keladi.

Shuning uchun IPBPT (Измерительные преобразователи больших переменных токов в электроэнергетике)ni tizimlashtirish va tasniflash vazifasi IPBPTni rivojlantirish va takomillashtirish yo'llarini va ularni qurish nazariyasini belgilash imkonini beruvchi tasniflash tizimidir.

1-rasmda daraxtga o'xshash tasniflash grafigiga asoslangan IPBPT ning ishlab chiqilgan umumlashtirilgan tasnifi ko'rsatilgan.

Tanlangan tasniflash xususiyatlarini to'rt guruhga bo'lish mumkin:


- birinchi guruh (I daraja) BPT o'lchash transduserlari (Transduser - tanib oluvchi elementning javobini o'lchanadigan signalga aylantiruvchi qurilma) uchun

asosiy talablardan biriga taalluqlidir: kontaktlarning zanglashiga olib kirmasdan oqimni o'lchash imkoniyati yoki mumkin emasligi;

- ikkinchi guruh (II-V darajalar) BPT o'lchashning fizik asoslariga taalluqlidir;

- uchinchi guruh (VI-VII darajalar) blok-sxemalarni qurishni belgilaydi;

- to'rtinchi (VIII daraja) to'g'ridan-to'g'ri magnit maydonga ta'sir qiluvchi elementlar bilan bog'liq.



1-rasmdagi qavs ichidagi kursiv bilan yozilgan so'zlar adabiyotda qabul qilingan guruh nomlariga mos keladi va oddiy shrift bilan yozilgan, kiritilgan guruhlarning qisqa nomlariga mos keladi.

Qattiq chiziqlar IPBPT ni qurish usullarini ko'rsatadi, ma'lum darajada adabiyotda tasvirlangan va nuqtali chiziqlar IPni qurishning yangi usullarini belgilaydi.

XONJIZA POLIMETALL RUDA KONI

Ziyayev F.Ch – TMTI assistenti

Fayziyev X.A – TMTI talabasi


Surxondaryo viloyatidagi kon Hisor tog'larining janubi g'arbiy qismida, Denov shadridan 90 km uzoqlikda joylashgan. Vulkanogen jinslardagi kolchedonpolimetall sanoatgenetik tipga mansub. Konda 1968-1974-yillarda mufassal razvetka ishlari olib

borilgan. Konni ilk bora T.Sh.Shoyoqubov kashf etgan. Xonjiza polimetall konining ishga tushishi va rivojlanishiga asos bo'lgan qonun Vazirlar Mahkamasining «Xonjiza polimetall konini ochish to'g'risida» 2002- yil 17-oktabrdagi 359-sonli qarori bilan va O'zbekiston Respublikasi 1- Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2006-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida» 2005- yil 8- noyabrdagi PQ216-sonli qarori 6- ilovaning 42-bandi asos bo'ldi. Bu banda quyidagilar keltirib o'tildi;

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va “Olmalik KMK” OAJning Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalari zaxirasi negizida tegishli ravishda yiliga 650 va 500 ming tonna ruda qazib chiqarish quvvatiga ega kon boyitish majmuasini qurish va 2009-yilning ikkinchi yarim yilligida sanoat ko'lamida ishlab chiqarishni tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi o'n kun muddatda Xonjiza koni foydali qazilmalar zaxirasini belgilangan tartibda “Olmalik KMK” OAJning balansiga topshirsin.

3. “Olmalik KMK” OAJ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining



“O'zog'irneftgazkimyoloyiha” instituti Davlat Geologiya va mineral resurslar qo'mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda “Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalarini birgalikda to'liq qayta ishlash” loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин. Unda: metallar eng kam chiqindiga chiqarilgan holda konlar

zaxiralarini to'liq qayta ishlash yo'li bilan qimmatbaho komponentlarni maksimal ajratib olish;

Xonjiza konidagi tarkibida metall ko'p bo'lgan polimetall rudalarni Uchquloch koni rudalari bilan qo'shib qayta ishlash nazarda tutilsin.

4. Belgilansinki, import qilinadigan zarur texnologik uskunalarni xarid qilishga O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini jalb etgan holda “Olmalik KMK” OAJning maxsus hisob varag'ida mis sotishdan tushadigan ortiqcha foydadan jamlanadigan mablag'lar mazkur loyihani amalga oshirishni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, “Davarxitektqurilish” qo'mitasi hamda “Olmalik KMK” OAJ loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy asosi tasdiqlanganidan so'ng ikki oy muddatda asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berishga tanlov hujjatlarini ishlab chiqsin va tender o'tkazsin.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tanlov savdolari natijalariga ko'ra, xarid qilinadigan import texnologik uskunalar qiymatining 35 foizidan ortiq bo'lmagan hajmda mazkur loyihani amalga oshirishni 2007-yildan boshlab birgalikda moliyalashtirishni ta'minlasin.



6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi "Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalarini birgalikda to'liq qayta ishlash" loyihasini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining 2006-yilgi va keyingi yillardagi Investitsiya dasturiga kiritсин.

7. "Olmaliq KMK" OAJga zarur hollarda mazkur loyihani amalga oshirishga Rossiya Federatsiyasining "Mexanobr-injining" YoAJ, "RIVS" YoAJ (Sankt-Peterburg shahri) va "Giprotsvetmet" FGUP (Moskva shahri) kabi bazaviy institutlari va boshqa yuqori malakali xorijiy mutaxassisnlarni kontrakt asosida jalb etishga ruxsat berilsin.

8. "Olmaliq KMK" OAJ mazkur loyihani amalga oshirish davrida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha, Xonjiza va Uchquloch konlari polimetall rudalarini sanoat ko'lamida qazib olish va qayta ishlashni ta'minlash uchun "Olmaliq KMK" OAJ tomonidan import qilinadigan materiallar, uskunalar va ular uchun O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan ehtiyot qismlar, olib kelinadigan texnik hujjatlar bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlaridan tashqari) ozod etilsin

2007-yilning ikkinchi yarmida OKMK Xonjiza polimetall konini qazish va tog'-boyitish kompleksi qurilishiga kirishildi. 2011-yilning 6-may kuni Xonjiza kon boshqarmasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Bugungi kunda Xondiza kon boshqarmasi tarkibiga Xondiza shaxtasi, boyitish fabrikasi, ta'mirlash-qurilish uchastkasi, moddiy-texnika bazasi kiradi. Bu yerda polimetall rudalar qazib chiqariladi va boyitiladi. Natijada ulardan mis, rux va qo'rg'oshin konsentratlari olinadi.

Bu yil «Olmaliq KMK» AJ ning Surxondaryo viloyatida joylashgan Xonjiza kon boshqarmasi rasman ochilganligiga 10 yil to'ldi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan, Toshkentda bo'lib o'tgan matbuot anjumanida jurnalistlar va bloggerlar kon boshqarmasining tarixi, uning faoliyati va yillar davomida erishgan yutuqlari to'g'risida batafsil so'z yuritildi.

Xonjiza konidagi qidirma ishlari natijasida aniqlangan umumiy zaxirasi 1,5 million tonna rux, 700 ming tonna qo'rg'oshin, 180 ming tonna mis va 2,3 ming tonna kumushni tashkil etadi.



Xondiza polimetall ruda koni. vulkanotektonik strukturada joylashgan bo'lib, asosan, andezit datsit riolit tarkibli quyi karbon tog' jinslaridan tuzilgan. Intruziv tog' jinslaridan granitporfir, gabbrogranit, gabbrodiorit, diabazporfir, adamelit va lamprofirlar mavjud. Kondagi eng katga ruda to'plami vize yarusining zoy (C,t—V,) va vaxshivar (C,v2S) svita yotqiziklarida (konglomerat, qumtosh, alevrolit va riolitli tuflar) joylashgan. Asosiy rudalashuv zonasi bir-biriga yaqin joylashgan, 10– 20 m dan 120–150 m gacha bo'lgan qatlamsimon va linzasimon tanalardan iborat bo'lib, yalpi brekchiyasimon hamda xolxolsimon rudalar majmuasidan iborat. Polimetall rudalar, asosan, galenit, sfalerit, xalkopirit minerallaridan tashkil topgan. Oz miqdorda pirit, kvars, seritsit, dolomit, xlorid ham uchraydi. Rudada asosiy elementlar (Zn, Pb, Si) dan tashqari, sanoat ahamiyatiga ega Ai, Ag, Cd, Se, Fe va boshqa bor.

Ishlab chiqarishni texnik jihozlash, albatta, juda yaxshi. Lekin bu ishlab chiqarishlarda ishlayotgan mutaxassislarning o'rnini va ahamiyatini baholash juda mushkul. Hozirgi vaqtda kon boshqarmasi xodimlari jamoasi 930 kishidan iborat. Erishilgan yutuqlarning asosini shak-shubhasiz, oqilona rahbarlik va xodimlarning o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi tashkil etadi.

Ekspertlarning so'zlariga ko'ra, yer osti texnikasini yangilash ham Xonjiza kon boshqarmasining asosiy yutuqlari qatoriga kiradi. « Bu jarayon uch yil oldin boshlangan edi. Yil mobaynida 13 birlikda yangi uskuna: oltita avtomomasval, beshta PDM yuklash, yetkazib berish mashinasi, ikkita burg'ulash qurulmasi sotib olindi. Bularning barchasi shaxtalarning ish unimiga ancha ta'sir ko'rsatdi» deb ta'kidlab o'tdi «Olmaliq KMK» AJ Xonjiza kon boshqarmasi direktori Botir Xo'jamurotov.

Texnikalar almashuvi va malakali mutaxassislar mehanti orqali Xonjiza bugun rivojlandi. Bugunga kelib Xonjiza polimetall konining 10 yilligini nishonlar ekanmiz, ortga nazar solsak konning bugungi kundagidek rivoj topishi uchun keep insonlarning mehanti singdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xonjiza polimetall konida bugungi kunga kelib yillik ish unimi 650 ming tonnani tashkil etadi. Soatlik ish unimi 82,07 t/soat, kunlik ish unimi 1850 tonnaga teng. Xonjiza polimetall konining yillik qazib olish foizi va hajmidagi o'zgarishlarga nazar solsak.

**Xonjiza polimetall koni 2012-2021 -yillar davomida ishlabchiqarish.
(foizlarda)**

Foydali qazilma	2012-yil	2020-yil	2021-yil
Rux	56%	75%	74,79 %
Mis	44-48 %	57%	54,69 %
Qo'rg'oshin	48 %	63 %	57,68 %
Yillik foizlarda	92,2 %	102,1 %	100,4 %

**Xonjiza polimetall konining 2018-2021-yillardagi ishlab
chiqarishi. (tonnada)**

Foydali qazilma	Umumiy x	2018-yil	2019-yil	2021-yil
Rux	1,5 m t	21m930 t	29m370 t	39m161 t
Mis	700 m t	47 ming	53 ming	24m606 t
Qo'rg'oshin	180 m t	3 m 360	4 m 99	7 m 256
Kumush	2,3 m t	-	-	-

Bu tuzulgan yillik foiz va qazib olish jadvaliga asosan shunday xulosa kelib chiqadiki, Xondiza polimetall koni ishlab rentabilini rivojlantirish uchun bugungi kundagi yangi jahon talablariga javob beradigon yuqori inavatsion texnologiyalar bilan taminlash, transport logistikasini rivojlantirish, o'zaro konlar aro temir yo'l kesishmalarini o'tkazish, malakali mutaxasislarni jalb qilish va shu qatorda Jaxonning ko'zga ko'ringan konpaniyalar bilan o'zaro a'loqani yo'lga qoyish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosan quyidagi fikirlarni qo'shimcha qilib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot texnologiyalari soxasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prizedenti qarori. Xalq so'zi gazetasi, 2019, 3-iyun.

2. «Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prizedentining 2005 yil 8 iyuldagi 117-son qarori.

3. www.ictcouncil.gov.uz – Kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi muvofiqlashtiruvchi kengashining sayti.

4. Konchilik ishi soxasi bo'yicha tajribalar [http:// www.minind and coal.ru/video](http://www.minindandcoal.ru/video) ҳамда [http:// www.teachers.tv/video](http://www.teachers.tv/video)

ТҶҲЧИ МАЙДОНИНИНГ ГЕОЛОГИК ТУЗИЛИШИ, ПАЛЕОГЕН ЁТҚИЗИҚЛАРИ ВА ЁНУВЧИ СЛАНЕЦЛАРИ (ДЕҲҚОНОБОД)

Зияев.Ф.Ч – ТМТИ ассистенти

Файзиев.Х.А - ТМТИ талаба

Ўрганилаётган ҳудуд мамурий жihatдан Қашқадарё вилояти Дехқонобод шаҳрига киритилади. Ҳудуд геологик жihatдан Дехқонобод синклиналининг букилмасида жойлашган. Ҳудуднинг рельефи кескин табақаланган бўлиб, кўтарилмаларнинг мутлоқ баландликлари 700м дан 1200м гача ўзгаради. Майдондаги нисбий кўтарилмалар 700м дан 900м гача ўзгаради. Ҳудуддаги очилмаларнинг коэффиценти 30% - коникарли, 20% - яхши.



Расм 1. Худуднинг обзорли харитада жойлашуви

Ўсимликлар дунёси вакиллари иқлимнинг инжиқликлари сабабли кам ривожланган, кўпгина вакиллари ўтли ўсимликлар ҳисобланади, дарахт ва буталар аҳоли яшаш пунктлари яқинида учрайди. Хайвонот олаmidан камроқ қуён, тулки, жайра, захарли илонлар, турли хил кемирувчилар ва бўри учрайди.

Иқлими кескин континентал бўлиб, йиллик ёғин сочин миқдори 500-600мм ни ташкил қилади. Ёғин-сочинларнинг максимал миқдори декабрь-арпель ойлари оралиғида ёғиб ўтади. Қор қопламаларининг максимал қалинлиги 20-50см гача етади. Хавонинг максимал иссиқ кунлари июльда бўлиб, +40-45С° гача етади. Хавонинг суткада ўзгариши 24С° ни ташкил қилади. Кишда хаво -25С° гача етади.

Хавони сутка давомида кескин ўзгариши кучли доимий эсувчи шамолларни келтириб чиқаради. Улар одатда қишда жануби-ғарбий йўналишда,

бахор-ёз фаслларида эса шимоли-шарқий йўналишда эсади. Уларнинг ўртача эсиш тезлиги 6-7м/сек, максимал тезлиги эса 20-25м/сек ташкил қилади.

Қарашина участкасининг шимоли-шарқий қисмида Кичик-Урадарё ва Хон дарёлари оқиб ўтади. Дарёлар доимий фаолиятдаги дарёлар ҳисобланади. Қизилча участкасининг жануби-ғарбий қисмида Ачисой ва Қизилча дарёлари оқиб ўтади. Бу дарёлар ёз фаслининг охирида қуриб қолади. Дарёлардаги сув баҳорда ва ёзнинг бошида ёмғир ва қорларнинг эриши орқали кўпаяди. Ёзнинг охири ва кузда айрим дарёлар қуриб қолади.

Аҳолининг асосий қисми ўзбеклар ва тожиклар ташкил қилади. Аҳолининг асосий қисми боғдорчилик ва чорвачилик билан шуғулланади. Аҳолининг бир қисми Қарашина шахридаги корхоналарда, Дехқонободдаги калийли ўғитларни қайта ишлаш корхонасида ва Тубегатанг тоштуз ва калийли тузлар қонида ишлайдилар.

Тошкент-Тошгузор-Бойсун-Қумқурғон темир йўл магистрали Қизилча участкасидан шимоли-шарқий йўналишдаги 5 км ва 15 км шарқда Дехқонобод станцияси, Қарашина участкасидан жануби-шарқда ва Туйчи участкасидан шарқда темир йўл магистрали ўтади.

Худуднинг геологик ўрганилганлиги

XIX ва XX асрларда Афғон-Тожик депрессиясида ва Сирдарё хавзасида ёнувчи сланецлар ҳосилаларининг аниқланиши (К.Окладних, Г.Романовский ва Б.Вебер) Хисор тоғларининг жануби-ғарбий қисмидаги Бойсун майдонида геологик қидирув ишларини XX асрнинг 40 йилларида (Т.А.Сикстель-1940й, Н.И.Соснина 1942й.) олиб борилишига туртки бўлди. Бу майдонда ёнувчи сланецларнинг очилмалари мавжуддир.

Ёнувчи сланецларнинг маданлилиги ҳақидаги маълумотлар В.И.Попов, Н.И.Гриднёв ва П.А.Чистяков томонидан 1946йилда Тожик депрессиясининг формацияларини радиоактивлигини ўрганиш давомида аниқланди. Геохимёвий таҳлил давомида Шеробод шахридан олинган намуналарда уран, ванадий, молибден ва бошқа шу каби элементларнинг юқори кўрсаткичларини кўрсатди. Кейинги ўрганиш ишлари ўтган асрнинг 40-50 йилларида Сидорский В.В., 60 йилларда Федеренко А.С., Лузановский А.Г., Нишонходжаев Р.Н., 80 йилларда Пирназаров Т.П. томонидан олиб борилди.

Дехқонобод ёнувчи сланецлар қони Бойсун ёнувчи сланецлар қони билан бир хил шароитда жойлашган. Қуйида ушбу қоннинг ўрганилганлик тарихи келтирилган.

1940 йилда ёнувчи сланецлар қатлами геологик маршрутлар давомида кўзатилган бўлиб, сланецли структура 54 км узокликка чўзилган. Аммо ишларнинг асосий қисми Бойсун ва Дербент участкаларнинг алоҳида участкаларида олиб борилди. “Захиранинг ҳисоби” қатламнинг тарқалиш

йўналиши бўйича 54 км масофага бахоланди. Бахолаш чуқурлиги қатламнинг очилиш сатхидан 1 км чуқурликкача олинди. Бахоланган захира 68 млн. тоннани ташкил этди. Аммо кам ўрганилганлиги сабабли захира категорияларга бўлинмади.

Худди шу участкаларда 1942 йилда ишлар давом эттирилиб, худди шу вақтда Бойсун участкасида 1:5000 миқёсдаги 4 км² майдонда геологик съёмка ишлари олиб борилди. Шу вақтда Дербент участкасида 1:10000 миқёсдаги геологик съёмка ишлари олиб борилди. Съёмка ишлари канавалар, шурфлар ва 12 штольнялар ўтиш орқали бажарилди.

1942 йилда Бойсун, Дарбанд ва Оралик участкаларида 14,8 млн тонна ёнувчи сланецлар захираси хисоблаб чиқилди.

1962 йилда Ревизион-тематик экспедициянинг назарий гуруҳи томонидан каустобиолитларда камёб металллар маданлашувига қидирув ишлари олиб борилди.

Фёдоренко А.С. томонидан олиб борилган ишлари натижасида Жанубий ва Ғарбий Ўзбекистон қуйи эоценнинг ёнувчи сланецларининг металлиги бўйича хисобот тайёрлаб, унинг хулосаси бўйича жанубий ва ғарбий Ўзбекистон ёнувчи сланецлари палеогеннинг сузак свитасига киритилувчи ёнувчи сланецлар майдони 60-65 минг км² ни ташкил қилади. Сланецнинг захираси ҳар бир км² да 2 млн тоннани ташкил қилади. Кимёвий таҳлиллар натижасида 1 км² сланецли майдондаги ёнувчи сланецларда ванадийнинг беш оксиди 8 минг тонна, молибден 3 минг тонна, вольфрамнинг уч оксиди 1,2 минг тонна, уран 0,25 тонна, турли хил мумлар 200 минг тоннани ташкил қилди.

1963-66 йилларда Қашқадарё ГҚЭ (Лор-Ходкевич Ю.С.) томонидан Бойсун ёнувчи сланецлари конида, Шеробод-Бойсун синклиналининг шимоли-ғарбий қанотини тўлиқ эгаллайдиган майдонда мақсадли ишлар олиб борилиб, унинг вазифаси “Бойсун ёнувчи сланецлар конида” полимер, қишлоқ хўжалик ўғитлари, ва бошқа кимёвий ва ёнилғи хом-ашёсини ишлаб чиқариш учун ресурс сифатида фойдаланиш мақсадида геологик қидирув-разведка ишлари олиб борилди.

Ушбу ишларнинг натижасида кондаги ёнувчи сланецларнинг захираси аниқланиб 1961 йилнинг талаб таркибига кўра захиралар категорияларга бўлиниб, улар В-216 минг тонна, С₁ – 1421 минг тонна, С₂ – 53822 минг тонна ни ташкил қилади. Захиранинг умумий улуши 55459 минг тоннани ташкил қилди.

1965-67 йилда “Тошкентгеология” трестига қарашли палеогеографик партияси (Нишонходжаев Р.Н. ва бошқалар) томонидан Ўзбекистондаги мавжуд ёнувчи сланецлар конларини комплекс ўрганиш ишлари бошланди. Ушбу ўрганишлар ишлари натижасида Ўзбекистон бўйлаб иккита йирик сланецли

хавзалар ажратилди: Қизилқум ва Амударё-Хисоролди. Уларнинг ҳудудларида ёнувчи сланецларнинг аниқ конлари ажратилди. Қизилқум хавзасида – Оқтов ва Сангрунтов, Амударё-Хисоролдида эса – Бойсун, Ўртабулок, Қоровулбозор, Учқир, Жом каби конлар ажратилди. Ушбу конларда олиб борилган ишлар натижасида ёнувчи сланецларнинг барчаси қуйи эоцен ётқизикларининг асосига тегишли эканлиги исботланди.

1978-1989 йилларда Қашқадарё ГКЭ (Т.П.Пирназаров 1989й) Дехқонобод, Оққўл, Шуронсой ва бошқа майдонларда фосфоритлар ва бошқа фойдали қазилмаларга бўлаган қидирув ишлари олиб борилди.

Ушбу олиб борилган ишлар натижасида Дехқонобод майдонидаги 17,31,25,28,29,54 чи скважиналарда қалинлиги 0,7м гача бўлган ва узунлиги 25км бўлган ёнувчи сланецлар қатлами кузатилган. Бу қатламдаги ёнувчи сланецларда қум аралашмаси мавжуд эмас, ёғсимон ва айрим жойларда толасимон.

2011-2013йилларда “Жанубий Ўзбекистон ГСПЭ” Бойсун гуруҳи томонидан ёнувчи сланецларнинг сифати ва майдоннинг тузилишини ўрганиш мақсадида 300м чуқурликкача бўлган чегарада қидирув ишлари олиб борилди.

Ушбу қидирув ишлари натижасида Дехқонобод майдонидаги сузак свитасининг қуйи эоцен ёнувчи сланецлари очилмалари шимоли-ғарбдан жануби-шарқий йўналишда тарқалиши кузатилиб, Дехқонобод синклиналининг центриклинал ва қанотларида тоғ ишланмалари орқали кузатилди.

Ёнувчи сланецларнинг тахлили натижасида қоплама ва қуйидаги жинслардаги асосий ореол ҳосил қилувчи элементлар бўлиб: Мо, Ag, Re, U, Au, V ва ҳк. ҳисобланиб, улар саноат аҳамиятига эга.

MUHANDISLIK KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARINI LOYIHALASH, QURISH VA FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Karabayev.I.T - TMTI asisstenti,

Shaydilov.J.N – TMTI talaba

Компьютер yordamida loyihalash tizimining ishlashi (Eng. *Computer-aided dizayn mahsulot assortimenti CAD*) - axborot texnologiyalari loyihasini rejalashtirish funktsiyalarini amalga oshiradigan avtomatlashtirilgan tizim , loyihalash jarayonini avtomatlashtirish uchun tashkiliy-texnik tizim; xodimlardan va uning faoliyatini avtomatlashtirishning murakkab texnik, siyosiy va boshqa vositalaridan iborat. Shuningdek, SAPR qisqartmasi bunday tizimlarga murojaat qilish uchun keng qo'llaniladi .

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng, tadqiqot tashkilotlari, AQSh harbiy-sanoat majmuasi kontinental havo mudofaasi kuchlari va vositalarini apparat-dasturiy

kompleksini boshqarishda foydalanish uchun yaratilgan - birinchi bunday tizim amerikaliklar tomonidan o'rnatilgan.

Elektron dizaynda SAPRdan foydalanish Elektron Dizayn Avtomatlashtirish (EDA) deb nomlanadi. Mexanik dizaynda SAPR MDA yoki CAD-kompyuter yordamida dizayn sifatida tanilgan, bu kompyuter dasturlari yordamida texnik chizma yaratish jarayonini o'z ichiga oladi.

Mexanik dizayn SAPR dasturi an'anaviy loyihalashda ob'ektlarni ko'rsatish uchun vektor grafikalaridan foydalanadi yoki u dizayn qilinayotgan ob'ektlarning umumiy ko'rinishini aks ettiruvchi rastrli grafiklarni ham yaratishi mumkin. Biroq, bu shablon shakllaridan ko'proq narsani o'z ichiga oladi. Texnik va muhandislik chizmalarini qo'lda yaratishda bo'lgani kabi, SAPR chiqishi maxsus ilovalar uchun konventsionalarga muvofiq ishlatiladigan materiallarning xususiyatlari, jarayonlar, o'lchamlar kabi ma'lumotlarni yetkazishi kerak.

SAPR ikki o'lchovli (2D) makonda egri chiziqlar va shakllarni loyihalash uchun ishlatilishi mumkin; yoki uch o'lchovli (3D) fazodagi egri chiziqlar, sirtlar va qattiq jismlar.

SAPR sanoat dizaynidagi muhim bo'g'in bo'lib, ko'plab sohalarda, jumladan avtomobilsozlik, kemasozlik va aerokosmik sanoat, sanoat va arxitektura dizayni, protezlash va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi. SAPR shuningdek, ko'pincha raqamli kontent deb ataladigan filmlar, reklama va texnik materiallardagi maxsus effektlar uchun kompyuter animatsiyasida keng qo'llaniladi. Bugungi kunda kompyuterlarning keng tarqalganligi shuni anglatadiki, hatto parfyum shishalari va shampun dispenserlari ham bugungi kunda 1960-yillarda muhandislar tomonidan ko'rilmagan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilmoqda. O'zining ulkan iqtisodiy ahamiyati tufayli SAPR hisoblash geometriyasi, kompyuter grafikasi sohasidagi tadqiqotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. (har ikkala apparat va dasturiy ta'minot) va diskret differentsial geometriya.

1960-yillarning o'rtalaridan boshlab, IBM Drafting System bilan kompyuter yordamida loyihalash (SAPR) tizimlari elektron chizmalardan foydalangan holda qo'lda chizmalarni takrorlash qobiliyatidan ko'ra ko'proq imkoniyatlarni taqdim eta boshladi, bu SAPRda ko'chib yuruvchi kompaniyalar uchun aniq iqtisodiy foyda bo'ldi. SAPR ning qo'lda chizishga nisbatan afzalliklari - BOMni avtomatik yaratish, avtomatik IC belgilash, shovqinlarni tekshirish va boshqalar - bugungi kunda kompyuter tizimlarida ko'pincha odatiy hol sifatida qabul qilinadigan imkoniyatlardir. Oxir-oqibat, SAPR dizaynerga muhandislik hisoblarini amalga oshirish qobiliyatini berdi. Ushbu o'tish davrida hisob-kitoblar hali ham qo'lda yoki kompyuter dasturlarini ishga tushira oladiganlar tomonidan amalga oshirildi. SAPR mashinasozlik sanoatidagi inqilobiy o'zgarish bo'lib, u erda chizmachilar, dizaynerlar

va muhandislarning rollari birlasha boshladi. Bu bo'lim va bo'limlarni tugatmadi, balki turli bo'limlarni birlashtirdi. SAPR kompyuter texnologiyasi sanoatga qanday ta'sir qila boshlaganiga misoldir.

Zamonaviy SAPR dasturiy paketlari 2D vektor chizma tizimlaridan 3D qattiq va sirt modellarigacha. SAPR paketlari ham tez-tez uch o'lchamda aylanish imkonini beradi, bu sizga dizayn ob'ektini istalgan burchakdan, hatto ichkaridan ham ko'rish imkonini beradi. Ba'zi SAPR dasturlari dinamik matematik modellashga qodir. SAPR texnologiyasi asboblari va mexanizmlarni loyihalashda, shuningdek, kichik turar-joy binolaridan tortib eng yirik savdo va sanoat tuzilmalari (kasalxonalar va fabrikalar)gacha bo'lgan barcha turdagi binolarni loyihalashda qo'llaniladi.

SAPR dekoratsiyalar, mebellar, maishiy texnika va boshqalar kabi ob'ektlarni loyihalashda ham qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, hozirda ko'pgina SAPR ilovalari muhandislar o'z mahsulot dizaynini yaxshiroq tasavvur qilishlari uchun ilg'or renderlash va animatsiya imkoniyatlarini taklif etadi. 4D BIM - bu loyihani boshqarish uchun vaqt yoki jadval ma'lumotlarini o'z ichiga olgan virtual qurilish muhandisligi simulyatsiyasining bir turi. SAPR bunday afzalliklarga ega bo'lgan kompyuter texnologiyalari sohasida ayniqsa muhim bo'ldi, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi va sezilarli darajada qisqartirilgan dizayn aylanishi kabi. SAPR dizaynerlarga dizaynlarni ekranda rejalashtirish va loyihalash, ularni chop etish va keyinchalik tahrirlash uchun saqlash, chizmalariga vaqtni tejash imkonini beradi.

Sanoat mahsulotlarining hayot aylanishi doirasida SAPR loyihalash va tayyorlash bosqichlarida ishlarni avtomatlashtirish vazifalarini hal qiladi.

Turli quyi tizimlarning KSAP jami butun SAPR tizimining KSAP ni tashkil qiladi.

SAPRning tarkibiy tarkibiy qismlari *tizimlarning* barcha xususiyatlariga ega bo'lgan va mustaqil tizimlar sifatida yaratilgan *quyi* tizimlardir. Har bir quyi tizim SAPR tizimining bir qismi bo'lib, ba'zi xususiyatlar bilan ajralib turadi, bu tegishli dizayn echimlari va loyiha hujjatlarini olgan holda dizayn vazifalarining ba'zi funktsional to'liq ketma-ketligini amalga oshirishni ta'minlaydi. Dizayni bo'yicha SAPR quyi tizimlari ikki turga bo'linadi: *dizayn* va *texnik xizmat ko'rsatish*.

Komponent quyi tizimda ma'lum bir funktsiyani bajaradi va eng kichik (bo'linmas) mustaqil ravishda ishlab chiqilgan yoki sotib olingan SAPR elementini (dastur, tranzistor model fayli, grafik displey, ko'rsatma va boshqalar) ifodalaydi. ^{[1][2]}

SAPR vositalari yordamida mahsulotning geometrik modeli yaratiladi, u CAM tizimlarida kirish ma'lumotlari sifatida ishlatiladi va uning asosida CAE tizimlarida muhandislik tahlili uchun zarur bo'lgan o'rganilayotgan jarayonning modeli shakllantiriladi.

Dastlab, SAPR tizimlari uchun dasturiy ta'minot Fortran, ALGOL kabi kompyuter tillari yordamida ishlab chiqilgan, ammo ob'ektga yo'naltirilgan

dasturlash usullarining rivojlanishi bilan bu keskin o'zgardi. Odatda zamonaviy parametrik modellashtirish tizimlari va erkin shaklli sirt tizimlari o'zlarining API'lariga ega bo'lgan bir qator asosiy C modullari asosida qurilgan. SAPRni NURBS geometriya ma'lumotlari yoki chegarani tasvirlash (B-rep) ma'lumotlari bilan grafik foydalanuvchi interfeysi (GUI) o'zaro ta'siri atrofida qurilgan deb hisoblash mumkin.geometrik modellashtirishning yadrosi . Geometrik cheklash mexanizmidan geometriya o'rtasidagi assotsiativ munosabatlarni boshqarish uchun ham foydalanish mumkin, masalan, eskizdagi simli ramka geometriyasi yoki yig'ilishdagi komponentlar.

Ushbu assotsiativ munosabatlarning kutilmagan imkoniyatlari raqamli prototiplash deb ataladigan prototiplashning yangi shakliga olib keldi . Jismoniy prototiplardan farqli o'laroq, ularni qurish ancha uzoq davom etadi. Biroq, SAPR modellari jismoniy prototip sanoat kompyuterlashtirilgan tomografiya KT apparati yordamida skanerdan o'tkazilgandan so'ng kompyuter tomonidan yaratilishi mumkin. Vazifaning tabiatiga qarab, raqamli yoki jismoniy prototiplar dastlab muayyan ehtiyojlarga qarab tanlanishi mumkin.

SAPR tizimlari bugungi kunda barcha asosiy platformalar (Windows, Linux, UNIX va Mac OS X) uchun mavjud; ba'zi paketlar bir nechta platformalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Hozirgi vaqtda ko'pchilik SAPR dasturlari maxsus apparatni talab qilmaydi. Biroq, ba'zi SAPR tizimlari grafik va hisoblash jihatdan murakkab vazifalarni bajarishi mumkin, shuning uchun zamonaviy grafik kartalar , yuqori tezlikda (va ehtimol bir nechta) protsessorlar va katta hajmdagi RAM tavsiya etilishi mumkin .

Inson-mashina interfeysi odatda kompyuter sichqonchasi bilan , balki qalam va grafik planshet bilan ham ishlaydi . Modelning ekrandagi ko'rinishini manipulyatsiya qilish ham ba'zan Spacemouse / SpaceBall yordamida amalga oshiriladi. Ba'zi tizimlar 3D modelni ko'rish uchun stereoskopik ko'zoynaklarni ham qo'llab-quvvatlaydi. O'tmishda og'ir o'rnatish talablari yoki maxsus ilovalar bilan cheklangan texnologiyalar kengroq foydalanuvchilar bazasi uchun mavjud bo'ldi. Bularga CAVE yoki HMD va harakatni aniqlash texnologiyasi kabi interaktiv qurilmalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GOST 34.003-90“Axborot texnologiyalari. Avtomatlashtirilgan tizimlar uchun standartlar to'plami. Shartlar va ta'riflar”
2. GOST 23501.101-87 “Kompyuter yordamida loyihalash tizimlari. Asosiy qoidalar ”
3. RD 250-680-88“Yo'riqnoma. Avtomatlashtirilgan tizimlar. Asosiy qoidalar ”

4. *Firi, Maykl*. Qurilishni loyihalashda axborot texnologiyalari. London: Thomas Telford Publishing, 1999. - P. 52 - 228 p. - ISBN 0-7277-2673-0 .
5. "Kechki Chelyabinsk". Sovet SAPR dadasi (kirish mumkin bo'lmagan havola) . 2015-yil 28-yanvarda olindi . 2011-yil 27-noyabrda arxivlangan .
6. *Madsen, Devid A*. Muhandislik chizish va dizayn . - Klifton Park, NY: Delmar. - 2012. - ISBN 978-1111309572 ..
7. *Pottmann, H.; Brell-Cokcan, S. va Wallner, J*. Arxitektura dizayni uchun diskret yuzalar // Wayback Machine, pp. 213-234 Curve and Surface Design, Patrik Chenin, Tom Lyche va Larry L. Shumaker (tahrirlar), Nashboro Press. - ISBN 978-0-9728482-7-5
8. *Mizinina, I. N. Mizinina, A. I. Jiltsov, I. V.* Kompyuterning inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha lug'ati . - M .: OLMA-Press Education, 2006. - ISBN 978-5-948-49888-1 .
9. *Proydakov, E. M. Teplitskiy, L. A.* BT, Internet va dasturlash uchun atamalar va qisqartmalarning inglizcha-ruscha izohli lug'ati. - M .: Rus nashri, 2004. - ISBN 5-750-20195-3 . (Lug'at kompyuter uchun ABBYY Lingvo x3 bilan elektron versiyada taqdim etilgan)
10. GOST 15971-90 "Axborotni qayta ishlash tizimlari. Shartlar va ta'riflar"

MAKTAB QO'NG'IROQLARINI AVTOMALASHTIRISH

Karabayev.I.T – TMTI assistent

Ilyosov.SH.B – TMTI talaba

Annotatsiya: Bugungi kunga kelib inson omili(IO)dan to'g'ri foydalanish borasida juda katta rejalar ishlab chiqilmoqda. Biz IO ni ko'pincha inson ongisiz bajarishni imkoni yo'q ishlarda foydalanishimiz kerak. Buning uchun IO ga yuklatilgan mayda ishlarga kompiyuter texnologiyalarini jalb qilishimiz kerak. Chunki bu texnologiya charchashi , zerikishi yoki xato qilish xatiri juda past bo'ladi.

Kalit so'zlar: Mikrokontroller, Relay, Sensor, IO, ASB

Avtomatlashtirilgan maktab qo'ng'irog'i(automatic school bell) makablar , universitetlardagi o'quvchilarning darsga kirib chiqish qo'ng'irog'larini avtomatlashtiradigan qurilma. ASB ni hatto zavodlar yoki firmalarda ishchilarga faoliyatini tartibga solish maqsadida ham ishlatiladi.

Bu qurilma kodlar yordamida tuzilgan dastur orqali ishlardi. Ya'ni qurilmaga bizga kerak bo'ladigan vaqtlarni kiritamiz so'ng ASB kiritilgan vaqtlarga qarab qo'ng'iroq yoki boshqa texnologik jarayonni bajaradi. Masalan qo'ng'iroq chalish , bog'ga suv sepish kerakli vaqt chiroqni ochirish yoki yoqish, nasoslarni boshqarishga o'xshadan vazifalarni vaqt asosida boshqaradi.

ABS ning avzalliklarni va kamchiliklarni.


Avzalliklari

1. Qo'shimcha nazoratchining kerak bo'lmasligi.
2. Insonlarni to'liq etiborini darsga qaratilishi.
3. Vaqt xalofi o'rtacha ± 10 s
4. Energiya sarfi juda kichikligi (quvvati 9W)
5. Maktab qo'ng'irog'ini chalishni esidan chiqarmasligi
6. O'qituvchilarni vaqini tejashi
7. Haqiqiy vaqt bilan sozlanish imkoni
8. Doimiy energiya talab qilmasligi
9. Vaqtni eslab qolishi
10. Tashqi tasirlarga chidamliligi
11. Ma'lumot xavsizligi yuqoriligi
12. Ulanish jarayoni soddaligi
13. Dastur algaritmi elektr manbayining uzilishi va qayati ulanishi qo'ng'iroqlar ketma ketligiga tasir qilmasligi

Kamchiliklari

1. Qurilmaga vaqtni qo'lda kiritish imkoni yoqligi
2. Yangilanishni ishlab chiqaruchisiz bajarishning imkoni yoqligi
3. Qurilmaning ichki qismining murakkabligi
4. Mutahhasissiz qurilmaga o'zgartirish va kichik hatolar orqali qurilmaning butkul ishdan chiqishi yoki termik kuyishi.
5. Qurilmadan nusxa ko'chirishning imkoni yo'qligi.

Ishlatish yo'riqnomasi:



- 1) ASB sotuvchisiga vaqtlar jadvali beriladi.
- 2) ASBga vaqtlar sotuvchi kiritiladi.
- 3) ASBni devorga ornatiladi va quyidagi tartibga similar ulanadi1
 - 3.1) ASB manbaga ulanadi
 - 3.2) istemolchini ASBga 1-ilovadagidek ulanadi

Adabiyotlar:

1)Yusupbekov N.R., Muhamedov B.I., G'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlari nazorat qilish va avtomatlashtirish. Toshkent. 2015-y.

2)Proektov dlya Arduino Petin Viktor Aleksandrovich.

3)Xalmatov D.A, Kadirov O.X, Iskandarov Z.E, Avezov T.N, Niyazova N.A Texnologik jarayonlari identifikatsiyalash va modellash. Toshkent. 2021-y.

NOAN'ANAVIY ENERGIYA MANBALARINING ISTIQBOLLI TEXNOLOGIYALARI

Karabayev.I.T – TMTI assistent

Mirzamuratov.B.F – TerDU assistant

Energiyaga bo'lgan talabning muttasil oshishi muqobil energiya manbalariga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu bois so'nngi yillarda muqobil energiya manbalaridan foydalanish sezilarli darajada o'sdi. Mazkur soha jadal rivojlanib borishi, yaqin yillarda tiklanadigan energiya manbalari umumiy energiya bozorining asosiy qismini egallashi mumkin. Biz shuning uchun kelgusida yuqori samara beradigan, yangi texnologiyalarga asoslangan bir nechta yirik quyosh elektr stansiyasini barpo etishga kirishishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Hozirgi vaqtda shu maqsadda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda O'zbekistonning 6 ta hududida eng zamonaviy o'lchash stansiyalari joylashtirildi va har tomonlama puxta ishlangan loyihalarni tayyorlashda zarur bo'ladigan barcha ma'lumotlarni yig'ish ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston fotoelektrik modullar va quyosh energetikasida qo'llanadigan boshqa uskunalarni ishlab chiqarish uchun boy xomashyo zaxiralariga ega ekanini alohida qayd etish kerak. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 2013-yil 1-martdagi "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bu islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro moliya institutlarining baholariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining bunday yuqori o'sish sur'atlari yaqin istiqbolda ham saqlanib qoladi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, sanoatning yuqori darajada jadal rivojlanib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimizning elektr energiyasiga bo'lgan talabi 2030-yilda joriy yilga nisbatan 2 barobar oshadi va 105 milliarddan ziyod kilovatt-soatni tashkil etadi.

O'zbekiston geografik o'rni va iqlim sharoitlariga ko'ra buning uchun g'oyat qulay imkoniyatlarga ega. O'zbekistonda havo bir yilda 320 kundan ziyod ochiq bo'lib, mamlakatimiz yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi bo'yicha dunyodagi boshqa mintaqalariga nisbatan ustunlikka ega. Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki

xulosalariga ko'ra, O'zbekistonda quyosh energiyasining yalpi salohiyati 51 milliard tonna neft ekvivalentidan ortiqdir. Ana shu resurslar hisobidan, ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda, mamlakatimizda joriy yilda iste'mol qilinadigan elektr energiyasidan 40 barobar ko'p hajmdagi elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin.

“Fizika-Quyosh” ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi Xalqaro quyosh energiyasi instituti ilmiy va ilmiy-eksperimental tadqiqotlar o'tkaziladigan mintaqaviy markazga aylanishi ko'zda tutilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijalari quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha istiqbolli texnologiyalar sifatida joriy etilishi mumkin. O'tgan yili mamlakatimizda Janubiy Koreyaning “Neoplant” kompaniyasi bilan hamkorlikda yillik quvvati 12 ming tonnani tashkil etadigan texnik kremniy ishlab chiqaradigan zavod foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda “Angren” maxsus industrial zonasida Koreyaning “Shindong Enerkom” kompaniyasi ishtirokida yillik quvvati 5 ming tonna bo'lgan kremniy ishlab chiqaruvchi ikkinchi zavod qurilishi nihoyasiga yetkazilmoqda. Xitoy Xalq Respublikasining yirik kompaniyalari ishtirokida 2014-yilda “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida dastlabki quvvati 50 megavatt bo'lgan fotoelektr panellari ishlab chiqaradigan, “Jizzax” maxsus industrial zonasida esa yiliga 50 ming dona quyosh issiqlik kollektorlari ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil etildi.

Yaqin yillar mobaynida asosan uzoq va borish qiyin bo'lgan hududlardagi 1300 ta umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarini tajriba tariqasida quyosh kollektorlari bilan ta'minlashni rejalashtirilmoqda. Qishloq joylardagi 600 dan ortiq vrachlik punktlarida fotoelektrik panellar o'rnatiladi. Bugungi bosqichda quyosh energiyasidan foydalanish muammosi ilmiy tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlanmalari sohasidan ularni amaliyotda qo'llash sohasiga barqaror sur'atda o'tib bormoqda. Quyosh energetikasi esa, qayta tiklanadigan energiyaning boshqa turlari kabi, to'liq raqobatdosh, energiyaning, energiya olish usul va vositalarining eng sof turlaridan biriga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. A.Rahimov, “Elektrotexnika va elektronika asoslari”, Toshkent, “O'qituvchi”, 1988-yil.
2. A.Blashkin, “Obshaya elektrotexnika”, Leningrad, 1986-yil.
3. Solnicnaya energiya. <http://www.ecomuseum.kz/solar.html>.

ELEKTROMOBILLARNI HARAKAT VAQTIDA SIMSIZ ZARYADLASH

Qodirov J.U. - TMTI assistenti

Ziyotov S. - TMTI talabasi

Bugungi kunda elektromobillarga bo'lgan talab kundan kun oshayotgan bir vaqtda ulardagi quvvatlash masalalari o'rganilmoqda. Quvvatlashda maxsus quvvatlash qurilmalari yordamida quvvatlanadi. Ular kabellar yordamida va simsiz bo'lishi mumkin. Kabellar yordamida quvvatlashda katta quvvatni uzatish imkoni mavjud, lekin quvvatlash qurilmasini ko'p ishlatish elektromobilning ulanish joyidagi kontaktlarida vaqt o'tishi davomida muammoli vaziyatlar yuzaga kela boshlaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun olimlar tomonidan simsiz quvvatlash qurilmalarni ishlab chiqishgan. Ushbu simsiz quvvatlash qurilmasi elektromobil bilan hech qanday elektr bog'lanmagan, ular magnit jihatdan bog'langan. Bunda bir g'altakdan energiya boshqa g'altakka uzatiladi. G'altaklarning biri tok manbaiga ulanadi va ikkinchi g'altak elektromobilning akkumulatoriga maxsus sxemasi orqali ulanadi.



Yevropa yirik shaharlar avtoturargohlarida elektr avtomobillarni zaryadlovchi qurilmalarni ko'rish mumkin va sanoat allaqachon navbatdagi katta narsaga ya'ni simsiz zaryadlashga e'tibor qaratmoqda.

Smartfonni elektr tarmog'iga ulash o'rniga quvvatlovchining ustiga qo'yish kabi, elektr avtomobilni simsiz zaryadlash ham zaryadlovchining tepasida yoki ostida turganingizda batareyani to'ldiradi.

Bunda katta hajmli kabellar ishlarish hojati yo'q va asosiysi, avvalo, bu kabellar mavjud bo'lishi kerak. Siz shunchaki mashinani to'xtatib, quvvat olasiz

Avtomobilni simsiz zaryadlash sizda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan simsiz telefon zaryadlovchiga o'xshash ishlaydi, farq faqat o'lchamda. Simsiz telefon zaryadlash qurilmasi va telefon orasidagi masofa juda kichik ya'ni millimetrlarda, bu narsa elektr avtomobilida bir necha detsimetr bo'lishi mumkin.

Induktiv zaryadlash deb ataladigan texnologiyadan foydalanib, elektr quvvati havo bo'shlig'i orqali zaryadlovchidagi bitta chulg'andan avtomobilga o'rnatilgan ikkinchi cho'lg'amga o'tkaziladi. Bajarishingiz kerak bo'lgan yagona narsa cho'lg'amlarni moslashtirish uchun to'xtash joyini to'g'ri joyga qo'yish va zaryadlash boshlanadi.


Ushbu texnologiyadan foydalanish vaqtdan yutqazishingiz kamchiliklaridan biri bo'ladi, chunki quvvatlash uchun siz simsiz quvvatlash qurilmasini o'zingiz bilan olib yurishingiz va elektr avtomobilingizni quvvati tugaganda to'xtab uni quvvatlashingiz kerak bo'ladi, bu esa uzoq safarga chiqqaningizda sizga ancha qiyinchilik tug'dirishi mumkin

Harakat vaqtida simsiz zaryadlash

Ushbu texnologiya huddi uyda simsiz quvvatlash texnologiyasiga asoslangan bo'lib, avtomobil yo'llariga ketma-ket induktiv g'altaklar joylashtiriladi va harakatdagi elektr avtomobilini quvvatlaydi. Bu bir qanda afzalliklarga ega, masalan:

-avtomobil batareyasi 500 km masofa yurishga mo'ljallangan, sizning manzilingiz esa 700 km masofada joylashgan, ushbu texnologiya yordamida yo'lda to'xtamagan holda o'z manzilingizga yetib olishingiz mumkin

-uyga kelganda elektr avtomobilingizni yana quvvatlash manbaiga ulashingiz shart emas



Ushbu texnologiyani kamchiligi sifatida katta iqtisodiy harajatlardir. Kamchiligi sifatida uzatilayotgan elektr energiyasi uchun to'lovning murakkabligidir

ELEKTROMOBILLARNI AVTOTURARGOHDADA SIMSIZ ZARYADLASH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH USULLARI

Qurbonazarov.S.E – TMTI assistant


Bozorov.O.U – TMTI talaba

Annotatsiya: Elektromobillarni simsiz zaryadlash usullari hozirgi kundagi eng so'nggi texnologiyalardan foydalaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Hozircha ommalashmagan bo'lsada, lekin kelajakda rivojlanadigan albatta amaliyotga keng

joriy etiladigan yo'nalish hisoblanadi. Simli quvvatlash qurilmalariga nisbatan simsiz quvvatlash ancha qulay. Bunday qurilmalarda quvvatlash stansiyasiga kelgan haydovchi avtomobildan tushishi shart emas bo'ladi. Sababi, simsiz zaryadlash nuqtasiga kelib avtomobilni kerakli joyga to'g'ri to'xtatib avtomatik quvvat olinib boshlaydi va shu kabi afzalliklarga ega.

Kalit so'zlar: DC/AC → DC-o'zgarmas tok, AC-o'zgaruvchan tok. MOSFET (Metal-Oxide-Semiconductor metal-oksido-yarim o'tkazgichlar va FET – Field-Effect-Transistor Tranzistorlar va boshqariladigan elektr maydonlar)

Zamonaviy dunyoning diqqat markazida simsiz signal uzatish bilan ajralib turadi. Simsiz aloqa signalni (uzatiladigan ma'lumotni) fon shovqinidan ajratish uchun shartli ravishda qabul qilingan energiya ma'lum bir qismini belgilaydi. Simsiz quvvat uzatishda samaradorlik asosiy ko'rsatkichga aylanadi. Zaryadlash uchun yuborilgan energiya katta qismi tizimni tejamoq qilish uchun qo'lga olinishi kerak.



1-rasm. Elektromobilning simsiz zaryadlash stansiyasining sxemasi

Induktiv bog'lanish printsipi

Birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa yo'qligi sababli elektr transformatori eng oddiy misol hisoblanadi. Elektr energiyasi bu erda birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar orasidagi o'zaro induksiya orqali uzatiladi. Bugungi kunda simsiz yuk mashinalarini zaryad qilish tizimlarining ko'pchiligi induksiyon printsipi asosida ishlaydi.

Conductix - Wamplifier muhandislarining g'oyalari asosida ishlab chiqilgan va amalda qo'llaniladigan elektr simsiz zaryadlash misoli hisoblanadi. Induktiv zaryadlash usuli yuqori quvvatni o'tkazishni ta'minlaydi - o'nlab kVt tartibida chiqaradigan va qabul qiluvchi chulg'amlar orasidagi 10 sm dan ortiq havo bo'shlig'i orqali. Shu bilan birga, 90% darajasida umumiy tizim samaradorligi ancha past. Induktiv ulash tizimlari odatda kiloherts (kHz) chastota diapazonida ishlaydi. Buning


sababi, zamonaviy quvvat elektron qurilmalarida og'ir ferromagnit materiallar mavjud. Bunday materiallar har doim yuk tashish samaradorligi nuqtai nazaridan, avtomobilni zaryad qilish uchun mos kelmaydi. Ferromagnit yadrosi bilan jihozlangan bortdagi qabul qiluvchi g'altakning og'irligi 30 kVt quvvatga ega sanoat induktiv biriktirgich uchun 35 kg dan ortiq bo'lishi mumkin.

Mikroto'lqinlar orqali energiya uzatishni tashkil etish

Mikroto'lqinlar yordamida energiyani uzatish yo'nalishli ta'sirning o'zgarishi hisoblanadi. Ya'ni, bu usul energiyani uzoq masofalarga uzatish imkonini beradi. Rektennadan mikroto'lqinli energiyani elektr energiyasiga aylantirish uchun asboblarning to'plami sifatida foydalanish mumkin. Energiyani orbitadagi sun'iy yo'ldoshlardan Yerga o'tkazish uchun mikroto'lqinlar yordamida energiyani radiatsiya qilish taklif qilindi. Energiya nurlanishining kosmik kemaning orbitadan chiqishiga ta'siri ko'rib chiqildi. Mitsubishi Og'ir Sanoat o'z dizaynida 2,45 GHz li mikroto'lqinlardan foydalanadigan simsiz avtomobil zaryadlash tizimini ishlab chiqdi. Biroq, nisbatan past uzatish samaradorligi (odatda 50% dan kam) va mikroto'lqinli nurlanishning inson tanasiga mumkin bo'lgan ta'siri qo'llanilishini cheklaydigan sabablardir.

Simsiz magnit-rezonans zaryadi

Rezonansdan foydalanish qisqa masofalarda induktiv birikmaning kamchiliklarini yo'q qiladi. Magnit-rezonans birikmasi quvvat manbalari va tortish moslamalari bir xil chastotali maxsus ishlab chiqilgan magnit rezonatorlar bo'lganda hosil bo'ladi. Mexanik rezonansga o'xshab, magnit rezonans energiyani yutishning maksimal tezligiga erishishga imkon beradi.



2-rasm. Elektr transportini magnit-rezonans simsiz zaryadlashning strukturaviy diagrammasi:

1 - energiya manbai; 2 - yuqori chastotali rezonansli inverter; 3 - radiatsiya g'altaki; 4 - rezonansli chulg'amlar; 5 - uzatish masofasi; 6 - qabul qiluvchi lisan; 7 - yuqori chastotali konvertor; 8 - elektr energiyasini saqlash moslamasi

Yuqoridagi 1-rasmda magnit-rezonans qurilmasining blok diagrammasi ko'rsatilgan. Bu yerda, agar LC davrlarini ifodalovchi ikkita chulg'am bir xil tabiiy chastotalarga ega bo'lsa, muhim quvvat o'tkaziladi. Bundan tashqari, transmissiya

asosiy g'altakning o'lchamidan bir necha baravar katta masofani bosib o'tishga imkon beradi.

Uch turdagi g'altaklar qo'llaniladi:

- bitta chiqaradigan,
- ikkita rezonans,
- bitta xost.

Ikki rezonansli chulg'am izolyatsiyalangan transformator kabi ishlaydi, elektromagnit energiyani chiqaradigan g'altakdan magnit-rezonansli ulanish orqali qabul qiluvchi g'altakga o'tkazadi. Ferromagnit yadrolarini ishlatmasdan uzatish masofasi 10 sm dan ortiq bo'lishi mumkin.

Transmitter va qabul qiluvchi g'altaklar rezonansli emas, ular kirish/chiqish terminallari sifatida rezonansli g'altaklar bilan induktiv ravishda bog'langan. Shunday qilib, tashqi yukning rezonansli g'altaklarga ta'siri minimallashtiriladi, induktanslarning sifat koeffitsienti va uzatish samaradorligi ortadi. G'altaklarning bunday kombinatsiyasi bilan maksimal quvvat uzatish samaradorligiga erishish uchun uzatish / qabul qilish induktorlari va qo'shni rezonans o'rtasidagi masofani optimallashtirish kerak. Ikki rezonans induktorlari orasidagi masofa ham muhimdir.


Induktiv ulash tizimlari ham rezonans sozlash imkonini beradi. Biroq, magnit-rezonans aloqa tizimlari yuqori ish chastotalarida (MGts diapazoni) ishlaydi. Magnit rezonans texnologiyasi elektr transport vositalarini simsiz zaryadlash uchun istiqbolli hisoblanadi va quyidagi afzalliklarni namoyish etadi:

- O'rtacha masofada yuqori ishlash.
- O'rtacha samaradorlik bilan uzoq uzatish masofasi
- Kichik elektromagnit ta'sir (tashqi rezonans sharoitlari).
- Yengil vazn.
- Yangi dizayn.

Magnit-rezonansli ulanish tizimi ikkita bog'langan RLC rezonans davrlari tomonidan modellashtirilgan bo'lib, ularning ulanish koeffitsienti ikkita chulg'am o'rtasidagi o'zaro induktivlik bilan ifodalanadi. Radiant tizim AC quvvatini ta'minlash uchun yuqori chastotali DC/AC inverteridan foydalanadi.

Amaliy qo'llash uchun sxema yechimlari

Yuqori chastotali DC/AC inversiyasini amalga oshirish uchun kuchlanish bilan ishlaydigan to'liq ko'prik topologiyasi qo'llanilishi mumkin. Kuchli quvvat bilan ishlaydigan rezonans invertor sxemasi quyidagi rasmda ko'rsatilgan. Bu erda joylashgan MOSFET kalitlari ikkita UCC27201 seriyali haydovchi IC tomonidan boshqariladi.



3-rasm. Yuqori chastotali kuchlanishli rezonans invertorning sxematik diagrammasi (to'liq ko'prik topologiyasi)

To'rtta eshik yuqori tezlikda ishlaydigan MOSFET (Metal-Oxide-Semiconductor metal-oksidi-yarim o'tkazgichlar va FET – Field-Effect-Transistor Tranzistorlar va boshqariladigan elektr maydonlar) yarim o'tkazgichli kalitlari. Yumshoq o'zgaruvchan parallel kondansatörler zaryadlash/tushirish uchun ishlatiladi. Shu tarzda, kommutatsiya yo'qotishlari amalda yo'q qilinadi va MOSFET kalitlaridagi yuklar ham kamayadi.

Qabul qilish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rezonanslash va qabul qilish induktivliklari,
- AC/DC rektifikator,
- Energiya saqlash qurilmalari.


Rezonans induktivligi qo'shni nurlanish induktivligi bilan bir xil. O'zgaruvchan elektromagnit energiya magnit-rezonans kontakti orqali rezonansli lasan tomonidan ushlanadi. Keyin energiya induktiv bog'lanish tufayli qabul qiluvchi induktansga o'tkaziladi. Ikki g'altak konsentrik va maksimal quvvat uzatish samaradorligi uchun bir xil tekislikda yotadi. Schottky to'siq diodlari (Zetex ZHCS2000 sirt o'rnatish diodlari) to'liq ko'prik rektifikator diodi sifatida ishlatiladi. quyidagi rasmda ko'rsatilganidek.

Ushbu turdagi diodlar juda tez teskari tiklanish vaqtiga va yuqori chastotalar uchun mos keladigan past teskari oqimga ega. Rektifikatorning doimiy chiqishi elektr energiyasini saqlash qurilmalariga (batareyalar yoki superkondensatorlar) ulangan.

Magnit rezonans kontaktining ish chastotasi diapazoni kHz dan gigagertsgacha bo'lgan diapazonlarni qamrab oladi. Kichikroq va yengilroq rezonatorlar odatda yuqori chastotani talab qiladi. Biroq, belgilangan qoidalarga muvofiq foydalanilgan chastota diapazonida cheklovlar mavjud:

- sanoat
- ilmiy
- tibbiy bo'limlar

shuningdek, quvvatni o'zgartirish qurilmalari va nazorat qilish davrlarining xususiyatlari.



4-rasm. Yuqori chastotali kuchlanishli rezonansli invertorning sxematik diagrammasi - elektr transport vositasini simsiz zaryadlashni to'liq o'rnatishning bir qismi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ют В.Е., Морозов В.В., Соколов Л.А., Резник А.М., Оспанбеков Б.К. “Современные источники тока и зарядные станции для электромобилей”: уч. пос. – М.: МАДИ, 2017
2. В.Х. Хушбоқов, S.Sh. Хушбоқов *“Elektromobillar”* Monografiya.: Termiz 2020

KONCHILIK TARAQIYYOTINING HOZIRGI BOSQICHLARI

Eshnazarov.M.SH - TMTI assistent.

Rajabov.SH.X - TMTI assistent.

Meyliyev.T.M - TMTI talabasi.

Maqolada O'zbekistonda konchilik sanoatining mavjud zaxiralari undan foydalanish uslublari, boshqa mamlakat zahiralarini nilan taqqoslangan. Insoniyat dunyosi uchun zarur energiyani ishlab chiqarish undan foydalanish bo'yicha mualliflar tomonidan bir necha tavsiyalar keltirilgan.

Muhtaram prezidentimiz aytganidek, bizning yurtimizda Mendeleyevning davriy jadvalida borligi haqida ximik olimlarimizning ilmiy ishlari, ma'ruzalarida

bayon etilgan. Jumladan O'zbekiston yadroaktiv moddalar bo'yicha jahonda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Insoniyat rivojlangan sari zaxira va energiyani ko'proq istemol talab etilmoqda. Olimlarning hisoblaricha 2021-yil 1990-yil dagiga qadar jahonda ikki barobar ko'p miqdorda elektr energiyasi talab etilishiga diqqat bilan razm soladigan bo'lsak. Jahonda mumkin ekanligi hisoblab qaralgan tahminga ko'ra 2050-yilgacha energiyaga bo'lgan ehtiyoj istemolchilar kunlik hisobga ko'ra 20% ga oshishi kerakligi aniqlangan. Agar insoniyat ommaviy ravishda electron mobil asosida o'tadigan bo'lsa, elektr energiyaga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Insoniyatning elektr energiya ehtiyojini qondirishning yagona barqaror ekologik usuli bosqichma-bosqich AESlardan foydalanish suratini o'stirishdir. Agar AESlarga bo'lgan ehtiyoj ko'paysa tabiiyki AESlarga ishlatiladigan xom ashyoga bo'lgan talab ham o'sadi. Atom elektro stansiyalarida yoqilg'i sifatida ishlatiladigan mahsulot **uran** yerdan aniqlanishicha 20 km chuqurlikda uranning zaxirasi mavjud ekanligi aniqlandi. Bu zaxira insoniyatga 100 yillik balki 1000 yillikka yetuvchi elektr energiyasini hosil qiladigan masulot. Shuning uchun uran qazib olish hozirgi davr uchun juda muhim ta'minotdir. Hozirgi kunda jahonning 20 ta davlatida uran qazib olinmoqda.

Dunyoning asosiy zahirasi 10 ta davlatda mavjudligi aniqlangan.

Hozirgi kunda jahonning 448 ta mamlakatida yadro energiyasidan foydalanib kelmaydigan 53 tasi qurilish loyihasida turibdi.

Jahonda juda ko'p mamlakatlarda yadro energiyasidan fodalanish zaruriyati elektr energiyasiga bo'lgan talab o'smoqda.

Hozirgi O'zbekiston, Misr, Bangladeshda atom elektr stansiyasi qurilish loyihalari ishlab chiqish olib borilmoqda.



Mamlakatimiz va boshqa xorijiy davlatlarida uran qazib chiqarilgan miqdorlari quyidagicha tahlil qilinadi.

O'zbekiston dunyoning 2% uran zaxirasiga ega. zaxiraning umumiy miqdori 137 mingdan 185minggacha ko'rsatilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston uran qazib olish bo'yicha 7 o'rinda turadi. Yer osti zaxiralari bo'yicha 11 o'rinni egallab kelmoqda.

2020 yilda ishlab chiqarilgan jami uranning eng katta ulushi (dunyo bo'yicha yalpi taklifning 41%) Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelgan — 19,5 ming tonna. Keyingi o'rinlarni Avstraliya (6,2 ming tonna), Namibiya (5,4 ming tonna) va Kanada (3,9 ming tonna) band etgan.

Country	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Kazakhstan	19,451	21,317	22,451	23,127	23,607	24,689	23,321	21,705	22,808	19,477
Canada	9145	8999	9331	9134	13,325	14,039	13,116	7001	6938	3885
Australia	5983	6991	6350	5001	5654	6315	5882	6517	6613	6203
Namibia	3258	4495	4323	3255	2993	3654	4224	5525	5476	5413
Uzbekistan (est.)	2500	2400	2400	2400	2385	3325	3400	3450	3500	3500
Niger	4351	4667	4518	4057	4116	3479	3449	2911	2983	2991
Russia	2993	2872	3135	2990	3055	3004	2917	2904	2911	2846
China (est.)	885	1500	1500	1500	1616	1616	1692	1885	1885	1885
Ukraine	890	960	922	926	1200	808	707	790	800	400
USA	1537	1596	1792	1919	1256	1125	940	582	58	6
India (est.)	400	385	385	385	385	385	421	423	308	400
South Africa (est.)	582	465	531	573	393	490	308	346	346	250
Iran (est.)	0	0	0	0	38	0	40	71	71	71
Pakistan (est.)	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45
Brazil	265	326	192	55	40	44	0	0	0	15
Czech Republic	229	228	215	193	155	138	0	0	0	0
Romania	77	90	77	77	77	50	0	0	0	0
France	6	3	5	3	2	0	0	0	0	0
Germany	51	50	27	33	0	0	0	0	0	0
Malawi	846	1101	1132	369	0	0	0	0	0	0
Total world	53,493	58,493	59,331	56,041	60,304	63,207	60,514	54,154	54,742	47,731
tonnes U ₃ O ₈	63,082	68,974	69,966	66,087	71,113	74,357	71,361	63,861	64,554	56,287
% of world demand	87%	94%	91%	85%	98%	96%	93%	80%	81%	74%

2020 yilda dunyo miqyosida uran ishlab chiqarish hajmi 2019 yilga (54,7 ming tonna) nisbatan sezilarli darajada, 13% ga, qisqarib 47,7 ming tonnani tashkil etgan. Bu — so'nggi bir necha

o'n yillikdagi uran ishlab chiqarishning eng past darajasi. Kitco nashri buni COVID-19 inqirozi sharoitida konlarning butunlay yopilishi va vaqtincha to'xtatib turilishi bilan izohlagan.

2020 yilda ishlab chiqarilgan uran global miqyosdagi talabning bor-yo'g'i 74% qismini qoplagan.

Dunyo bo'ylab tabiiy uran zaxiralari 6,14 mln tonna hajmida baholanadi. Shundan 28% qismi Avstraliya, 15% qismi — Qozog'iston va 9% qismi Kanada hissasiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Rossiya va Namibiya, uran zaxiralarining mos ravishda 8% va 7% qismiga egalik qiladi. O'zbekiston 132 ming tonnalik (dunyo zaxirasining 2% qismi) zaxiralari bilan dunyo bo'yicha 11-o'rinda turadi.

O'zbekiston o'rtacha 3500 tonna uranni qazib oladi. Bu umumdunyo miqyosida 5% ulushni tashkil etadi. Uranni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha Navoiy Kon-metallurgiya konbinatlari hamda Olmaliq Kon-metallurgiya konbinati shug'ullanadi. Mamlakatdagi uran ishlab chiqaruvchi va uran oksidi shaklidagi tayyor mahsulotni eksport qiluvchi yagona korxona — Navoiy kon-metallurgiya kombinati hisoblanadi. 2007 yilgacha NKMK tomonidan ishlab chiqarilgan tabiiy uran, uran sotib olishda ekskyuziv huquqa ega bo'lgan Nukem, Inc. (AQSh) kompaniyasiga sotilgan. Mahsulot bozori va xaridorlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilganidan so'ng, uran 2007 yildan boshlab Yaponiyaning Itochu korporatsiyasiga va 2008 yildan Xitoyning CGNPC kompaniyasiga sotiladigan bo'ldi. Bugungi kunda NKMKning uran eksportidagi asosiy savdo hamkorlari Itochu

va Marubeni korporatsiyalari (Yaponiya) hamda Nukem, Inc.(AQSh) kompaniyasi hisoblanadi.

Uran ishlab chiqarish tannarxi moddiy xarajatlari tarkibida elektr energiyasi va kimyoviy reagentlar sarfi katta ulushga ega. 2019 yilda uran qazib olish tannarxi 557,1 ming so'm/kg ga (62,5 dollar/kg) teng bo'lgan. Shu bilan birga, uranning o'rtacha yillik sotish narxi 65,7 dollar/kg ni tashkil etgan. 2019 yil yakuniga sof foyda 105,9 mlrd so'm, rentabellik 5,2% ni tashkil etgan.

Uranni boyitish yadro qurolini yaratishda muhim qadamlardan biridir. Faqat uranning ma'lum bir turi yadroviy reaktor va bombalarda ishlaydi. Ushbu turdagi uranni yanada keng tarqalgan turidan ajratish katta muhandislik mahoratini talab qiladi, garchi buning uchun zarur bo'lgan texnologiya o'nlab yillar davomida ishlatilgan bo'lsa ham. Vazifa uranni qanday ajratish kerakligini aniqlash emas, balki ushbu vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan uskunalarni qurish va ishlatishdir.

Tabiatda turli xil bo'lgan element atomlari kabi uran atomlariga izotoplar deyiladi. (Har bir izotop o'z yadrosida turli xil neytronlarga ega.) Uran-235, barcha tabiiy uranning 1 foizidan kamini tashkil etadigan izotop, yadro reaktorlari va yadroviy bombalarni yoqilg'i bilan ta'minlaydi, uran-238 esa 99 foizni tashkil qiladi.

Yadro zanjiri reaksiyasi uran atomining parchalanishidan kamida bitta neytronni boshqa atom egallab oladi va shunga mos ravishda uning parchalanishiga olib keladi. Birinchi yaqinlashishda, neytron reaktordan chiqmasdan oldin ^{235}U atomiga "qoqilib" ketishi kerakligini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, uran bilan dizayn etarlicha ixcham bo'lishi kerak, shunda neytron uchun keyingi uran atomini topish ehtimoli etarlicha yuqori. Ammo ^{235}U reaktori ishlayotganda, u asta-sekin yonib ketadi, bu ^{235}U atomining neytron bilan uchrashish ehtimolini kamaytiradi, bu ularni reaktorlarda ushbu ehtimollikning ma'lum bir chegarasini qo'yishga majbur qiladi. Shunga ko'ra, yadro yoqilg'isidagi ^{235}U ning past ulushi zarur:

- kattaroq reaktor hajmi, shunda neytron uzoqroq bo'lishi kerak
- neytron va uran atomining to'qnashuvi ehtimolini oshirish uchun reaktor hajmining katta qismini yoqilg'i sarf qilishi kerak,
- tez-tez reaktorda berilgan ^{235}U zichligini saqlab qolish uchun yoqilg'ini yangisiga qayta yuklash talab etiladi,
- sarflangan yoqilg'ida yuqori ^{235}U ga teng bo'lgan ulush.

Ularni ajratishning kaliti shundaki, uran-235 atomlari uran-238 atomlaridan bir oz kamroq bo'ladi.


Har bir uran rudasining har bir tabiiy namunasida mavjud bo'lgan oz miqdordagi uran-235 najratish uchun muhandislar avval kimyoviy reaksiya yordamida uranni gazga aylantiradilar.

Keyin gaz sentrifuga naychaga bir kishining yoki undan kattaroq hajmdagi silindrsimon shaklda kiritiladi. Har bir naycha o'z o'qi bo'yicha g'oyat katta tezlikda aylanadi, og'irroq uran-238 gaz molekulalarini naychaning o'rtasiga tortib, engil uran-235 gaz molekulalarini naychaning chetiga yaqinroq qoldiradi.

Har safar gaz santrifugada aylantirilganda aralashmadan ozgina miqdorda uran-238 gaz chiqariladi, shuning uchun quvurlar ketma-ket ishlatiladi. Har bir sentrifuga ozgina uran-238 uranini chiqaradi va keyin ozgina tozalangan gaz aralashmasini keyingi trubkaga o'tkazadi va hokazo. Gazsimon uran-235 sentrifugalarning ko'p bosqichlarida ajralib chiqqandan so'ng, muhandislar uran gazini qattiq metallga aylantirish uchun boshqa kimyoviy reaksiyadan foydalanadilar. Keyinchalik bu metall reaktorlarda yoki bomba uchun foydalanish uchun hosil bo'lishi mumkin.

Har bir qadam uran gazining aralashmasini ozgina tozalaganini uchun, mamlakatlar faqat yuqori darajadagi samaradorlikka mo'ljallangan sentrifugalarni ishlatish imkoniyatiga ega. Aks holda, oz miqdordagi toza uran-235 ni ishlab chiqarish darajada tushadi.

taqiqlanadigan
qimmatga



Uranni qazib olishning eng ilg'or usuli

Bu sovet muhandislarining rivojlanishi. Hozirgi vaqtda Rossiyadan tashqari, SSSRda kashf etilgan usul bilan uran boyitilgan bir qator davlatlar mavjud. Bular Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va boshqa davlatlar. Usul gaz tarqalish texnologiyasiga o'xshaydi, chunki u 235 va 238 izotoplarining massa farqidan foydalanadi.



Uran gazi sentrifugada 1500 aylanaga qadar aylanadi. Turli xil zichliklar tufayli izotoplarga turli o'lchamdagi markazdan qochma kuchlar ta'sir qiladi. Uran 238 og'irroq bo'lsa, sentrifuga devorlari yaqinida to'planadi, 235-chi izotop esa markazga yaqinlashadi. Gaz aralashmasi silindrning yuqori qismiga pompalanadi. Sentrifuganing pastki qismiga o'tgandan so'ng, izotoplar qisman ajralib chiqish uchun vaqt topdilar va alohida tanlandi.

Xulosa:

Ushbu usul ham izotoplarni 100% ajratishni ta'minlamasligiga va kerakli boyitishga erishish uchun uni qayta-qayta ishlatish kerak, ammo bu gazni tarqalishiga qaraganda ancha tejamkor. Shunday qilib, sentrifuga texnologiyasidan foydalangan holda Rossiyada boyitilgan uran Amerika membranalarida olinganidan 3 baravar arzon hisoblanadi. Biz uran minerallarini qazish texnologiyasini yanada takomillashtirsak qazib olish ishlari iqtisodiy jihatdan samara beradi. Biz uran oksidini tayyor hom ashyo holida ishlab chiqarsak energiya tarmoqlarida ya'ni AES larni loyihalashda va energetika mustaqilligiga erishgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Трубецкой К. Н. и др. Горные науки. Освоение и сохранение недр земли. — Изд. Горная Академия, 1997
2. Б.А.Картозия, А.В.Корчак, С.А.Мельникова Строительная геотехнология: Учебн. пособие по направлению «Горн. дело» . — М.: Изд-во Моск. гос. горн. ун-та, 2003. — 229 с. — [ISBN 5-7418-0229-X](#)
3. “ZIYO NET” internet tarmog'i

BO'LAJAK MUHANDISLARGA ELEKTRONIKANI O'QITISHNING FAOL USULLARI.

Muradova N.N. – TMTI assistenti

Bugungi kunda global taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bu Elektronikadir. Ushbu yo'nalishda eng yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish, ularni ishlatishning va keyinchalik xalqaro bozorga chiqarishning masalalari jamlangandir. Hozirgi kunda aynan shu sohada innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishning eng yuqori tezligiga erishiladi.

Elektronika fanini o'qitishdagi qiyinchiliklarni, o'quv jarayoniga faol ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali, bartaraf qilishning imkoni mavjud.

Faol ta'lim texnologiyalari an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan jarayon ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari jihatidan tubdan farq qiladi. Bunda, o'qituvchi va talaba o'quv jarayoninig teng huquqli ishtirokchisi sifatida qatnashadi. Mavzuga doir materialni yuqori sifatda o'zlashtirishiga esa, o'qituvchi tomonidan

mavzuga doir ma'lumotlar xajmini oshirish yoki bilim darajasi nazoratini kuchaytirish orqali emas, balki talabalarning bilim olishiga barqaror motivatsiya yordamida erishiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, hozirgi kunda elektronika fanini o'qitishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishini ifodalaydi. Kompyuter muhiti talabalarni kasbiy maydonga cho'mdirish uchun samarali vosita bo'lib, xilma xilligi, multimedia texnologiyalaridan tortib virtual laboratoriya tajribalariga qadar keng qamrovlidir.

Mur qonuniga muvofiq integral sxema kristallidagi tranzistorlar soni har 24 oyda 2 barobarga oshadi. Demakki, tranzistor o'lchamlari kichrayadi. Ushbu o'lchamlar bilan optika yordamida ishlashning imkoni bo'lmaydi.

Oxirgi paytlarda, elektron sxema va raqamli qurilmalarni mantiqiy modellashtirish imkonini beruvchi Multisim dasturiy paket platformasida laboratoriya ishlarini bajarishning virtual shakli, ommabopdir. Elektronika fanini o'qitishda bu dasturiy ta'minot to'plami yordamida har xil turdagi filtr va tog'irlaich qurilmalar, bipolyar va maydonli tranzistorlarning ishlash printsipini modellashtiriladi, hamda operatsion kuchaytirgich va boshqa mantiqiy qurilmalarning xarakteristikalarini tadqiq etiladi.

Multisim paketining asosiy afzalligi sanoatdagi analoglariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan nazorat-o'lchash asboblarining mavjudligidir. Ushbu dastur bilan ishlash talabalarning bilim olish faolligi darajasini oshiradi. Dasturdan foydalanib fanni o'qitish jarayonida har bir talabaning imkoniyatidan kelib chiqqan holda individual yondashuv amalga oshiriladi, o'rganilayotgan mavzuga doir vazifalarning qiyinlik darajasi va ma'lumot xajmiga ko'ra differentsiallashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin, Elektronika fanini o'qitishda fanning yuklama xajmining katta qismini tashkil etuvchi mustaqil ta'limni o'zlashtirishga talabalarga ijobiy turtki bo'lgan Multisim paketidan auditoriya soatlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Список литературы

1. Muhammad H.Rashid. Power Electronics Handbook USA:Butterworth-Heinemann, 2017.

2. Князькова, Т.О. Применение интерактивных технологий в изучении курса «Электротехника и электроника» / Т.О. Князькова, В.А. Соболев // Альманах современной науки и образования, 2013. – № 11 (78). – С. 82-86.

3. Быковский, Н.А. Применение программного пакета Multisim в лабораторном практикуме по электротехнике и электронике / Н.А. Быковский, Н.Н. Успенская // Современные проблемы науки и образования, 2017. – № 5. – С. 216.

4. К.А.Насыров, В.А.Гриценко, М.К.Ким, IEEE Elektron Dev. Lett. 23,336 (2002)

5. <https://droider.ru/post/chto-takoe-zakon-mura-i-kak-on-rabotaet-teper-razbor-02-06-2021/>

6. <https://www.ni.com/ru-ru/shop/electronic-test-instrumentation/application-software-for-electronic-test-and-instrumentation-category/what-is-multisim.html>

7. <https://ni-multisim.ru.malavida.com/windows/#gref>
<http://staff.tiame.uz/storage/users/516/books/huVOXVRPjPV3N7OSXwRrpV5w9IWkrdNpAiBMkVFc.pdf>

МАШИНАСОЗЛИКДА РОБОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Одинаев А.К. - ТМТИ катта ўқитувчи

Хусанов Ж. – ТМТИ талаба

Дунё янгиланмоқда. Шиддатли даврда интеллектуал билим бошқарувда муҳим роль ўйнайди. Замонавий илмлар, ИТ технологиялар, сунъий интелект аллақачон барча соҳаларда кириб борди. Биз бугун деярли барча жабхаларда жамиятни электрон қурилмалар, технологик воситалар, шу жумладан роботлар камраб олаётган муҳитда яшаймиз.

Предметлараро алоқадорликни ўрнатиш, белгилаб олиш (қайд этиш) ва амалга оширишнинг зарурлиги ҳар томонлама билимдон, мустақил ва ижодий фаолият кўрсата оладиган мутахассис шахсни таркиб топтириш мақсадини кўзда тутди. Дарсларда фанлараро алоқалардан фойдаланиш ўқувчиларда билим, кўникма ва малакаларни бир фандан бошқасига ўтказиш компетенциясини шакллантириш имконини беради.

Хулоса. Дарс жараёнида фанлараро алоқадорликни самарали амалга ошириш ўқувчиларни янги ўқув материалларини қабул қилишга тайёрлаш,

фанлараро, мавзулараро боғланишни амалга ошириш, муаммоли вазиятларни яратиш, шунингдек, ҳар бир дарсни режалаштириш ва уларни моҳирона ўтказиш ўқитувчидан чуқур ва пухта тайёргарлик кўришни талаб қилади. Бу эса ўз навбатида дарс самарадорлигини орттиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Алимов Б.Н. Компетенциявий ёндашув-ўқувчиларнинг математик саводхонлиги ва маданиятини ошириш воситаси сифатида.// “Ўзлуксиз таълим” илмий услубий журнали.№1.2015. – 128 б.

2. Котлярова, И.О. Методологические основы соотношения инноваций в образовательном учреждении с профессионально-педагогической квалификацией Текст. / И.О. Котлярова / под. ред. Г.Н. Серикова. — Челябинск: ЧГПУ, 1998.- 169 с.

3. Алиев М.И.Межпредметные связи как условие активизации учебной деятельности студентов.: Автореф.... дис.канд.пед.наук.-Тбилиси,1986.-20с

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID OMILI

Baybutayeva M.Sh. - TMTI assistenti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda insonlarning diniy ekstremizm va terrorizmning buzg'unchi g'oyalariga aldanib, yo'ldan adashishi va bu vayronkor g'oyalar natijasida insoniyat tarixida yuz bergan turli mintaqa va hududlardagi katta talofatlar haqida so'z borgan hamda diniy ekstremizm va terrorchilik harakatlariga qarshi kurash va uning oldini olish uchun yurtimizda olib borilayotgan chora-tadbirlar, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston tajribasi yoritilgan.

Аннотация: В статье говорится об обмане людей сегодня деструктивными идеями религиозного экстремизма и терроризма и больших потерях в различных регионах и территориях в истории человечества в результате этих деструктивных идей, а также противопоставляется религиозному экстремизму и терроризму. Опыт Узбекистана в борьбе с экстремизмом и терроризмом, принимаемые в нашей стране меры по борьбе и предупреждению

Annotation: The article speaks about the deception of people today by the destructive ideas of religious extremism and terrorism, and the great losses in various regions and territories in the history of mankind as a result of these destructive ideas, and opposes religious extremism and terrorism. The experience of Uzbekistan in combating extremism and terrorism, the measures taken in our country to combat and prevent it

Kalit so'zlar: Diniy ekstremizm, terrorizm, fundamentalizm, islom dini, tahdid, aqidaparastlik, “Katibatul’ imom-al Buxoriy”, “Katibatul’ tavhid va jihod”, vaxshiylik, zo’ravonlik, tahlikali oqimga qarshi kurash,

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, boy tariximizga xolisona egalik qila boshladik. Mustaqillik sharofati bilan bebaho ma’naviy mulkimiz – dinimiz ham tiklandi. Istiqlol tufayli dinga e’tibor nechog’lik kuchayganiga bugungi kunda har birimiz guvohimiz. Ramazon va Qurbon hayitlari xalq bayrami sifatida rasman dam olish kunlari deb belgilandi. Diniy xodimlar tayyorlovchi Islom instituti, hatto viloyatda diniy madrasalar ochildi. Fuqarolarimiz ulkan va boy madaniyatimizning uzviy masalalari bo’lmish Islom nazariyasi va tarixi, Islom falsafasi va huquqshunosligi, Islom madaniyati va ahloqini mustaqillikka erishilgandan keyin tashkil etilgan Islom Universitetida o’rganish imkoniyatiga ega bo’ldilar. Dindorlarning huquqlari bosh qonunimiz bo’yicha kafolatlandi. Mustaqillikkacha O’zbekistonda 87 ta masjid bor bo’lgan bo’lsa, O’zbekiston musulmonlari idorasining ma’lumotiga ko’ra bugungi kunda ularning soni 2100 dan oshdi. Islom sharofati bilan o’n minglab yurtdoshlarimiz haj va umra ziyoratini amalga oshirishdi, dinu imon beadam qadr topdi. Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag’rikenglikning amaliy ifodasidir. Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlarga erkinlik berilishi islomning jamiyatdagi o’z o’rnini egallashiga imkon yaratdi.

Lekin shu bilan birga yashirin holatda rivoj topgan va din niqobidagi turli mafkuralarning ta’sirida shakllangan qarashlar yuzaga chiqishi ham qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ma’lumki, bugun musulmon olamida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechmoqda. Bugungi kunda ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari diniy aqidalar niqobi ostida yoshlarni zo’ravonlikka, milliy o’zligini, madaniy-ma’rifiy va oilaviy qadriyatlarini yo’qotishga undash yo’li bilan jamiyatda zo’ravonlik va radikal qarashlarni tarqatishni davom ettirmoqda. Bularning barchasi fuqarolarni ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari safiga jalb qilish uchun shart-sharoit yaratmoqda. So’nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta’sir doirasiga olish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko’rinishda tarqatish, “Internet” orqali targ’ibot o’tkazish, yashirin “hujralar” tashkil etish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, Internet tarmog’ida “Iroq davlati”, “Jabat al-Nusra” kabi terroristik tashkilotlar go’yoki islom ravnaqi yo’lida kurashayotgan “mujohid birodarlar guruhi” ekani haqidagi targ’ibot-tashviqot keng ko’lamda olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko’plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar “hijrat” qilish va “jihod”da ishtirok etib da’vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh tarkibiga borib qo’shilayotganining guvohi bo’lmoqdamiz. Ekstremizm va terrorizm odamlarning ertangi kuniga bo’lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmay, balki xalqaro

maydondagi muammolarni, jumladan, turli e'tiqod vakillari bo'lgan xalqlar orasidagi o'zaro ishonchga soya solib, jahon taraqqiyotining xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojiga to'siq bo'lmoqda.

Ekspertlarning xabar berishicha, dunyoda terroristik tashkilotlarning yuzdan ortig'i eng zamonaviy qurollar bilan qurollangan va bu tashkilotlar bir-birlari bilan axborot almashadilar, qo'poruvchilik ishlarini amlaga oshirayotgan paytda o'zaro sherikchi bo'ladilar, zarur bo'lgan vaqtda bir-birlariga moliyaviy va boshqa shakldagi yordam beradilar. Bu holat jahon hamjamiyatiga tahdid solayotgani hech kimga sir emas. Hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Yuzaga kelgan vaziyat ko'plab davlatlardan ushbu xavfga qarshi jiddiy kurash olib borishni talab etmoqda. Yaqin Sharq va boshqa hududlardagi qator mamlakatlarda ham chuqur siyosiy tanglik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik va qurolli to'qnashuvlarni boshidan kechirmoqda. Mazkur hududlarda go'yoki haqiqiy "islomiy davlat" qurish shiori ostida ochiqdan-ochiq zo'ravonlik, insoniylikka zid vahshiyliklarga asoslangan amallarga qo'l urayotgan turli guruh va jamoalar urchib ketdi. Terrorchilik harakatlari nafaqat beqarorlik hukm surayotgan hududlarda, balki Fransiya, Germaniya, Belgiya kabi Yevropa mamlakatlarida, Rossiya singgari MDH tarkibidagi davlatlarda ro'y bermoqda. Globallashuv sharoitida hamda xalqaro va mintaqaviy mojaralar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda, ekstremizm va terrorizmga qarshi samarali kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni to'g'ri yo'ldan ozdirishga harakat qilayotgan turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, zarur vaqtda ana shunday kuchlarga qarshi ma'rifat ilmi bilan qarshi kurashishlari uchun yoshlarmiz salohiyatini yanda oshirish maqsadida yurtimizda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim". Shu ma'noda O'zbekiston hukumati tomonidan ham nafaqat mamlakatimizda, balki mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, bu borada amaliy choralar ko'rilmogda.

Ayni vaqtda 1ming 700 nafardan ortiq O'zbekiston fuqarosi xalqaro qidiruvga berilgan hamda ularning ko'pchilik qismi chet davlatlariga diniy ektremistik

g'oyalarini targ'ib etish maqsadida terrorizm va diniy-ekstremizm kabi og'ir jinoyatlarda ayblanilmoqda. Bular orasida ayolar va voyaga yetmagan bolalar ham borligi aniqlangan. Jumladan davlat xavfsizligi idoralari tomonidan chet el maxsus xizmatlari bilan birga hamkorlikda O'zbekiston Respublikasiga tahdid soluvchi va ayni vaqtda Suriya davlatida faoliyat yuritayotgan "Katibatul' imom-al Buxoriy" hamda "Katibatul' tavhid va jihod" tashkilotlarining rahbarlari va mas'ul shaxslari bo'lgan bir nechta hamyurtimiz xorijiy davlatda ushlanib, O'zbekistonga olib kelindi.

Hozirgi kunda yurtimizda Prizedentimiz tomonidan diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq vaziyatda adashib qolganlarni avf etish, ularni to'g'ri yo'lga qaytarish borasida turli ishlar amallga oshirilmoqda. Bularning misolida "Mehr operatsiyasi"da ko'rishimiz mumkin. 2019 — 2021-yillarda "Mehr" dasturi doirasida Afg'oniston, Suriya va Iroqdan xalqaro terrorchilik tashkilotlari safiga adashib qo'shilib qolgan 400 nafar xotin-qizlar va bolalar O'zbekistonga qaytarilib, ularning ijtimoiy moslashuvi va reintegratsiyasi uchun har tomonlama yordam ko'rsatildi. Bunda bir qator xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va BMTning Bolalar Jamg'armasi (YUNISEF) muhim yordam berdi. BMT Xavfsizlik Kengashining 2396-sonli rezolyutsiyasiga binoan chet el terrorchi jangarilari bilan bog'liq va terrorizmning qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan xotin-qizlar va bolalarga yordam berishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston bundan keyin ham diniy sabablarga ko'ra buzg'unchi mafkuralar ta'siridan jabr ko'rgan shaxslarga har tomonlama ijtimoiy-huquqiy va moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni davom ettirishni maqsad qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi "2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 6255-sonli Prezident Farmoni qabul qilinishi so'zimizning isboti bo'la oladi. Strategiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, xalqaro huquq va O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining umume'tirof etilgan tamoyil va normalariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi, "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunlarining qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan.

Bugungi kunda ijtimoiy ma'naviy muhitni va aholining turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli ekstremetik oqimar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi" – degan edi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev. Shunday ekan bugun barchamiz nafaqat o'zimizga balki atrofimizdagilarga e'tiborli bo'lsak, talabchanlikni oshirsak, xech qanday xatar bizga rahna sololmaydi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, mintaq va umuman dunyodagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, mamlakatimizning yangi islohotlar va rivojlanish davrida Prezident Shavkat Mirziyoev rahnamoligida amalga oshirib kelinayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat hamda xalqimizning kuchli irodasi, mehnatsevarligi, bag’rikengligi va ma’rifatparvarligi tufayli mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta’minlanib kelinmoqda.

Jamiyatni tubanlikka yetaklab, odamlarni g’arazli niyat va qabix maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va xalokatga mahkum etadigan g’oyalar, vayronkor ma’naviyat va g’oyalar hisoblanib bunyodkor ma’naviyat va g’oyalarga zid bo’lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g’oyalar majmuini ifoda etadi. Jamiyat tafakkurida shunday g’oyalarning mavjudligi insonparvarlik tamoyiliga zid bo’lgan, bir millatni boshqasidan ustun qo’yadigan, oliy irq da’vosida boshqa xalqlarni qirg’in qilishga chaqiradigan, jamiyatni qarama-qarshi qutblarga ajratib, bo’lib tashlashga sabab bo’ladigan omillar hisoblanadi. Aqidaparastlik va rasizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va ashaddiy millatchilik, fashizm, bolshevizm, terrorizm kabi mafkuralar buzilgan ma’naviyat va vayronkor g’oyalar jumlasiga kiradi. Ta’kidlash kerakki, ma’naviyat va g’oya o’rtasida ajralmas uyg’unlik bor. G’oya odamlarni uyushtirish, jamiyat hayotiga bevosita ta’sir o’tkaza olish xususiyati bilan farqlanadi va u ikkiga: ezgulikka qaratilgan – bunyodkor va buzg’unchilikka yo’naltirilgan – vayronkor g’oyalardan iborat. Bu masalining muhim nazariy asoslari, bunyodkor va vayronkor g’oyalarning mazmun-mohiyati Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida ko’rsatib berilgan.

Bugungi avlod umummilliy ma’naviyatni ham, umummilliy g’oyaviy muhitni ham kelajak avlodlar uchun asrashga burchli va mas’uldirlar. Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo’shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan turli millat va din vakillarining eng asosiy vazifalaridan bo’lmog’i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.:O’zbekiston, 1997
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –T.:Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov.I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.:O’zbekiston, 1996
4. Mirziyoyev Sh.M “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sosigini asrash — davr talabi” mavzusida anjumandagi nutqi.
5. Tosh DAUning “Agranom” gazetasi 767 soni
6. O’zbekiston Respublikasi Bandlikka va Mehnat munosabatlari vazirligi internet nashri.
7. Elmurod Bahtiyorovich “Diniy ektramizm va Terrorizm” – T O’zbekiston,2015 ! 1 271

YENGIL SANOAT TALABALARI UCHUN DARS O'TISHNING YANGICHA METODINI QO'LLASH VA TALABALARNING DARS VAQTIGA TA'SIR ETMAGAN HOLDA ISH O'RINLARINI TASHKIL ETISH.

Barotova U.M. - TMTI talabasi

Bugungi kunga kelib ta'lim tizimidagi eng dolzarb muammolardan biri nazariy darslarning, amaliyot darslari bilan uzulib qolayitganidir. Ayniqsa Yengil sanoat yo'nalishida bu muammo dolzarbligi bilan ajralib turadi. Bu muammoning yechimini topish, uni bartaraf etish uchun bazi bir metodlar va bazi ishlab chiqarish tashkilotlari bilan shartnoma tuzishni yo'lga qo'yish lozim deb o'ylayman.

Keyingi bir yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. Bunga:

birinchidan, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, jadallik bilan joriy etilayotgan zamonaviy intensiv, tejamkor texnologiyalar hamda ilg'or tajribalar fan dasturlarida o'zining isbotini topmaganligi, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy talablar asosida yaratilgan metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlanmaganligi hamda institut o'quv laboratoriya bazasi ma'nan va jismonan eskirganligi natijasida talabalar zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmaganligi sababli bitiruvchilarning mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashishida muammolar mavjud;

ikkinchidan, mutaxassislar tayyorlash yuzasidan ehtiyojlar chuqur tahlil qilinmaganligi oqibatida sohaga innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, geoinformatika kabi yo'nalishlarda oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoj mavjud;

uchinchidan, professor o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, kasbiy bilim darajasi, shuningdek, amaliy tajribalarini doimiy oshirib borish mexanizmlarini joriy etish. Ularning kasbiy kompetentligini oshirishda soha bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqot va oliy muassasalarning ilg'or tajribalaridan samarali foydalanilmayapti;

to'rtinchidan, ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashning tizimli tashkil etilmaganligi, ilmiy izlanishlarning sohada mavjud dolzarb ilmiy muammolar yechimlariga qaratilmaganligi oqibatida ilmiy faoliyatning zamonaviylik va natijadorlik darajasi pastligicha qolmoqda;

beshinchidan, talabalarining ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini sohaviy korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog'lanmaganligi oqibatida bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalari talab darajasida emas.

Bugungi kun talabasini sakson daqiqalik o'quv mashg'uloti davomida shunchaki tinglovchi sifatida auditoriyada ushlab turish mushkul. Negaki, u ko'p xajmli, tezkor axborot oqimi mavjud bo'lgan muhitda yashamoqda. Ta'lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta'minlagan holda, innovatsion texnologiyalar, interfaol ta'lim usullari yordamida aynan manashu masalaga yechim topish mumkin. Ya'ni, bunda o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish, talabaning ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, mustaqil fikrlashga undash, bilish ehtiyojlarini, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar yotadi. Buning uchun birinchi navbatda darslarning ta'limiy maqsadini belgilashda o'zlashtirish darajalari asosida yondashish, belgilangan vaqt va mavjud sharoitda ko'zlangan ta'limiy natijalarga kafolatli erishishni ta'minlash eng maqbul usullar va vositalarni tanlash va ularni qo'llay bilish eng muxim vazifadir. Undan tashqari o'quv mashg'ulotlarining shakli va turlari bo'yicha ta'lim texnologiyasi, darsning o'qitish modeli, texnologik xaritasi va uni ilovalarini tayyorlash, ta'lim texnologiyasi elementlari hamda o'qitishning loyiha usuli va keys texnologiyalaridan kengroq foydalanish zarur. Hozirgi kunda faqat innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda darslarni tashkil etsakgina ta'limda samaraga erishamiz. Ushbu texnologiyalar kundan kunga doimiy ravishda rivojlanib kelayotgan texnologiyadir. Bugungi kunda zamonaviy dars jarayonida quyidagi asosiy talablarni hisobga olish zarur.

- dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni talabalarning shaxsiy qobiliyatlariga yondoshuv asosida amalga oshirish;

- dars talaba shaxsiga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchi va talabaning o'zaro faol munosabatlarda bo'lishlarini ta'minlash;

- darsni talabalarning yuqori darajadagi qiziqishi, aqliy faolligi va muvoffaqiyatga erishuviga qaratish;

- dars beriladigan bilim mazmuniga ko'ra, turli pedagogik usul va uslublardan foydalanish;

- darslarni nazariya va amaliyotni o'zaro bog'lagan holda tashkil etish;

- darsda vaqtdan unumli va maqsadli foydalanib, sifat va samaradorlikligini ta'min etuvchi nazorat turlaridan foydalanish;

- ishlab chiqarish korxonalari bilan o'zaro shartnoma tuzgan xolda amaliyot darslarini ishlab chiqarish korxonalarida to'g'ridan to'g'ri o'tkazish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich videoselektor yig'ilishida bundan buyon barcha davlat tashkilotlari va muassasalarida talabalarning ishlashiga ruxsat berilishini ma'lum qildi. Ammo ko'plab ishlab chiqarish korxonalaridagi ish tizimi 3 smenadan iborat bo'lib, har bir smena 8 soatdan, Bir nafar ishchi bir oy davomida 3 smenada 10 kundan faoliyat yuritishi lozim bo'ladi. Bu tartibdagi ish jarayoni esa talabalar o'qish jarayoniga halaqit beribgina qolmay, bilim olish

jarayonini sustlashuviga olib keladi. Bu muammoning yechimiga quyidagicha yondashgan ma'qul deb o'ylayman:

-birinchidan, ishlab chiqaruvchi tashkilotlarda talabalar uchun yaratilgan ish o'rinlari o'qish jarayonlariga halaqit bermagan holda tashkil etilishi;

-ikkinchidan, ta'lim dargohlarining ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan ikki tomonlama shartnoma tuzishi;

-uchinchidan, talabalarning malaka oshirish jarayoni to'liq mutaxassislar nazoratida bo'lishini ta'minlash.

Shu talablar qondirilgan holdagina biz malakali mutaxassis va samarali ishchi kuchiga ega bo'lamiz.

Xulosa

Xulosa shundan iboratki talabalarning malakali mutaxassis bo'lib yetishib chiqishi uchun dars jarayonlarini amaliyot bilan uzviy bog'lash lozim. Ishlab chiqarish tashkilotlari bilan shartnoma tuzgan holda amaliy darslarini korxonalarda o'tkazish tushuncha, bilim va ko'nikmalarning ortishiga xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek «kelajak yoshlarning qo'lida». Shunday ekan talaba yoshlarning kelajakda yetuk mutaxassis, jamiyatga foydasi tegadigan inson bo'lib yetishishi uchun barchamiz mas'ulmiz. O'zbekistonning buyuk kelajagi uchun barchamiz birga harakat qilmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Golish L.V., "Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish" TDIU, "Iqtisodiyot" 2011. 207 b.

2. "Ta'lim texnologiyalari" jurnali № 2, 2014

3. "Kasbiy fanlar metodikasi" jurnali № 7, 2013

Умурзаков Ў.П. Таълим тизими ислохотлари Ўзбекистонда янги уйғониш даври пойдеворини яратади. Халқ сўзи – 2020. 29 октябрь №228(7730)

BOLALARNING O'QIB O'RGANISHI ORQALI, BILIB OLISHINING ULARDA TASAVVURNING SHAKLLANISHIDAGI ROLI

Boboxonov O.R. - TMTI assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning yoshlikdan o'qib o'rgangan bilimlari asosida ko'proq narsani bilishi, ularning tasavvuri boyib borishini nazarda tutib, kelajakda bunday yoshlar o'z zamonida yangiliklar yaratishga qodir insonlar bo'lin yetishishiga pedagoglar e'tiborli bo'lishi kerakligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bilimli yoshlar kelajagimizning yaratuvchilari.

Tayanch so'zlar: O'qish, o'rganish, bilish, tasavvur qilish.

Hozirgi davrda yer yuzidagi rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy masalasi, barcha rivojlangan davlatlar qatorida jahon bozorida o'z o'riga ega bolishidir. Jahon bozorlarida yetakchi o'rin egallagan davlatlar, o'z iqtisodiyatlariga, ishlab chiqarishini zamonaviy yangi texnologiya bilan ta'minlash orqali erishadilar. Ishlab chiqarishda zamon talablariga mos yangi texnologiyalar yaratish uchun, yangiliklar ustida ko'proq ish olib boruvchi ilm-fan asoschilari ya'ni o'z ilmini ishlab chiqarish bilan bog'lovchi insonlar ko'proq yetishib chiqishi talab etiladi.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda, ishlab chiqarishni inson omili bosqaradi, qo'l mehnati ko'p talab qilinmaydigan va uning o'rnini zamonaviy texnikalar egallagan. Bunday texnikalarni yaratish, hozirgi va kelajakdagi avlodlarimizdan ko'proq o'qishni, o'rganishni talab etadi. Agar inson shakllanish davrida ko'proq o'qib bilim olsa, u kelajakda shuncha ko'proq narsani o'rganadi va bilib oladi. Demak o'qib o'rganish orqali o'zlashirgan bilimlari insonlarni o'z tasavvurini boyitishga yetaklaydi.

Hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyasidagi texnikalarni faqat o'z bilimiga ishongan insonlar yaratishini hamma biladi. Ana shunday bilimni insonlar, albatta, yoshlik davrida maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab davrida o'qitiladigan fanlarni o'qib, bilib olishlari tufayli shakllanib boradi.

Shunday ekan, bolalarning kerakli bilimlarni chuqur o'rganib borishi bu ularning kelajakda bilib olish darajasining poydevori bo'lishini har bir pedagog yaxshi biladi.


Insonlar yaxshi hayot kechirishi uchun, ularning ehtiyojidagi barcha turdagi mahsulotlarni etishtirish, qayta ishlash va ishlab chiqarish jarayonini texnikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonlar uchun ehtiyojidagi mahsulotlar qanchalik sifatli va arzon bo'lishi, bozor iqtisodiyotidagi bozorlar talabidir. Iqtisodiyotning rivojlanishi bozor bilan bog'liqligi hisobga olinib, ishlab chiqarishdagi hozirgi zamon texnikalarini a'lo darajada o'rganmasdan turib, yangi texnologiya talabidagi ishlab chiqarish uchun eng so'nggi zamonaviy texnikalarni yaratish va takomillashtirish mumkin emas.

Agar hozirgi davr ta'limida bolalarni yoshlik davridan o'qishga o'rgatib, o'qib o'rgangan bolalarning ko'proq narsani bilishini amalda qo'llamas ekanmiz, ularning ishlab chiqarishni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash dolzarb masala ekanligi to'g'risidagi tasavvur qilish ko'rsatkich darajalari juda past bo'ladi.

Shunday ekan, bolalarga yoshligidan bog'cha va maktab davridanoq o'qigan odamning bilib olish darajasi yuqori bo'lishi, shuningdek, ko'p narsani bilgan inson kelajakda tasavvur qilish qobiliyati yaxshi shakllanib, bunday insonlar juda ko'p yangiliklar yaratishga qodir insonlar bo'lishini ularning ongiga singdirib borishimiz kerak.

Bolalarda o'qib o'rgangan bilimlari asosida ularning tasavvurini boyitish maktab ta'limida, o'qitiladigan fanlarni o'zaro bog'lab olib borish orqali amalga oshirilishi kerak. Masalan: O'qish, ona tili fanlarini, masala, ta'rif va teoremlarni o'rgatishda aniq fanlar bilan bog'lab o'qitilsa, aniq fanlar o'z o'rnida tabiiy fanlar fanlar bilan bog'lanishini barcha pedagoglar bilishadi. Ana shu o'zaro fanlararo bog'lanishdan bolalarning olgan bilimlarini o'quvchilarga tasviriy san'at, chizmachilik darsi mashg'ulotlarida dastlabki tasavvurlarini boyitishga qaratib, ularni har xil tasvir va chizmalar chizishga o'rgatib boriladi.

Masalan: O'quvchilar maktab ta'limidagi geometriya fanidan o'qib o'rgangan to'g'ri chiziqli kesmasini chizib o'rganishi jarayonida to'g'ri chiziqlarning kattaligi uzunlik bilan o'lchanshini bilib oladi. Navbatda bitta emas bir nechta to'g'ri chiziqlar o'zaro parallel, perpendikulyar, o'zaro kesishgan, ayqash, o'tkir va o'tmas burchaklarda tutashgan bolishini chizib o'rganish orqali uchta va undan ortiq to'g'ri chiziqli o'zaro tutashtirilganda fazoda tekislik hosil qilishni bajarishadi. Fazoda to'g'ri chiziqlar yordamida hosil qilingan tekisliklarni o'z tasavvuri yordamida o'zaro biriktirib fazoviy geometrik jism rasmini chiza olsa quyidagi geometrik figuralar piramida va prizmani chizishi mumkin.



Agar o'quvchi o'z tasavvuri bilan shunday rasmlar chizishni bajarsa, hosil qilgan geometrik figurasining asoslari, uchlari, yoqlari, qirralari, balandligi va diagonal haqidagi ma'lumotlarni o'rganib, bunday eng sodda figuralarni o'z tasavvurida hatto yasashga ham qiziqqa boshlaydi.

Maktab yoshida bolalar o'z tasavvuri bilan chizgan tasvir va chizmalarini mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'z tasavvuri yordamida, qandaydir yangilik yaratishga yo'nalish berilsa bolalar o'z qobiliyatini ishga solish orqali, bajarayotgan amaliy ishlarida shu intilishini yuzaga chqarishlari mumkin bo'ladi.

Hayotda hech bir inson bilib, dunyoga kelmaydi. Inson sifatida asta-sekin shakllanish jarayonida o'qib o'rganish orqali bilib oladi. O'z bilimi yordamida bilib olgan kishilarda o'z tasavvurlari boyib borsa bunday insonlar yangilik yaratish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Demak yoshlikdan o'qib bilim olgan har bir bola kelajakda, o'z bilimidan foydalanib, yangilik yaratish ya'ni yangi zamonaviy texnologiyada ishlaydigan texnikalarni yaratishda innovatsion rivojlantirish asoschisi bo'lib yetishishini, har pedagog chin qalbdan his etishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Azimov T.D. Chizma geometriyadan amaliy darslar uchun o'quv qo'llanma. -T. «Iqtisod-moliya»,2008 yil. - 164 bet.
2. Sabirova D.U. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. O'quv qo'llanma.-T.TDTU, 2011 yil.- 140 bet.
3. Alimova D.Q., Karimova V.N., Azimov A.T. Chizma geometriya Texnika oliy. o'quv yurtlari uchun darslik. —T. «Barkamol fayzmedia», 2018. -173 bet.
4. D.U.Sabirova, A.T.Azimov, V.T.Mirzaraimova, V.N.Karimova. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. O'quv qo'llanma. —T. “Fan va texnologiya”, 2019 yil. -170 bet.
5. To'xtayev A. va boshqalar. Mashinasozlik chizmachiligidan ma'lumotnoma. Qo'llanma. -T. “ILM ZIYO”, 2010 yil.-164 bet.
6. K.M.Qobiljonov,I.T.Ismoilov va M.Sh.Isayeva “Chizmachilik va chizma geometriya asoslari”O'quv qo'llanma.Toshkent.”O'qituvchi”-1983 yil.313-bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'grisida»gi farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T. O'zbekiston, 2017 yil.-46 bet.

Axborot manbaalari

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
www.ziynet.uz – O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali.
www.sov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
[www.twi rpx.com](http://www.twi.rpx.com) - Konspekt leksii po nachertatelnoy geometrii T.D.Azimov 2008
[httn://www/gubqin/ru](http://www.gubqin.ru).

INSONNING TASAVVURINI BOYITISHDA “MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI” FANINING AHAMIYATI VA FANGA DOIR BILIMLARNI O'RGANISH

Boboxonov O.R. - TMTI assistenti

Egamberdiyev M.Sh. - TMTI talabasi

Annotatsiya: “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fani barcha fanlar qatori insonning bilimlari asosida tasavvurini boyitib, kelajakda innovatsion texnologiya asosida, yangi texnikalar yaratishga xizmat qiluvchi bilim manbayi sifatida xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Insonlar yangilikka intilib yashaydi, yangiliklar yaratishning asosi texnikadir.


Tayanch so'zlar: Innovatsiya, texnika, yangilik, bilish va tasavvur qilish.

Insonlar kelajakni yangiliklarsiz tasavvur qila olmaydi. Yangiliklarni yaratishga oid bilimlarni o'rgatuvchi fanlar qatorida "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani o'z o'rniga ega.

Hozirgi zamon rivojlanishidagi yangiliklarni texnikasiz tasavvur qila olmaymiz. Texnikaning yaratilishi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni o'rganuvchi manba bo'lib, "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fanidan o'rganilgan bilimlar xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida chizmachilikka oid bilimlarni o'rganish orqali o'quvchi va talabalarning tasavvur qilish bo'yicha o'rganadigan bilimlari mustahkamlanib boriladi. Fanga doir bilimlarni egalashdan oldin o'quvchi va talabalar "Muhandislik va kompyuter grafikasi" fani bilan fanlar aro bog'lanishda bo'lgan, ayrim fanlardan o'rganish zarur bo'lgan bilimlarni o'rganib, fazo va fazoviy jismlar haqidagi bilimlarni egallab olishlari kerak bo'ladi. Agar o'quvchi va talabalar talab etilgan bilimni egallab, fazoviy jismlarning mantiqan geometrik shakllardan tashkil topishini o'z tasavvurida ifodalay olsa, demak u fanda o'rgatiladigan eng oddiy va eng sodda geometrik shakllarning proyeksiya tekisliklarida berilishini mustaqil ravishda o'z tasavvurida ifodalay oladi.

Quyida (1.a),b),c),d)-chima)da berilgan to'g'ri chiziq kesmalarining H va V proyeksiya tekisliklaridagi proyeksiyalariga ko'ra o'z tasavvurlarida bu to'g'ri chiziqlar qanday to'g'ri chiziqlar ekanligini ta'riflay olishadi.




Masalan: a)- chizmada berilgan $AB(A'B', A''B'')$ to'g'ri chiziq kesmasining H proyeksiya tekisligidagi $A'B'$ proyeksiyasi OX o'qiga parallel bo'lganda, bu kesmaning V proyeksiya tekisligidagi $A''B''$ proyeksiyasi uning haqiqiy uzunligi ekanligini tasavvur qiladi.

b)-chizmada berilgan $ABC(A'B'C', A''B''C'')$ to'g'ri chiziqli kesmalarining H proyeksiya tekisligidagi $A'B'C'$ proyeksiyasi OX o'qiga parallel bo'lib, bunda to'g'ri chiziqlining B' uchida $B'=C'$ nuqtalari bo'lganda, bu kesmaning V proyeksiya tekisligidagi $A''B''C''$ proyeksiyasida uning ikkita $A''B''$ to'g'ri chiziqli perpendikulyar $B''C''$ ekanligini tasavvur qiladi.

c)-chizmada berilgan $ABCD(A'B'C'D', A''B''C''D'')$ to'g'ri chiziqli kesmalarining H proyeksiya tekisligidagi $A'B'C'D'$ proyeksiyasida ularning kesishuv nuqtasini topib, V proyeksiya tekisligiga proyeksiyalaganda $1''2''$ bo'lishidan, xuddi shunday bu kesmalarining V proyeksiya tekisligidagi $A''B''C''D''$ proyeksiyasida kesishuv nuqtasini H proyeksiya tekisligiga proyeksiyalaganda $3'4'$ bo'ladi, demak bu ikki AB va CD to'g'ri chiziqlarning $A'B'C'D'$ va $A''B''C''D''$ proyeksiyalarida kesishuv nuqtalari umumiy bo'lmaganligini tasavvur qilgan holda bu to'g'ri chiziqlarning o'zaro uchrashmas (ayqash) to'g'ri chiziqlar ekanligini fikrlay oladi.

d)-chizmada berilgan $ABCD(A'B'C'D', A''B''C''D'')$ to'g'ri chiziqli kesmalarining H proyeksiya tekisligidagi $A'B'C'D'$ proyeksiyasidagi ularning kesishuv nuqtasi N' ni topib, V proyeksiya tekisligidagi $A''B''C''D''$ proyeksiyasiga proyeksiyalaganda N'' bo'lishidan, demak bu ikki AB va CD to'g'ri chiziqlarning $A'B'C'D'$ va $A''B''C''D''$ proyeksiyalarida kesishuv nuqtalari umumiy bitta N' va N'' nuqta ekanligini tasavvur qilgan holda bu to'g'ri chiziqlarning o'zaro kesishuvchi to'g'ri chiziqlar ekanligini ta'riflay oladi.



Quyid

a (2.a),b),c),d)-chima)da berilgan tekisliklarining H va V proyeksiya tekisliklaridagi proyeksiyalariga ko'ra o'z tasavvurlarida bu tekisliklar qanday tekisliklar ekanligini, proyeksiya tekisliklariga nisbatan vaziyatlari va haqiqiy kattaligi haqidagi tasavvurlarini ta'riflay olishadi.

Yuqoridagi 2.a)- chizmada berilgan $\triangle ABC(\triangle A'B'C', \triangle A''B''C'')$ tekisligining V proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasi OX o'qiga parallel holda to'g'ri chiziqli ko'rinishida berilgan bo'lib, bu kesmadagi uchta $A''B''C''$ nuqtalar agar $\triangle A'B'C'$ tekisligining H proyeksiya tekisligiga parallel holda berilmagan bo'lsa, $A''B''$ to'g'ri chiziqli yotuvchi C'' nuqta mavjud degan tasavvur paydo bo'ladi.


b)-chizmada berilgan $\square ABCD(\square A'B'C'D', \square A''B''C''D'')$ tekisligining H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasi OX o'qiga parallel holda to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan bo'lib, bu kesmadagi to'rtta $A'B'C'D'$ nuqtalarning ikkitasi $B'=D'$ bir nuqtada $A'C'$ to'g'ri chiziqda unga perpendikulyar joylashgan holda berilgan, shu to'rtburchak tekisligining V proyeksiya tekisligiga parallel $\square A''B''C''D''$ proyeksiyasiga ko'ra, berilgan to'rtburchak tekislik ekanligini, H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar va V proyeksiya tekisligiga parallel vaziyatda joylashgan umumiy vaziyatdagi tekislik bo'lib va bu tekislikning haqiqiy kattaligi $\square A''B''C''D''$ deb tasavvur qilish mumkin.

c)-chizmada berilgan $ABCDE(A'B'C'D'E', A''B''C''D''E'')$ beshburchakli tekisligining H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasi OX o'qiga parallel holda to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan bo'lib, bu kesmadagi beshta $A'B'C'D'E'$ nuqtalarning ikkitasi $B'=E'$ va $C'=D'$ lar ikkita nuqtada $A'C'$ to'g'ri chiziqda unga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri ciziqlar berilgan, shu beshburchak tekisligining V proyeksiya tekisligiga parallel $A''B''C''D''E''$ proyeksiyasiga ko'ra, berilgan beshburchak tekislik ekanligini, H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar va V proyeksiya tekisligiga parallel vaziyatda joylashgan, umumiy vaziyatdagi tekislik va bu tekislikning haqiqiy kattaligi $A''B''C''D''E''$ degan tasavvurga ega bo'ladi.

d)-chizmada berilgan $ABCDEF(A'B'C'D'E'F', A''B''C''D''E''F'')$ oltiburchakli tekisligining V proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasi OX o'qiga parallel holda to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan bo'lib, bu kesmadagi oltita $A''B''C''D''E''F''$ nuqtalarning to'rttasi $F''=B''$ va $E''=C''$ lar ikkita nuqtada $A''D''$ to'g'ri chiziqda unga perpendikulyar holda joylashgan to'g'ri chiziq berilgan, shu oltiburchak tekisligining H proyeksiya tekisligiga parallel $A'B'C'D'E'F'$, proyeksiyasiga ko'ra, berilgan oltiburchak tekislik ekanligini, V proyeksiya tekisligiga perpendikulyar va H proyeksiya tekisligiga parallel vaziyatda joylashgan, umumiy vaziyatdagi tekislik va uning haqiqiy kattaligi $A'B'C'D'E'F'$ degan tasavvurga ega bo'ladi.

Quyida esa (3.a),b),c),d)-chima)da berilgan ko'pyoqlik sirtlarining H va V proyeksiya tekisliklaridagi proyeksiyalariga ko'ra, bu ko'pyoqliklar qanday turdagi ko'pyoqliklar ekanligi, ularning proyeksiya tekisliklariga nisbatan vaziyatlarini va asoslari haqida o'z tasavvurlarida ta'riflay olishadi.

Bunda yuqorida 1-chizmada oddiy geometrik shakllarni o'rganib, shu asosida o'z tasavvurlarini boyitgan har bir o'quvchi, agar o'z biliminidan manba sifatida keyingi 2-chizmada foydalana olgan bo'lsa, bunday o'quvch hech qanday qiyinchiliklarsiz berilgan chizmadagi ko'pyoqliklarga oid ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish orqali o'zlashtira oladi.



Berilgan 3.a)- chizmada asosi $\triangle ABC(\triangle A'B'C', \triangle A''B''C'')$ bo'lgan, $S(S'S'')$ uchli ko'pyoqlik sirt H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasida $\triangle A'B'C'$ va uning S' uchi bo'lgani uchun ko'pyoqliklarning ta'rifiga ko'ra bu sirt uchburchakli piramida deb aytiladi. H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar bo'lgan ko'pyoqlik sirtni xususiy vaziyatdagi ko'pyoqlik sirt deb tasavvur qilish orqali uning $\triangle A''B''C''$ asosi V proyeksiya tekisligiga perpendikulyar va S'' uchi bilan tutashtirilgan yasovchisi V proyeksiya tekisligiga parallel holda bo'lishini ko'rib, piramidaning yoqlari kesishuvidan hosil bo'lgan qirralar uning uchi bilan birlashganligini tasavvur qiladi.

b)- chizmada asosi $\square ABCD(\square A'B'C'D', \square A''B''C''D'')$ bo'lgan, $S(S'S'')$ uchli ko'pyoqlik sirtning ham H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasida $\square A'B'C'D'$ va uning S' uchi bo'lgani uchun ko'pyoqliklarning ta'rifiga ko'ra bu sirt to'rtburchakli piramida deb aytiladi. H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar bo'lgan ko'pyoqlik sirtni xususiy vaziyatdagi ko'pyoqlik sirt deb tasavvur qilish orqali uning $\square A''B''C''D''$ asosi V proyeksiya tekisligiga perpendikulyar to'rtburchak tekisligi va S'' uchi bilan tutashtirilgan yasovchisi V proyeksiya tekisligiga parallel holda bo'lishini ko'rib, piramidaning yoqlari kesishuvidan hosil bo'lgan qirralar uning uchi bilan birlashganligini, asos bilan yoqlarning kesishuvida ham uchlar hosil bo'lishi piramdalarda bunday uchlar soni asos burchaklari sonidan doim bitta ortiq bo'lishini tasavvur qilishi mumkin.

c)-chizmada esa asoslari $\triangle ABC(\triangle A'B'C', \triangle A''B''C'')$ va $\triangle DEF(\triangle D'E'F', \triangle D''E''F'')$ bo'lgan, ko'pyoqlik sirt H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasida $\triangle D'=A', E'=B', F'=C'$ bo'lgani uchun ustma-ust joylashgan ikkita uchburchak asosli bu sirt, ko'pyoqliklarning ta'rifiga ko'ra uchburchakli prizma deb ataladi. H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar bo'lgan ko'pyoqlik sirtni xususiy vaziyatdagi ko'pyoqlik sirt deb tasavvur qilish orqali uning $\triangle A''B''C''$ va $\triangle D''E''F''$ asoslari V proyeksiya tekisligiga perpendikulyar yoqlari kesishuvidan hosil bo'lgan qirralari V proyeksiya tekisligiga parallel bo'lishini tasavvur qiladi.

d) Asoslari $\square ABCD$ ($\square A'B'C'D'$, $\square A''B''C''D''$) va $\square EFKL$ ($\square E'F'K'L'$, $\square E''F''K''L''$) bo'lgan, ko'pyoqlik sirtning ham H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar proyeksiyasida $\Delta E'=A'$, $F'=B'$, $K'=C'$, $L'=D'$ bo'lgani uchun ustma-ust joylashgan ikkita to'rtburchak asosli bu sirt, ko'pyoqliklarning ta'rifiga ko'ra to'rtburchakli prizma deb ataladi. H proyeksiya tekisligiga perpendikulyar bo'lgan ko'pyoqlik sirtning xususiy vaziyatdagi ko'pyoqlik sirt deb tasavvur qilish orqali uning $\square A''B''C''D''$ va $\square E''F''K''L''$ asoslari V proyeksiya tekisligiga perpendikulyar, yoqlari kesishuvidan hosil bo'lgan qirralari V proyeksiya tekisligiga parallel bo'lishini va prizmaning yoqlari bilan asoslari kesishuvida uchlar hosil bo'lib bu ushlar soni prizma asoslari burchaklarining yig'indisiga teng bo'lishini ham tasavvur qilishi mumkin.

Hayotda hech bir inson bilib, dunyoga kelmaydi. Inson sifatida asta-sekin shakllanish jarayonida o'qib o'rganish orqali bilib oladi. O'z bilimi yordamida bilib olgan kishilarda o'z tasavvurlari boyib borsa bunday insonlar yangilik yaratish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Demak yoshlikdan o'qib bilim olgan har bir bola kelajakda, o'z bilimidan foydalanib, yangilik yaratish ya'ni yangi zamonaviy texnologiyada ishlaydigan texnikalarni yaratishda innovatsion rivojlantirish asoschisi bo'lib yetishishini, har pedagog chin qalbdan his etishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Alimova D.Q., Karimova V.N., Azimov A.T. Chizma geometriya Texnika oliy. o'quv yurtlari uchun darslik. —T. «Barkamol fayzmedia», 2018. -173 bet.
2. D.U.Sabirova, A.T.Azimov, V.T.Mirzaraimova, V.N.Karimova. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. O'quv qo'llanma. —T. “Fan va texnologiya”, 2019 yil. -170 bet.
3. K.M.Qobiljonov, I.T.Ismoilov va M.Sh.Isayeva “Chizmachilik va chizma geometriya asoslari” O'quv qo'llanma. Toshkent. “O'qituvchi” -1983 yil. 313-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

Axborot manbaalari

www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
www.ziynet.uz – O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali.
www.sov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
www.twi.rpx.com - Konspekt leksii po nachertatelnoy geometrii T.D.Azimov 2008
<http://www.gubqin.ru>

АНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЕТ ГЕОМЕТРИИ ЧАШИ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ СИНТЕТИЧЕСКОГО ВОЛОКНА

Учитель: П.М. Бутовский

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Студент: Кобиров Б.

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Студент Ратушин К.

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Ключевые слова : волокно, отходы, ПЭТ, расплав, центробежная сила.

Основные сведения

Наибольший интерес среди известных технологических процессов получения волокнистых материалов из ПЭТ представляет процесс, суть которого заключается в раздуве истекающей из плавильного агрегата струи расплавленного ПЭТ потоком сжатого воздуха. При этом плавильный агрегат может быть любого типа, например, гидростатического или экструзионного типа, который может обеспечить переработку как первичных, так и вторичных полимерных материалов дутьевым способом в волокно с заданными свойствами. Предварительные исследования процесса получения волокнистых материалов с применением таких плавильных агрегатов подтвердили его положительные качества, в том числе уменьшение материальных и энергетических затрат на производство волокна по сравнению с традиционной технологией. Однако такой процесс до сих пор не реализован в промышленных условиях[1].

Проделав большой литературный обзор[1,3,4], мы разработали свою установку для получения химических волокон из отходов ПЭТ материала .

На рисунке 1 показана установка. Принцип установки заключается в следующем: в чашку засыпается дробленый материал 5 из ПЭТ баклажек . В чашке 5 материал согревается за счет нагревательного элементов 2. Чашка сидит на конце быстровращающегося двигателя1. При включении появляется центробежная сила, которая отталкивает расплавленную массу к стенкам и таким образом начинает ее выдавливать наружу . А вылетевшее волокно попадает в камеру 5, откуда потом удаляется

диаметр чаши и число оборотов вращения.

Определим характер поверхности равного давления жидкости в сосуде при вращении вокруг своей вертикальной оси с угловой скоростью ω (рис. 2).




Рис. 1 Установка получение химического волокна из ПЭТ

Рассмотрим математическую модель такой установки, чтобы определить

Координатная плоскость xoy расположена горизонтально, ось z направим вертикально вниз.

На жидкость, помимо объемной силы тяжести, действует еще и центробежная сила, проекции ускорения которой будут на ось x , выразим формулой:

$$F_x = \omega^2 x \quad (1)$$

А на ось y

$$F_y = \omega^2 y \quad (2)$$

В таком случае общее уравнение будет выглядеть как :

$$\omega^2 x dx + \omega^2 y dy + g dz = 0 \quad (3)$$

Преобразуем (3) в следующий вид:

$$\omega^2 (x dx + y dy) + g dz = 0 \quad (4)$$

Так , как

$$x dx + y dy = r dr \quad (5)$$

То выражение (4) превращается в следующий вид

$$\omega^2 r dr + g dz = 0 \quad (6)$$

После чего преобразуем уравнение в следующий вид

$$\omega^2 r dr = -g dz \quad (7)$$

Проинтегрируем обе части уравнения:

$$z = -\frac{\omega^2 r^2}{2g} + C \quad (8)$$

При подстановке $r=0$, $z=0$, получим $C=0$

Отсюда следует, что выражение (8) примет вид

$$z = -\frac{\omega^2 r^2}{2g}$$

При $R=r$




Рис. 2 Расчетная схема геометрических параметров чаши

$$H = -\frac{\omega^2 R^2}{2g} \quad (9)$$

Значение H определяет минимальную глубину чаши при формировании химического волокна

Вывод

По полученным формулам можно рассчитать геометрию чаши, без учета вязкости массы.

Список использованной литературы:

1. Святский В.М. методологические основы проектирования оборудования и процессов для производства дутьевым способом синтетических волокнистых материалов и изделий из них. Дисс. д.т.н. – Тамбов 2019. – С.281
2. Абрамович, Г.Н. Теория турбулентных струй / Г.Н. Абрамович – М.: Изд-во физ.-мат. литературы, 1960. – С.715.
3. Абрамов, О.В. Научное обеспечение процесса экструзии модельных сред на основе крахмалосодержащего сырья и разработка высокоэффективного оборудования для его реализации [Текст]: Ав тореферат дисс. ... д.т.н. – Воронеж, 2009. – С.45.
4. Бутовский П. М. Некоторые вопросы вытягивания реального продукта. МОЛОДЕЖЬ И XXI ВЕК - 2017 материалы VII Международная молодежная научная конференция Курск 2017

YETUK MUTAXASISLAR TAYYORLASHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.

Bo'riyev.H.A. - TMTI assistenti

Aliqulova.D.A. - TMTI assistenti

Prezidentimizning oliy ta'limni yanada rivojlantirish to'g'risidagi ma'ruzalarida talabalarni bilim olish darajasi hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifat ko'rsatgichi Respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida asosiy ustivor yo'nalishi ekanligi aytilgan. Innovatsion pedagogik texnologiya, interfaol ta'lim, interfaol metodlar muntazam muloqotga asoslangan uslublar bo'lib, talabalarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta'lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

- talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;

- talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Ta'lim sohasidagi sifat ko'rsatgichi bugungi talabani yuksak bilimli, zamonaviy kadr bo'lib iqtisodiyotimizni rivojlantirishda jahon andozalari talablariga javob bera oladigan bo'lib yetishishidir. Ta'lim sifat ko'rsatkichi avvalo nimalarga bog'liq deganda, birinchidan o'qituvchining dars o'tish mahoratiga, interfaol metodlarni qo'llay olishiga, ya'ni ta'lim oluvchi bilan o'zaro muloqotda-harakatda bo'lishiga, talabalarni bir-birlaridan o'rganishlariga, san'atiga va sifatiga bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shuningdek o'qituvchi chet el va Respublikamizdagi kundalik axborot va voqealardan xabardor bo'lmog'i, ma'naviy siyosiy, iqtisodiy yo'nalishlarda bo'layotgan o'zgarishlarni, xalqimizning turmush sharoitini yaxshilanishiga qaratilgan davlat siyosatini mukammal bilmog'i kerak.

Talaba ustozni na faqat ma'ruza o'qish mahoratiga qolaversa, ustozdagi barcha bilimlardan qay darajada xabardor ekanligiga qarab baho beradi. Shunga qarab, uni e'tibori oshadi, ma'ruza mavzusini qiziqib tinglaydi va o'zlashtirishi yuqori bo'ladi.

Hozirgi texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yangi pedagogik texnologiyalar bilan a'nanaviy o'qitish texnologiyalarini umumlashtirgan holda muhandis-texnologlarni yanada sifatli bilim sohibi bo'lishi uchun nimalarga e'tibor

berish kerak degan savol bizni ish faoliyatimizning mazmunidir, bunday yuksak ustivor vazifa avvalo o'qituvchi zimmasiga yuklanadi. Shu sababdan pedagogik tajribamiz bilan fikr almashmoqchimiz.

Talabalarni ma'ruza o'qilgandan keyingi o'zlashtirish ko'rsatgichlarini ko'rib chiqamiz. Ma'ruza o'qishning turlari juda ko'p. Shulardan ayrimlarini tahlil qilaylik.

1. O'qituvchi talabalar oldiga kirib ularni tinchlantirmasdan ro'yxat qilib va sekin o'z konspektini ochib o'qib berish. Bunday sharoitda 60-75% talaba o'z fikri va xayoli bilan sizga qarab o'tiradi, ammo dars tamom bo'lgandan keyin ularning o'zlashtirishi 30-40% dan oshmaydi. Bir yildan keyin esa talaba yodida ma'ruzaning 20% gina qoladi.

2. O'qituvchi o'z konspektiga onda-sonda qaraydi, talabalarga ko'pincha orqa o'girilgan holda doskaga yozib, chizib tushuntiradi. Ularni tinch va e'tibor bilan ma'ruzani tinglayotganlarini sezmaydi, sezsa ham ogohlantirmaydi. Bunday o'qilgan ma'ruza talaba ongida 50-55% gacha qolishi mumkin. Bir yildan keyin esa 20-25% ma'ruza mazmuni esida qoladi.

3. Ma'ruza yuqori saviyada konspektga umuman qaramagan holda, o'qituvchi o'z so'zi bilan, talabalar nigohida, e'tiborida o'qisa o'zlashtirish darajasi 70-75% gacha, bir yildan keyin 40-45% esida qoladi.

4. O'qilayotgan ma'ruza mazmunan boy, innovatsion texnologiya usullarga asoslangan pedagogik texnologiya tizimlarni qo'llash, ko'rgazma va plakatlardan foydalanish, o'qilayotgan xona videoroliklar ko'rsatishga moslashgan jihozlar o'rnatilgan bo'lsa, ma'ruza mazmuni esa videorolik va tasvirlar bilan erkin holatda tushuntirib boshqarilsa o'zlashtirishni 80-85% ko'tarsa bo'ladi. Bir yildan keyin esa talaba xotirasida 60-65% qolishi mumkin.

5. To'rtinchi usulni yanada mazmunan boyitib yuqori saviyada o'qilgan ma'ruzani tajriba va amaliy ishlar bilan boshqarib bajarilsa talabalarning bir kundan keyingi eslab qolish darajasi sal kam 100% ga ko'tarilishi mumkin. Bir yildan keyingi suhbat natijalari esa mavzuni o'zlashtirish 85% dan kam bo'lmaydi.

Umuman olganda, minbarga chiqib yoki kafedradan tinglovchilarni e'tiborini tortib, ular fikrini rom eta olish uchun, har bir pedagog o'z ustida tinimsiz ishlashi, salohiyatini oshirib borishi kerak bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1.R.Ishmuhamedov.,M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar, metodistlar uchun o'quv qo'llanma) -T.:2017.-368 b.

2. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma / Seriya "O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limda innovatsion texnologiyalar". – T.:TDIU, 2017.

ЎРТА ОСИЁ АҲОЛИСИНING ДРАВИД ТИЛЛИЛИК ҒОЯСИГА ҚАРШИ ФИКР

Даминов Ш.Ш. - ТМТИ ассистенти

Annotatsiya: Йўллар тарихини ўрганиш – ҳалқлар ўртасидаги маданий алоқалар тарихини ўрганиш демакдир. Қадимги савдо йўллари ва унда яшаган аҳолининг маданий жиҳатини ўрганиш бугунки кун тарих фани олдида турган вазифадир.

Қадимги Шарқ шаҳарларига Бактрия ложувардлари қай тариқа тарқалганлиги масаласи билан шу вақтгача ҳеч ким алоҳида шуғулланмаган. Бронза даврида Ўрта Осиёнинг жанубий минтақаларида Жарқўтон, Алтиндепа, Тоголок, Гонур, Даштли ёдгорликлари ўрнида Шумер шаҳар давлатлари сингари бирлашмалар шаклланган. Маъдан конларига эгалик қилишган ва Қадимги Шарқ цивилизацияси аҳолиси билан тенг савдо-сотиқ ва маданий алоқаларни ўрнатишган.

Kalit so'zlar: Шўртақай, Хараппа, Сополли, дравид тил, лазурит, зиккурат.

Шўртқай-Хараппа маданиятига тегишли бир гуруҳ аҳолининг Бактрияга Амударёнинг юқори оқими, чап қисми бўйи ҳудудига кўчиб келиши натижасида пайдо бўлган ёдгорлик. Вақт ўтиши мобайнида кўчманчи Бешкент, Андроново маданиятлари ва ўтроқ деҳқончилик - Сополли ва Даштли маданиятларининг таъсирида моддий маданияти ўзгарганлиги, маҳаллийлашганлиги кузатилади. Ёдгорлик муаллифи француз археологи Г.П.Франкфортнинг фикрига қараганда Шўртқай Хараппа маданиятининг шимолий савдо форпости ҳисобланиб, лазурит йўлидаги савдо колонияси манзилдир¹.

Маълумки, Шўртқай ёдгорлигининг топилиши билан, ўтган асрнинг ўрталарида Ўрта Осиё аҳолиси бронза даврида дравид тилли (дравидоид) бўлган деган ғоя тарқалган¹ ва бу фикрни кўплаб олимлар қўллашган¹. Ушбу фикр тарафдорлари Ўрта Осиёнинг бронза даври ёдгорликларидан топилаётган Хараппа маданиятига хос ашёвий манбаларнинг топилишини ўз ғояларига асос қилиб оладилар.

Хараппа маданиятига хос моддий маданият ашёлари Қадимги Ҳиндистондан юзлаб километр узоқликдаги ёдгорликлардан ҳам топилмоқда. Айниқса, Мессопатамия шаҳарларидан Хараппа маданиятига хос 30 дан ортиқ муҳрларнинг, хаттоки муҳрлар излари туширилган хат парчаларининг топилиши Ҳиндистон савдогарларининг бронза даврида бутун Қадимги Шарқ бўйлаб тарқалиб кетганлигини кўрсатади. Айниқса, фил суягидан ясалган

ашёлар Ҳиндистон савдогарларининг асосий товарларидан биридир. Ҳиндистон савдогарларининг қўли етган манзилда бу ноёб топилма учрайди.

Хомашё қадимги хараппаликларнинг экспорт-импорт савдосида асосий товарларидан бири ҳисобланади. Мис, қўрғошин, олтин, кумуш Афғонистон ва Эрон ҳудудларидан олиб борилган. Бундай фикрга келишимизга сабаб Қабул-Куррат оралиғидан бронза даврига оид мис конлари ва уларнинг қайта ишланган ёмбиларининг топилишидир.

Шўртўқай ёдгорлиги ашёлари нафақат маданий алоқалар, балки этник жараёнлар масаласини ечишда ҳам манба бўлиб хизмат қилади. П.Франкфорт Шўртўқай маданиятининг пайдо бўлишида маҳаллий Бактрия маданиятининг ўрни тўғрисида гапириб¹, Шўртўқайдан топилган муҳрлар ва уларда ифодаланган тасвирлар семантикасини Элам билан боғлайди ва П.Амье назариясини - Эламнинг маданий таъсирини қўллаб-қувватлайди.

Шўртўқай глиптикаси наъмуналари ҳақида гап юритар экан Е.Е.Кузьмина бу этнопсихологик жараён, бунда фақат генетик бирлик тўғрисида гапириш лозим, бу манбалар ҳинд-эрон аҳоли бирлигигача бўлган Бактрия аҳолиси тўғрисида маълумотлардир, деган фикрни таъкидлайди. В.М.Массон эса III минг йилликда Туркменистондан то Ҳинд ерларигача Элам тилли бўлган деб ҳисоблайди ва Д.Мак Альпина ва И.М.Дьяконов фикрларини қўллаб-қувватлайди¹.

Сўнги вақтда адабиётларда Бактрияда Хараппа этник гуруҳларининг ўрни тўғрисида янги фикрлар пайдо бўлмоқда. Бертиль Лионнет Хараппа маданиятининг Бактрия маданий таъсири тўғрисида эмас, балки бир этник гуруҳ тўғрисида гапириш керак деган фикрда. В.М.Массоннинг Алтиндепада очилган «Зиккурат» қазилмалари вақтида топилган ашёвий манбалар Эронга нисбатан Хараппа маданиятига яқинроқдир¹, деган хулосаси Ўрта Осиё ва Ҳиндистон халқининг маданий алоқалари қадимдан давом этиб келаётганлигидан далолатдир.

Эслаб ўтилган маълумотларнинг барчаси Ўрта Осиё ва Қадимги Ҳиндистон ўртасидаги маданий алоқалардан дарак беради. Аммо, бир хил аҳоли бўлган деган фикрни бермайди ва Ўрта Осиё аҳолиси бронза даврида дравид тилли ёки дравидоид ирқига оид бўлган деган ғоянинг асоссизлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: 1948. – С. 68; Толстов С.П. По следам древнехорезмской цивилизации. – М.: 1948. – С. 86.
2. Литвинский Б.А. Бронзовый век // ИТН. Том I / - М.: 1963. С. 56-68; Массон В.М. Печати протоиндийского типа из Алтын-депе (К проблеме этнической атрибуции культур расписной керамики Ближнего Востока) // ВДИ. – М.: 1977, №4. –С. 192-208.

3. Fragfort H.P. Fouilles de Shortughai // -P.405.
4. Дьяконов И.М. Языки древней Передней Азии. – М.: 1967. – С. 85-87, - С. 108-112; Mc.Alpin D. Proto-Elamo-Dravidian: The Evidence and its Implications // Transactions of the American Philosophical Society. 1981. V.71. №3. Массон В.М. Формирование раннеклассовых обществ и вопросы типологии древних цивилизаций // Древний Восток и античный мир. – М.: МГУ, 1980. – С. 12-40; Массон В.М. Основные направления культурно-исторического процесса // Становление производства в эпоху энеолита и бронзы. М.. Наука, 1981. – С. 35-48.

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR.

Даминов Ш.Ш. – TMTI assistenti

Annotatsiya: Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin. Bugun dunyo koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq inqirozga duch kelgan bir sharoitda ko'plab mintaqalarda millatlararo va konfessiyalararo ziddiyatlar kuchayayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu bois, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish uchun birdamlikni saqlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda aholining ko'p millatli bo'lishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib borishini ta'minlash, fuqarolar o'rtasida diniy bag'rikenglik, millatlararo va dinlararo munosabatlarda inson huquqlariga katta e'tibor berish dolzarb maqsad va vazifamizdir.

Kalit so'zlar: inson manfaati, diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, diniy konfessiya, shovinizm, millatchilik.

O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir.

Sh.Mirziyoyev

Hozirgi davrda shakllangan inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqqa ko'ra davlatlar inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga hamda ularning hamma uchun birdek, biron-bir kamsitishlarsiz, amal qilishini ta'minlashga mas'ul hisoblanadi. Xalqaro-huquqiy hujjatlarda aks etgan normalar davlatlarning inson huquqlari sohasida o'z milliy qonunchiligini ishlab chiqishi va qabul qilishida namuna vazifasini o'taydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida "Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega"¹, deb qayd etilgan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 18-moddasida ta'kidlanganidek, "Ushbu huquq o'z ixtiyori bilan o'ziga ma'qul dinni qabul qilish va e'tiqod qilish erkini, yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda, oshkora yoki xususiy tartibda sig'inishga borish, diniy va boshqa urf-odatlarini va marosimni bajarish erkini ham o'z ichiga oladi"¹. BMTning asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklarini irqiy, jinsiy, insoniy, milliy, diniy mansubligi yoxud sog'ligi holatidan qat'iy nazar barcha uchun rivojlantirish, inson qadr-qimmatini va hurmatini ta'minlash hamda bu yo'ldagi murosasizlik ko'rinishlariga qarshi kurashishga doir vazifa va majburiyatlar bayon etilgan.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlar jahon hamjamiyatining har bir a'zosini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini qaror toptirish, demokratiya va huquq tantanasi uchun bag'rikenglik bilan sa'yohat qilishga da'vat etadi. YuNESKO tomonidan 1995-yil 16-noyabrda e'lon qilingan Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida bayon etilganidek, "Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo'lishni, o'z iymon, e'tiqodidan voz kechish yohud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim"¹.

Bugunki kunda xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va O'zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018-yil 12-dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur sohada olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018-yilda AQSh Davlat departamenti

O'zbekistonni diniy erkinlik borasida "alohida tashvish uyg'otuvchi mamlakatlar" ro'yxatidan chiqarganini ko'rsatish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston o'zini dunyoviy davlat deya e'lon qildi va Konstitutsiya orqali buni mustahkamladi. Dunyoviylik tushunchasi zahirida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili mujassamdir. Shu bilan birga, davlat dindorlarning haq-huquqlarini kafolatlash majburiyatini ham o'z zimmasiga oladi. Asosiy Qonunimizning 31-moddasiga ko'ra, "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"¹. Mamlakatimizda mazkur konstitutsiyaviy norma negizida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun¹ qabul qilingan. O'zbekiston Konstitutsiyasi va milliy qonunchilikda kafolatlangan vijdon va e'tiqod erkinligi barcha fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlarni yaratdi. O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri - bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqaroviy o'zaro ahillikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mazkur sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi. Bu huquqiy hujjatlarning aksariyati fuqarolarning dini va millatidan qat'i nazar, huquq va erkinliklarini kengaytirish, shu jumladan, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga qaratilgan. Mamlakatimizda **130** dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda, **138 ta** milliy madaniyat markazlari va **34 ta** do'stlik jamiyatlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning faoliyati O'zbekistonda yashayotgan barcha xalqlar va etniklarning tarixini hurmat qilish va madaniy-ma'naviy qadriyatlarini, milliy an'ana va urf-odatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi. Shu bilan birga, ayni paytda O'zbekistonda **2300** dan ortiq diniy tashkilot va **16 ta** diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, ular qatoriga, musulmonlar, xristianlar, katoliklar, yahudiylar, budda ibodatxonasi, baxoiylik va krishnachilar jamiyatlarini kiritishimiz mumkin. Ular birgalikda milliy bayramlarni nishonlaydilar, bir-birlariga yordam beradilar va qo'llab-quvvatlaydilar. Shunday qilib, madaniyatlarning o'zaro boyishi turli millat va din vakillarining ma'lum bir hududlarda ro'y beradi, bu esa jamiyatda bag'rikenglikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy maqsadlarida aks etganidek, bag'rikenglik, millatlararo va dinlararo munosabatlarda inson huquqlariga rioya etishning asosiy tamoyillarida jinsi, irqi, millati, tili, dini,

ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar fuqarolarning teng huquqlari va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash, ko'p millatli O'zbekiston xalqining birligini, millat va elatlarning tiliga, huquqiy maydon doirasidagi urf-odatlar va an'analariga izzat-hurmat munosabatini mustahkamlash, ularning to'la huquqli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, jipslik, insonparvarlik va bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash, millatchilik va shovinizm namoyon bo'lishi ehtimoliga qarshi kurashish, fuqarolarning millatiga qarab kamsitilishiga hamda Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Xulosa qilib aytganda, dunyo ahli bugun insoniyat taraqqiyotining keskin burilishlar ro'y berayotgan tarixiy bosqichida yashamoqda. Globallashuv asrida jahonda tinchlik o'rnatishning eng muhim tamoyillaridan biri diniy bag'rikenglik hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, har bir insondan e'tiqodida mustahkam bo'lgan holda boshqa dinlar, boshqa e'tiqod va an'analarni ham o'rganishni taqozo etadi. Zero, Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir¹".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh. Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston Strategiyasi». – T. "O'zbekiston", 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T. "O'zbekiston", 2017.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi//O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. Inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: "Adolat", 2002.
4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt // O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. Inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: "Adolat", 2002.
5. Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi// YuNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari: to'plam / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: "Adolat", 2004.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Toshkent shahri, 2016-yil 18-oktabr.

«ЛОЖУВАРД ЙЎЛИ»

Жовлиев М.М. - ТМТИ талабаси

Қадимги Шарқнинг муҳим иқтисодий ва маданий минтақаларидан бири бўлган Ўрта Осиё ва Шарқ халқлари ўртасидаги алоқалар жуда қадимги даврларга бориб тақалади.

Давлатлар ўртасидаги географик яқинлик, халқларнинг бир-бирларига нисбатан қизиқиш билан қарашлари иқтисодий, маданий алоқаларнинг пайдо бўлишига туртки бўлди.

Мустақиллик йилларидан бошлаб Ўзбекистон Республикаси, хусусан , биринчи Президентимиз И.А.Каримов ташаббуси билан «Буюк ипак йўли» тарихий тажрибаларини чуқурроқ ўрганишга, ўтмишда халқаро савдодаги бой салоҳиятни тиклашга ва унинг асосида ватанимизда халқаро туризмни ривожлантиришга катта эътибор берилмоқда. Қолаверса, Президентимиз айтганидек, «халқаро транспорт ва иқтисодий алоқаларни ривожлантириш ҳамда мамлакат учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон ҳозирнинг ўзидаёқ бир қатор ташкилий-ҳуқуқий ва амалий чора-тадбирларни қурмоқда» (1), «... ташқи дунё билан алоқаларимиз тобора кенгайиб бораётганида, тараққий топган етакчи давлатлар кўмагида иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш, модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш бўйича дастурларнинг амалга оширилаётганида, товарлар импорти ва экспортининг ўсиб боришида ва бошқа мисолларда яққол кўришимиз мумкин» (2).

Халқлар ва мамлакатлар ўртасидаги қадимда мавжуд бўлган савдо ва иқтисодий алоқалар тарихини ўрганиш тарихнинг долзарб йўналишларидан биридир. Хусусан, Ўрта Осиё ва Шарқ халқлари савдо муносабатлар тарихида «Ложувард йўли»нинг ҳам муҳим ўрни бор. Бу йўл милoddан аввалги III-II минг йилликда тўла шаклланди ва шу даврдан бошлаб савдо ва мол айирбошлаш гуркираб ривожлана борди.

Милoddан аввалги III-II минг йилликларда деб таъкидлайди археолог олим, Э.В.Ртвеладзе, Ўрта Шарқнинг бир-биридан жуда олис масофада жойлашган маданият ва цивилизацияларини, Мессопатамиядан Ҳинд дарёси хавзасигача шимолдан жанубга Ўрта Осиё ва Араб денгизигача ҳудудларни бир-бирлари билан боғлаб турган қуруқликдаги йўллар шаклланган. Бу шаклланган йўллар мажмуида унинг шаклланишида асос бўлиб хизмат қилган икки улкан цивилизациялар номи Мессопатамия ва Хараппа йўллари деб аташ мумкин (3). Биз мавжуд археологик манбаларга таянадиган бўлсак, бу қадимги қарвон йўлининг шаклланишида Ўрта Осиёнинг ҳам беқиёс ўрни бор. Негаки

қадимги «Ложувард йўли»дан олиб кетилаётган моллар айнан Ўрта Осиё минтақаси худуди орқали ўтар эди.

Ўрта Осиёнинг қадимги Шарқнинг маданият ва цивилизациялари билан мавжуд алоқаларида Шарқда эъзозланган қимматбаҳо тош-ложувард асосий савдо манбаи бўлиб хизмат қилган. Бу қимматбаҳо тошнинг асосий конлари қадимги Бактриянинг Бадахшон қисмида яъни Амударё юқори ҳавзасида жойлашган.

Ўрта Осиё, Эрон, Мессопатамия, Олд Осиё, Ҳиндистонда ложувард (лаъл)дан ясалган буюмларнинг энг дастлабки намунаси милoddан аввалги IV-III минг йилликларга оид. Буларнинг барчаси Бадахшон лаълидан ясалган бўлган. Асосий савдода ложавард муҳим ўрин тутгани учун бу йўл «Ложувард йўли» деб номланган.

Археолог олим В.И.Сарианиди қадимги Шарқда топилган ложувард буюмларининг харитасини тузиб, бу буюмлар ҳақида Оссурия манбаларини таҳлил этиб, Олд Осиёдан Бадахшонгача «Буюк ложовард йўли» мавжуд бўлган деган илмий фикрга келган. Лаъл тоши билан Мессопатамия ва Миср подшоларининг саройлари, ибодатхоналар, аёлларнинг зеб-зийнат буюмлари билан безалишига имкон яратган эди.

Қадимги форс ёзма манбаларида Суғдиёна ва Бактриядан Олд Осиёга ложувард олиб кетилгани ҳақида маълумотлар мавжуд. Қадимги грек ва рим манбаларида Бактриядаги кумуш ва олтин конлари ҳақида айтиб ўтилади. Умуман олганда, Бактрия олтин, кумуш, мис ва лазуритга бой ўлка сифатида қадимги ва ўрта асрларга оид манбаларда кўп тилга олинади (4).

Шарқда ложувард хомашёси билан савдо қилиш гуллаб-яшнаган. Тоғли Бадахшонни Олд Осиёнинг Шумер ва Элам каби қадимий давлатлари билан боғловчи савдо йўли Эрон худуди орқали ўтган. Мессопатамияга ложувард асосан Хисордан олиб борилган. Хисорда ложувардни қайта ишловчи устахоналар бўлган. Ҳар бир устахонада бир неча бор ҳунармандлар ишлаган (5).

Қолаверса, Мессопатамияга ложувард Сиалк ва Гиян манзилгоҳларидан ҳам олиб борилган. Хисордаги IV, Сиалкдаги III 4-5, Гияндаги Vс қатламларидан ҳам ложувард устахоналари топилган (6). Хисор III дан топилган бой қабрлар Ложувард савдосининг ривожланишида жамиятни бошқариб турган олий табақа вакиллариининг бойиб кетишига олиб келганлиги ва улар айнан ложувард савдосини назорат қилиб турганлигини исботланди.

Туркменистон жанубидаги ложувард савдоси ҳақидаги маълумотлар камдир. Савдо муносабатлари бу минтақада Хараппа цивилизацияси ва Бадахшон ложувард конлари билан боғлиқдир. Бадахшондаги ложувард Хараппа цивилизациясида учрашини ва доимо савдо алоқалари бўлиб

турганлиги археолог олимлар таъкидлайди (7). Ўзаро савдо алоқалари натижасида қадимги давлатларнинг маданий қўшилиб кетиши ҳам юз берган. Афғонистондаги Шуртўқай манзилгоҳининг ўрганиши натижасида қадимги Хараппа цивилизацияси қадимги Бактрия цивилизацияси билан маданий қўшилиб кетганлигини исботлайди. Шуртўқай маданиятининг илк босқичларида Ҳинд водийси билан маданийлашуви ва қўшилиб кетиши кўринади. Бир мунча вақт ўтгач эса Вахш водийсида чорвадорлар маданиятининг тадқиқ қилиниши Кўкча дарёси қуйи оқимидаги тарихий обидаларнинг шимолий Афғонистондаги сўнги бронза даври билан генетик боғлиқлигини исботлайди (8). Бунда Шимолий Бактрияга бу маданиятнинг кириб боришини алоҳида таъкидлаш керак. Ўрта Осиёнинг жанубида яшаган қабилалар, шунингдек жанубий Туркменистоннинг қадимги аҳолиси Хараппа тараққиёти билан яқин алоқада бўлган. Айниқса бронза давридаги манзилгоҳлар буни исботлайди (9). Хусусан, бронза даврига оид Олтинтепа, Калла-6 (10) лардан топилган Ҳинд муҳурлари, Сополлитепадан топилган вазалар Моҳенджо-Даро, Хараппа ва Чанху-Дароларда (11) учраши бунинг исботидир.

Шундай қилиб, эниолит ва бронза давриданок қадимги Шарқ халқлари савдо ва маданий алоқаларни ложувард йўли орқали олиб борган, ложуварддан ясалган тақинчоқ, мунчоқлар қадимги Шарқ халқларида юксак баҳоланган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1999. - 638-бет.
2. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. - 11-бет.
3. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический словарь. – Т.: Ўзбекистон миллий қомуси, 1999. – С. 17.
4. Жамият ва бошқарув. – Т.: 2001. – 2-, 39-бет.
5. Tosi M., Pirerno M. Lithik technology behind the ansciend lapis lazuli trade//Expedition. 1973, V. 16, N-1/ 15-23; Древние цивилизации Востока (Материалы II Советко американского симпозиума). – Т.: Фан, 1986. – 24 С.
6. Чайлд Г. Древнейший Восток в свете новых раскопок. – М.: 1956. – 383 С.
7. Массон В.М. Протогородская цивилизация юга Средней Азии//СА. 1967. №3. С. 165-190; Вассон В.М. Алтын-депе. Л., 1981. 176 с; Сарианиди В.И. О великом лазуритовом пути на древнем Востоке//КСИА. 1968, Вып. 114. – С. 3-9.
8. Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Южного Таджикистана: автореф. дис... канд. ист. наук. – М.: 1982

9. Массон В.М. Древнеземледельческие племена Южного Таджикистана и их связи с Ираном и Индией//ВДИ, 1957. №1; Щетенко А.Я. О торговых путях эпохи бронзы по материалам туркменистано-хараппских параллелей//КСИА. – Вып. 122. – 1970.

10. Массон В.М. печати протоиндийского типа из Алтын-депе//ВДИ. - 1977, №4 История материальной культуры Узбекистана. – Т.: Фан, Вып15. – 1979, 29 С.

ЛОГИСТИКА СОҲАСИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жумаев Ш.Ш. - ТМТИ талабаси

Автотранспорт воситаларининг ҳаракатини бошқариш ва бошқариш тизимини такомиллаштириш, ҳужжатларни бошқаришнинг электрон (қоғозсиз) тизимлари, навигация ва телематик тизимларни жорий этиш билан бирга такомиллаштириш масаласи бугун алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Юк ташувчиларнинг халқаро транспорт бозорига фаол кириб бориши, халқаро ва ички транспорт соҳасида ишлайдиган омилларнинг мураккаблиги ва хилма-хиллиги транспортни ташкиллаштириш соҳасида юқори малакали мутахассисларни тайёрлашни тақозо этмоқда.

Республикамизда логистик сервис хизмати кўрсатиш даражасини ошириш ва йўловчи ва юк ташиш ҳамда логистикаси салоҳиятини янада ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 февралда “Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-4143 сонли ҳамда 2019 йил 6 мартдаги “Юк ва йўловчи ташиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4230 сонли қарорлари амалиётга тадбиқ этилган.

Йўловчи ва юк ташишни ташкил этиш кўплаб умумий фикрларга эга. Шу билан бирга маълум фарқлар мавжуд. Асосий фарқ шундаки, йўловчилар бир вақтнинг ўзида нафақат ҳаракатланувчи объект, балки транспорт хизматларининг истеъмолчиси сифатида ҳам ҳаракат қилишади. Транспорт логистикаси йўловчиларни ташишни амалга оширишда тўғридан – тўғри роль ўйнайди. Йўловчилар, масалан, қатновнинг қулайлигини, унинг нархини ёки йўл давомида маълум бир нуқталарда йўналишларини алмаштириш каби қобилиятини ва умуман юк ташишда ҳисобга олинмайдиган бошқа шароитларни ҳисобга олишлари мумкин. Бундан ташқари, ҳар бир йўловчилар гуруҳи ўз хоҳишларига эга бўлиши мумкин, улар асосида сафар вақти ва йўналишини, ўтказиш пунктларини, транспорт турини ва тўлов усулини танлашади.

Йўловчилар ва юкларни етказиб беришда бошқа баъзи фарқлар мавжуд. Йўловчилар ташишни амалга оширишда бир қатор омбор операциялари логистика занжиридан чиқиб кетади, Уларнинг энг мақбул ташкил этилиши ишлаб чиқарувчи (товарларни жўнатиш учун тайёрлашда) ва қабул қилувчига (товарни қабул қилишда) ҳам зарур. Бундай ҳолда, логистика хизматлари рўйхатига товарларни тақсимлашни ташкил этишда алоҳида ўрин тутадиган қадоклаш ва бошқа тегишли операциялар киритилмайди. Товарларнинг логистика занжири бўйлаб ҳаракатланиши ва зарур операциялар рўйхати бажарилган тақдирда, унинг нархи ошади, бу йўловчи ташиш пайтида бўлмайди.

Шу билан бирга ушбу фарқлар уларнинг аҳамиятига қарамай, фундаментал хусусиятга эга эмас, чунки юк ва йўловчилар ташиш транспортида бўлгани каби бошқариш тизимининг асосий вазифаси ҳаракатланаётган объектни жўнатиш жойидан етказиб бериш ва ҳаракатланаётган объектни етказиб бериш ҳисобланади. Белгиланган жойга етказиш пунктлари, энг кам харажат билан, транспортнинг сифати даражаси ўзаро боғлиқ.

Шаҳар аҳолисини ташиш қобилияти замонавий шаҳарларнинг инфратузилмасининг энг муҳим таркибий қисми бўлган ва шаҳарнинг бошқа барча элементларининг ишлашига сезиларли таъсир кўрсатадиган шаҳар жамоат йўловчи ташиш транспорти билан таъминланади.

Қуйидаги меъзонлар жамоат транспортида саёҳат қилишнинг рақобатбардошлилигини баҳолашга имкон беради:

- саёҳатнинг арзонлиги;
- транспортнинг ҳаракатдаги етарлича частотаси;
- сафарнинг қониқарли тезлиги;
- ҳаракатланувчи таркибнинг қониқарли техник ҳолати;
- пул ўтказмаларининг қулайлиги;
- маршрутнинг қулай ўтиш жойи;
- йўл кўчалари тармоғида тўхташ жойларининг қулай жойлашиши;
- ҳаддан ташқари тўлдиришнинг етишмаслиги;
- ўз вақтида ахборот билан таъминлаш;
- қулай чипталар тизими;
- жамоат транспорти бекатларининг қониқарли ҳолати

Шаҳар йўловчи ташиш транспорти тизимини бошқариш турли хил транспорт турларига хизмат кўрсатиш бозорида тенг бўлмаган иш шароитларига дуч келади. Ушбу муаммо йўловчилар ва ташувчиларнинг манфаатлари ўртасида қарама - қаршилиқ мавжудлиги билан тўлдирилади: ташувчига бир марталик тўлдиришни тўлдирган ҳолда йўналишда транспорт воситасининг сонини камайтириш фойдалидир, чунки бу харажатларни

(тижорат транспорти учун) ёки йўқотишларни (шаҳар транспортида) камайитишга олиб келади. Ўз навбатида, йўловчилар транспорт воситаларининг кўпайишидан фойда кўришади.

Транспорт хизмати тизими қуйидагиларни ўз ичига олади:

- шаҳар транспорт инфратузилмаси, шу жумладан йўл ва йўл қурилиши, тўхташ жойлари ва ҳоказо;
- логистика транспорт хизматлари бозорида ишлайдиган корхоналар ва якка тартибдаги тадбиркорлар;
- бошқарув тизимлари, хусусан, шаҳар маъмурияти ва транспорт воситаларини бошқариш бўйича орган.

Хулоса: Юк ва йўловчи ташиш тизими маълум бир ноаниқлик шароитида ишлайди, унинг даражасини доимий деб номлаб бўлмайди. Чунки, ноаниқлик йўловчи транспортининг ишлашини белгиловчи бир қатор омилларга боғлиқ. Шунингдек, бу омилларнинг ўртасидаги ўзаро боғлиқлик кўп томонламалиги билан мураккаб. Транспорт хизмати тизимини бошқаришда муҳим вазифа сифатида йўловчилар оқимининг шаклланишига таъсир қилувчи омиллар комбинациясини аниқлашдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бўтаев Ш.А., Сидиқназаров Қ.М., Муродов А.С., Қўзиев А.Ў. Логистика (етказиб бериш занжирида оқимларни бошқариш).-Тошкент: Extremum-Press, 2012.-577 б.

2. А.Қўзиев, С.Тўлашев Транспорт тармоғини ривожлантириш юк оқимларини самарали ўзлаштириш масаласининг модели// Журнал ТАҲИ ХАВАРНОМАСИ-Тошкент, 2016. №1.-79-84 б.

I.Kabashkin, Modelling of Regional Transit Multimodal Transport Accessibility with Petri Net Simulation// Procedia Computer Science 77 (2015) 151 – 157.

О ПРОБЛЕМАХ ДВУЯЗЫЧИЯ И ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Жумаев Х.Ш. - Начальник отдела коммерциализации научных инновационных разработок

Жумаев Ш.Х. - Кумкурганский район, общеобразовательная школа №50

Жумаев Х.Х. - Музрабатский район средняя школа №19

Аннотация: В статье говорится, что неродной язык усваивается через призму родного, и что к самым сложным для усвоения аудитории относится категория вида, знание которой — главное условие понимания всей глагольной системы, активное усвоение русского языка предполагает доминирование ономаσιологического принципа.

Ключевые слова: Билингвизм, степень владения, многоязычный, мышление, процесс говорения, тюркоязычный, чередование гласных.

Annotation: The article says that a non—native language is assimilated through the prism of the native, and that the most difficult for the audience to assimilate is the category of the type, knowledge of which is the main condition for understanding the entire verb system, active assimilation of the Russian language presupposes the dominance of the onomasiological principle.

Keywords: Bilingualism, proficiency, multilingual, thinking, speaking process, Turkic, vowel alternation.

Слово «**билингвизм**» происходит от двух латинских: *bi* – «двойной», «двоякий» и слова *lingua* – «язык». Таким образом, *билингвизм* – это способность владения двумя языками. Отсюда, *билингв* – человек, который может разговаривать на двух и более языках. Билингвизм (двуязычие) – это явление регулярного и естественного употребления двух языков в повседневной жизни. Если языков больше, то речь идет о полилингвизме (многоязычии). Причем, степень владения языками не обязательно должна быть одинаковой. Так согласно Джону Макнамару многоязычным считается человек, который может осмысленно выражаться на нескольких языках. Выражаться осмысленно не означает, что ребенок должен говорить одинаково хорошо на всех языках. Каким-то языком он может владеть как в устной, так и в письменной форме. Другим, только в устной или бытовой форме, а третий может быть пассивным: понимать понимаю, а говорить не говорю.

Существенный недостаток лингвистической и методической науки состоит в том, что сейчас (да и не только сейчас) преподавание русского языка, равно как и его описание в учебных материалах, исследованиях сопоставительного характера, невольно подчинено задачам преимущественно одностороннего, пассивного, а не активного усвоения. Описывается в различных планах его природа, устанавливаются соответствующие эквиваленты в различных языках и т. п. Это важно, но нельзя ограничиваться только этим. Активное усвоение русского языка предполагает доминирование ономасиологического принципа. Нужно установить, как определенное значение в узбекском языке выражается средствами различных уровней русского, установить их функциональный объем в сравниваемых языках.

Опора на ономасиологический принцип будет способствовать, кроме того, упражнению и развитию внутренней речи, важная особенность которой — тесная связь с мышлением: она — форма внутренней работы мысли. Ввиду того, что внутренняя речь часто обращена к потенциальному слушателю, она служит основой последующей внешней речи. Рациональная методика работы над внутренней речью ускорит беспереводное овладение русским языком и, в

конечном счете, будет интенсифицировать моделирование языка — процесс говорения и письма.

Как нам представляется, сопоставительных грамматик, в которых исходным является русский язык, далеко не достаточно для совершенствования его преподавания (равно как если бы существовали только русско – узбекские словари): они нужны для пассивного его усвоения. Необходимы и исследования обратного характера, т. е. освещающие особенности узбекского языка по сравнению с русским (аналогично узбекско - русским словарям). В таких трудах нуждаются не только лингвисты, методисты, преподаватели, переводчики, но и обучающиеся. Для выражения по-русски мысли, которая уже есть в сознании обучающегося, он должен обладать запасом знаний для выбора формы выражения. Поэтому весьма необходимы двуязычные словари, различные как по составу словника, так и по характеру словарных статей.

Известно, что неродной язык усваивается через призму родного, поэтому труднее всего организовать изучение некоторых грамматических явлений, тем более — категорий, вовсе отсутствующих в родном языке. Например, к самым сложным для усвоения аудиторией относится категория вида, знание которой — главное условие понимания всей глагольной системы, ибо функционирование каждой глагольной формы зависит от ее видового значения. Будучи специфической морфологической категорией, вид в русском, как и в других славянских языках, имеет разнообразные морфологические средства выражения (префиксы, суффиксы, ударение, чередование гласных и согласных в основе, супплетивизм), и это разнообразие — причина сложности усвоения данной грамматической категории носителями неславянских языков, в частности тюркских.

Главное условие для успешного преподавания и изучения видов в *узбекской* аудитории состоит, наряду с изучением одновидовых глаголов, в необходимости рассмотрения всех глагольных форм на базе видовых пар. Составители учебников русского языка для школ с тюркоязычным контингентом учащихся не учитывают или недостаточно это учитывают. В существующих учебниках подавляющее большинство глаголов представлено лишь в одной видовой форме, преимущественно — несовершенного вида. И даже если в них представлены глаголы обоих видов, то фигурируют они вне всякой связи друг с другом, не как члены одной пары.

Кроме того, при описании категории вида в учебниках не сопоставляются факты обоих языков, видимо, потому, что категория эта как грамматическая в тюркских языках отсутствует. Между тем в этом случае совершенно необходим показ с опорой на данные сопоставительного анализа различных языковых

средств, с помощью которых видовые значения русских глаголов передаются в узбекском: формы времени и наклонения, вспомогательные глаголы, отдельные аффиксы, контекст, слова и словосочетания, обозначающие этапы (фазы) действия, его интенсивность, длительность и др.

Необходим аналогичный подход и к другим несходным категориям в анализируемых языках, причем результаты таких исследований нужно использовать при создании соответствующих учебных пособий. В сопоставительном анализе, равно как и в методической науке, при выработке рекомендаций необходимо использовать и данные специальных психологических исследований — результаты экспериментальной разработки психологических основ обучения русскому языку в национальной аудитории. Недаром многие методисты и психологи отдают предпочтение активному аспекту, предлагая давать учащимся минимум теоретических сведений и максимально расширять практику в слушании, разговоре, чтении, письме и переводе с родного языка на русский. Однако здесь надо учитывать возраст билингвов и степень владения языком, характер аудитории. Например, при подготовке в средних и высших учебных заведениях специалистов для различных областей народного хозяйства нужно усилить пассивный аспект обучения.

Итак, сопоставительный анализ должен быть двусторонним и учитывать данные методики, психологической науки, социологических исследований. Лишь тогда его результаты будут способствовать выработке рациональных научных рекомендаций для оптимизации преподавания русского языка. Взаимовлияние двух языков - родного языка с языком межнационального общения – русским, а также многоязычие стало требованием времени. Одинаковое развитие двуязычия и многоязычия в республике Узбекистан является исключительно важным явлением, ибо оно содействует приобщению местного населения к передовой русской и мировой культуры

ЛИТЕРАТУРА

1. Барина И. А., Нестерова О. А. О некоторых особенностях языковой личности билингва // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Наука, 2015. № 4 С. 26-29.

2. Сорокин Ю. А. «Овладение вторым языком как теоретическая и лингводидактическая проблема» // Вестник Московского университета. Серия 19: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2005. № 2. С. 219-224.

3. Верещагин Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия. (билингвизма). М.: Изд-во МГУ, 1969

4. У. Вайнрайх Одноязычие и многоязычие, Новое в лингвистике. - Вып. 6. Языковые контакты. - М., 1992. - С. 25-60


MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDAN KO'PYOQLIKLARNI PROYEKSIYALOVCHI TEKISLIK BILAN KESISH VA YOYILMASINI YASASHNI KOMPAS 3D DASTURIDA BAJARISH

Jo'rayev Q.Ch. - TMTI assistenti

Kalit so'zlar: Kompas 3D, ko'pyoqlar, proyeksiyalovchi tekislik, piramida yoyilmasi.

UMUMIY MA'LUMOTLAR


Ko'pyoqlik – fazoviy geometrik shaklga ega bo'lib, hamma tomondan ko'pburchaklar, ya'ni yoqlar bilan chegaralangan bo'ladi. Hayotda eng ko'p qo'llaniladigan ko'pyoqliklardan piramida va prizmadir. Qirraning bir uchini S nuqtada qoldirib, ikkinchi uchini yopiq siniq chiziq bo'yicha yo'naltirsa piramida hosil bo'ladi.



1-rasm. Piramida hosil qilish


Endi piramida balandligiga perpendikular holatda kesuvchi P tekislik o'tkazilsa, barcha qirralarni kesib o'tib, piramidaning asosini hosil qiladi.

Muntazam piramidani proyeksiyalovchi tekislik bilan kesish. Muntazam piramidani proyeksiyalovchi P tekislik bilan kesish hamda kesim yuzasi va uning haqiqiy kattaligini topish talab qilinsin. Unda asosi kvadratdan iborat gorizont tekislik ustida turgan piramida va uni frontal proyeksiyalovchi P tekislik izlari (P_V , P_H) bilan berilgan (2-rasm). Kesuvchi tekislikning P_V izi, piramidaning qirralarini A'' , B'' , C'' va D'' nuqtalarda kesib o'tayapti, ularning gorizont (A' , B' , C' , D') va profil A''' , B''' , C''' , D''' .



2-rasm. Muntazam piramidani proyeksiyalovchi tekislik bilan kesish proyeksiyalari topilib tutashtirilsa, kesilgan yuzaning mos proyeksiyalari hosil bo'ladi.

Endi kesim yuzaning haqiqiy kattaligini yasash uchun prizm adagidek P tekislikni gorizontal tekislik bilan jipslashtirib haqiqiy kattaligi hosil qilinadi, bu-ning uchun P_V izini aylantirib, A'', B'', C'', D'' nuqtalar bilan OX o'qigacha tushiriladi, ular vertikal chiziqlar bilan pastga proyeksiyalanadi, mos $A' B' C' D'$ nuqtalardan chiqarilgan chiziqlar bilan kesishib kesim yuzaning haqiqiy kattaligi (A_0, C_0, B_0, D_0) hosil bo'ladi.





Kesilgan piramidaning yoyilmasi 2-rasmda ko'rsatilganidek bajariladi. Ixtiyoriy S_0 nuqtadan to'g'ri chiziq o'tkazilib bitta qirra $S'' 1''$ haqiqiy kattaligida S_0 markaz bo'yicha yoy chiziladi, unga gorizontal proyeksiyadagi $1' 2', 2' 3'$ va h.k. masofalar o'lchab qo'yiladi va S_a nuqta bilan tutashtiriladi. Ularga kesilgan piramida qirralarining haqiqiy kattaligi $1'' A'', 3'' B'', 2'' C''$ va $4'' D''$ lar o'lchab qo'yilib, A_q, C_n, B_a, D_0 nuqtalar topiladi.


3-rasm. Piramidaning yoyilmasi

Keyin A_0, C_0, B_0, D_0 nuqtalar tutashtiriladi, ularga mos holda asos ham chizilib, kesilgan yuza ham chiziladi, shunda kesilgan piramidaning to'liq yoyilmasi hosil bo'ladi.[1]

Endi esa yuqorida ko'rib chiqqan piramida mizni Kompas 3D dasturi yordamida




chizib olamiz. Buning uchun biz Kompas 3D 18.1 versiyadan foydalandik. Siz esa o'zingizda mavjud versiyasidan foydalanishingiz mumkin. Kompas dasturiga kirib undagi «Листовая детал» bo'limiga kiramiz va piramidamizning asosini chizish uchun tekislik tanlaymiz. Piramida asosi kvadrat bo'lib uning o'lchamlarini kiritib olamiz va  Листовое тело buyrug'idan foydalanib unga qalinlik beramiz(4-rasm). Qalinlikni iloji boricha yuqaroq berishga harakat qiling shunda piramida yoyilmasi shuncha aniqroq chiqadi.



4-rasm. Piramidaning asos qismi

Keyin esa yaratgan asos qismining xar bitta tomoniga  «Сгиб» buyrug'i yordamida piramidaning yon tomonlarini hosil qilib olamiz. Agar piramidamizning asosining tomonlarini 60mm deb olsak u holda «Сгиб» buyrug'i o'lchamlarini 5-rasmdagidek kiritib maqsadga muvofiq bo'ladi.

5-rasm. «Сгиб» buyrug'i o'lchamlari kiritish oynasi




Quyidagilarni amalga oshirib

Боковые стороны	
Левая боковая сторона	
Способ:	
Уклон и угол слева	
Уклон слева	23.605
Угол на сгибе слева	0
Правая боковая сторона	
Способ:	
Уклон и угол справа	
Уклон справа	23.605
Угол на сгибе справа	0


bo'lganimizdan keyin piramidamizning ko'rinishi taxminan shunday bo'ladi(6-rasm).

6-rasm. Piramida 3D ko'rinishi.

Piramida 3D modeli tayyor bo'lganidan so'ng uni kesuvchi tekislik bilan kesib olamiz. Kesuvchi tekislik piramida asosi bilan ma'lum qiyalikda gradus o'lchamini kiritgan xolda yordamchi tekislik xosil qilib chizib olamiz va  **Вырез в листовом теле** ushbu buyruq yordamida uni kesib olamiz.



7-rasm. Piramidaning kesilgan xolatini yon tomondan ko'rinishi
Mana piramidani kesib xam oldik. Endi uning yoyilmasini xosil qilish uchun piramida qaysi tomonida yoyilma xosil bo'lishini belgilashimiz kerak bo'ladi. Buning uchun dasturning  **развернуть** buyrug'idan foydalanib piramida tomonini belgilaymiz va ekranda piramidaning yoyilmasini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



8-rasm. Kompas 3D dasturida yasalgan piramida yoyilmasi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yuqorida bajarilgan ishlar eski usulda bajarilgan qog'oz qalam va chizmachilik qurollarini ta'lab etmaydi va vaqt jihatidan xozirgi zamonamizda eng qimmat xisoblanmish vaqtni tejaydi. Kompas 3D dasturni yaxshi o'rgangan foydalanuvchilar uchun bu taxminan 20 daqiqani oladi. Yuqorida ko'rib chiqqanimiz kichkina bir parcha bo'lib bundanda qiyin va murakkab chizmachilik masalalarida ushbu dasturga tayanishimiz mumkin. Bu usul bilan biz vaqtni tejash bilan birga yuqori darajadagi aniqlikka xam ega bolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qulnazarov B.B.K81 Chizma geometriya : Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma / — T.: O'zbekiston nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2006. — 144 b.
2. <http://kompas-uroki.ru/kompas-3d/kak-postroit-razvertku-v-kompas>
3. https://kompas.ru/source/info_materials/user-manuals/rukovodstvo-polzovatelya-oborudovanie-razvyortki.pdf

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDAN TALABALARNI GEOMETRIK YASASHLARNI BAJARISHGA O'RGATISH

Jo'rayev Q.Ch. - TMTI assistenti

Nabijonov H. - TMTI talabasi


Kalit so'zlar: Geometrik yasashlar; tutashmalar; tutashtirish radiusi; tutashuv nuqtasi; aylanani berilgan nisbatda bo'lish; sirkul; egri chiziqlari.

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Talabalarga geometriya kursidan ma'lum bo'lgan geometrik yasashning asosiy usullari haqidagi ma'lumotlarni kengaytirish va mustahkamlash, nazariy qoidalarni chizma bajarishdagi amaliyotga bog'lash, tutashmalarni bajarish usullarini o'rgatish hamda chizmachilik asboblari da ishlash malakalarini rivojlantirish kabilar institut muhandislik grafikasi kursidagi geometrik yasashlar mavzusi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Mavzu bo'yicha kirish suhbatida o'quvchilarga real detallarni namoyish qilib, tutashmalar, aylanani teng bo'laklarga bo'lish kabilarda geometrik yasashlarning ahamiyati tushuntiriladi. Geometrik yasashlarning ishlab chiqarish va texnikada amaliy qo'llanishini o'quv ko'rgazmali qo'llanmalardan keng foydalanib tushuntirish kerak.

O'qituvchi quyish yoki mexanik ishlov berish usulida tayyorlangan silliq shaklli detallarni o'quvchilarga ko'rsatib, sirtlar orasidagi ravon o'tish qanday amalga oshirilishini, buni chizmada qanday qilib grafik tasvirlash mumkinligiga to'xtab o'tadi. Prokladka, flanets. shayba, disk kabi sirtida aylana bo'ylab teshik va o'yiqalar bir tekis joylashgan detallar chizmasini bajarishda oldin o'qituvchi talabalarga shunga o'xshash detal yoki uning modelini ko'rsatish kerak. Auditoriya doskasida o'quvchilarga aylanani teng qismlarga bo'lish usullari chizib ko'rsatiladi.


Aylanani teng bo'laklarga bo'lish. Aylanani 3,4,6,8,9,12 ta teng bo'laklarga bo'lish va uni ichiga to'g'ri ko'pburchaklarni chizish 1-rasm a, b, e, f da ko'rsatilgan. 1-rasm d da uchburchakni 2-3 tomonining yarmi 2-A aylana ichiga chizilgan to'g'ri yetti burchakni tomoni bo'ladi. 1-rasm g da AV kesma to'g'ri to'qqiz burchakni tomoni bo'ladi.



1-rasm.

Birinchi usul (2-rasm, a). Aylanani radiusi OO_1 ni teng ikkiga bo'lamiz va uni o'rtasi O_2 nuqtani belgilaymiz, bu nuqtadan $R_2 = O_2S$ radius bilan yoy chizamiz, hosil bo'lgan 5A kesma aylanani ichiga chizilgan to'g'ri beshburchakni tomoniga teng, AO kesma esa to'g'ri o'n burchakni tomoniga teng bo'ladi.


Ikkinchi usul (2-rasm, b). Aylana radiusini ikkiga bo'lib O_1 nuqtani belgilaymiz va uni vertikal diametrini oxiri O_2 bilan tutashtiramiz. O_1 nuqtadan $O_1S = O_2O$ kesmani o'lchab qo'yamiz. O_2S kesma to'g'ri o'n burchakning tomoni bo'ladi. O_2S radius bilan O_2S yoyini o'tkazamiz va bu yoy aylanani uch va to'rt nuqtalarida kesadi. Hosil bo'lgan 3-4 xorda to'g'ri beshburchakni tomoni bo'ladi.



2-rasm

Aylanani n ta teng bo'laklarga bo'lish

Birinchi usul. Aylananing bir diametrini misol uchun vertikal diametrini teng n (7) bo'lakka bo'lamiz (3-rasm). Vertikal diametrini oxiridan VII – 7 radius bilan yoy chizamiz. Bu yoy aylanani gorizontall diametrini a va b nuqtalarida kesadi. Bu nuqtalarni aylananing vertikal diametrini juft nuqtalari (yoki toq) bilan tutashtiramiz va uni berilgan aylana bilan kesishguncha davom ettiramiz, bu chiziqlar aylana



3-rasm

bilan kesishib uni 7 teng bo'laklarga bo'ladi.

Ikkinchi usul. Bu usul ancha qulay va soddadir. Aylananing bir diametrini misol uchun gorizontal diametrini teng n (7) bo'lakka bo'lamiz. Aylananing gorizontal va vertikal nuqtalari dovomiga $n - 1$ ni bir bo'lagiga teng bo'lgan kesmani qo'yib 8 va 9 nuqtalarni hosil qilamiz. Bu nuqtalarni o'zaro tutashtirib K nuqtani aniqlaymiz va uni 3 nuqta bilan tutashtiramiz. K - 3 kesma chizilgan to'g'ri yetti 29-shakl burchakning tomoniga teng. Aylananing n bo'lakka bo'lishda har doim K nuqtani 3 nuqta bilan tutashtiriladi.

Uchinchi usul. Aylanani o'zaro perpendikulyar AV va SD diametrlarini o'tkazamiz va bu diametrlardan bittasini ya'ni SD diametrini teng ikkiga bo'lib OS radiusni hosil qilamiz. S nuqtadan berilgan aylana radiusi bilan yoy chizamiz. Bu yoy aylanani E va 1 nuqtalarida kesadi, aniqlangan A va E nuqtalarni o'zaro to'g'ri chiziq bilan tutashtiramiz. Hosil bo'lgan E 1 to'g'ri chiziq OS radius bilan F nuqtada kesishadi. F nuqta OS radiusni va E 1 to'g'ri chiziq kesmasini teng ikkiga bo'ladi. E 1 kesmani yarmi $EF = F_1$ berilgan aylanani teng yettiga bo'ladi. Bir nuqtadan 1 F radius bilan yoy chizamiz, bu yoy aylanani 2 va 7 nuqtalarda kesadi. So'ngra 2 va 7 nuqtalardan ham R radius bilan yoy chizib 3 va 6 nuqtalarni aniqlaymiz. Shu usul bilan boshqa nuqtalarni aniqlaymiz. Aniqlangan 2,3,4..... nuqtalarni ketma-ket birlashtirib muntazam yetti burchakni hosil qilamiz.

Tutashmalar. Chizmada ko'p buyumlarning sirti biridan ikkinchisiga silliq tutashgan chiziqlar bilan tasvirlanadi. Silliq o'tish buyumning konstruksiyasini hislatlari, uni tayyorlash texnologiyasi, mashina tarkibida, qanday vazifa bajarishini estetik talablar va boshqalar bilan aniqlanadi. Chizmada bir chiziqni ikkinchi chiziqqa silliq o'tishi tutashma deyiladi. Tutashmalarni quyidagi ko'rinishlari mavjud:


1. Ikki aylana yoyining to'g'ri chiziq bilan.
2. Ikki to'g'ri chiziqni aylana yoyi bilan.
3. Aylana yoyini to'g'ri chiziq orqali ikkinchi aylana yoyi bilan.
4. Aylananing ikki yoyini uchinchi yoy bilan.

Tutashma hosil qilish uchun quyidagi elementlar kerak: tutash nuqtasi, tutashma yoyining markazi va uning radiusi. Tutashmalarni chizish uchta asosiy nazariyaga asoslangan.

1. To'g'ri chiziq aylanaga urinma bo'ladi, agar to'g'ri chiziq urinish nuqtasidan o'tkazilgan radiusga perpendikulyar bo'lsa (4-rasm, a). Berilgan A nuqtadan aylanaga urinma to'g'ri chiziq o'tkazish uchun to'g'ri burchak OAK chiziladi (32-shakl, b). Uni O_1 dan o'tkazilgan OA diametriga (4-rasm, b) suyangan qo'shimcha aylananing ichki burchagi sifatida aniqlanadi

2. Ikki aylana urinma bo'lishi mumkin. Agar urinish nuqtasi K ularning markazi O_1 va O_2 ni birlashtiruvchi to'g'ri chiziqda joylashgan bo'lsa. (4-rasm,

v). Aylanalarning urinma bo'lishi tashqi (4-rasm, v) va ichki (4-rasm, g) bo'lishi mumkin.



4-rasm

3. Ikki bir xil radiusdagi aylanaga urinma bo'lgan yoyning markazi O , aylanalarnig markazi O_1 va O_2 birlashtiruvchi to'g'ri chiziqlarning o'rtasiga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqda bo'ladi. Ikki aylanaga tutashma bo'lgan yoy tashqi (4-rasm, d) va ichki bo'lishi mumkin (4-rasm, e).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.S.Saydaliyev Chizma geometriya va muhandislik grafikasi o'quv qollanma –Toshkent: TAQI, 2017. 339 b
2. Chizma geometriya: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Sh.Murodov, L.Hakimov, A.Xolmurzayev. — T.: Iqtisod-M oliya, 2008. -296 b

ЕР РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК-ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРИ

Зокиров Х.Х. - ТерДУ

Отамуродова Д.А. - ассистенти ТМТИ

Кириш. Нафақат бизнинг мамлакатимиз балки, сайёрамиз деҳқончилик маданияти жуда қадимий тарихга эга.

Тарихий манбаларда мамлакатимиз қадимий деҳқончилик ўлкаси деб бежиз айтилмаган бўлса керак. “Она замин”, “Она ватан”, “Она тупроқ” тушунчалари халқ орасида бот-бот бежиз такрорланиб турмайди. Чунки, бу табаррук замин боқади, кийинтиради ва албатта, вақт соати келганда ўз бағрига олади.

Очиқ эътироф эитш керакки, XX асрнинг иккинчи ярмига келиб инсоният ўзининг тупроққа бўлган оқибатсизлиги билан унинг сифати ва иқтисодий жиҳатдан унумдорлигининг кескин пасайишига, донадорлигини бузилишига ва унумдор ер майдонларининг қисқаришига сабабчи бўлди. Ердан ноўрин фойдаланиш, нотўғри суғориш туфайли тупроқ ботқоқланди, ер усти (шўр) сизот сувлари ернинг юза қатламига чиқиб унинг шўрланишига сабабчи бўлди.

Фойдали хом-ашёлар қазиб олиш, уй ва йўллар, йирик ишоотлар, сув омборлар, шаҳарлар қурилиши оқибатида унумдор тупроқлар уларнинг тагида қолиб, инсоннинг хўжалик фаолиятидан чиқиб кетмоқда. Ушбу соҳа тарихининг гувоҳлик беришича, инсоният хўжалик фаолиятини бошлаганидан буён 2 млрд гектардан ортиқ ерлар турли сабабларга кўра яроқсиз ҳолга келиб қолган.

Сайёрамизда бугунги кунда ҳам турли сабабларга кўра ҳар йили 5-6 млн гектар ерлар қишлоқ хўжалиги муомаласидан чиқиб бормоқда. Шу ўринда бир сўз билан айтганда, соҳа мутахассисларининг маълумотларига кўра тупроқнинг пайдо бўлишига нисбатан камайиши 1000 (минг) баробар тезроқ бормоқда. Масалан, 10 см қалинликдаги тупроқ қатламининг пайдо бўлиши учун ўртача 1500-1700 йил керак бўлса, бундай қатламни сув эрозияси 25-30 йилда йўққа чиқариши мумкин. Гоҳида бундай қатламни бир зумда йўқотиш учун битта кучли шамол. Сув тошқини, жала ёки дўл кифоя қилади.

Инсониятнинг яшаш эҳтиёжига бўлган талабининг ортиши натижасида ердан фойдаланишнинг экологик, иқтисодий ва ҳуқуқий муаммоларни келтириб чиқармоқда, буларга:

1. Тупроқнинг шамол ва сув эрозияси.
2. Қишлоқ хўжалигида кимёвий минерал ўғитлар ва кимёвий заҳарли моддалардан бир томонлама фойдаланиш.
3. Саноат ишлаб чиқариши ва транспорт воситалари чиқиндилари билан тупроқнинг тез ифлосланиб бораётганлиги.
4. Аксарият ҳолатларда унумдор тупроқларнинг шаҳарлар қурилиши остига қолиб кетаётганлиги.
5. Маҳаллий табиий маъданлардан, хонадон, уй-рўзғор чиқиндиларидан етарлича фойдланилмаслиги оқибатида тупроққа табиий унумдорлик берувчи микроорганизмлар, чувалчанглар кескин камайиб кетаётганлиги.
6. Кўплаб оғир техникаларнинг далага киритилиши оқибатида тупроқ юза қатлами зичлашиб бораётганлиги.
7. Алмашлаб экиш тадбирларига риоя қилинмаслиги оқибатида монокультура муаммолари.
8. Аҳоли сонининг ошиши билан ерга бўлган (шаҳар ва шаҳарлаштириш) эҳтиёжнинг ошиши.
9. Қишлоқ хўжалигининг экстенсив ривожлантирилиши оқибатида чўл, яйлов, тоғ ва тоғ олди ҳудудларнинг ўзлаштирилиши билан ем-хашак тақчиллиги натижасида гўшт, сут муаммоси, (бу маҳсулот тан-нархининг ортиб бораётганлиги), сув танқислигини юзага келиши ва ҳоказолар.

Фан-техника тараққиётининг жадал ривожланиши, саноат ва транспорт соҳасининг шахдам ўсиши, инсон демографияси ва урбанизацияси, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини кимёлаштириш, металлургия, энергетика саноати,

тиббийётда кимёвий дори-дармонлардан кўплаб фойдаланилиши, шаҳарлар қурилиши янги-янги дарё ва суъний сув омборларининг барпо этилиши, бир томондан, ижобий ҳолат деб баҳоланса, иккинчи томондан, атроф-муҳитга қаттиқ зарба бериб, унинг дастлабки табиий сифатини ўзгартириб юбормоқда. Сув, ҳаво ифлосланмоқда, тупроқнинг ифлосланиши, бузилиш жараёни (шўрланиш, чўлланиш, ботқоқланиш, эрозия) тезлашмоқда, ўсимлик ва ҳайвонот оламининг баъзи турлари камаймоқда ёки бутунлай қирилиб кетмоқда. Инсониятнинг кескин кўпайиши билан табиий ресурсларга бўлган заруратларининг ортиши, очиқ карьерлар сатҳининг кескин кенгайиб, қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ер ресурсларининг салмоғи тобора камайиб бормоқда. Ҳеч кимга сир эмаски, инсон ақл-заковати туфайли қудратли техника билан қуролланиб, нафақат ернинг устки қатламини, балки унинг талайгина ички қаватларига (7 км гача), коинотнинг энг баланд нуқталарига, ҳаттоки ўзга сайёраларга ҳам ҳужум қилмоқда. Биргина инсоннинг хўжалик фаолияти туфайли ўрмонлар кесилмоқда, табиат мувозанатини сақлаб турувчи чўллар, ботқоқликлар, тоғ ва тоғ олди ҳудудлар ўзлаштирилмоқда, завод-фабрикалар, уй-жойлар қурилмоқда, транспорт воситалари кескин кўпаймоқда. Булардан чиққан чиқиндилар туфайли атмосферанинг табиий ҳолати, иқлим ҳаракати ўзгармоқда.

Инсон эҳтиёжларининг қондирилиши мақсадида фаолият юритаётган қуйидаги жабҳалар тупроқ ресурсларига салбий таъсир кўрсатмоқда:

Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг табиатга таъсири. Агротехник тадбирларнинг кучайтирилган ҳолатда берилиши, айрим ҳудудларда пахта кеч пишиши натижасида ерни умуман дам олдирмасдан бир йилда икки уч ҳосил олиш натижасида ер зўриқмоқда. Аксарият ҳолатларда, экиндан бўшагани кузги шудгорсиз қолиб кетмоқда, суғориш меъёрлари 20 минг куб метрга борган (нормадан 2 ,5 -3 баробар кўп), азот жуда катта миқдорда берилиб фосфор ва калийли ўғитлар етарлича берилмаган (N:P:K: ни 1:0, 8:0,5 нисбати кескин бузилган). Кимёвий заҳарли восита (пестицид)лардан бир неча баробар керагидан ортиқча ишлатилиши оқибатида, зараркунандалар билан биргаликда фойдали ҳашоратлар ҳам, тупроқ таркибидаги микроорганизмлар, чувалчанглар, кемирувчилар қирилиб кетиши оқибатида тупроқ табиий унумдорлигини деярли йўқотди.

Йилдан-йилга кўпроқ пахта толаси олиш учун (экстенсив усул билан) янги ерларнинг ўзлаштирилиши оқибатида яйловлар кескин камайди, мамлакатимизда гўшт, сут муаммоси пайдо бўлди. Пахтадан юқори ҳосил олиш мақсадида, юқори нормада сувланиш жараёнида сувнинг бир қисми ерга сингиши, ҳароратнинг кўтарилиши (июнь, июль, август ойларида) билан ер ости шўр сувларининг тепага кўтарилиши оқибатида тупроқнинг унумдор юза

қатлами кескин шўрлана бошлади. Ернинг ниҳоятда шўрланганлиги республикамиз учун энг йирик экологик муаммодир. XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб ерларни оммавий суратда ўзлаштириш, ҳатто шўрланган ва мелиорацияга яроқсиз йирик-йирик, яхлит майдонларнинг қишлоқ хўжалиги муомаласига киритилиши, ана шу нохуш оқибатларга сабаб булмоқда: илмий асосланган мавжуд технологияларга амал қилинмади, пахта ва бошқа қишлоқ хўжалиги экинлари назоратсиз суғорилиши натижасида тупроқнинг нами кўпайиб кетди. Бу эса тупроқнинг иккиламчи шўрланишига сабабчи бўлди. Минерал ўғитлар, гербицидлар ва пестицидларнинг қўлланиши энг юқори нормадан ҳам ўнлаб баробар ортиб кетиши тупроқни, дарё, кўл, ер ости ва ичимлик сувларини ифлослади. Азотли ўғитлардан бир томонлама фойдаланилиши оқибатида унинг бир қисми ер ости сувларини ифлослади. Нитратларнинг сувда рухсат этилган миқдори (РЭМ) ўртача кенгликлар учун мг/л, қилиб белгиланган бўлса, унинг қишлоқ хўжалиги туманлари сув ҳавзаларидаги миқдори 300-1000 мг/л га етди. Ўғитларни сақлаш, ташиш ва ишлатиш қоидаларига етарлича амал қилинмаслиги оқибатида, яқин атрофдаги тупроқ, сув ресурслари ифлосланди, аҳоли орасида турли хил аллергия касалликларнинг салмоғи орта борди.

Тупроқнинг ҳар хил саноат ва маиший чиқиндилар билан ифлосланиши. Тупроқ саноат корхоналари, коммунал маиший чиқиндилар, транспорт воситалари чиқиндилари, кимё ва металлургия корхоналари, тоғ-кон саноати чиқиндилари билан ҳам кучли ифлосланади. Бундай ҳолларда тупроқ таркибида кўрғошин, фтор, симоб ва бошқа захарли бирикмалар тўпланиб, тупроқ микро ва макроорганизмларига салбий таъсир кўрсатади.

Тупроқнинг ифлосланишида радиоактив ифлосланиш катта хавф солмоқда. Мойлисув (Қирғизистон) дарёсининг тупроқларида 1944 йилдан то 1964 йилгача уран рудасини қайта ишлаш чиқиндилари кўмилган. Ҳозирги кунда қолдиқлар сақланадиган 23 нуқта аниқланган бўлиб, бу ерларда селни тўсадиган тўғонларни ҳамда кўчки хавфи бўлган жойлардаги қияликларнинг мустаҳкамлигини таъминлаш зарур. Навоий вилоятидаги қолдиқлар сақланадиган жой ҳам экологик жиҳатдан хавфли ифлослантириш ўчоғи ҳисобланади. Чунки бу ердаги радиоактив қум шамол учуриши орқали бошқа ҳудудларга салбий таъсир кўрсатади.

Тупроқ таркибининг бузилишига сабаб бўлувчи бошқа бир қатор омилларни санаб ўтиш мақсадга мувофиқдир:

1. Бир далага узлуксиз бир хил экинларнинг экилиши (монокультура).
2. Турли хил оғир техникаларнинг тартибсиз киритилиши.
3. Сувдан пала-партиш фойдаланиш (кўп суғориш, оби тобига келмасдан шудгорлаш, ерни чанқатиш ёки ботқоқлантириш).

4. Экин далаларидан пала-партиш йўллар ўтказиш.
 5. Экин далалари ораларида ҳар хил дарахтларни экиш,
 6. Захкашларнинг йўқлиги ёки тўлиб қолганлиги оқибатида ер ости шўр сувларининг кўтарилиб кетиши.
 7. Экин далаларида шудгордан сўнг чорва молларининг боқилиши.
 8. Кимёвий минерал ўғит ва заҳарли воситалардан тавсиялардан ортиқча фойдаланиш.
 9. Саноат, ишлаб чиқариш ва кимёвий заводларнинг экин далаларига яқин қурилиши.
 10. Экинзорларнинг саноат чиқиндилари билан ифлосланган сувлар билан суғорилиши.
 11. Турли хил чиқиндиларни дуч келган жойларга ташлаш ва бошқалар.
- Тупроқ таркибининг бу каби ифлосланиши натижасида, бугунги кунда сайёрамизда тупроқ билан боғлиқ экологик муаммолар вужудга келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Зокиров Х. Х., Қўлдошева Ш. А. Ер ресурсларидан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш. - Қарши, Насаф, 2010.
2. Зокиров Х.Х., Қўлдошева Ш.А. “Табиатни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш”. Дарслик. Тошкент “Янги нашр” нашриёти 2011 й.
3. Х.Х.Зокиров “Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш”. Дарслик. “Сурхон Нашр” нашриёти 2020.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Ismoilov B.B. – TMTI assistant

Annotatsiya. Mavzuni yoritishda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish, mustaqil ishlash metodlari, talabaning kasbiy faolligining, izlanish metodi va uning ahamiyati, mustaqil ishlashning turlari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: mustaqil, kompetensiya, o'quv faoliyat, rivojlanish, faollashtirish, izlanish, dasturlashtirilgan, tajriba kuzatish.

Maqsad: Texnika oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish

Mavzuning borishi:

Talabalarning mustaqil ishlari – bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin belgilangan vaqtda uning topqirligi va izlanishlari asosida bajariladigan ishlar, shuning bilan birgalikda kasbiy rivojlanish mutaxassis kompetentsiyasi uning malakasi oshib borishi asosini belgilaydi.

Mustaqil ishlash metodlari – o'qitishning ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarni muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirishga yordam beradi.

Mustaqil ish ta'limiy jihatdan – nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni takrorlash, mustahkamlash va chuqurlashtirishga xizmat qiladi hamda kompetentsiyaviy yondashuv asosida bilim olgan inson kompetentli inson hisoblanib, u qobiliyatli, o'z ishiga, kasbiga mas'uliyatli hisoblanadi.

Tarbiyaviy ma'noda ular shaxsning mustaqillik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarini tarbiyalaydi. Mustaqil ishlash, tafakkur, ko'nikma va malakalarning rivojlanishiga yordam beradi, shaxsning irodasini chiniqtiradi. O'qitishning bu metodlari talabalarni mustaqil mehnat faoliyatiga va maktabni bitirganidan so'ng o'qishni davom ettirishga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishlash o'quv samaradorligini oshirishi haqida akademik Yu.K.Babanskiy quyidagi xulosalarni keltiradi: bilim berishda mustaqil ishlardan kompetentsiyaviy yondashuv asosida foydalanishni kengaytirish lozim; mustaqil ishlarni bajarishda o'quv material mazmuni talabalarga tushunarli bo'lishi lozim; talabalarning tayyorgarligi bilan o'quv materialidan foydalanishi bir-biriga muvofiq kelishi kerak. Hatto talabalar yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmasa ham mustaqil ishlash metodidan voz kechmaslik kerak. Aksincha, talabalarga yordam berib, mustaqil ishlash elementlarini kiritish lozim.

Kompetentsiyaviy yondashuv orqali mustaqil ishlarni tashkil etishga individual va tabaqalashgan yondashish muhimligini unutmaslik kerak. Bu maqsadlarda oldindan tayyorlangan va talabalar ko'magida mustaqil tayyorlangan didaktik materiallardan foydalanish zarur.

Mustaqil ishlarni tasniflash bir qator munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. Ular qaysi turda bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil ishlar ma'lum bir savol va topshiriqlar yordamida amalga oshiriladi. Mustaqil ishlarni alohida turlari, o'zaro bir-biri bilan uzviy aloqador bo'ladi va ma'lum sharoitlarda qo'shib ketishi ham mumkin. Masalan, fizik tajribalarni bajarish frontal tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bunda talabalar faoliyati ko'chirma tavsifiga ega bo'ladi. Tajribalar esa, o'rganilgan materialni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Darsda mustaqil ishlarni tashkil qilishda talabalarning bilish faolligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Talabalarning mustaqil o'quv metodlaridan biri - bu bayon qilingan fakt va materiallarni mustaqil tahlil qilish hamda yangi tushunchalar mohiyatini va faoliyat metodlarini ochish bo'yicha talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilishdan va o'z-o'zini anglash kompetentsiyasini shakllantirishdan iborat.

Izlanish metodi o'qituvchining suhbat shaklida axborot berishdan ko'ra ko'proq bayon qilingan fakt materiallarni mustaqil tahlil qilish hamda yangi tushunchalar mohiyatini va faoliyat metodlarini ochish bo'yicha talabalar faolligini va innovatsion, o'z ishiga ijodkorona yondashuvni tashkil qilishdan iborat.

Izlanish metodining mohiyati shundan iboratki, yangi qonun, qoidalarini kashf etish talabalar ishtirokida o'qituvchi tomonidan emas, balki o'qituvchining rahbarligi ostida va uning yordami bilan talabalarning o'zlari mustaqil amalga oshiradi. Izlanish metodi o'quv materialini dialog shaklida bayon qilish:

- a) yangi bilimni bayon qilishda ayrim masalalar va topshiriqlardan foydalanish;
- b) o'quv materialini tahlil qilish va umumlashtirish uchun savollar va topshiriqlar berish;
- v) kichikroq izlanish uchun bilishga oid masalalarni qo'llash, xulosalarni isbotlash, noto'g'ri fikrlarni rad etish;
- g) mavzularni mustaqil bilishga oid atroflicha munozaralar tashkil etish.

Tadqiqot metodi o'qituvchi tomonidan asosan, talabalar oldiga yuqori darajada muhim bo'lgan nazariy va amaliy tadqiqotlar topshirig'i qo'yish yo'li bilan tashkil etiladi. Tadqiqot tavsifidagi topshiriqlarning, izlanishga doir topshiriqlardan farqi shundaki, izlanish metodida talabalar yig'ilgan faktlar (tajriba, kuzatish, adabiyot ustida ishlash) va ularni nazariy jihatidan tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish bo'yicha ish bajarsalar, kashfiyot va ixtirolar talabalar tomonidan fakt materiallarni tahlil qilish, umumlashtirish natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodida talaba mustaqil ravishda mantiqiy operatsiyalarni bajarib, yangi tushunchalar hamda harakatining yangi usullar mohiyatini ochadi. Talaba mulohazalarining borishi xulosalarning to'g'ri yoki noto'g'riligi o'qituvchi tomonidan talaba bilan suhbat qilish jarayonida yoki uning tadqiqoti natijasini og'zaki yoki yozma bayon qilganida aniqlanadi.

Izlanish metodi asosida o'rganishda, fakt material talabaga o'qituvchi tomonidan beriladi hamda birgalikda tahlil qilinadi. Talaba o'qituvchining yordamida yangi tushunchaning mohiyatini ochib beradi. Tadqiqot tavsifidagi topshiriqlarning bilishga oid topshiriqlardan farqi talabalarning mustaqil o'quv – bilish faoliyatining axborotlar yig'ish va uni tahlil qilish, muammolarini mustaqil ravishda qo'yishdan tortib to ularni hal qilish, yechimni tekshirish va yangi bilimlarni amalda qo'llanishgacha bo'lgan tsiklni o'z ichiga oladi.

Talabalar tadqiqotni xuddi ilmiy-tadqiqot singari kuzatish, materiallar to'plash va ularni tahlil qilish, tushuntirish hamda o'zlari kashf etgan qonun va qoidalarining qo'llanish bosqichlariga ega bo'lishi kerak. Tadqiqot tavsifidagi topshiriqlarning xususiyatlaridan biri, dastlabki to'plangan materiallar tahlil etiladi.

Talabalarning auditoriyadagi mustaqil ishlarining

birinchi turi – o'qituvchi mavzuni tushuntirganda to'la yoritilmagan savollarni o'rganishdan iborat.

Ikkinchi turi – auditoriyada darslik bo'yicha o'qituvchi tomonidan bayon qilingan barcha materiallarni mustaqil takrorlashdan va bilimlarni mustahkamlashdan iborat. O'qituvchi mavzuni tushuntirganida yoritilmagan savollarni mustaqil o'rganish uchun uy vazifasi qilib beradi.

Uchinchi turi – ilgari o'zlashtirilmagan bilimlarni yangi mantiqiy aloqadorliklarda bilib olish, egallash.

To'rtinchi turi – yangi bilimlarni uyga mustaqil o'rganish uchun vazifa qilib bermasdan, balki uni dars davomida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish orqali o'zlashtirish.

Beshinchi turi – o'qituvchining tushuntirishi va boshqa manbalardan o'zlashtirgan bilimlarni yo'l – yo'lakay mustahkamlash.

I.I.Malkin tasnifida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishni to'rtta tipga ajratadi. Bu to'rt tip 13 turga bo'linib, o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qilishda ulardan ijodiy foydalanishi nazarda tutiladi.

Bular quyidagilar:

1. **Esga tushirish** turidagi mustaqil ishlar, bunda ilgari o'rganilgan bilimlardan foydalaniladi. O'quv faoliyati 4 xil bo'ladi: esga tushiruvchi, ya'ni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni aynan o'zgartirilmagan holda eslash va faollashtirish; mashq qildiruvchi, ya'ni o'rganilgan materialni amalda qo'llash jarayonida esga tushirish, o'rganilgan tushunchalardan yangi vaziyat-larda foydalanish; teskari aloqa vazifasini bajaruvchi hamda yangi bilimlarni egallash jarayonida ularni takomillashtirish va mustahkamlash davomida ham kiritiladigan tekshirish tarzidagi mustaqil ishlar; ilgari o'rganilgan materiallarni tizimlashtirish va tartibga solishga doir mashqlar.

2. **Bilish – izlanish** tipidagi mustaqil o'quv faoliyati.

Bunday faoliyat davomida talabalar mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallaydilar, bunday faoliyatni 2 turga ajratish mumkin: yangi bilimlarni egallashdagi vazifalarni bajarish, oldindan o'zlashtirilgan bilimlarni takomillashtirish va chuqurlashtirish bilan bog'liq mantiqiy izlanish faoliyati. Bunday faoliyat turli xil mantiqiy operatsiyalarni talab etadi: tahlil va sintez, fakt va hodisalarni qiyoslash, o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab va oqibat aloqadorligini ochib berish va h.k. Tabiat hodisalarini va ijtimoiy hayotni kuzatish davomida, foydali mehnat davomida to'plangan materiallardagi yangi fakt va hodisalarni o'rganish.

3. **Bilish – amaliy** tipdagi mustaqil o'quv faoliyati: fizikadan eksperimental izlanish ishlari. Bunday faoliyat ta'limning hayot bilan, ishlab chiqarish bilan aloqasini kengaytirishga qaratiladi. Bunday faoliyat davomida talabalar asoslangan xulosa chiqarish va umumlashtirishlarni talab qiladigan tajriba asosida yangi bilimlarni egallaydilar. Bular quyidagi shaklda bo'ladi: fizika fani bo'yicha amaliy izlanish ishlari. Tajriba asosida yangi bilimlarni egallaydi. Texnik ijodkorlik ishlari: asboblarni, modellar, oddiy texnik ixtirolarni qilish, oddiy maketlarni loyihalash va konstruksiyalash, o'quv xonalarini va laboratoriya-larini jihozlash bo'yicha takliflar kiritish; nazariy – amaliy ishlar: hayotdan to'plangan materiallar asosida mustaqil holda masalalar, grafiklar, diagrammalar tuzish va yechish; unumli mehnatda ishtirok

etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy – amaliy mustaqil ishlar masalan oddiy elektr asboblarni tuzatish, ob'ektlarni elektrlashtirish va h.k..

4. Ijodiy tipdagi mustaqil o'quv faoliyati. Talabalar o'qish va hayotiy tajribalardan yig'ilgan boy tushuncha va aloqalar, shuningdek, harakat metodlariga tayangan holda, fikrlash va faol tasavvur kuchi bilan qandaydir yangi narsani ijod qilib yaratadi. Bunday ijodiy faoliyatni uch turga bo'lish mumkin: badiiy obrazli faoliyat. Bunda talabalar borliqni obrazli aks ettiradi. Fakt va hodisalarga hissiy munosabatda bo'ladi. Masalan, sayyoralararo kosmik sayohatda bo'lganligi haqida xayoliy – fantastik esse yoki insho yozish; o'qituvchining topshirig'iga ko'ra bajariladigan ilmiy – ijodiy faoliyat. Masalan, eng qiyin olimpiada masalalarini mustaqil yechish, mustaqil yechish metodini himoya qilish va h.k.; texnik ijodkorlik. Bunday mustaqil faoliyat talabaning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olingan holda shakllantiriladi.

Xulosa. Demak, talabalarning fizikaga qiziqishlarini uyg'otishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, tajribalarni mustaqil bajarishga yo'naltirish va o'qituvchining shaxsiy sifatlari hal etuvchi rol o'ynaydi. Talabalarda qiziqishni shakllantirishda fizikadan bilimlarning kundalik hayotdagi va texnikadagi ahamiyatini bilish singari omillar katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida). Ped.fan.dok.diss. avtoref. – Toshkent: 2006. – 49 b.;
2. Babanskiy Yu.K. Optimizatsiya jarayone obucheniya. –M.: Pedagogika, 1997. –175 s.
3. Djuraev R.X. Organizatsionno - pedagogicheskie osnovy intensivatsii sistema professional'nogo podgotovki v uchebnykh zavedeniyax professional'nogo obrazovaniya: Avtoref. diss ... dok.ped.nauk.-T.: 1995. - 43s
4. Jo'raev R.H., Ibragimov X.I. Pedagogik jamoaning innovatsion faoliyati. // Xalq ta'limi. – T., -2004. -2-son. – B. 5.
5. Jak Delor: “Ta’lim: yashirin xazina” <http://do.gendocs.ru/docs/index-132000.html>
6. Edinstvo teoreticheskoy i prakticheskoy podgotovki uchiteley matematiki i fiziki v usloviyax reformy shkolы: Sb. nauch. tr. – Volgograd: VGPI im. A. S. Serafimovicha, -1987.–144 s.

К ВОПРОСУ ИЗУЧЕНИЯ ВОРСИСТОСТИ ПРЯЖИ

Каллибекова Г.А. зав.каб. ТИТИ

Ворсистость пряжи в совокупности с другими свойствами определяет возможность ее использования в текстильных изделиях конкретного назначения (хлопчатобумажные ткани ворсистой группы, шерстяные камвольные ткани платьевой подгруппы и др.). А также позволяет косвенно оценить потери сырья в тех случаях, когда уровень ворсистости необходимо свести к минимуму (швейные нитки, ткани с выразительным рисунком переплетения).

Затруднения при переработке ворсистой пряжи в ткачестве а также дополнительные затраты связанные с ликвидацией ворсистости в готовых тканях требует необходимости контроля этого параметра.

Широко применяют методы оценки ворсистости, основанные на получении увеличенного изображения участка пряжи путем центрального проецирования. Для этого используют оптические проекционные или фотографические установки, микроскопы, телекамеры и другие технические средства. Достоинством методов измерения на основе центрального проецирования является простота и наглядность измерений. К недостаткам следует отнести невысокую точность измерений.

Развитие технических средств позволили осуществить автоматизацию процесса измерения. Для оценки ворсистости большим числом параметров применяют комбинированные датчики, содержащие, несколько фотоэлементов или перемещают фотоэлементы перпендикулярно к оси пряжи.

Методы сравнения основаны на изменении дифракционной картины в результате перемещения пряжи с ворсинками между источником света и дифракционной решеткой. Следует выделить весовой метод определения ворсистости пряжи по разнице массы пробы пряжи заданной длины до и после удаления ворсинок.

На производствах ворсинки на поверхности тканей удаляются методом опаливания. При испытании пряжи на ворсистость опаливаем, требует точного расчета температуры газовой горелки и скорости прохождения пряжи через опаливающее устройство.

На основании анализа методов оценки ворсистости пряжи выполнена их классификация. Недостаток вышеуказанных методов измерения является их низкая информативность.

При измерении показателей ворсистости пряжи с учетом использования компьютерной техники, тогда как компьютер является и техническим средством получения первичной информации о ворсистости пряжи, и средством обработки полученной информации. При этом устанавливаются параметры элементарной

пробы, позволяющих получать изображение пряжи на длине 25м, построение математической модели и объективное выявление границы (контура) между стволком и пряжи и участками пряжи отсутствующими ворсинками, происходит систематизация известных и проектирование новых параметрических и функциональных показателей ворсистости пряжи.

В результате проработаны операции процесса компьютерного измерения показателей ворсистости пряжи. Предложены дополнительные параметрические и функциональные показатели ворсистости пряжи проекционного способа измерения. Ворсистость является одной из характеристик геометрических свойств пряжи и зависит от конфигурации волокон, ее составляющих, внутри пряжи. В процессе прядения пряжи параметры заправки прядильных машин влияют на ворсистость пряденой пряжи.

Влияние параметров заправки прядильных машин на ворсистость пряжи кольцевого и пневмомеханического способов прядения исследовалось, и были выявлены, что пряжа пневмомеханического способа прядения имеет меньшую ворсистость даже при одинаковых крутках пряжи соответствующих линейных плотностей. Крутка оказывает большее влияние на снижение ворсистости пряжи кольцевого прядения, чем на ворсистость пряжи пневмомеханического прядения. Это связано со структурными различиями пряжи обоих видов.

Ворсистость пряжи на 40-78 % зависит от конфигурации волокон внутри тела волокон. Конфигурация волокна внутри пряжи кольцевого прядения зависит от предыдущих технологических процессов, а пряжа пневмомеханического способа определяется в основном процессом в прядильной камере. С увеличением крутки ворсистость пряжи уменьшается, причем более значительно при кольцевом способе прядения.

Для уменьшения ворсистости пряжи были проведены ряд исследований, и такие показатели, как влияние интенсивности кручения на ворсистость пневмомеханической пряжи изучаются магистрантами.

Наличие дефектов внешнего вида и ворсистость пряжи влияют на сорт пряжи, а в конечном итоге на цену продукции. Проводимые исследования и выявления причин способствуют определению оптимальных параметров технологии для получения качественной текстильной продукции.

Литература:

1. В.Ф.Коробова, Б.Н.Гусев. Анализ методов оценки ворсистости пряжи. Текстильная промышленность №4/1987 г.
2. Н.А.Коробов и др. Компьютерные измерения показателей ворсистости пряжи. Технология текстильной промышленности №4/2001 г.
3. А.П.Пирматов и др. Исследование влияния параметров заправки прядильных машин на ворсистость пряжи. Проблемы текстиля №3/2008 г.

ПОВЫШЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ТВОРЧЕСКОЙ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ.

Курбанова М.Х. - ассистент ТИТИ

Аннотация. Новые стратегические цели современного образования в Узбекистане и стремление соответствовать европейским стандартам привели к необходимости поиска практических подходов для подготовки будущих специалистов нового уровня.

Ключевые слова: русский язык, творческий проект, Инновационная деятельность, педагогическое мастерство, качество образования, творческая активность.

Технология творческих проектов является эффективным подходом к обучению квалифицированной личности, так как учащиеся, участвующие в проектной деятельности, совершенствуют навыки совместной работы, навыки работы с информационными ресурсами, разрабатывают и реализуют методы решения проблем. Выполняя научно-исследовательские и практические работы, получают опыт самостоятельной работы. Проектная деятельность предусматривает постепенный переход от теории к практике и сочетание научного знания и прагматики на каждом этапе обучения. О применении творческих проектов в обучении педагоги заговорили еще в начале прошлого века. Они пытаются найти пути развития активного самостоятельного мышления учащихся, чтобы обеспечить им возможность не только запоминать и воспроизводить знания, но и использовать свои знания на практике. На современном этапе развития методики исследователи демонстрируют возможности и возможные преимущества метода творческого проекта как полезного метода обучения и воспитания. В то же время, несмотря на наличие большого количества публикаций, большинство исследователей исследования в области высшего образования акцентируют внимание на применении творческих проектных технологий в учебном процессе. Понятно, что технология творческих проектов не может заменить другие методы и приемы обучения русскому языку, но в современных условиях, особенно на неязыковых специальностях, она имеет преимущество, так как может использоваться для обучения самых разных учащихся. Основная идея такого подхода к обучению русскому языку заключается в выполнении различных упражнений, требующих активной умственной деятельности учащихся, обладающих определенными языковыми навыками. Технология творческого проекта позволяет решить дидактическую задачу и сделать уроки русского языка по-настоящему интересным, содержательным и практически решаемым для учащихся местом

обсуждения или исследования. В этом случае реализуется высшая технологическая ценность индивидуализации обучения, опирающаяся на субъективный опыт и образовательные интересы учащихся. Активное участие учащихся в создании профессионально ориентированных творческих проектов по различным темам дает им возможность познавать что-то новое, развивать навыки и опробовать новые способы человеческой деятельности в социокультурной среде. Развивает навыки конструктивного критического мышления, самовыражения и командной работы (групповой или парной), улучшает социализацию каждого учащегося, стимулирует изучение языка. Для формирования языковых знаний учащихся, требуемых программой и стандартами, необходимо обеспечить активную устную практику для каждой группы учащихся. Для этого будет очень полезна технология проекта. Конечно, задачи проекта выходят за рамки классных занятий и требуют дополнительной самостоятельной работы, но она себя оправдывает, так как может обеспечить:

- активность даже у студентов, которые хотят молчать;
- раскрытие способностей учащихся, обеспечивающих их уверенность в себе;
- улучшение коммуникативных навыков студентов;
- развитие значимых навыков и умений учащихся (совместное принятие решений, профессиональное творческое мышление, активность в процессе обучения и индивидуальная и коллективная ответственность за выполняемую работу);
- развитие исследовательских умений (будущим специалистам необходимо найти и проанализировать необходимые теоретические источники, подобрать иллюстрации сделать выводы);
- создание условий для более тщательного изучения и углубленного изучения не только грамматики, но и других аспектов языка;
- развитие критического мышления.

Несмотря на все вышеперечисленные преимущества, проектная деятельность имеет ряд недостатков, так как требует от преподавателя опыта, тщательного планирования и обсуждения с учащимися. Педагог играет важнейшую роль на подготовительном этапе. В нем должен быть создан широкий спектр тем, позволяющих учащимся реализовать свои знания и использовать личный опыт в работе. Такой подход повышает эффективность обучения и мотивации и позволяет учащимся грамотно и осознанно выступать в процессе защиты своих творческих проектов. Учитель также несет ответственность за выбор типа проекта (исследовательский, творческий, игровой, информационный, телекоммуникационный, мультимедийный), методов и подходов к обучению, организацию групп, обмен ролями, межличностные отношения в группах, за языковую основу проекта (лексико-

грамматический), за материалы, по которым проводится итоговая оценка с обсуждением поведенческих и языковых ошибок.

Таким образом, проектная технология рассматривается как интегрированная система образования, при которой учащиеся получают знания, выполняют практические задания (проекты), которые постепенно усложняются и становятся для учащихся более организованными, длительными и содержательными по отношению к изучению русского языка. Эту работу можно выполнять как в группе, так и внеурочно. Проект-это всегда творческая деятельность. В его основе лежит идея, отражающая смысл понятия "проект" и его прагматическую направленность на результат, полученный в результате решения важной практической или теоретической задачи. Важно увидеть, подумать и применить этот результат на практике. Проекты побуждают студентов проявлять инициативу. Мы считаем, что этот процесс может полностью улучшить идеи и практические языковые навыки студентов, что полезно для обеспечения и реализации эффективного результата обучения и обучения. Устраняя несколько проблемных областей, технологии творческих проектов могут быть эффективно использованы в учебных залах, а соответствующие знания, полученные учителями, позволяют преодолевать проблемы и позволяют учителям проявлять творческий подход.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Евтук М. Обеспечение качества высшего образования - важное условие инновационного развития государства и общества / М. Евтук, - 2008. - № 1. С. 70-74.
2. Пулат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. - М.: Академия, 2007. – С. 368.
3. Фарберман Б. Л. Передовые педагогические технологии. - Т., Наука. Республика Узбекистан за 2000 лет. - № 2. – С. 3-10.

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH XONASINI KOMPLEKTLASH VA INTERFAOL DARS USLUBI.

Qarshiyev O.N. - TMTI assistenti

Izzatullayev Sh.S. - TMTI talabasi

Bu uslubda dars olib borish jarayonidan namuna:

- auditoriyada doska osilgan tomonda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish uchun maxsus ekran bo'lishi kerak;
- o'qituvchi stoli oldi bilan bir parta qo'yiladi. Bunda ekspertlar, sardorlar, konsultatsiya olishga uy vazifalari yoki boshqa nazoratlarni topshirishga kelgan o'quvchi-talabalar bilan suhbatlashishda foydalaniladi;

-o'qituvchi stolidan uncha uzoq bo'lmagan joyda har bir guruh uchun jamoaviy ishlashga qulay bo'lgan holda partalar bir-biriga oldi bilan qo'yiladi. Oqibatda 4 talaba – o'quvchi bir- biriga yuzma yuz o'tirishadigan, doskaga yon yomonlaridan qaraydigan bo'lishadi. Partalari yonma yon turgan ikki guruhni birlashtirib 8 talabadan iborat kichik guruh hosil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi mehnati qisqaradi, talabalarning hamkorlikda ishlashi yanada kuchayadi. Natijada butun o'quv yili davomida doimiy ravida hamkorlikda ishlaydigan kichik guruhlar shakllanadi;

-har bir kichik guruhda kamida bitta yaxshi o'zlashtiruvchi talaba – o'quvchi bo'lishi shart, bu o'quvchi guruh sardori sifatida o'qituvchi bilan maslaxatlashish, vazifalarni taqsimlab olish huquqiga ega bo'ladi, har bir jamoa azosi mulohazalari, takliflar yoki e'tirozlarini guruh sardorlari orqali yetkazishlari yoki yozma tarzda taqdim etishlari mumkin;

-sardorlar bir-birlari va o'qituvchi bilan maslahatlashishga borishlari uchun partalarning qulay tomonida o'tirgan maqul;

- o'qituvchi taklif etmagan holda uning huzuriga konsultatsiya uchun faqat bir talabaning kelishiga ruxsat etiladi;

- bunday darsda bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun aqliy hujum, sinektika, nima uchun 1+ kabi uslublardan kompleks foydalanish kerak;

- yangi texnologik uslubdan har darsda sistematik foydalanilmasa kutilgan natija bermaydi;

- o'qituvchi chizma sharti va yechimini ekranga tushurib shunga o'xshash chizmani barcha kichik guruhlariga birgalikda ishlash taklif etiladi;

- ekranda tushirilgan chizma sharti va yechimini tushuntirish jarayonida aqliy hujum interfaol uslublardan foydalanish qulay va samaralidir. Bunda talaba-o'quvchilarga bemalol o'z fikrlarini bayon etishga ruxsat etiladi. Talaba-o'quvchilarni umuman olganda bolani fikirlashdan to'xtatish jamiyat taraqqiyoti oldiga to'siq qo'yish bilan barobar;

- endigi navbatda o'quvchilar bilan keyingi darslarda ishlash uchun 1+ uslubidan foydalaniladi. Bu uslubda bitta guruhning bir a'zosiga o'tilgan chizmaga tayorlanib kelish vazifasi topshiriladi. Keyingi darsda shu talaba doskada o'tilgan chizmaga o'xshash modelni chizish va yechimini topish topshiriladi. Talabaga 30 daqiqa vaqt beriladi. Bunda o'quvchi-talaba hato qilgan holatda o'z guruhidan yordam olish imkoni beriladi. Har darsda navbat bilan barcha guruhdan bir talab shu tarzda ish olib borishiga to'g'ri keladi. Bu uslubning avzalligi shundaki o'zlashtirishi qiyin bo'lgan talabalarning ham dars jarayonida o'z malaka bilimlarini oshirish, sinovdan o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi;

- agar bitta guruh ishni bajara olmasa boshqa bir kuchli guruhdan yordam olishiga imkon beriladi;

- topshiriq birorta ham kichik guruh tomonidan bajarilmasa, oldin o'rgatilgan masala yechimi yana ekranga chiqariladi va qayta tushintiriladi. Shu tartibda o'quvchi-talabalarga hamkorlikda mustaqil ishlash o'rgatiladi;

- 1+ uslubining ikkinchi boshqichi shundan iboratki, o'quvchi talabalarga daftar tutish majburiyati bo'lmaydi. Buning o'rniga har bir talaba maruza darsidan kelib chiqqan holda eng kamida ikki list mavzu mohiyatiga doir xulosasini o'z guruh sardoriga, sardorlar esa o'z navbatida amaliy dars boshida o'qituvchiga taqdim etishi talab etiladi. Bu uslub ham jamoaviy ishlar, ham yakka tartibda izlanish o'z ustida ishlash qulayligini tug'diradi;

- sardor sust o'zlashtiruvchi sheriklarining o'z imkoniyatlari darajasida o'qishlariga masul;

- sust o'zlashtiruvchi o'quvchi-talabalar o'qituvchi va sardorlarning doimiy etiborida va ko'magida bo'lishlari, ularning har qanday kichik muvaffaqiyatlari rag'batlantirib borilishi zarur;

- qo'yilgan topshiriqning qaysi kichik guruh tomonidan birinchi bajarilganligi, qaysi guruh boshqa guruhga necha marta yordam berganligi, belgilanga bir talaba tomonidan belgilab boriladi. Bu yozuvlar va o'qituvchining shaxsiy kuzatishlari natijasida kichik guruhlar va sardorlar rag'batlantirib boriladi.

Ushbu dars o'tish uslubi talabalar o'rtasida kichik guruhlariga bo'lib kompleks va interfaol dars o'tish uslubi ancha samarali bo'lib, uning talaba-o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini orttirish, dars jarayonini yanada chuqurroq yoritib berish, talaba-o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga ko'mak beradi. Bu uslub o'zlashtirishi qiyin bo'lgan talabalarning kichik guruhlar orqali rag'batlantirish, o'zlashtira olmayotgan sohalar yuzasidan tushuntirish va ko'mak berishga qaratilgan uslub hisoblanadi. Uslubni olib borishda o'qituvchi va talaba-o'quvchilar birgalikda faoliyat olib borishi, darsning yanada samarali o'tishiga ko'mak beradi. Bugungi kunda ta'lim sohasining rivojlanishida har bir yangilik va uslublar katta o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Davranov Pirnazar Ziyatovich "Yangi pedagogik texnologiyalar" Samarqand 2008.
2. S.I. Mirhayitova "Pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanmasi.

TA'LIM MUASSASALARIDA FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKAT QILISHGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamashayev B.S. - TMTI assistenti

Panjiyeva R.Sh. - TMTI talabasi

O'taganov J.M. - TMTI assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasasi o'quvchi yoshlarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning, hayot faoliyati xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, borasida bilimlarni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari berilgan. Hayot faoliyati xavfsizligini o'qitishning zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalari, o'quv uslubi majmualar samaradorligini oshirishning mexanizmi berilgan. Talaba-o'quvchi yoshlarning bilim olish natijadorligini oshirishga xizmat qiluvchi usul va vositalarini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim tizimi, hayot faoliyat xavfsizligi, favqulodda vaziyat, innovatsiya, xavfsizlik, zamonaviy uslubiyat, pedagogic texnologiya.

Hozirgi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda fuqaro muhofazasini ta'minlash, aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, bu borada izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

“Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi qonunning 18-moddasida: Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish umumiy va majburiydir, deb belgilab qo'yilgan [3].

So'nggi yillarda yosh avlodlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash borasidagi bilim va malakalarini mustahkamlashda ta'lim jarayonida “Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari” qoidalarini o'qitish ishlarini tashkil qilish ham muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining barcha qatlamlarini va hududlarini tabiiy hamda texnogen favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, xavfsizlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishiga asos bo'ladi. Favqulodda vaziyatlarni oldindan aniqlash va aholini xavfdan ogohlantirish borasida samarali tadbirlar o'tkazish, favqulodda vaziyat ro'y berganda tezkor harakat qilish, insonlarning halokatga uchrashiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy zararining oldini olishga imkon beradi. [1].

Bugungi kunda “Hayot faoliyati xavfsizligi” sohasida ham innovatsion yondashuv asosida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy-tadqiqotlar, turli darajadagi yoki bosqichdagi o'quv jarayonlarini innovatsion boshqarish, innovatsion

faoliyat uchun o'qituvchilar tayyorlash sohasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv – tajriba jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash ta'lim sohasining asosiy belgilangan vazifalaridan biridir[4,5].

Buning uchun eng avvalo, ta'lim tizimining barcha shakldagi muassasalarida ta'lim jarayonini ilg'or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyat bilan amalda ta'minlash lozim. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning bugungi kundagi yoshlar siyosati borasidagi, jumladan, yoshlarni tarbiyalash va ularga bilim berish to'g'risidagi quyidagi so'zlari e'tiborga molik: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz" [2]. Inson hayotiga xavf soluvchi turli avariya, halokatlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik harakatlari va ularning oqibatida ro'y berayotgan iqtisodiy zarar hamda favqulodda vaziyatlarda insonlarning qurbon bo'lishi sonini kamaytirishning yagona yo'li favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish qoidalariga o'rgatishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 iyuldagi "Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tushdagi) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda Xalq ta'limi vazirligining 2016 yil 23 noyabrdagi 343-sonli buyrug'i asosida Respublikamizning tajriba-sinov uchun ajratilgan Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi 44-sonli, Samarqand viloyatining Samarqand tumanidagi 18-sonli va Toshkent shahrining Yashnaobod tumanidagi 69-sonli tayanch maktablarida fanlar tarkibida integratsiyalashtirilgan "Hayot xavfsizligi asoslari" kursining o'quv dasturi va o'quv materiallarini (1-9 sinf o'quvchilari uchun didaktik materiallar to'plamlari va o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar) tajriba-sinovdan o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 iyuldagi 803-f-son farmoyishiga muvofiq 11 yillik majburiy ta'lim tizimi joriy etilganligi bois, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash maqsadida 10-11-sinflar uchun "Hayot xavfsizligi asoslari" kursidan Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi fan metodistlari bilan hamkorlikda o'quv dasturlari va o'quv materiallari tayyorlandi va Xalq ta'limi vazirligining 2018 yilning 10 sentabr kunidagi 227-sonli buyrug'iga muvofiq Respublikamizning Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi 44-sonli, Samarqand viloyatining Jonboy tumanidagi 40-sonli, Namangan viloyatining

Namangan shahridagi 52-sonli, Farg'ona viloyatining Farg'ona shahridagi 13-sonli va Toshkent shahridagi 69-sonli maktablarida tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Ushbu dastur favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, o'qitish tizimini takomillashtirish uchun umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga amaliy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan bo'lib, unda xavfsizlik asoslarini shakllantirish samarasiga ta'sir etuvchi omillar hamda talablar aks ettirilib, soatlar taqsimotida favqulodda vaziyatlarni yuzaga kelishida hududlarni xususiyatlari, hayot xavfsizligiga oid mavzularni uzviy va uzluksizligi, xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vositalari, fanlararo aloqa va o'zaro imkoniyatlari, o'quvchilarda xavfsizlik tushunchalari va ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilib, mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga yetkazib berish nazarda tutildi.

“Ta'limda tanaffus bo'lmaydi” deganlaridek, o'quvchilarning favqulodda vaziyatlardan ogoh bo'lishlari borasida olib boriladigan har qanday targ'ibot-tashviqot ishlarida ham sira bo'shliq bo'lmasligi kerak. Bu ta'limni nechog'lik muhimligining boisi, u insonlarning hayoti bilan chambarchas bog'liq. Insonlar hayotini asrash va hamisha xavfning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni izlash, o'rganish, tajriba oshirib borish kundalik burchimizga aylanishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Yormatov G'.Yo., Yo'ldashev O.R., Hamraev A.L. Hayot faoliyati xavfsizligi./ darslik. – T.: Aloqachi, 2009. -348 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutki. Toshkent: “O'zbekistan” NMIU, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi qonuni. 1999.
4. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Toshkent: Sharq nashriyot-manbaa konserni.1977.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni Toshkent: O'zbekiston.1997.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9- sentabrdagi “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 754-sonli Qarori.

O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI UCHINCHI TARTIBLI CHIZIQLI TENGLAMA.

Mingyasharova S.A – TMTI assistenti

Annotatsiya

Ushbu mavzuda o'zgarmas koefitsiyentli uchinchi tartibli chiziqli tenglamalar va ularning turlari haqida ma'lumot berilgan. Bu yerda o'zgaruvchilarni chiziqli almashtirishlar orqali belgilab, o'zgarmas koefitsiyentlar orqali ularni turli ko'rinishga keltirib hisoblanadi.

Biz quyidagi o'zgarmas koefitsiyentli uchinchi tartibli chiziqli tenglamani qaraymiz

$$Au_{xxx} + Bu_{xxy} + Cu_{xyy} + Du_{yyy} + au_{xx} + bu_{xy} + cu_{yy} + mu_x + nu_y + du + f(x, y) = 0.$$

O'zgaruvchilarni $\xi = \alpha x + \beta y$, $\eta = \gamma x + \delta y$ ($\alpha\delta - \gamma\beta \neq 0$) chiziqli almashtirishlar orqali quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz.

$$A_1 u_{\xi\xi\xi} + B_1 u_{\xi\xi\eta} + C_1 u_{\xi\eta\eta} + D_1 u_{\eta\eta\eta} + a_1 u_{\xi\xi} + b_1 u_{\xi\eta} + c_1 u_{\eta\eta} + m_1 u_{\xi} + n_1 u_{\eta} + d_1 u + f_1(\xi, \eta) = 0.$$

bu yerda A_1, B_1, C_1 , va D_1 koefitsiyentlar orqali ifodalanadi,

$\xi_x, \xi_y, \eta_x, \eta_y$ larni mos holatda $\alpha, \beta, \gamma, \delta$ orqali almashtirsak, u holda

$$a_1 = a\alpha^2 + b\alpha\beta + c\beta^2,$$

$$b_1 = 2a\alpha\gamma + b(\alpha\delta + \beta\gamma) + 2c\beta\delta,$$

$$c_1 = a\gamma^2 + b\gamma\delta + c\delta^2,$$

$$m_1 = m\alpha + n\beta,$$

$$n_1 = m\gamma + n\delta,$$

$$d_1 = d$$

munosabatiga ega bo'lamiz.

Umuman olganda, (1) tenglamani kanonik ko'rinishga keltirishdagi almashtirishlarni bajargandan so'ng, barcha a_1, b_1, c_1, m_1, n_1 va d_1 koefitsiyentlar ishtirok etgan tenglamaga kelamiz.

Ayrim hollarda bu koefitsiyentlarga nisbatan soddaroq ko'rinishga ega bo'lgan kanonik holatga keltirish mumkin. Quyida biz shu holatni qaraymiz.

1) (1) tenglama bitta uch karrali $\lambda \equiv p$, bitta 2- karrali $\mu \equiv q$ ildizga ega bo'lsin.

U holda mumkin bo'lgan hollar

a) $p \neq q, p \neq r, q \neq r,$

b) $p = q, p \neq r,$

c) $p = r, p \neq q:$

d) $p \neq q, q = r:$

e) $p = q = r$.

a) holni qaraymiz. $\xi = qx - y$, $\eta = px - y$ almashtirishdan so'ng, (1) tenglamani quyidagi ko'rinishga keltiramiz.

$$A_1 u_{\xi\xi\xi} + c_1 u_{\eta\eta} + m_1 u + a_1 u_\eta + d_1 u + f_1(\xi, \eta) = 0.$$

bu yerda

$$A_1 = A(p - q)^3, \quad c_1 = a(p - q)^2, \quad m_1 = m(q - r), \quad n_1 = m(p - r), \quad d_1 = d.$$

Ikkinchi almashtirishni bajarib, ya'ni $s = [A_1]^{-1/3} \xi$, $t = [c_1]^{-1/2} \eta$, tenglamani

$$u_{ssx} + \operatorname{sgn}(c_1) u_{tt} + m_2 u_s + n_2 u_t + d_2 u + f_2(s, t) = 0 \quad \text{ko'rinishga}$$

keltiramiz,

bunda

$\operatorname{sgn}(c_1) = 1$, agar $c_1 > 0$ bo'lsa va $\operatorname{sgn}(c_t) = -1$, agar $c_t < 0$ bo'lsa.

b) holni qaraymiz. $\xi = rx - y$, $\eta = px - y$ almashtirishlardan foydalanib, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz

$$A_1 u_{\xi\xi\xi} + a_1 u_{\xi\xi} + n_1 u_\eta + d_1 u + f_1(\xi, \eta) = 0,$$

bunda $A_1 = A(p - r)^3$, $a_1 = a(p - r)^2$. $n_1 = m(p - r)$, $d_1 = d$.

Teorema 1. (1) tenglamani quyidagi kanonik ko'rinishga keltirish mumkin:

$$u_{xxx} \pm u_{yy} + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

$$u_{xxx} \pm u_y + \alpha u_{xx} + \beta u + g(x, y) = 0,$$

$$u_{xxx} \pm u_{xy} + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

$$u_{xxx} \pm u_{yy} + \alpha u_{xy} + \beta u_x + \gamma u_y + \delta u + g(x, y) = 0,$$

$$u_{xxx} \pm u_{xx} + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

$$u_{xxy} \pm u_{xy} + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

$$u_{xxy} \pm u_{yy} + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

$$u_{xxy} \pm u_{xyy} \pm u_{xy} + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

$$\frac{\partial}{\partial x} (v_{xx} - v_{yy}) \pm (v_{xx} - v_{yy}) + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

$$\frac{\partial}{\partial x} (v_{xx} + v_{yy}) \pm (v_{xx} + v_{yy}) + \alpha u_x + \beta u_y + \gamma u + g(x, y) = 0,$$

bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \delta$ – (1) tenglama koeffitsiyentlariga bo'g'liq sonlar.

Adabiyotlar

1. Абдуназаров С. Общие краевые задачи для уравнения третьего порядка с кратными характеристиками // Дифференциальные уравнения, 1981. – Т. XVII, № I.- с.3-12.

2. Абдуназаров С. О существовании решения задачи типа задачи Бицадзе-Самарского для смешанных уравнений третьего порядка с

кратными характеристиками. В кн.: Краевые задачи механики сплошных сред. Ташкент, “Фан”, 1982.-с.34-71.

3. Абдуназаров С. Об одной краевой задаче для уравнения третьего порядка с неклассическими граничными условиями. В кн.: Краевые задачи для неклассических уравнений математической физики. Ташкент, “Фан”, 1986.- с.151-165.

4. Баранов В.Б., Краснобаев К.В. Гидродинамическая теория космической плазмы. М., “Наука”, 2003. – 286с.

5. Джураев Т. Д. Абдуназаров С. Об одной нелокальной краевой задаче для уравнения третьего порядка с кратными характеристиками. В. кн.: Дифференциальные уравнения и их приложения к механике. Ташкент: “Фан”, 1985.- с.26-55.

6. Джураев Т. Д. Абдуназаров С. К теории уравнений нечетного порядка с кратными характеристиками // Узб.матем.журн., Ташкент: “Фан”, 1991, № 1.- с.21-31.

DUAL TA'LIM TIZIMINING GERMANIYA TA'LIMI RIVOJIDAGI TUTGAN O'RNI. YUTUQ VA KAMCHILIKLARI.

Ne'matjonova Y. - TMTI assistenti

Nazariya va amaliyot uyg'unligi butun dunyoda talabga ega bo'lgan Germaniya dual ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Yoshlar o'rtasidagi ishsizlikning pastligi - bu ko'pchilik mamlakatlarda kasb-hunar egallashdan oldin bo'lgan sof maktab ta'limidan farq qiladigan dual kasbiy ta'lim tizimining savobidir. Dual ta'lim tizimi o'quvchilarning o'rganishi va ishlab chiqarishdagi kasbiy rivojlanishi o'rtasidagi yaqin munosabatlarni nazarda tutadi. Jamiyatning kerakli miqdordagi mutaxassislariga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy talabi ularni tayyorlashning eng aniq miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga tenglashtiriladi.

Dual ta'lim - ta'lim tashkilotida o'qitishni korxonada (tashkilotda) ishlab chiqarish ta'limi va kasbiy amaliyotning majburiy davrlari bilan o'quvchilarni ish bilan ta'minlash va korxona (tashkilot) ning teng javobgarligi bilan kompensatsiya to'lash bilan birlashtirgan o'qitish shakli.[3]

Dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limining asosiy maqsadi ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat.[4]

Germaniyada yoshlarning qariyb yarmi dual tizim bo'yicha o'rta maktabni tugatgandan so'ng davlat tomonidan tan olingan 326 ta kasbdan birini o'rganmoqda.

Amaliy qism haftasiga 3-4 kun korxonada, 1-2 kun kasb-hunar maktabida nazariy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Dual kasbiy ta'lim, qoida tariqasida, ikki yoki uch yilga mo'ljallangan va haq to'lashni o'z ichiga oladi. Germaniyada har yili 500 000 ga yaqin yangi stajyorlar kasbga kirishadi, ularning taxminan uchdan ikki qismi dual tizim bo'yicha.

Dual ta'lim tizimi - bu ta'lim muassasasida o'qitishning ishlab chiqarish faoliyati davrlari bilan uyg'unligini ta'minlaydigan ta'lim tizimi. Dual ta'lim tizimi ta'lim muassasasida o'qitishning ishlab chiqarish faoliyati davrlari bilan uyg'unligini ta'minlaydi. Ushbu tizimda o'qitish quyidagicha tuzilgan: kollej yoki boshqa kasb-hunar ta'limi muassasasida (umumiy ta'lim) muntazam mashg'ulotlar bilan parallel ravishda. Talabalar ma'lum bir korxonaga ishlash uchun boradilar va u yerda amaliy tajriba o'rttirishadi.

Dual ta'lim tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

- ta'lim muassasai va korxonalar o'rtasida shartnoma imzolash;
- kadrlar borasida ehtiyojlarni aniqlash;
- kadrlar tayyorlash yo'nalishini tashkil etish;
- mehnat bozoridagi talabga muvofiq o'quv dasturlarini yaratish va ularni doimiy ravishda yangilash;
- dual ta'limda tahsil olgan tayyor kadrlarning malakasini baholash.

Germaniyadagi bir qator ta'lim muassasalari dual kasbiy tayyorgarlikni targ'ib qiladi va uning sifatini ta'minlaydi. Shunday qilib, Savdo-sanoat palatalari ta'lim muassasalariga maslahat beradi va korxonalarning jihozlarini tekshiradi, shuningdek, imtihonlarni tashkil qiladi va o'tkazadi. Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar birlashmalari amaliyot uchun to'lanadigan haq miqdorini kelishib oladilar, korxonada o'qitish standartlarini shakllantirishda ishtirok etadilar. Hukumat davlat kasb-hunar ta'limi tizimini moliyalashtiradi va nazorat qiladi, ishsiz yoki kam ta'minlangan yoshlarga o'qish uchun munosib o'rin topishda yordam beradi.

Nemis modeliga katta qiziqish. Nazariy bilim va amaliy ish tajribasining uyg'unligi ko'plab kompaniyalarda katta talabga ega. Xalqaro miqyosda ham shunday bo'lmoqda. Hozirda ko'plab davlatlar Germaniyaning dual kasb-hunar ta'limi tizimini o'z ehtiyojlariga moslashtirmoqda. Ushbu yuqori talab tufayli Federal hukumat Kasbiy ta'lim va ta'lim Federal instituti (KTTFI) huzurida Kasbiy ta'lim va ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha Germaniya buyrosini (GOVET) ochdi.

GOVET Germaniya dual kasbiy ta'lim tizimi bo'yicha barcha so'rovlarni qabul qiladi. 2019 yilning o'zida markazga xoriждан 239 ta murojaat kelib tushgan.[5] Germaniya Federal hukumati xalqaro hamkorlik doirasida hamkor-davlatlarni ularning kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlaydi va shu orqali yoshlarning kasb-hunar egallash imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu asos 2013 yilda qabul qilingan va 2019 yilda davom etgan kasb-hunar ta'limi va kasb-hunar ta'limi

sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha Federal hukumatning strategiyasi bilan belgilandi.

Dual ta'lim kontseptsiyasini yaxshiroq ifodalashda quyidagi maqsad, vazifa va tamoyillar asosiy o'rin egallaydi.

Maqsadlar:

- kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish orqali takomillashtirish ishchilarni tayyorlash uchun samarali tuzilma;
- ta'lim tashkilotlarining o'quv dasturlariga zamonaviy metodlarni joriy etish va o'quv qurollari;
- uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish;
- xodimlarning kasbiy darajasini oshirish.

Vazifalar:

– kadrlar tayyorlash tizimining bozordagi talab tarkibiga nomuvofiqligini bartaraf etish

– tegishli kasb-hunar ta'limi muassasalarini tashkil etish, aholi hayotining barcha sohalari va mehnat bozori ehtiyojlari o'rganish.

– o'quv dasturlari mazmuni va tuzilishini o'zgartirish va sifat jihatidan yaxshilash

kadrlarni kasbiy tayyorlash, ularning yuqori professionallik va harakatchanligini ta'minlash.

- tegishli darajada ishlab chiqilgan kadrlar malakasini oshirishni tashkil etishda ilmiy, uslubiy va moddiy-texnik ta'minotlarni joriy etish.

Ta'lim tashkiloti va sanoatni birlashtirgan dual model korxona o'z faoliyatini bitta maqsadda amalga oshirishi kerak, u qo'shma, rejalashtirilgan foyda. Bu nafaqat har qanday maqsadning yagona maqsadi ta'lim maydonini chetlab o'tmagan dbirkorlik faoliyati, balki uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishning sosiy omili yoki motivi aniq, shaffof bozor munosabatlarining asosi.

Davlat uchun dual ta'lim, birinchidan, yuqori samarali malakali kadrlar tayyorlash va ularni to'siqsiz ishga joylashtirish bo'lsa, ikkinchidan, iqtisodiy nuqtai nazardan bu ta'lim o'zini o'zi moliyalashtiradi. Yuqoridagi matnga asoslanib, dual ta'lim tizimining aniq ifodalangan afzalliklarini ta'kidlash kerak:

Birinchidan, mutaxassislarning amaliy mashg'ulotlari nafaqat ta'lim tashkilotlarining ustaxonalari, laboratoriyalari va poligonlarida emas, balki korxonalarda amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, ta'lim dasturlarining mazmuni va tuzilishi ta'lim muassasasi va korxona o'rtasida kelishib olinadi, bu barcha tomonlarning talablarini qondirish imkonini beradi.

Uchinchidan, ta'lim muassasasi va korxona o'rtasida yaqin aloqalar rivojlanishi mumkin va rivojlanadi.

To'rtinchidan, mehnat jarayonida mehnat jarayoniga tez moslashish ehtimoli bor. **Beshinchidan,** Ta'lim muassasasidagi nazariy faoliyatdan korxonadagi amaliy ishlarga doimiy o'zgarish ishlab chiqarish jarayoni katta darajada zarar ko'rmasa, o'rganish uchun eng yaxshi motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, kasb-hunarni aniqroq tushunishni, shuningdek, standartlashtirilgan tayyorgarlik darajasini kafolatlaydi.[6]

Bir qator iqtisodiy erkinliklar berilgan korxonalar talablari zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillari bilan belgilanadi, bu esa dual ta'lim modelini yaratishda e'tiborga olinishi kerak.

Faoliyat turlari va shakllarini erkin tanlash bu- bozorning asosiy tamoyilidir. U har qanday tadbirkorlik sub'ektining o'zi xohlaganini tanlash huquqini beradi, iqtisodiy faoliyatning hayotiy, foydali yoki afzal turi va ushbu faoliyatni qonun tomonidan ruxsat etilgan har qanday shaklda amalga oshirishni taminlaydi. Dual sheriklik barcha ishtirokchilarning moliyaviy qiziqisgi asosiga qurilishi kerak.

Dual ta'lim tizimi o'ziga xos kamchiliklari.

1. Korxonada motivatsiya bilan bir qatorda ta'lim darajasi ham yomonlashishi mumkin.

2. Ta'lim tashkilotlarining o'quv dasturlari korxonada bajariladigan ishlarning mavsumiy ketma-ketligi tufayli har doim ham qo'llab-quvvatlanmaydi.

3. Ta'lim tashkiloti ba'zan talab qilinadigan korxona o'quv materiallarini taqdim etishga ulgurmaydi.

4. Korxonalarning ish o'rinlari yetishmasligi sababli yangi mutaxassislarni qabul qilishni istamasligi.

5. Ta'lim uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi tufayli korxonalar o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulot narxini oshirish orqali daromad olishga majbur bo'lmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti jadal suratlarda rivojlanib bormoqda va talab hamda taklif ning turli tumanligi bilan bir qatorda sifat darajasi ham o'zgarib bormoqda. dual ta'lim tizimi nafaqat o'rta maxsus ta'lim tizimi balki, oliy o'quv yurtlarida ham yo'lga qo'yilishi bugungi kundagi ta'lim jarayonidagi innovatsion yondoshuv hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ковырева Нина Васильевна (E-mail: chebotareva.nina@bk.ru) Дуальная система образования Всероссийская научно-практическая конференция «Дуальное образование: опыт, проблемы, перспективы» (Краснодар, 25 апреля 2019 г.)

2. Сидакова Л.В. Сущность и основные признаки дуальной модели обучения // Образование и воспитание. 2016. №2. С. 62-64.

3. Терещенкова Е.В. Дуальная система образования как основа подготовки специалистов // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – № 4 (апрель). – С. 41–45. – URL:

4. <https://www.govet.international/en/>

5. <https://www.tatsachen-ueber-deutschland.de/ru/rabota-v-germanii/dualnaya-sistema-professionalnogo-obrazovaniya>

6. <http://e-koncept.ru/2014/14087.htm>.

7. <https://ambk.edu.kz/ru/>

8. <https://www.infofinland.fi/en/living-in-finland/education/the-finnish-education-system>

9. <https://www.mext.go.jp> › School Basic Survey by Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology, FY 2012 Data

YOSHLARNI UMUMINSONIY QADRIYATLARGA SODIQLIK RUHIDA TARBIYALASH.

Norqulov N.B. - TMTI talabasi

Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi - milliy g'oyaning asosiy tamoyillaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyat hayotining, xususan, mafkuraviy jarayonlarning ham huquqiy me'yorlari aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 12-moddasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas"degan qoida mustahkamlangan. Bu, o'z navbatida, fuqarolar ongida istiqlool dunyo-qarashini shakllantirish, ularning jahon tarbiyasini, umuminsoniy demokratik qadriyatlar mohiyatini o'rganishni talab etadi. Milliy g'oya erkin fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida xalq tasavvurini o'zgartirish va yangich ma'no-mazmun bilan to'ldirish, huquqiy davlatchilikka xos tamoyillarni turmush tarziga aylantirishda umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi. U xalqning orzu-umidlarini umummilliy darajada yuksaltirib, odamlarni umumbashariy intilishlar tomon yetaklaydi. Milliy qadriyatlarga sodiqlik tamoyili milliy g'oyaning tayanchidir. Mustaqillikka sadoqat hissini barchada barobar shakllantirish, fuqarolik tuyg'usini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu tuyg'uda Sharq, ayniqsa, o'zbek oilalarida bolalar tarbiyasi jarayonida katta ahamiyat beriladi. Shu bilan birga, mahalla va maktablar, o'quv muassasalari, mehnat jamoalari ham o'z o'rniga ega. Bu tamoyil O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylashi, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. Ajdodlarimiz merosi, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish bu tamoyilning asosiy jihatidir. Jamiyat hayotini

demokratlashtirish milliy g'oyaning amal qilish tamoyillridan biridir. Mamlakatimizda demokratik institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uzoq muddatli jarayon. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov buni quyidagicha ta'kidlagan edi: "Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokrayita tamoyillarini o'zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir".

Ma'lumki, sharqona demokratiyaning qator jihatlari mavjud. Bu g'oyaviy-falsafiy asosda shakllangan insonparvarlikdir. Masalan, Forobiy, Amir Temur, Nizomulmulk, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizning siyosiy qarashlari negizida turli davrlarda o'ziga xos siyosiy madaniyat shakllangan. Sharq siyosiy falsafasining muhim jihatlaridan biri "me'yor" tushunchasiga katta ahamiyat berilganligidir. Aslida demokratiya-me'yorga asoslangan siyosiy madaniyat. Bu me'yor huquq va burch, erkinlik va tenglik o'rtasida bo'lgan muvozanatni ham anglatadi. Sharqda odamlarning hokimiyat va siyosiy munosabatlarga bo'lgan munosabati azaldan o'ziga xos xususiyat kasb etgan va bu siyosiy munosabatlarning nozik jihatlari bilan izohlanadi. Sharq mutafakkirlari davlatni, avvalo, jamiyat taraqqiyotidagi ikki muhim omil-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolat me'zonlarini amalga oshirish vositasi deb tushungan, qonunchilik va me'yoriy tizimlar ham ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bunday an'ana Sohibqiron Amir Temur davridayoq butun dunyo me'yoriy tizimga va konstitutsiyachiligiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur "Tuzuklar" i buning yaqqol dalili. Yana bir masalaga alohida e'tibor berish zarur. Sharq xalqlari hayotida jamoatchilik fikri azaldan yuqori maqom va martabaga ega bo'lib kelgan. Ko'pgina an'anaviy ijtimoiy institutlar, xususan, mahalla va o'zini-o'zi idora qilish tashkilotlari, asosan, jamoatchilik fikriga tayangan. Shu bilan birga, jamoatchilik fikri har doim davlat qarorlari qabul qilishning muhim tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Milliy mafkura hayotni erkinlashtirish g'oyasiga tayanadi. O'z haq-huquqini taniydigan, kuchli va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni paytda, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan insongina milliy g'oya tamoyillarini to'g'ri baholay oladi. Erkinlashtirish jarayonida inson haq-huquqini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya etib yashash jamiyatimiz hayotining asosiy mezoniga aylanib bormoqda. Jamiyatda loqaydlik, beparvolik, boqimandalik, poraxo'rlik kabi illatlarning payini qirqish, odamlar qalbida yuksak ishonch va e'tiqodni qaror toptirish, ahloqan pok, ma'naviy boy, ijtimoiy faol, jismonan baquvvat avlodni voyaga yetkazish, ularda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odamiylik kabi oliyjanob fazilatlarni tarbiyalash

milliy g'oya ta'sirchanligini oshiribgina qolmay, demokratik jamiyat barpo etish borasidagi intilishlarimiz samaradorligini oshiradi.

Xullas, ta'lim-tarbiya jarayonlarida yoshlarning qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning tamoyillari shaxs erkinligi, jamiyat uchun foydali ishlarda insonning faolligini oshirish, umuminsoniy me'yorlarning boyitilishi, kishilarda yangicha munosabatlar qaror topishi uchun kurash olib borishni ham anglatadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad-demokratik o'zgarishlar hayotimizning muhim yo'nalishiga aylangan hozirgi davrda milliy istiqlol ruhida fikrlovchi, o'z faoliyatida bunga amal qiluvchi komil insonlarni voyaga yetkazishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1.Sh. Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz.T, O'zbekiston, 2017.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda imzolagan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

TARIX FANIGA INNOVATSION YONDASHUV.

Normatova F.A. - TMTI katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada har bir pedagog ijodiy izlansa, ilg'or tajriba va metodlarni qo'llagan holda faoliyatni olib borsagina samarali natijalarga erishishi mumkinligi va shu jumladan tarix fanidan dars o'tish jarayonida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash zamon talabi ekanligi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, dars, o'qituvchi, o'quvchi, bilim, ta'lim, tarbiya, fan.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunga o'quvchlarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni baholashga alohida etibor beriladi. Tabiiyki, ushbu jarayon o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'limiy jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv, talim tizimini yanada takomillashtirish uni sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan keng va har tomonlama foydalanishni taqozo etadi. Har bir pedagog ijodiy izlansa, ilg'or tajriba va metodlarni qo'llagan holda faoliyatni olib borsagina samarali natijalarga erishishi mumkin. Shu jumladan tarix fanidan dars o'tish jarayonida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash zamon talablaridan biridir. O'qituvchining dars jarayoni qiziqarli o'tishi uning mahoratiga bog'liq. Bu mahorat

metodika deb nomlanadi. Demak, metodikani qay tarzda va uslubda qo'llash faqat o'qituvchiga bog'liq bo'lib bir necha usullarini ko'rishimiz mumkin. Metodika bu dars jarayonida o'quvchilarga atamalar uchun alohida daftar qildirib ularni yakka tartibda ishlashga o'rgatish. Darsda atamalarni yozib olishadi, va krassvord tarzida uyga vazifa beriladi hamda o'qituvchi uyga vazifani keyin darsda tekshirishi mumkin. Tarix darslarida krossvordlardan foydalanish – o'quv mashg'ulotining faol usuli bo'lib, bunday dars tashkil etishdan asosiy maqsad – darsda yuqori emotsional kayfiyatni yuzaga keltiruvchi o'yin ruhiyatini uyg'otishdir. O'qitish metodlari maktabning faqat ta'limiy emas, balki tarbiyaviy maqsadlariga erishishda ham muhim vositadir. Ishonarli hikoya, isbotlovchi suhbat, o'quv munozaralari o'quvchilarda barqaror e'tiqod, yuksak axloq, milliy mafkurani tarkib toptirishga muhim hissa qo'shadi. Ko'rgazmali metodlar – o'quvchilarga hayotda tezgina o'z o'rnini topishga yordam beradi. Amaliy metodlar – o'quvchi yoshlarni kasb tanlashga, o'quvchilarda jamiyatimiz ravnaqi uchun mehnat qilish ehtiyojini tarkib toptirishga yo'naltiradi.

Muammoli izlanish metodlari – shaxsning ijod qilish xususiyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'qitish metodlarini xilma-xillash, butun dars davomida o'quvchilarda ishchanlik qobiliyatini saqlash uchun usullarni oqilona almashtirib turish foydalidir. Maktab oldida turgan hozirgi vazifa o'quvchilarni kompyuter texnologiyasidan foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. Kompyuterlar ko'pgina o'quv predmetlarini mustaqil o'rganish uchun ham o'quvchilarga qator imkoniyatlar ochib beradi. Biz o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarga fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutamiz. O'quvchilarning o'quv faoliyatini aktivlashtirishda ularni baholash metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz lozim. O'qituvchining baholash usullari rang barang bo'lishi o'quvchilarni tarix faniga qiziqishini oshiribgina qolmasdan, o'zlashtirishni ham ko'tarishi tajribalardan aniqlangan. Rus tarixchisi akademik Vaginning ta'kidlashicha, o'quvchilar fanni o'qituvchi talabi darajasida o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi o'quvchilarni baholashga puxta va maqsadli tayyorgarlik ko'rishi kerak. O'quvchilar uchun o'qituvchining baholash uslubi doimo sirli va qiziqarli bo'lishi lozim. Albatta, bu talablarga javob berish uchun o'qituvchi izlanuvchan va ijodkor bo'lmog'i lozim.

Ma'lumki, tarix fani insonning fikrlash doirasini hamda tarbiyaviy taraflama hamda ajdodlarga bo'lgan hurmat va ehtiromni yanada o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Tarix olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib

berishda ahamiyati juda katta bo'lib, vaholanki, tarixiy bilimlarsiz kelajakni qurib bo'lmaydi, fanning rivojlanishini tassavur qilib bo'lmaydi. Demak, tarix fani insonning fikrlash doirasini hamda tarbiyaviy taraflama hamda ajdodlarga bo'lgan hurmat va ehtiromni yanada o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi tartib-intizomlilikni taminlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Har bir o'quvchining komil inson bo'lib yetishishi to'g'ridan -to'g'ri o'z o'zini boshqarish xususiyatlariga bog'liq. O'quvchilar olgan bilimlarini shakllantirgan ko'nikmalarini noan'anaviy vaziyatlarda qo'llashni bilishlari kerak. Mustaqil ishlarning asosiy funksiyasi mustaqil o'z fikriga ega, o'zgalar fikriga ko'r-ko'rona ergashmasdan, balki ularga tanqidiy taklif nazari bilan qaray oladigan shaxsni shakllantirishdir. Bunda tarix fani o'rni beqiyosdir. Uzluksiz ta'lim tizimi, ya'ni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi oldiga qo'yilgan zamonaviy talablarga muvofiq, mazkur ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ta'lim –tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik inqilob sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda oliy ta'limning mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kun ta'limining muhim jihatlaridan biri - bu ayni paytda ta'lim jarayoniga keng qamrovda joriy etilib borilayotgan interfaol usullaridir. Interfaol usul har bir o'quvchiga o'z bilimi, qobiliyatini keng namoyish qilish imkoniyatini yaratadi. Tarix darslarida amaliy mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Ilg'or pedagogik usullardan foydalanish o'qituvchiga ham ta'lim berish jarayonini yengillashtirib bermoqda. Har bir usul belgilangan muayyan maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa u shubhasiz faoldir. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan. Interfaol usullardan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga etkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar: ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining

bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda fikrlashga, majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz: aqliy hujum, klasterlar, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma'ruza, o'zaro ta'lim, muallifga savollar, «bilaman, bilishni istayman, bilib oldim» (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, argumentlangan esse va boshqalar. Bu usullar asosan bosqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llaniladi (chaqiruv, anglash, fikrlash) va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli opshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o'quvchida kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o'zgalarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi. Har bir usul o'quvchilarning tilni o'zlashtirishida, xususan, tinglab tushunish, gapirish, ifodali o'qishni va mavzu bo'yicha fikrini to'liq so'zlab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, tarix darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va darsda o'quvchilarning so'z boyligini oshishiga va shuningdek kreativ fikrlashga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Golish L.V. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish". Ekspress qo'llanma. - Toshkent : 2001.
2. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). – T.: "Fan" nashriyoti, 2006y.

ЎРТА АСРЛАРДА ЎЗБЕК МУСИҚИЙ-МАДАНИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Носирова Ситора Шухрат қизи
Ахборот тармок администратори

Мустақиллик йилларида юртимизда санъатнинг барча турларини ҳар томонлама ривожлантириш учун кенг имкониятлар яратилди. Бу эса, ўз навбатида, зиёлилар зиммасига ҳалқимиз, айниқса, ёшлар онгида Ватанга муҳаббат, юртга садоқат, фидойилик ғояларини бадиий пухта ва мукамал асарлар орқали самарали ва таъсирчан усулларда сингдириш масъулиятини юклайди ҳамда бизгача етиб келган ўзбек ҳалқ мусиқа маданиятида санъат ва

маънавият тарихининг педагогик масалалари тўғрисида фикр юритиб, шу асосда таҳлил ва тадқиқ қилиш имкониятини туғдиради.

Моҳир саркарда, давлат арбоби, илм-фан, маданият ҳомийси бўлган Амир Темур ана шундай тарихий шахслардан биридир. Ҳазрат соҳибқирон марказлашган давлатга асос солди, уни ҳар томонлама мустаҳкамлаб, ривожлантириб, шон-шухратини бутун жаҳонга ёйди, буюк салтанатнинг ҳукмдори сифатида миллатлар ва халқларни бирлаштирди. Унинг ҳукмдорлик йилларида маданият, илм-фан, меъморчилик, тасвирий санъат, мусиқа ва шеърят юксак чўққига кўтарилди. Бир сўз билан айтганда, темурийлар даври ренессансига асос солинди.

Амир Темур ва темурийлар даври маданияти ва санъатининг ўрганилиши Шарқ ва Ғарб маданиятларини ўрганишда ҳанузгача очилмаган қирраларни ўрганишда асос бўлиб хизмат қилади. Мазкур йўналишда олиб борилаётган илмий тадқиқотлар, асарлар, таҳлилларни ўрганиш илмий аҳамиятга моликдир. Жумладан, Амир Темурнинг Темур тузуклари қомусида жангчиларни сафарбар этиш чоғида инсон овозидан, айрим махсус интонационал тизилмалардан кенг фойдаланилгани ҳақида маълумотлар келтиради¹.

Ўзбек мусиқа маданияти ривожига Алишер Навоий асарлари қимматли манба сифатида ҳиссаси жуда катта бўлиб, ўша давр мусиқа ва чолғу асбоблари, жумладан, “Мажолисун — нафоис”да мусиқа билан шуғулланган шоирларнинг номларини келтирган¹. Бу даврда жуда кўп фан, адабиёт, санъат аҳллари тўпланган ва бекиёс истеъдодлар етишиб чиққан эди¹.

Яна бир муҳим манбалардан бири Руи Гонсалес де Клавихонинг Самарқандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалигида элчилик вақтларида, яъни 1403-1406 йиллар мобайнида Амир Темур қўл остидаги мамлакат ва шаҳарларнинг умумий аҳволи, аҳолининг кун кечириши, Темур ва яқинлари ташаббуси билан барпо этилган бинолар, бошқа мамлакатлар билан булган савдо-сотиқ ва маданий алоқалари, Амир Темур саройида амалда бўлган тартиб-қоидалар ёритилиши билан бирга санъат ва маданият жабҳалари ҳақида ҳам батафсил маълумотлар берилган¹.

Шунингдек, темурийзодалардан Мирзо Бобурнинг “Бобурнома” асари ҳам мавзунини ёритишда муҳим манба бўлиб ҳисобланади¹.

Ижтимоий-сиёсий ва маданий соҳаларда асрлар мобайнида Амир Темур шахсига бўлган катта қизиқиш бадиий, тарихий ва илмий асарлар билан бир қаторда мусиқа санъатида аниқланган ёрқин асарлар, тарихий ҳақиқат ва бадиият нуқтаи назардан таҳлил этилган монография, тадқиқот ва мақолалар жуда катта аҳамиятга эгадир¹.

Амир Темур ва темурийлар даври маданият ва санъатини ёритишда академик Э.Ртвеладзе¹, санъатшунослик фанлари докторлари А.Назаров¹, М.Қодиров¹ каби олимлар тадқиқотларини ҳам таъкидлаб ўтиш жоиз.

Ушбу мавзунини атрофлича ёритишда турли йилларда ўтказилган илмий-амалий анжуманлар тўпламларида ва бошқа илмий нашрларда чоп этилган А.Саидов¹, Бегматов¹, О.Файзиев¹, Т.Ширинов¹, М.Ҳакимов¹ каби олимларнинг илмий изланишлари шулар жумласидандир.

Шунингдек, Амир Темур ва темурийлар даврида яшаган муаррихлардан Шарафиддин Али Яздий, Низомиддин Шомий, Мирхонд, Ибн Арабшоҳ, Муиниддин Натаний ва бошқа қатор муаллифларнинг аксарияти ўша даврда яшаганликлари учун бўлиб ўтган воқеа ва ҳодисаларни унинг бевосита ҳамда билвосита шохидлари сифатида жонли ва ишончли тарзда баён қилган.

XI–XV асрлар давомида ўзбек халқининг маданияти янги чўққиларга эришди. Айниқса, Темурийлар замонида ўзбек мусиқа маданияти юксак даражаларда ривожланди. Бунда Абдурахмон Жомий, Алишер Навоий, Мирзо Улуғбек, Заҳриддин Бобур каби улуғ алломаларимизнинг хизматлари алоҳида ҳурматга сазовордир. Бу борада ёзма ёдгорликлар, тарихий манбалар бизнинг бой ўтмишимиз ҳақида ҳозирги ва келажак авлодларга қимматли маълумотларни беради.

QURILISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALASH JARAYONLARI

Omonov U.E. - TMTI talabasi

Qurilish sohasini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'grisida"gi farmonida keltirilgan:

- sotsial-iqtisodiy jadal rivojlanishi, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyoti modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarni kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajadasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o'zlashtirish yo'li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

- yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlari tashkil etish hisobiga Shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni aktiv rivojlantirish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy

investitsiyalarini jalb qilish kabi ustuvor vazifalar kelguusida sohaada amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohot hamda ishlarni belgilab berdi. Bundan anglash mumkinki, qurilish tarmog'ini ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotni kompleks yuksaltirishda katta rol o'ynaydi. Qurilishning milliy xo'jalik miqyosidagi yetakchi rol o'ynashi, aholining katta qismini ish bilan taminlashi, fan-texnika va ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishiga imkon yaratishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu sohani rivojlantirish mamlakat aholisining turmush faravonligini oshishiga olib keladi. Keltirib o'tilgan maqsadga erishish uchun tarmoq iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali rivojlantirish yo'llarini izlab topish va tadqiqotlar olib borish orqali investitsiyalarning tavakalchilik hamda hatarlilik darajalarini aniqlash, ularni pasaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Kovaley V.V. "Qurilish, moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida avvalo ishlab chiqariladigan mahsulotning xarakteri, ya'ni uning ko'chmasligi, o'lchamlari, kattaligi, serqirra va murakkabligi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Qurilish mahsuloti ko'p mehnat va kapital sarf-xarajatlarni talab qilish uni ishlab chiqarish davri uzoq muddatlidir" – deb ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham tarmoqqa kiritilgan investitsiyaning qaytishi uzoq muddatni tashkil etadi. Ammo hozirgi kunda qurilishga sarmoya kiritgan investorlar manfaatlarini o'ylagan hoda mamlakatimizda ipoteka banklari tomonidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. I.S. Stepanova tahriri ostida chiqrilgan adabiyotda "Qurilish tarmog'ida jamg'arish fondining tahminan uchdan ikki qismi amalga oshiriladi, mamlakt yalpi ijtimoiy mahsulotining o'n foizidan ko'proq qismi yaratiladi", deyilgan. Tadqiqot natijalari birgina qurilish harajatlari tarkibida transport sarf-xarajaylarining qiymati 20-25 foizni tashkil qilishi aniqlangan. Bu esa o'z navbatida qurilish tarmoqlarining tahlil qilishda ko'proq transport masalasi bo'yicha ekonometrik modellardan foydalanish maqsadga muvofiq. Qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining 80 foizi yog'och materiallarning taxminan yarmi metal ijarasining 20 foizdan ko'prog'i mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 10 foizidan ko'proq qismi qurilishda foydalaniladi. Bu esa tarmoq faoliyatida aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Shu bois, qurilish tarmoqlarini rivojlantirish va undan investitsiyalardan foydalanishning tarkibiy o'zgarishlar asosida yanada chuqur tadqiqot olib borish hozirgi kunning dolzarb masalalari sifatida namoyon bo'lib nafaqat ilmiy balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kapital qurilish asosiy vositalarini yaratish va ularni rekonstruksiya qilish shuningdek faoliyat ko'rsatayotgan asosiy fondlarni texnik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha faoliyat. Kapital qurilish jarayonini loyihalash va tadqiqot, qurilish-montaj ishlari qurilish materiallari va transport xizmatlarini o'z ichiga oladi. Qurilish tarmog'i qurilayotgan obyektning xarakteri va maqsadiga qarab bir necha quyi tarmoqlarga bo'linadi:

Qurilish tarmog‘ining quyi tarmoqlarga bo‘lish mumkin:

Sanoat.

Qishloq xo‘jaligi

Uy-joy.

Transport.

Madaniy-maishiy qurilish va boshqalar.

Investitsiyalar kiritilishidan va investitsion loyihalar ishlab chiqarishda hamda tarmoq tahlilini amalga oshirishda yuqorida keltirilgan har bir tarmoq xususiyatini e‘tiborga olish talab etiladi. Ularning eng yiriklari: “O‘zsanoatxo‘jalikqurilish” korporatsiyasi, “O‘zmontajmaxsus qurilish “ uyushmasi,”O‘zdehqonchilik-qurilish”, “O‘zjamoaxo‘jalikqurilish” davlat shirkat birlashmalri, “Toshkentuy-joyinvestqurilish” korporatsiyasi va boshqalardir, suv xo‘jaligi va meliorativ ishlarni “O‘zsuvqurilish” davlat konserni olib boradi. “O‘ztransqurilish”, ”O‘zavtoyo‘l” konserni, Energetika va elektrlashtirish vazirligi ham qurilish ishlarini bajaradi.

Qurilish amaliyotida mijoz odatda umumiy ishni bajaruvchi bir buyurtmachi bilan yakunlaydi, u ishlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun hamma javobgarlikni muvofiqlashtirish majburiyatini oladi muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun subpudratchi jalb qiladi. Bu esa o‘z navbatida shartnoma asosida qurilish tarmog‘iga investitsiya qilish chora-tadbirlarini belgilaydi. Qurilish sohasida olib borilayotgan islohotlar har yili amalga oshirilib yaqinda o‘tgan ila rejalashtirilgan lekin ularning yakunlari va kelgusida qilinadigan vazifalar hamda ustuvor yo‘nalishlar belgilab olinadi qurilish majmuasi iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va joylashtirish uchun qurilish hududda va joyni tanlashga ta’sir qiluvchi barcha omillar va shartlarni miqdoriy ifodalashga imkon beradigan usullarga ega bo‘lishi lozim. Bunday usullar tarkibiga ekonometrik modellarni kiritish lozim bo‘lib bu o‘zgaruvchan kattaliklarning berilgan chiziqli cheklashlarni va ushbu kattaliklarning maqsadli funksiyasi maksimallashtirish yoki minimallashtirish qiymatlari majmuasini topish talab qilinadigan ekstremal masalalarni yechishning nazariyasi va amaliyotini o‘zida birlashtiradi. Demak qurilish tarmoqdan investitsiyalardan foydalanish jarayonlarini chuqur o‘rganish uchun ham iqtisodiy ham ekonometrik tahlilini olib borish tadqiqot metodologiyasini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng kapital qurilishi yangi dastur asosida davom davom ettirildi. Respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan avtomobil oltin qazib olish niyati va boshqa sanoat tarmoqlarida yangi korxonalarni qurish boshlandi barcha viloyatlarda sanoat korxonalari, uy-joylar, madaniy-maishiy binolar, bozor va savdo rastalari hamda choyxona ,shifoxona, mahalla markazlari,masjidlar qurildi, o‘nlab me’moriy majmualar,tarixiy yodgorliklar madrasalar masjidlar ta’mirlandi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qurilish ishlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida ayrim qurilish vazirliklari tugatilib mulkchilikning turli shakllariga o'tkazilgan iqtisoslashgan davlat kontentlari kompaniyalar davlat aksiyadorlik birlashmalari uyushmalari tashkil etildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda imzolagan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. Sh.Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". T, O'zbekiston, 2018. 434-bet.

СУРХОНДАРЁ ВОҲАСИДА ТАРҚАЛГАН ТУПРОҚЛАР ВА УЛАРНИНГ АГРОЭКОЛОГИК МУАММОЛАРИ

Отамуродова Д.А. - ТМТИ ассистенти

Зокиров Х.Х. - ТерДУ

Бугунги кунда дунё ҳамжамиятида агроэкологик муаммоларнинг ниҳоятда жиддийлашуви, биосферада кечаётган салбий оқибатлар, айниқса , тупроқнинг экологик муаммоси тупроқшунослар олдидаги энг долзарб муаммолардан биридир.

2017 йил 10 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев қишлоқ хўжалик ходимлари куни сўзга чиқиб, қишлоқ хўжалиги ҳақида қуйидаги фикрни билдирди: “Аввало, ердан унумли фойдаланиш ва уни талон-тарож қилишнинг олдини олиш энг муҳим вазифалардан биридир. Мамлакатда суғориладиган ерлар атиги 3 млн 300 минг гектар бўлиб, уни кўпайтиришнинг ҳеч ҳам иложи йўқ. Чунки Ўзбекистонда сув ресурслари чекланган. 830 минг гектар ерни суғоришда қийинчиликлар юзага келмоқда. Мамлакат бўйлаб 445 минг гектар энг унумдор ер аҳолига томорқа сифатида берилган. Лекин ундан фойдаланиш талаб даражасида эмас”.

Ўзбекистон пахтачилик илмий тадқиқот институти (ЎзПИТИ) Сурхондарё филиали далалари тупроғини А.Н.Розанов (1951), А.Э.Зайчиков (1957), республика тупроқ экспедицияси тупроқшунослари (1960) бу тупроқларни чўл минтақасининг суғориладиган тупроқларини “тақир тупроқ” деб атаган. Лекин бу тупроқлар тарқалган ҳудуднинг юқори қисмида “Учқизил” сув омборининг қурилиши муносабати билан ҳудудда гидрогеологик шароитнинг ўзгариши оқибатида яъни сув омборидан ва бетонланмаган сув тармоқларидан доимий сувнинг тупроққа сингиши натижасида, ер ости сизот сувларининг кўпайиши ва тупроқ юзасига 1,5-3,0 м гача кўтарилиши тупроқ қатламларининг намланишига

олиб келганлиги сабабли гидроморф тупроқлар пайдо бўлганлигини 1967 йилда тупроқшунос олимлар В.В.Валиев, Н.М.Маллабоев, П.Н.Беседин раҳбарлигида Сурхондарё филиали далаларида 35 та тупроқ чуқур (разрез)лари ер ости сизот сувгача (1-3 м) қазилиб тупроқ намуналари (монолитлар) олиниб, лабораторияда таҳлил қилиниб. 1:5000 масштаби тупроқ картаси ва агрокимёвий картограммалар тузиб филиал тупроқларини ўтлоқи тупроқлар типига киритганлар.

Вилоят ҳудуди мураккаб геологик, геоморфологик, митологик. Гидрогеологик иқлим шароитларига, турли тупроқ ва ўсимлик қопламига эга бўлиб. Боботоғ ва Бойсун тоғ тизмалари оралиғида деҳқончиликни ривожлантириш учун қулай бир географик муҳитда жойлашган.

Термиз ва Шеробод метеорологик станциялари маълумотларига кўра вилоят ҳудудида биринчи совуқ 2-24 ноябрдан бошланади. 2-12 март ойлари ўртача ҳарорат 17.3-17,8 °С оралиғида кузатилади. Йиллик ёғингарчилик миқдори турлича бўлиб, энг кўп миқдори феврал, март, апрел ойларида кузатилади. Воҳада баҳордан ёзга ўтиш тез содир бўлади. Масалан, февралда бир кеча-кундузлик ўртача ҳаво ҳарорати 5-6 °С бўлса. Мартда 11,3 °С, апрелда 17,7-18,5 °С гача етади. Жанубий туманларда жануби-ғарбий йўналиши бўйича “Афғон шамоли” ном билан аталувчи кучли шамол эсиб, осмонни сариқ қум заррачалари билан қоплайди. Бунинг оқибатида эрта баҳордаги кўплаб ёш ниҳоллар жуда катта зарар кўради. Аксарияти нобуд бўлади. Тўзонли бўрон кўтарадиган қуруқ ва иссиқ ҳаво оқими – “гармсел” ҳам қишлоқ хўжалиги экинларига катта зарар етказди. Шамол пайтида ўсимлик органларида буғланиш (транспирация) кўпайиб, тупроқ юзаси қурийди, ўсимликларни сувга бўлган талаби кескин ортади. Қишлоқ хўжалик экинларининг ҳосил элементлари ва гуллари тўкилади. Шамол тугагандан кейин сўнги икки-уч кун давомида ҳаво ҳарорати 2-3 °С гача пасаяди. Баҳорнинг сўнги ёз ойларининг бошланиши билан шамолнинг таъсирида ҳавонинг нисбий намлиги пасайиб, ўсимликларда буғланиш миқдори кўпаяди бу эса ёш ниҳолларда пайдо бўлган ҳосил элементлари, шоналар ва гулларнинг кўплаб тўкилишига сабаб бўлади. Натижада тупроқдан олинадиган ҳосил салмоғининг кескин камайиб иқтисодий самарадорликнинг пасайишига сабабчи бўлади.

Сурхондарё вилояти тупроқ иқлим шароитларининг ўзига хос хусусиятларига кўра вилоятда иккита тупроқ-иқлим ҳудудларини ажаратиш мумкин:

1. Тақир. Сур тусли қўнғир қумли чўл тупроқлари. Тақирлар ривожланган, вилоятнинг жанубий қисми ёки паст текисликлар чўл ҳудуди;
2. Асосан бўз тупроқлар тарқалган вилоятнинг шимолий қисми ёки тоғ ости ва тоғ олди текисликлари ҳудуди.

Сурхондарё воҳаси ҳудудларида тарқалган тупроқлар ва уларнинг агроэкологик муаммолари. Ер юзасининг тузилиши жиҳатидан Ўзбекистон ҳудуди икки қисмга ажратилади: катта қисми 78,7% текислик, 21,3% тоғлардан ва тоғ оралиғидаги ботқоқликлардан иборат.

Сурхондарё табиий географик ўлкасининг денгиз сатҳидан 500 м (Термиз 302 м) баландликкача бўлган жойларида оч бўз тупроқ тарқалган. Ер ости сувлари ер юзасига яқин бўлган жойларда шўрланган бўз тупроқлар учрайди. Сурхондарё ва Шеробод дарёларининг қайирларида аллувиал ўтлоқ ва ботқоқ тупроқлар учраса, жанубий қисмидаги қум массивларида қумли ва қумлоқ тупроқлар учрайди. Вилоят ерларининг умумий балл бонитети 60 баллни ташкил этади. Шундан суғориладиган 562,7 минг га, экин ерлари 279,5 минг га, кўп йиллик дарахтзорлар ва яйловлар 776,7 минг га ни ташкил қилади. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариладигани фойдаланиладган қисми 1089,2 минг га бўлиб. 272,8 минг га суғориладиган томорқалар, 57,9 минг га деҳқончилик қилинадиган ерлардир (вилоят умумий ер фондининг 14 % га тўғри келади).

Ўлканинг 500 м дан 1200 м баландликкача бўлган қисмида оддий ва тўқ тусли бўз тупроқлар тарқалган. Бундай тупроқлар кўп жойларда ўзлаштирилиб, маданий бўз тупроққа айлантирилган.

Сурхондарёнинг 1600-2500 м дан баландда бўлган тоғ ёнбағирларида тоғ-жигарранг тупроқлар таралган бўлиб, таркибидаги чиринди 4-6 фоизга боради. 2500 м дан юқорида яйлов минтақаси бошланиб, тоғ-ўтлоқ, ўтлоқ, ўтлоқ-ботқоқ тупроқ учрайди.

Термиз тумани аллювиал ётқизикларида ташкил топган, Сурхондарёнинг I-II қайир усти террасаларидаги янгидан суғориладиган тақир-ўтлоқи тупроқлардан иборат. Тақир-ўтлоқи тупроқлар чўл минтақаси текисликларида ривожланган оғир қумлоқли ва лойли фракциялардан тузилган.

Тақир тупроқлар – Сурхондарё воҳасида ўзига хос генетик тузилишга, хусусиятга эга бўлган типик чўл (сахро) тупроқлари типини ташкил этади. Бу тупроқлар Сурхондарё воҳасининг субареал аллювиал ҳамда пролювиал текисликларида механик таркиб жиҳатдан бирмунча оғир ва у ёки бу даражада шўрланган ётқизиклар устида пайдо бўлган.

Биринчидан, тақирли тупроқларнинг юзаси текис, ҳар хил шаклдаги ёриқлардан ташкил топган қалинлиги 1-5 см, ранги қизғиш кўкимтир товланувчи катта кесакчали қатқалоқли қатламнинг ҳослиги билан ажралиб туради. Қатқалоқ остида эса қизғиш- кўнғир тангачасимон-кесакчали, уваланувчи қатқалоқ ости қатлами бўлиб, бу одатда, 6-10 см қалинликда бўлади. Бу қатлам кўнғир-қизғиш рангли оқиш доғлар билан товланган, жуда катта-кичик кесакчали, қалинлиги 20-25 см бўлган қатлам билан алмашади. Бу қатламнинг остида эса жуда мураккаб рангли (қизғиш, кўнғир, оқиш нуқталар,

темир занглари ва қора-қўнғир доғлар билан ва ҳ.) 80-100 см қатлам бўлади. Тақирли тупроқларнинг мелкоземли қатлами, одатда, 200 см ва ундан ортик бўлади. Энг характерли морфологик тузилиши яна шундан иборатки, барча генетик қатламлар ўта оғир механик таркиблидир (оғир, кумок, енгил). Мана шу сабабли бу тупроқни ўзлаштиришда даставвал оғир механик таркибли ерларга хос бўлган агротехник ва мелиоратив тадбирларни қўллашга тўғри келади.

Яна тақирли тупроқлар учун хос бўлган иккинчи морфологик белги уларнинг табиий зичланганлигидир. Биринчи кўринишда бу тупроқлар жуда яхши агрегатлангандек кўринади, бироқ бу агрегатлар фақатгина оддий физик кўриниш бўлиб, улар аслида “ўта сохта” агрегатлардир, чунки бу агрегатлар намланганда ўз ҳолатини ўзгартиради ва намлик ортган сари бўтқага айланади.

Табиийки, тупроқ тикланадиган жинсдир ва унинг табиат ҳамда инсоният ҳаётидаги ўрни беқисдир. Ҳозирги кунда инсонлар томонидан сунъий равишда тупроқ унумдорлиги оширилиши ва унинг ҳолатини яхшилаши мумкин. Чунки ўзининг табиий хусусиятларига эга бўлган мустақил жинс ҳисобланган тупроқ антропоген омил ҳисобланмиш инсон томонидан шикастланган.

Тупроқ структурасининг ёмонлашига олиб келадиган сабаблари сифатида тупроқдан фойдаланиш ҳолатининг бузилиши, агротехник тадбирларнинг нотўғри йўлга қўйилганлиги унинг ярқисиз ҳолга келтириб қўяди, натижада, инсон таъсирида ирригацион (сув) эрозиялари вужудга келади, тупроқларда шўрланиш юзага чиқади ва ошади ёки ботқоқланишга олиб келди.

Афсуски, Иттифок даврида Ўрта Осиёдаги барча республикаларда, айниқса, Ўзбекистон учун етакчи соҳа пахта бўлиб, умумий суғорилиб экин экиладиган майдонларнинг деярли 75-80% ни ташкил этган бўлиб, пахтадан юқори ҳосил олиш учун кучайтирилган агротехник тадбирларининг оқибатида тупроқлар зўриқтирилди, табиий унумдорлиги кескин пасайди, тупроқ пахтага хос бўлган касалликлар ва зараркунандалар билан касалланди, далага оғир техникаларнинг кўплаб киритилиши оқибатида эса тупроқнинг юза қатлами кескин зичлашди.

Ўтказилган тадқиқотлар натижадаларига кўра, 1 см^3 ҳажмдаги тупроқнинг оғирлиги $1,1-1,2\text{ гр/см}^3$ га тенг бўлиши нормал ҳолат ҳисобланса, бугунги кунга келиб бу кўрсаткич $1,6-1,8\text{ гр/см}^3$ га етган бўлиб, агарда ушбу кўрсаткич $2,5\text{ гр/см}^3$ етса, ушбу жисм тупроқ эмас ерга айланган бўлиб, мутлоқ ҳосил берувчи маданий ўсимлик ва экинлар ўсмайди. Шунини алоҳида таъкидлаш зарурки, антропоген омил, яъни инсон фаолияти маълум мақсад сари йўналтирилган, илмий асосланган ҳолатда деҳқончиликка ёндашилса, тупроқ ҳолати яхшиланади, унумдорлиги кўтарилади. Бироқ шунини очик айтиш керакки, Ўзбекистонда Иттифок даврида ҳам, қолаверса, бугунги кунда ҳам, асосий диққат-эътибор кўпроқ ҳосил етиштиришга қаратилган бўлиб, барча агротехник

тадбирлар кучайтирилган ҳолатда берилган. Айрим ҳудудларда пахта кеч пишиши натижасида ер умуман дам олмаса, бир қатор хўжаликлар бир йилда икки-уч ҳосил олиши натижасида ер зўриқмоқда. Аксарият ҳолатларда, экиндан бўшагани кузги шудгорсиз қолиб кетмоқда, суғориш меъёрлари 20 минг куб метрга борган (меъёрдан 2,5-3 баробар кўп), азот жуда катта миқдорда берилиб, фосфор ва калийли ўғитлар етарлича берилмаган (N:P:K ни 1:0,75:0,5 нисбати кескин бузилган). Кимёвий заҳарли восита (пестицид)лардан бир неча баробар керагидан ортиқча ишлатилиши оқибатида, зараркунандалар билан биргаликда фойдали ҳашаротлар, тупроқ таркибидаги микроорганизмлар, чувалчанглар, кемирувчиларни қирилиб кетиш оқибатида, тупроқ табиий унумдорлигини деярли йўқотди.

Халқ хўжалигида фойдаланиладиган ерларда инсон фаолияти тупроқ ҳосил бўлишида катта аҳамиятга эга. Алмашлаб экиш, дарахт ўтказиш, ерни ишлаш ва ўғитлаш, суғориш, ер захини кетқазуш ва шўрини ювиш, текислаш ва шунга ўхшаш ишларнинг барчаси тупроқнинг ривожланишига ва унинг асосий хусусиятларига жуда катта таъсир кўрсатади.

Кўрик ерларни биринчи ҳайдалган кундан бошлаб, уларнинг табиий қиёфаси ўзгаради, яъни уларнинг устки чим қатлами йўқолиб, у пастки қатлам билан аралашади. Бундай тупроқнинг ҳаво ўтказиш, сув режими бошқачароқ бўлади, ўсимлик ва тупроқ жониворларининг ҳаёти учун зарур шароит яратилади. Ерни ўғитлаш билан биз унинг озуқа режимини кескин ўзгартирамиз. Ерга солинадиган минерал ва органик ўғитлар тупроқдаги озуқа моддалар миқдорининг кўпайишига ва қисман тупроқ кимёвий таркибининг ўзгаришига сабаб бўлади.

Хулоса. мақсад олдиндан белгиланган натижага эришиш маҳсули бўлиб, у таълим жараёнида унинг субъектлари (ўқитувчи ва талаба)нинг биргаликдаги фаолияти якунида режалаштирилган билим, малака ва кўникмаларни эгаллашларининг олдиндан *кафолатланишидир талабанинг мустақил билим эгаллай олиши, англаши, ривожланиши йўлида доимий ёрдам кўрсатиши ва уни шунга ишонтириши;*

Президентимиз томонидан олий ўқув юртларида таълим жараёнини замонавийлаштириш соҳасида олиб борилаётган саъй-ҳаракатларга мувофиқ ҳар бир фанни ўқитишда замонавий педагогик технологияларни коммуникатив ёндашув асосида дарс машғулотида татбиқ қилишнинг асосий йўли таълим самарадорлигини оширишга тўсқинлик қилаётган эскича ўқитиш тизимидан воз кечишдан иборатдир.

Шундан келиб чиқиб, олий ўқув юртларида физика фани бўлимига оид ҳар бир дарс машғулотларининг лойиҳаларини коммуникатив ёндашув соҳасида

педагогик технология тамойиллари асосида ишлаб чиқиш ва таълим жараёнига жорий қилиш бугунги куннинг талабидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бабанский Ю.К. Методика преподавания физики в средней школе. – М.: Просвещение. 1968. –199 с.
2. Кабардин О.Ф. Методические основы физического эксперимента. // Ж. Физика в школе. 1985. № 2. С. 3– 9.
3. Пёришкин А.В. Физика ўқитиш методикаси асослар. – Т.: Ўқитувчи. 1990. – 320 б.
4. Юсупов А., Юсупов Р. Физикадан савол ва масалалар тўплами. –Т.: Ўқитувчи. 2000. – 64б.


Ўқувчиларнинг физикадан мустақил ўқув фаолиятини ташкил этишда экспериментал ва график масалалар.

Султонова. Ў.Н. - ТМТИ н.ф.д.доцент

Талабалар мустақил ўқув фаолиятини ривожлантиришда фикрлаш кўникмасини шакллантириш, уларни дарсга бўлган қизиқишларини ошириш мақсадида, қизиқарли масалаларни танлашга алоҳида эътибор бериш лозим. Танланган масалалар аниқ бир тизимни ташкил қилиши ва аниқ бир мақсадга йўналтирилиши керак. Шунинг учун, мустақил фикрлаш кўникмасини шакллантиришга қаратилган айрим мавзуга ва бобга оид масалаларни танлашга алоҳида аҳамият бериш зарур. Экспериментал ва график масалаларнинг мазмуни ўрта мактабда физика ўқитишнинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиши, ДТС талабларига мослиги, масаланинг қўйилиши аниқ ва реал бўлиши, ўқувчи эса аниқ илмий билимга ва амалий кўникмага эга бўлиши керак.

Экспериментал масалаларни ечишда тажрибалар мактаб демонстрацион экспериментининг барча шарт-шароитларига амал қилган ҳолда қўйилиши керак. Бунда асбоблар ва ҳодисаларнинг яхши кўринаётганига алоҳида эътибор бериш керак. Экспериментни бажариш жараёнига ўқитувчининг ўзи раҳбарлик қилиш зарурдир. Демонстрацион экспериментал масалаларга мисол келтирамиз.


Гальваник элементлар батареясига 24 Ом қаршилик уланганда занжирдаги ток кучи 1,5 А эди, 12 Ом қаршилик уланганда эса ток кучи 2,7 А бўлди. Батареянинг ЭЮК ини ва ички қаршилигини топинг. Имкони бўлса, шу ишни тажрибада қилиб кўринг. Бунинг учун қаршиликлари маълум бўлган иккита резистордан ва амперметрдан фойдаланинг.



1 – расм. Масаланинг шартига кўра йиғиладиган электр занжирининг принципиал схемаси

Берилган: $R_1 = 24 \text{ Ом}$, $I_1 = 1,5 \text{ А}$, $R_2 = 12 \text{ Ом}$, $I_2 = 2,7 \text{ А}$, $\varepsilon = ?$, $r = ?$

Масалани ечиш кетма-кетлигини қуйидаги тартибда тизимлаштириш ўқувчининг масалада кечаётган физик жараёни яққол кўз олдига келтириши учун ёрдам беради (1 - расм).



Масалани ечиш алгоритми

Ҳисоблашларга кўра $\varepsilon = 27 \text{ В}$, $r = 3 \text{ Ом}$ эканлигини аниқлаш мумкин.

Экспериментал масалаларни ечишда тажриба ва кузатишларни ўқувчиларни ўзлари мустақил равишда олиб боришлари натижасида ўқувчиларда мустақил ишлаш кўникма ва малакалари шаклланади ва ривожланади.

Ўрганиш объекти физик катталикларнинг боғланиш графикларидан иборат бўлган масалалар график масалалар дейилади.

Баъзи ҳолларда бу графиклар масаланинг шартда берилади, баъзи ҳолларда эса уларни жамлаш керак бўлади.

Графикли масалаларни ечишда:

- ўқувчилар графикларни «Ўқиш» ва содда графиклар яшаш кўникма ва малакаларига бўлиш керак.
- графиклар билан ишлашни тобора мураккаблаштириб, ўқувчиларга катталиклар орасидаги миқдорий боғланишларни топишни тавсия қилиш, токи тенгламаларни тузишгача бориш керак.

График масалалар ечишнинг босқичлари қуйидагилардан иборат:

- 1) агар катталиклар орасидаги боғланишлар графиги берилган бўлса, у ҳолда уни тушунтириш, ҳар бир бўлимдаги боғланишни характериини ўрганиш керак;
- 2) масштабдан фойдаланиб, графикдан изланаётган катталикларни

(абсцисса ва ордината ўқларидаги қийматларини) топиши керак; 3) Агар боғланиш графиги берилмаган бўлса, у ҳолда махсус жадваллардан ёки масаланинг шартидан олинган қийматларига кўра график тузилади. Бунинг учун координаталар ўқлари чизилади, уларда маълум масштаб танланади, жадваллар тузилади, шундан кейин координата ўқлари бўлган текисликка тегишли ордината ва абсциссаларга мос нуқталар қўйилади. Бу нуқталарни бирлаштириб, физик катталиклар орасидаги боғланиш графиги ясалади, сўнгра юқорида айтиб ўтилган тартибда ўрганилади.

Мисол тариқасида қуйидаги масалани кўрамиз.

2 - расмда берилган графикдан фойдаланиб жисмларнинг қандай ҳаракатланганлигини айтиб беринг ва ҳар бир ҳаракат учун тезлик формуласини ёзинг.

Ўқувчилар мустақил равишда графикка қараб, ҳаракатни таҳлил қилишади.

Графикнинг ҳар бир кўринишини алоҳида таҳлил қилинг.

Графикдаги ҳаракатлар ўқувчилар томонидан қуйидагича таҳлил қилинади:

2. а) Агар вақт ўтиши билан тезлик ортса, ҳолда ҳаракат тезланувчан.
- б) Агар вақт ўтиш билан тезлик камайса секинланувчан.
- с) Агар тезлик доимий қолса текис ҳаракат бўлади.

2. Ўзгарувчан ҳаракат учун $a = \frac{\Delta v}{\Delta t}$ тезланиш аниқланади.

3. Текис ўзгарувчан ҳаракат учун тезланиш формуласидан тезлик формуласи ёзилади.

$$v = v_0 + a \cdot t$$

бўлади.

4. Графикдан доимий катталиклар аниқланади: Тезлик ўқидан v_0 ва ҳисоблаш йўли билан $a = \frac{\Delta v}{\Delta t} = \frac{v_2 - v_1}{t_2 - t_1}$ топилади. v_0 ва a нинг қиймати умумий формулага қўйилади.

Ўқувчиларнинг жавоблари асосида


хулосага келиш учун ўқитувчи ўқувчиларнинг олган назарий билимлари асосида графикларни қандай таҳлил

қилгани, уларнинг мустақил фикрлашлари

асосида графикларнинг таҳлили кўриб

2 – расм.

чиқилади.



- I - графикда бошланғич тезлиги нолга тенг бўлган текис тезланувчан ҳаракат.
 II - бошланғич тезлиги 2 м/с га тенг бўлган текис тезланувчан ҳаракат.
 III - бошланғич тезлиги 7м/с бўлган текис секинланувчан ҳаракат.
 IV – бошланғич тезлиги нолга тенг, бўлган текис тезланувчан ҳаракатнинг хусусий ҳоли.
 V – тезлиги $v = 4$ м/с тенг бўлган текис ҳаракат.

Юқоридаги хулосаларга кўра, тезланишлар қийматларини тезлик формуласига қўйиб, тенгламалар ёзилади:

$$I \quad g_0 = 0; a = \frac{7\text{ м/с}}{5\text{ с}} = 1,4\text{ м/с}^2; \quad g = 1,4t$$

$$II \quad g_0 = 2\text{ м/с}; a = \frac{7\text{ м/с} - 2\text{ м/с}}{5\text{ с}} = 1\text{ м/с}^2; \quad g = 2 + t$$

$$III \quad g_0 = 7\text{ м/с}; a = \frac{0\text{ м/с} - 7\text{ м/с}}{6\text{ с}} = -1,2\text{ м/с}^2; \quad g = -7 + 1,2t$$

$$IV \quad g_0 = 0; a = \frac{7\text{ м/с}}{5\text{ с} - 2\text{ с}} = 2,33\text{ м/с}^2 \quad v = 2,33(t_2 - 2)$$

V $g_0 = 3\text{ м/с}; a = 0$ текис ҳаракат. Уни тезланиши 0 га тенг бўлган текис ўзгарувчан ҳаракатнинг хусусий ҳоли сифатида қараш мумкин.

$g = g_0 + 0 \cdot t = g_0$ бўлади деб таҳлил этилади. Бу фикрлар орқали график асосида масала тўлиқ ишланган ҳисобланади.

Ўқувчилар масалаларни мустақил равишда ечиш орқали:

- назарий билимларни мустаҳкамлайди;
- мустақил ижодий фикрлаш қобилияти шаклланади ва ривожланади;
- физик катталиклар орасидаги боғланишларни ўрганади;
- масаланинг шартига қараб график ясаш қобилияти пайдо бўлади;
- графикларга қараб физик катталикларни берилганларини ёзиб олишга ўрганади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Бабанский Ю.К. Методика преподавания физики в средней школе. – М.: Просвещение. 1968. –199 с.
2. Кабардин О.Ф. Методические основы физического эксперимента. // Ж. Физика в школе. 1985. № 2. С. 3– 9.
3. Пёришкин А.В. Физика ўқитиш методикаси асослар. – Т.: Ўқитувчи. 1990. – 320 б.
4. Юсупов А., Юсупов Р. Физикадан савол ва масалалар тўплами. –Т.: Ўқитувчи. 2000. – 64б. физиканинг қонунларини онгли равишда ўзлаштиришига эришади;

DISSERTATSIYAGA OID MAQOLA YOZISH TARTIBI

Teshabayeva M.B. - ToshDTU magistranti

1 qadam. Mavzu tanlash.

Mavzuni tanlashda uning dolzarbligiga ahamiyat berish kerak. Yana bir muhim jihat shundaki, mavzu qiziqarli, tanish va shaxsan sizga tegishli bo'lishi kerak. Bundan tashqari, u maqsadli auditoriyangizga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, ya'ni. bunga muhtoj bo'lgan va keyinchalik sizning xizmatangizdan foydalanadigan odamlarga.

2-qadam. Nom tanlash.

Nomni tanlashda asosiy narsa uni haddan tashqari oshirmaslik va oltin o'rtachaga rioya qilishdir. Siz juda o'ziga xos bo'lmasligingiz kerak, lekin siz yolg'on gapirishga hojat yo'q. Maqola o'quvchilarning qiziqishini uyg'otishi, keyin nima bo'lishini bilish istagini uyg'otishi kerak. Yaxshi sarlavha uchun qoidalar bor:

- sarlavha o'ziga e'tiborni jalb qilishi, "o'ziga jalb qilishi" muhimdir;
- maqolani o'qishga qiziqishni uyg'otish va undash muhimdir.

Diqqat: ko'pincha o'sha maqolalar jalb qilinadi, ularning sarlavhalarida maslahatlar mavjud, ehtiyojni qondirish yoki muammoni hal qilish umidida. Agar sarlavha "barcha kartalarni ochib bersa", unda uni o'qish endi unchalik qiziqarli va zarur bo'lmaydi. Sizning vazifangiz maslahat berish, intriga berish, maqolani o'qishga ilhom berishdir. Sarlavha so'ramaydi yoki taklif qilmaydi, u chaqiradi va e'lon qiladi;

- sarlavha bir qarashda o'qilishi kerak. Uzoq va qisqa ism o'rtasida ikkinchisini tanlang;

- maqola yozilayotgan maqsadli auditoriya tomonidan tushunarli va tez-tez ishlatiladigan so'zlardan foydalaning;

- agar siz sayt uchun maqola yozayotgan bo'lsangiz, sarlavhada kalit so'zdan foydalaning, ya'ni. maqolangizda tasvirlangan talab qilinadigan mavzu bilan bog'liq bo'lgan so'z toping;

- juda ko'p yaxshilik yomon. Siz undov yoki savol belgilari bilan sarlavhaga (va maqolaga) hissiyot qo'shmasligingiz kerak. Imlo qoidalari hali bekor qilinmagan. Shuningdek, sarlavhangizni katta harf bilan yozmang. Bu, albatta, his-tuyg'ularni beradi, lekin bu holda, muallif baqirgan yoki tajovuzkor bo'lib tuyuladi;

- agar siz bosma nashr uchun yozayotgan bo'lsangiz, sarlavhangiz boshqasiga o'zgarishi mumkinligiga tayyor bo'ling, lekin bu allaqachon muhokama qilinadigan mavzu va buni hali ham eslab qoling;

- maqola sarlavhalari uchun ishchi shablonlardan foydalaning;

"Qanday qilib ..." Juda keng tarqalgan boshlanish va juda muvaffaqiyatli. Bu muammo va uni hal qilish yo'lining bevosita ko'rsatkichidir. "Qanday qilib

muvaffaqiyatli biznesni qurish kerak", "O'z kasbingizni qanday topish mumkin", "Tezkor qo'llanma ..." Yendi jamiyat keraksiz suvsiz kontsentrlangan bilimlarni yaxshi ko'radi va har qanday narsa bo'yicha tezkor qo'llanma taklifi katta talabga ega bo'ladi.

"Muvaffaqiyatli biznes qurish bo'yicha tezkor qo'llanma". "O'z-o'zini topish bo'yicha tezkor qo'llanma", "Usul / texnika ..." Maqolaga ilmiy va / yoki amaliylik tasvirini beradi. Agar siz unga ixtiros qo'shsangiz yaxshi "o'qlar"dir. "Muvaffaqiyatli biznes qurishning yeng samarali usuli". "Kasbingizni topishning eng yaxshi usullari". "Tez yol / qanchalik tez ..." Uzoq va ko'p vaqt davomida hech kim muammo bilan shug'ullanishni hohlamaydi, ko'pchilik o'z muammolarini tezda hal qilish imkoniyatidan voz kechmaydi. "Qanday qilib tezda muvaffaqiyatli biznes qurish mumkin". "Qo'ng'iroqni topishning tezkor usuli". "Oson yol / oddiy yechim ..." Ushbu shablon ham ishlaydi. Oddiy yechimlar har doim kerak. "Muvaffaqiyatli biznes qurishning oson yoli". "Yolingizni topishning oson yoli". "Yaratish ..." Ushbu shablon o'quvchilarning his-tuyg'ulari va ijodiga murojaat qiladi. "Muvaffaqiyatli biznes uchun o'z formulangizni yarating". "O'zingizni bilish uchun o'z yolingizni yarating". "Endi siz ..." Ya'ni ushbu maqola tufayli siz yerishasiz, siz haqiqatan ham kerakli narsani qila olasiz, agar xohlasangiz, albatta. "Endi siz muvaffaqiyatli biznes qilishingiz mumkin". "Endi siz o'z qo'ng'iroqlaringizni topishingiz mumkin". "Bepul, noyob, eng yaxshi, ishonchli, samarali, betakror va hokazo." Bu so'zlar doimo diqqatni tortadi.

"muvaffaqiyatli biznes yaratish bo'yicha bepul kurs. "Kasbingizni topishning samarali usuli". "Hamma nimani bilishi kerak ...". "Har bir yangi ishbilarmon buni bilishi kerak"

3-qadam. Maqolaning qisqacha mazmuni.

Maqola quriladigan rejani yozishingiz kerak. Shunday bo'ladiki, odam maqolaning umumiy kontseptsiyasini tuzmasdan, faqat bitta mavzuni boshqargan holda yozishga harakat qiladi. Bu, odatda, qulashi va energiya sarflanishiga olib keladi.

Reja yozilishi kerak. Bu juda oddiy bo'lishi kerak:

- sarlavha;
- kirish (matnning asosiy g'oyasini qisqacha ochib beradi);
- bir nechta tavsiyalar yoki tezislardan iborat asosiy qism,
- xulosa (xulosa, xulosa);

4-qadam. Kirish.

O'quvchini muloyimlik bilan asosiy mavzuga olib borishi kerak. Bundan tashqari, kirish qismida siz maqolaning mavzusini (nima haqida?) va maqsadli auditoriyani (kim uchun?) ko'rsatasiz.

5-qadam. Asosiy qism.

To'g'ridan-to'g'ri muhokama. Bu yerda siz ba'zi muhim amaliy tavsiyalar berishingiz yoki mavzuning asosiy tushunchalarini aniqlab olishingiz mumkin. Tezislar tavsifida o'ziga xos xususiyatlar, foydali va qimmatli ma'lumotlar bo'lishi kerak. Hikoyalar yoki masallar, qiziqarli faktlar, shuningdek, maqolada ko'tarilgan masala bo'yicha o'z tajribangiz va nuqtai nazarangiz yaxshi qo'shimcha bo'ladi. Xo'sh, agar siz matnni misollar bilan to'ldirsangiz, quruq faktlarga hissiyot qo'shadi. Asosiy qismda siz kirish qismida berilgan savollarga javoblarni ko'rsatishingiz kerak. 2-3 ming belgi ichida saqlashga harakat qiling, ya'ni. 1-2 sahifada. Shu bilan birga, siz shunchaki maqola emas, balki aniq maqsadli auditoriya uchun, aniqrog'i, ushbu mavzuga qiziqqan yaxshi va yoqimli odam uchun maqola yozayotganingizni unutmang. Matningiz do'stona va tushunarli bo'lishi uchun buni eslab qolishingiz kerak, keyin siz o'quvchilaringiz bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishingiz mumkin.

6 qadam. Xulosa.

Bu yerda siz ijobiy natijaga e'tibor qaratgan holda umumlashtirasiz, shuningdek, asosiy qismda keltirilgan ma'lumotlar muammoni yengishga yordam beradi.

7 qadam. Maqolani ayirish.

Matnni uzoq o'ylamasdan, idealizmga kirmasdan, faqat bir marta o'qib chiqishingiz (tekshirish va tuzatish) kerak, aks holda bu qiynoqlarga, son-sanoqsiz tuzatishlarga va natijada yozilmagan maqolaga olib keladi. Tekshirishning maqsadi matn terish xatolarini tuzatish va takrorlarni olib tashlash, ularni sinonim so'zlar bilan almashtirishdir. Matn yengil, savodli va sodda bo'lishi kerak.

8-qadam. O'ziga xoslikni tekshiring.

Bu juda muhim bosqich. Agar sizning maqolangiz yuz foiz noyob bo'lsa, u Internetda yangi sifatida indekslanadi. Bu shuni anglatadiki, ushbu mavzu bo'yicha boshqa maqolalar fonida uning reytingi qidiruv tizimlari orasida oshadi. Bu shuni anglatadiki, birinchi o'rinlarni egallash ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Noyob maqolaga qanchalik ko'p bosilgan bo'lsa, sayt shunchalik ko'p talab qilinadi. Bu shuni anglatadiki, tashrif buyuruvchilar oqimi ortib bormoqda va u bilan birga sizning mashhurligingiz.

9-qadam. Matnni formatlash.

To'g'ri formatlash muhim, ya'ni. matnni formatlash. Formatlash usullari o'quvchilar uchun vizual belgilar yaratadi va matnni o'qish va tushunishni osonlashtiradi. Quyidagi formatlash elementlari mavjud:

- sarlavhalar va sarlavhalarni ajratib ko'rsatish. O'zingiz uchun matnni ta'kidlashning ikki yoki uchta usulini tanlang, agar ko'proq bo'lsa, siz o'quvchilaringizda ongsiz tirnash xususiyati va charchoqni keltirib chiqarishi mumkin.

- belgilangan yoki raqamlangan ro'yxatlar. Bizning miyamiz hamma narsani tasniflashga odatlangan va bu formatlash texnikasi o'qishni osonlashtiradi.

- asosiy iboralar yoki so'zlarni ajratib ko'rsatish. Bu tez o'qishga yordam beradi, siz ko'proq tafsilotlarni o'rganishga arziydimi yoki yo'qligini darhol ko'rishingiz mumkin.

- o'qiladigan shrift. Qiyin shriftlarni o'qish qiyin va ongsiz tinash xususiyati va o'qish charchashiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, o'qish oson shriftni tanlang.

- oddiy gaplar. Psixologiyada oltin formula mavjud - 7 ortiqcha / minus 2. Bu jumladagi so'zlar soniga tegishli.

10-qadam. Saqlash.

Endi maqolani saqlash, yopish va eng muhimi, qaysi papkada ekanligini eslab qolish vaqti. Ideal holda, "Mening shaxsiy brendimni targ'ib qilish uchun maqolalar" kabi alohida papka yaratish yaxshi bo'lar edi. Maqola qo'lda yozilgan bo'lsa, uni elektron shaklga tarjima qilish yaxshiroqdir, keyin yesa saqlang, yoping va qayerdaligini yeslang.

Hozirgina yozgan maqolangizni chop etishga shoshilmang. Iloji bo'lsa, uni yotib qo'ying va bir muncha vaqt o'tgach, boshqa sharoitda va ovoz chiqarib o'qing. Bu mumkin bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va tuzatishga yordam beradi. Ideal holda, yozma maqolani tahrir qilish uchun boshqa shaxsga berish yaxshidir.

Ushbu bosqichma-bosqich ko'rsatmalardan foydalanib, siz maqolangizni birinchi marta qilayotgan bo'lsangiz ham, osongina yozishingiz mumkin. Ijodda muvaffaqiyatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. М.М. Мирахмедов, М.К. Тахиров, Методология научных исследований. Учебное пособие. ТашИИТ, 2011. 280 с.

2. G.A. Xromova, M.A. Ibragimov, Z.G.Muxamedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv qo'llanma. "Ilm ziyo zakovat" nashriyoti.: 2019 ., 200 b.

3. М.М. Miraxmedov, М.К. Taxirov, Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.-Toshkent, 2012. 328 b.

4. Кузин Ф.В. Подготовка к написанию диссертации / Ф.В. Кузин. - М.: 1998. - 282 с.

PARAMETRLI KVADRAT TENGLAMALAR VA ULARGA KELTIRILADIGAN TENGLAMALAR

*Toxirov N.X – TMTI assistenti
Shermatov U.X – TMTI talabasi*

Annatasiya: *Kvadrat tengsizliklarni yechishning ikkita usuli mavjud: kvadrat funksiyaning grafigini yasash va intervallar usuli. Birinchi usul unversaldir, chunki*

diskriminantning ishorasi rol o'ynamaydi. Mos kvadrat tenglama ildizlarining ayirmasi bilan bosh koeffitsiyent bir xil ishorali bo'ladi.

Kalit so'zlar: Kvadrat, tengsizlik, yechish, usul, mavjud, funksiya, grafig, yasash, interval, unversal, diskriminant, ishora, rol,.

Annotation: *There are two ways to solve quadratic inequalities: graphing a quadratic function and the intervals method. The first method is universal because the sign of the discriminant does not play a role. The difference between the roots of the corresponding quadratic equation has the same sign as the main coefficient.*

Key words: square, inequality, solution, method, existing, function, graph, construction, interval, unversal, discriminant, sign, role .

Аннотация: *Существует два способа решения квадратных неравенств: построение графика квадратичной функции и метод интервалов. Первый способ универсален, так как знак дискриминанта не играет роли. Разность между корнями соответствующего квадратного уравнения имеет тот же знак, что и главный коэффициент.*

Ключевые слова: квадрат, неравенство, решение, метод, существующий, функция, граф, построение, интервал, универсал, дискриминант, признак, роль,.

Kvadrat tenglamani yechishning uchta usuli mavjud: umumiy formuladan foydalanish, Viyet teoremasidan foydalanish, chiziqli ko'paytuvchilarga ajratish. Biz birinchi usulga asoslangan algoritmnini keltiramiz:

1) tenglamani standart holatga keltirib, koeffitsiyentlar, ozod had va diskriminantning parametrdan qanday bog'liqligini aniqlang(zarurat bo'lsa).

2) parametrning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plamini toping; parametrning bu to'plamga kirmaydigan barcha qiymatlarida tenglama aniqlanmagan.

3) parametrning noma'lumning kvadrati oldidagi koeffitsienti nolga aylanadigan barcha qiymatlarining oraliqlarini toping va topilgan oraliqlarda hosil bo'lgan chiziqli tenglamalarni yeching.

4) parametrning mumkin bo'lgan qiymatlari orasidan diskriminant nolga aylanadiganlarini toping va hosil bo'lgan bir noma'lumli kvadrat tenglamalarni yeching(agar shundaylari bor bo'lsa).

5) parametrning mumkin bo'lgan qiymatlari orasidan diskriminant noldan katta bo'ladiganlarini va parametrning topilgan qiymatlari uchun tenglamaning umumiy yechimini odatdagi standart formula bilan toping.

6) parametrning tenglama yechimga ega bo'lmaydigan qolgan qiymatlarini toping(agar bor bo'lsa).

7) parametrning barcha qiymatlari oraliqlarida topilgan yechimlarni hisobga olib, tenglamaning umumiy yechimini yozing.

Parametrli kvadrat tengsizliklarni yechish algoritmi:

Kvadrat tengsizliklarni yechishning ikkita usuli mavjud: kvadrat funksiyaning grafigini yasash va intervallar usuli. Birinchi usul unversaldir, chunki diskriminantning ishorasi rol o'ynamaydi. Mos kvadrat tenglama ildizlarining ayirmasi bilan bosh koeffisiyent bir xil ishorali bo'ladi.

Agoritm va bir o'zgaruvchili kvadrat tengsizliklarni yechish usuliga asoslanib quyidagi algoritmni keltiramiz:

- 1) tengsizlikni standart holatga keltirib, koeffisientlar, ozod had va diskriminantning parametrdan qanday bog'liqligini aniqlang (zarurat bo'lsa).
- 2) parametrning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plamini toping; parametrning bu to'plamga kirmaydigan barcha qiymatlarida tengsizlik aniqlanmagan.
- 3) parametrning noma'lumning kvadrati oldidagi koeffisienti nolga aylanadigan barcha qiymatlarining oraliqlarini toping va topilgan oraliqlarda hosil bo'lgan chiziqli tengsizliklarni yeching.
- 4) parametrning mumkin bo'lgan qiymatlari orasidan diskriminant nolga aylanadiganlarini toping va hosil bo'lgan bir noma'lumli kvadrat tengsizliklarni parametrning aniqlangan har bir qiymatida yeching.
- 5) parametrning mumkin bo'lgan qiymatlari orasidan diskriminant noldan kata bo'ladiganlarini va parametrning topilgan qiymatlari uchun mos kvadrat tenglama ildizlarining ayirmasini va bosh koeffisientning ishorasini aniqlang, parametrning aniqlangan qiymatlarida kvadrat funksiyaning grafigini yasang hamda shu grafik asosida tengsizlikning umumiy yechimini yozing.
- 6) bosh koeffisientni baholab parametrning qolgan mumkin bo'lgan qiymatlari uchun kvadrat funksiyaning grafigini yasang va tengsizlikning umumiy yechimini yozing (bu holda diskriminant manfiy, parabola absissalar o'qini kesmaydi).
- 7) parametrning barcha qiymatlari oraliqlarida topilgan yechimlarni hisobga olib, tengsizlikning umumiy yechimini yozing.

1-ta'rif. $2ax + bx + c = 0$ ko'rinishdagi tenglama, bu erda x – noma'lum, a, b, c – faqat parametrlarga bog'liq ifodalar, va $a \neq 0$, x ga nisbatan kvadrat tenglama deb ataladi. Parametrlarning a, b, c – haqiqiy bo'ladigan qiymatlari yo'l qo'yiladigan qiymatlari deb ataladi. $a = 0$ da tenglama $bx + c = 0$ chiziqli ko'rinishni oladi va bitta ildizga ega bo'ladi; $a \neq 0$ da u kvadrat tenglama bo'ladi va parametrning har bir yo'l qo'yiladigan qiymatlar sistemasida bitta yoki ikkita haqiqiy ildizlarga ega bo'lishi mumkin.

Parametrli kvadrat tenglamani yechish algoritmi:

- 1) Tenglamani shunday soddalashtirish kerakki u : $2ax^2 + bx + c = 0$ ko'rinishga ega bo'lsin.

2) Tenglamaning $2 \times$ oldidagi koeffitsientini nolga tengligini tekshirish (agar u parametrni o'z ichiga olsa) ($a = 0$, $a \neq 0$);

3) Parametrning har bir tayinlangan qiymatida tenglama ko'rinishini va ildizlarini tekshirish:

- agar $a = 0$ bo'lsa, u holda tenglama chiziqli va uning ildizlarini chiziqli tenglamani yechish algoritmi bilan topish;

- agar $a \neq 0$ bo'lsa, u holda tenglama- kvadrat tenglama. $D > 0$, $D < 0$, $D = 0$ shartlarda parametrning har bir tayinlangan qiymatida ildizlar mavjudligini tekshirish va ularni topish.

4) Parametrning tayinlangan qiymatlarini hisobga olib javobni yozing.

Bir parametrli va bir noma'lumli kvadrat tenglamalarni yechishga misollar keltiramiz

1-misol. Qanday a larda $2ax + 30$ tenglama yagona yechimga ega?

Yechish: 1) $a = 0$ bo'lgan holni qaraymiz, u holda tenglama: $x + 30 = 0$ ko'rinishni oladi, u chiziqli tenglamadan iborat va yagona yechimga ega $x = -30$.

2) Agar $a \neq 0$ bo'lsa, u holda kvadrat tenglamaga ega bo'lamiz. $D = 112a$.

Tenglama yagona ildizga ega bo'lishi uchun $D = 0$. $112a = 0$, $a = 0$ bo'lishi zarur.

2-misol. Qanday a larda $2a^2x + 4a^2x + 30$ yagona yechimga ega?

Yechish. 1) $a = 0$ bo'lgan holni qaraymiz, u holda tenglama $0x + 30 = 0$ ko'rinishni oladi va yechimga ega emas.

2) Agar $a \neq 0$ bo'lsa, u holda berilgan tenglama – kvadrat tenglama. Tenglama yagona ildizga ega, agar $D = 0$ bo'lsa. $2a^2x + 4a^2x + 30 = 0$ yagona yechimga ega.

Viyet teoremasiga ko'ra $a = 2$ yoki $a = 5$. $a = 2$ qiymat to'g'ri kelmaganligi uchun $a = 5$.

Xulosa: Parametrli tenglama va tengsizliklarga doir mashq va topshiriqlarni yechish bosqichlari asosida o'rgatish, ular yordamida tahlil qilish, tadqiqot o'tkazish ularning mantiqiy matematik faoliyat tadbirlarini o'quvchilarning amaliy faoliyatda zarurligi va qo'llash usullariga o'rgatishda foydalanish o'quvchilarning bilim saviyalarining oshishiga va fikrlashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ularning analitik tafakkurini shakllantrishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Conclusion: Teaching exercises and tasks on parametric equations and inequalities on the basis of solving stages, using them, conducting research, using their logical mathematical activities in teaching students the need for practical activities and methods of application. has a positive effect on the growth of their levels and the growth of their thinking, and has a positive effect on the formation of their analytical thinking.

Вывод: Обучение упражнениям и задачам на параметрические уравнения и неравенства на основе этапов решения, использования их, проведения исследований, использования их логической математической деятельности в обучении учащихся необходимости практической деятельности и способов

применения положительно влияет на рост их уровня и роста их мышления, а также положительно влияет на формирование их аналитического мышления.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. I.A.Karimov. Barkamolavlod –O'zbekistontaraqqiyotiningpoydevori. T.:O'zbekiston,1997.
2. Арзикулов А.У. Параметргабогликквдратучхадлар. Халктаълим, 1998, 1, 83-86 бетлар.
3. Очилов П.И. , Арзикулов А.У., Параметрли масалалар ва тестлар. Халк таълим ,1998 й.
4. Горнштейн П.И. Задачи с параметрами. - М.: Гимназия, 2002.
5. Шахмейстер А.Х. Задачи с параметрами в ЕГЭ. Санкт- Петербург, Москва. 2006.
6. Шахмейстер А.Х. Уравнения и неравенства с параметрами. Санкт- Петербург, Москва. 2006.

Фойданинг иқтисодий моҳияти ва уни шаклланишнинг дастлабки назарий асослари

Тўраев А.Х. - ТМТИ талабаси

Аннотация: Мақолада фойданинг иқтисодий моҳияти ва уни шакллантиришнинг дастлабки назарий асосларининг хусусиятлари антик даврлар, шунингдек айрим иқтисодий мактабларнинг намоёндаларининг қарашлари орқали изоҳланиб, уларнинг натижасида хулосалар келтирилган.

Кириш

Фойда моддий ва номоддий нуқтаи-назарида кўп қиррали тушунча бўлсада, асосан фойда моддий бойлиқ сифатида қабул қилиниб, ушбу моддий бойлиқнинг мазмуни иқтисодий субъектлар руҳиятида ижобий хусусиятни тавсифлайди. Иқтисодий категория сифатида эса мазмунан турлича англашилади. Фойданинг мазмунини турлича қабул қилиш, унинг оддий ва мураккаб иқтисодий категория сифатида талқин қилишни юзага чиқаради. Фойда бозор шароитида тадбиркорлик субъектларининг фаолият давлари оралиғидаги узлуксиз асосий марраси ҳисобланади. Ушбу жиҳатнинг ўзи тадбиркорлик субъектларининг фаолиятида асосий омилни юзага чиқаради.

Иқтисодий назариялар тизимида фойда назарияси асосан тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ ҳолда ўрганилган бўлсада, фойданинг шаклланиши турлича қарашларни пайдо қилган. Иқтисодчи ва мутахассиларни дастлаб уни шаклланиши ва ундан фойдаланиш, кўпроқ қизиқтирган. Замонавий иқтисодий ривожланиш шароитида уларни фойданинг табиати эмас, балки уни

шакллантиришнинг мақбул йўналишлари, миқдори, сифати кўпроқ қизиқтирмоқда.

Муҳокома ва натижалар

Қадимги ҳинд иқтисодий тафаккури ҳақидаги Архашастра трактатида бойликнинг меҳнат орқали яратилиши низоми ва савдо фойдасининг савдогар ва давлат ўртасида тақсимланиш жараёнини бошқариш зарурияти ҳақида тўхталиб, фойдани тақсимланиш жараёни давлат томонидан тартибга солинишини тарғиб қилинган. Фойданинг шаклланиш жараёнига нисбатан тақсимланиш жараёнига эътибор қаратилган.

Шунингдек фойданинг шаклланиши ва унинг моҳияти ҳақидаги дастлабки иқтисодий қарашлар қадимги юнон олимлари Ксенофонт, Афлотун давридан бошланиб, улар асарларида айнан фойда ҳақида тизимли ўрганилмаган. Жумладан Ксенофонт пул ёрдамида товар муомаласи амалга оширилиши ва бойлик жамғариш учун инсонлар томонидан кашф этилганлигини таъкидлайди. Пулни бойлик тарзида жамғаришга қарши бўлиб, айниқса судхўрликни кескин танқид қилишган. Афлотун нарх ҳақида фикр юритиб, уни давлат бошқариши кераклиги ва унинг натижасида фойда олинишини таъкидлайди. Иқтисодий тафаккур тарақиётида Арасту ўз қарашларида ўрганилган фикрларни тизимлаштириб, иқтисодиёт ва хрематистика тушунчаларига мезонлар асосида ёндошиб, фойда ҳақида мулоҳазаларни босқичма босқич шаклланишига ҳиссасини қўшди. “уларнинг фойдани тўплаш воситаси сифатида қўлланилиши, яъни судхўрлик капитали сифатида, хрематистикага соҳасига тегишлидир.” [1]. Унинг иқтисодиёт ва хрематистика ҳақидаги концепсиясидан шуни хулоса қилиш мумкинки, фойданинг шаклланиши айнан хрематистика фаолияти билан боғлиқ. Хрематистикани савдо орқали барқарорлик ҳолатини пайдо қилиш эканлиги, бунда мулкка, бойликка эгалик қилишлик эканлигини таъкидлайди. “Бойлик ортириш санъатида мақсадга эришишда ҳеч қачон чегара бўлмайди, балки бу ерда мақсад бойлик ва пулга эга бўлишдир.” [2]. Шунингдек савдо фойдасини кўпиртирилганлиги, судхўрлик капиталини пулга эгалик қилишнинг нотабиий йўли эканлигини изоҳлайди. Арасту оддий товар муомаласида ва пулнинг капитал сифатида муомаласида капитални пулнинг ҳаракати натижасида кўпайиши таъкидлайди. Қадимги юнон олимларининг иқтисодий қарашларида стихияли равишда савдо фойдаси тушунчаси кенг ўрганилганлигини кўриш мумкин. Демак мазмунан қадимги юнон олимлари жамиятда жамғарилган бойлик ва эгалик қилинган мулк, шунингдек пул маблағларини фойда сифатида талқин қилишган. Ушбу қарашлар эса ўрта асрларда фаолият юритган иқтисодчи олимлар томонидан кенг ўрганилиши илмий асосланган ғояарни ривожланишга олиб келди.

Бозор иқтисодиётининг дастлабки назарий концепцияси тарихий иқтисодий қарашлар нуқтаи-назаридан фойда назарияси тамойиллари ривожланишининг дастлабки босқичлари меркантилистлар иқтисодий таҳлиллари билан боғлиқ. Меркантилистлар халқаро савдо назариясига шубҳасиз йирик салмоқдаги назрий ҳиссасини қўшиш билан биргаликда, бир қатор иқтисодий категорияларни мазмунини очиб ҳам беришган. Меркантилистлар Т.Манн, Д.Юм, Ж.Колберларнинг назарий ёндашувларида бойлик фойдани шаклланиш манбаларини тадқиқ қилиш асосий ўринни эгаллади. Меркантилистлар ички ва ташқи савдо фаолиятига кенг эътибор қаратиб дастлаб фойда айирбошладан пайдо бўлишини таъкидлашган. Лекин улар фойдани шакллантиришда ташқи савдони афзал билишган. “Уларнинг фикрича, бойликни кўпайтиришнинг асосий манбаси бўлиб, ташқи савдо ҳисобланади. “Бизнинг бойлик ва пулимизни кўпайтиришнинг одатий воситаси, ташқи савдо ҳисобланади.” [3] , таъкидлайди.

Бошланғич ва сўнги меркантилизм намоёндалари фойдани кенг шакллантириш омиллари сифати юқори нархлар белгилаш, импортни чегаралаш, олтин ва кумушни мамлакатдан чиқармаслик, арзон товарлар воситасида бозорларни эгаллаш, актив савдо баланси шароитида товарлар импортга рухсат бериш, мақбул савдо битимлари учунгина олтин ва кумушни мамлакатдан олиб чиқишга рухсат беришларни келтиришади. Уларнинг таъкидлашича, албатта айирбошлаш жараёни фойдани пайдо бўлишини бошланғич нуқтаси бўлиб, шундан сўнг уни ўзлаштириш мумкин. Аммо фойданинг пайдо бўлиш манбаси ҳақидаги саволни қайси босқичда ўзлаштирилиши ҳақидаги савол билан аралаштирмаслик зарур. Меркантилистлар фикрича фойда айирбошлаш босқичида ўзлаштирилишини таъкидлашиб, фойданинг табиати ва ҳақиқий манбаидан узоқлашиб, улар фойда ишлаб чиқариш жараёнида пайдо бўлишини билишмаган. Шунга мос равишда уларнинг илмий қарашларига асосан ташқи савдо фойда оқимини таъминлаш мақсадида давлатнинг фаол аралашувини қўллаб қувватлашган. Юқоридагилардан шуни хулоса қилиш муминки, меркантилистлар асосан ташқи савдо орқали фойдани кўпайтириш натижасида иқтисодиётни ўсишини таъминлаш, миллий бойликни оширишга эътибор қаратишган.

Фойда назариясининг ривожланиши физиократлар иқтисодий мактабининг намоёндалари Ф.Кене, Ж.Тюрголар фаолияти билан ҳам боғлиқ. Уларнинг фикрича, иқтисодиётнинг шаклланиши ва фаолиятинининг асосини табиий тартиб белгилайди. Физиократлар асосан фойдани махсус ишлаб чиқариш кучи ер натижаси сифатида тасвирлашган. Улар зироат маҳсулотларини етиштиришнинг микдорий ўсишини қиймат ўсиши билан аралаштириб юборишади. Шунинг учун улар нотўғри равишда ишлаб чиқариш соҳасидаги

фойдани қишлоқ хўжалиги билан чегаралаб ва моҳиятан истеъмол қиймати ўсишини қиймат ўсиши билан алмаштиришди. Физиократлар мактабининг намоёндаларининг концепсиясига кўра давлатнинг иқтисодий сиёсати қишлоқ хўжалиги муносабатлари орқали амалга оширилиш зарурлиги ва фойдани шакллантиришда ягона манбаси ер эканлигини қайд этишади. Фойдани шаклланишини Ф.Кене “соф маҳсулот” тушунчаси орқали тушунтиришга ҳаракат қилади. Табиат иштирокида ер эгасининг меҳнати фойда “соф маҳсулот”ни яратишини таъкидлайди. Шаклланган фойда ер эгаларининг илгари ерга қилган харажатлари учун мукофот эканлигини қайд этади. Саноат ва савдода меҳнат маҳсулдор эмаслиги, масалан савдода меҳнат материянинг шаклини ўзгартириши, савдода эса товарлар ҳаракати содир бўлиши, энг асосийси янги материя ҳосил бўлмаслигини таъкиллашади. Саноатда “соф маҳсулот” ҳосил бўлмайди, саноат маҳсулоти қиймати ишлаб чиқариш харажатларига тенг эканлиги, улар фойдани ходимлар иш ҳақи кўринишида олишади. Савдо фойдасини ҳисоблаш ва алдов натижаси сифатида кўришади. Шунинг учун фойдани шаклланишини яна қишлоқ хўжалиги тизими нуқтаи-назари орқали далолатлайди: “фойда –табиат иноми эмас, у фоизга ўхшаш бўлиб, унинг пайдо бўлиши ер рентасидан “келиб чиқади”. [4]

Классик сиёсий иқтисод мактабининг дастлабки вакиллари А.Смит ва Д.Рикардолар фойданинг моҳиятини жиддий тадқиқ этишди. Дастлаб фойдани тадқиқ этишни саноат ишлаб чиқаришда, сўнгра тадқиқот соҳаларини кенгайтириб ноишлаб чиқариш соҳалари бўйича кенг ўрганишди.

А. Смит фойдани иқтисодий категория сифатида меҳнат қиймати назарияси бўйича ифода этди. Фойдани шаклланиши билан боғлиқ хусусиятларини қийматни меҳнат яратиши асосида ўрганди.Шунинг учун ишлаб чиқариш харажатлари назарияси бўйича эмас балки, меҳнат орқали товарларнинг қийматини аниқлаш билан бирга, А. Смит даромадлар йиғиндиси сифатида қиймат иқтисодий категориясини шакллантирди.

Бу каби фойдани шакллантиришнинг асосий хусусиятлари кейинги тадқиқотларга асос қилиниб, фойда назариясини ривожланишига улкан ҳисса қўшди.

Хулоса

Фойданинг иқтисодий моҳиятининг кўриб чиқар эканмиз, замонавий иқтисодий нуқтаи назаридан унинг қуйидаги тавсифларини қайд этишни муҳим ҳисобладик:

- ✓ фойда аниқ бир фаолияти билан шуғулланаётган тадбиркорнинг даромад шаклини ифодалайди.Бу фойдани ифодалашнинг оддий шакли бўлиб, унинг мазмунини тўлиқ очиб бермайди. Негаки айрим соҳалардаги фаолият натижалари фойда олиш билан боғлиқ бўлмайди.

- ✓ фойда тадбиркорнинг даромад шакли бўлиб, тижорат муваффақиятига эришиш мақсадида қўйилган капитални англатади. Негаки фойда категорияси ишлаб чиқаришнинг асосий омили бўлган капитал категорияси билан боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ядгаров Я.С. История экономических учений: Учебник. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2009. — с.54
2. Бартенев С. А. История экономических учений: Учебник- 22е изд., перераб. и доп. -М:Магистр ИНФРА-М, 2013. — с.37
3. Бартенев С. А. История экономических учений : учебник.- 22е изд., перераб. и доп. — М. : Магистр : ИНФРА-М, 2013. — с.59
4. Бартенев С. А. История экономических учений : учебник /- 22е изд., перераб. и доп. — М. : Магистр : ИНФРА-М, 2013. — с.68

OLIY TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI KENG FOYDALANISH ORQALI TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Turdiyev B.E – TMTI assistenti

Bugungi kunda, elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalari oliy ta'lim tizimida tobora muhim rol o'ynamoqda. Shu munosabat bilan texnologik elektron ta'lim platformalarini tanlash, ilmiy asoslash va muvaffaqiyatli amalga oshirish dolzarb bo'lib, bir tomondan, ta'lim jarayonining an'anaviy didaktik protseduralarini samarali o'zgartirish imkoniyatini beradi, boshqa tomondan- mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, professional mahorat darajasi yuqori bo'lgan mobil, ijodiy faol shaxslarni rivojlantiradi. Bunday vositalarga bugungi kunda ta'lim boshqaruv tizimlari ("HEMIS", "WebCT", "Virtual universitet" va boshqalar kiradi), ular orasida modulli obyekt yo'naltirilgan dinamik Moodle ta'lim muhiti alohida mashhurlikka sazovor bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun 270 qo'shimcha sharoitlar yaratish; ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish" bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, ta'lim tizimiga

zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish taqozo etiladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim faoliyatni faollashtirish vositasi vazifasini bajaradi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Mustaqil ta'lim ijodiy bilimlarni ongli o'zlashtirish, chuqurlashtirish va kengaytirish uchun yordam beradi;

2. Mavzuni ijodiy o'rganish bo'yicha mavjud ko'nikmalar takomillashtiriladi va yangilari ishlab chiqiladi;

3. Talabani mustaqil harakatlari muayyan fanning ilmiy bilish usullarini anglaydi, ijodiy bilishning zarur ko'nikmalarini egallaydi [Sh.Xayitova, 2021: 1841]. Ta'limning aralash ta'lim shakllari tomoniga siljishi va o'quv jarayonining axborot-ta'lim muhitiga o'tkazilishi o'quv jarayonining samarali shakli va yangi ta'lim paradigmasini amalga oshirish vositasi o'laroq, talabalarning mustaqil ishlashiga e'tiborni kuchaytiradi, mustaqil ishlash borasidagi mavjud nuqtai nazarlarning integratsiyasini, unda talabalar faoliyati va ta'limning tashkiliy shakllari samarali uyg'unlashuvini talab qiladi. Axborot-ta'lim muhitining ahamiyati o'quv jarayonining asta-sekin Internetga o'tib borayotgani, unda bir universitet yoki institut doirasiga sig'maydigan, turli ta'lim muhitlarining, jarayonlari va muassasalarining birlashuvi imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi [Sadikova F.M, 2020: 152] Axborot ta'lim muhitida talabalar tomonidan zaruriy kompetentsiyalarni egallash bo'yicha mustaqil ish quyidagilar bilan ajralib turadi:

– AKTdan foydalanish, muammoli o'qitish, loyihaviy o'qitish, tanqidiy tafakkur, faol o'qitish hisobiga bilishga oid faollikning ortishi;

– talabani individual rivojlantirishga yo'naltirish, ya'ni mustaqillikni, tanqidiy fikr yuritishni, mustaqil ravishda qaror qabul qilishga o'rgatish [Садикова Ф.М., 2020: 89] Bugungi kunda, elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalari oliy ta'lim tizimida tobora muhim rol o'ynamoqda. Shu munosabat bilan texnologik elektron ta'lim platformalarini tanlash, ilmiy asoslash va muvaffaqiyatli amalga oshirish dolzarb bo'lib, bir tomondan, ta'lim jarayonining an'anaviy didaktik jarayonlarinisamarali o'zgartirish imkoniyatini beradi, boshqa tomondan-mustaqil va tanqidiy fikrleydigan, professional mahorat darajasi yuqori bo'lgan mobil, ijodiy faol shaxslarni rivojlantiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini mustaqil ishlarni to'g'ri tashkil etish orqali hakllanitirishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, motivatsion, kognitiv, operasion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida kengaytirish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, hozirgi vaqtda dunyoda, xususan, respublikamiz oliy ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini yuzaga keltirishga imkon beradigan, kasbiy

faoliyat muammolarini o'zida mujassamlashtirgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammolarga aylandi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.

2. Sh.Xayitova. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda mustaqil ta'limning o'rni.

International Journal Academic research in educational sciences., volume 2, issue 4 , 2021, p. 1478-1486.

3. Sadikova F.M. Features of the organization of independent work of students of institutions of secondary vocational education on ownership of competencies // Abstractsof VI International Scientific and Practical Conference. Liverpool, United Kingdom, 5-7 February 2020. – P.151-154.


4. Садикова Ф.М. Ахборот таълим муҳитида талабалар мустақил иштини ташкил этиш. Замонавий таълим, 2020, 7(92), 87-94 бетлар.

ROBOTOTEXNIKA MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Turdiyev B.E – TMTI assistenti

Mavzusining dolzarbligi va uning asoslanishi

Asosiy maqsad - bu jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi: mustaqil ravishda ta'lim maqsadlarini belgilashga, ularni amalga oshirish yo'llarini loyihalashga, yutuqlarini kuzatish va baholashga, turli xil ma'lumot manbalari bilan ishlashga, ularni baholashga va shu asosda o'zlarining fikrlarini, xulosalarini, baholarini shakllantirishga qodir shaxsni shakllantirish. Ya'ni, talabalarga robototexnika faning o'qitishda ilg'or horijiy metodlardan foydalanish orqali ularning malakalarini shakllantirishdir



Mavzuning maqsadi va vazifalari

Ushbu bitiruv ishi mavzusi orqali "Robototexnika" fanini o'qitishda innovatsion pedagogik usullarni qo'llash samaradorligini o'rganish metodikasini yoritib berish maqsad qilib qo'yilgan. Asosiy vazifasi hozirgi kundagi mavjud holatni taxlil qilish, o'qitish jarayonida foydalanilishi mumkin bo'lgan texnik va dasturiy vositalar imkoniyatlarini ochib berish, ulardan foydalanish jarayonini yoritish mazkur bitiruv ishining asosiy maqsadi qilib olingan. Shu bilan birgalikda bir qancha keys masalalarini va "Loyiha" metodidan foydalanib talabalar tomonidan echimini topish jarayoni nihoyasida kutilayotgan natijalarga ko'ra tegishli xulosalar chiqarish va takliflar berish vazifasi ham ko'zda tutilgan.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati. Talabalarga robototexnika fanini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish istiqbollari to'g'risida tasavvurlar va nazariy bilimlarni berish bilan birgalikda ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradi.

Robototexnika fanini o'qitish usullarini loyihalashning psixologik va pedagogik asoslari

Ijodkorlik muammosi shu kunlarda shu qadar dolzarb bo'lib qoldiki, uni haqiqatan ham "asr muammolari" ga bog'lash mumkin. Mamlakatning innovatsion rivojlanishi barcha o'quv dasturlari va o'qitish uslublarini ta'limning kompetentsiyaviy yondashuvidan foydalangan holda yangilashni talab qiladi. Talabalarni amaliy faoliyatga jalb qiladigan tadqiqot va loyihalash usullarini joriy etishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu nafaqat tayyor bilimlar hajmini, balki yangi bilimlarni o'zlashtirish usullarini ham o'zlashtirishga imkon beradi

Yaqinda rus maktabida "Loyiha faoliyati asoslari" kursi paydo bo'ldi. Ushbu kursning maqsadi loyihani yaratishdir, ya'ni ilgari mavjud bo'lmagan noyob natijani yaratish uchun mo'ljallangan tadbirlar. Loyiha faoliyatini yaratishda oldindan mavjud bo'lmagan narsa yaratiladi - ba'zi muammolar hal qilinadi, ehtimol kichik, ammo talaba uchun ahamiyatli, ba'zi materiallar kerakli masala bo'yicha umumlashtiriladi.

Bugungi kunda robototexnika juda tez rivojlandi; bu zamonaviy jamiyatning faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Robot texnikasida mexanika va yangi texnologiyalar muammolari sun'iy intellekt masalalari bilan aloqada bo'ladi.

Ushbu yo'nalishni o'rganayotganda ikkita asosiy maqsad aniqlandi:

1. "Salom, Robot", "ROBOFINIST" va boshqalarni robotlashtirilgan musobaqalarda tayyorlash va ishtirok etish.

2. "Ijodiy loyihalar" yaratish, insho yozish, taqdimot, ular uchun videoklip yaratish va turli darajadagi musobaqalarda muvaffaqiyatli himoya qilish.

Talabalar robototexnika sohasida o'zlarining amaliy faoliyatlarini kichik ilmiy loyihalar (loyiha shablonlari) bilan boshlashadi.

Loyihada "namuna bo'yicha" ishlash yanada murakkab tuzilishga, loyihalarga tayyorlanishdir. Ushbu ishda talabalar birinchi navbatda Lego-konstruktor bilan tanishadilar, uning asosiy qismlari: nurlar, viteslar, datchiklar, servomotorlar, NXT bloki, EV3 bilan ishlash. Ikkinchidan, dasturlari bilan, ularning modellari uchun eng oddiy dasturlarni yaratishga harakat qilish.

Bu erda dastlabki texnik dizayn ko'nikmalarini egallash, nozik vosita mahoratini rivojlantirish, qurilish tushunchalarini o'rganish va uning asosiy xususiyatlari (qat'iylik, mustahkamlik, barqarorlik), guruhda o'zaro ta'sir o'tkazish mahorati

Ilmiy-tadqiqot loyihasi talabalarning amaliy faoliyatining yakuniy bosqichidir. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun talabalarga tadqiqotlarning bir nechta g'oyalari (mavzulari) beriladi va ular ushbu bosqichlarni asosiy bosqichlarga tayanib amalga oshiradilar:

1. qidirish: loyiha mavzusini belgilash, maqsadni aniqlash.
2. tahliliy: taqdim etilgan loyihaning maqsadi va vazifalari.
3. Amaliy: robot qurilmasini yaratish, qurilmaning ishlashi dasturini tuzish, modelini sinab ko'rish, nuqsonlar va nosozliklarni bartaraf etish.
4. taqdimot: loyihaning taqdimoti, olingan natijalardan foydalanish imkoniyatini o'rganish (saytdagi ma'ruza yoki maqola).

Bunday tadqiqot loyihasining misoli - Hexapod loyihasi bo'lib, u erda talabalar berilgan modelni qurishdi va avvalgi va yangi bilimlarga asoslanib dasturlashdi. Ushbu bosqichda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga muayyan masalalar yoki qiyinchiliklar to'g'risida maslahat berishdan iborat.

Loyihaning maqsadi - ilgari mavjud bo'lmagan natijani, ma'lum vaqt ichida, berilgan resurslardan foydalangan holda, shu sifatda yaratishdir.

Loyihalarni yaratishda uchta turdagi resurslar ishtirok etadi:

- vaqt, loyihaning o'z muddati bor, siz haqiqiy, bajariladigan loyihalarni tanlashingiz kerak,

- pul mablag'lari,
- intellektual harakatla

Loyihalar muvaffaqiyati uchun quyidagi mezonlar mavjud:

- ko'zlangan maqsadga erishish - kutilayotgan natijalarni aniq anglash,

- kuchli loyiha jamoasi va maqsadlarni aniq taqsimlash. Har bir jamoada rollarning aniq taqsimoti mavjud: kimdir rahbar, kimdir g'oyalarni ishlab chiqaruvchi, kimdir resurslarni taqsimlovchi. Loyihaning muvaffaqiyati jamoadagi o'zaro tushunishga, ishtirokchilarning va'dalarini bajarishga bog'liq,

- jiddiy tayyorgarlik. Muvaffaqiyatli loyihaning ishtirokchilari ko'p narsalarni o'rganadilar, natijaga erishish quvonchini o'rganadilar

Loyihalar muvaffaqiyati uchun quyidagi mezonlar mavjud:

- ko'zlangan maqsadga erishish - kutilayotgan natijalarni aniq anglash,
- kuchli loyiha jamoasi va maqsadlarni aniq taqsimlash. Har bir jamoada rollarning aniq taqsimoti mavjud: kimdir rahbar, kimdir g'oyalarni ishlab chiqaruvchi, kimdir resurslarni taqsimlovchi. Loyihaning muvaffaqiyati jamoadagi o'zaro tushunishga, ishtirokchilarning va'dalarini bajarishga bog'liq,
- jiddiy tayyorgarlik. Muvaffaqiyatli loyihaning ishtirokchilari ko'p narsalarni o'rganadilar, natijaga erishish quvonchini o'rganadilar.

Loyiha faoliyati turlarining tasnifi.

Loyiha - tadqiqot eng qiyin loyiha turi hisoblanadi. Loyihada - tadqiqotlar, odamlar uchun muhim bo'lgan aniq muammolar hal qilingan. Natijada sayt, saytdagi maqola, ilmiy konferentsiyadagi ma'ruza bo'lishi mumkin.

Axborot-tahliliy loyiha tadqiqot loyahasiga qaraganda unchalik murakkab emas. Ushbu loyiha har qanday masala bo'yicha ma'lumotlarni to'playdi va umumlashtiradi. Kutilayotgan natijalar: sayt uchun maqola, maktab haqida hisobot, stend uchun material.

Loyiha ijrochining mohiyatini, uning tabiatining kuchli va zaif tomonlarini aks ettirishi kerak. Agar talabada yangi narsaga bo'lgan intilish, o'zini yangi narsada sinab ko'rish istagi bo'lsa, u uchun tadqiqot loyihasi. Agar talaba ko'p o'qisa, yig'ish bilan shug'ullansa, unga axborot-tahliliy loyiha mos keladi. Agar bola tinkeringni yaxshi ko'rsa, u amaliy loyihada qatnashadi. Agar bola yaxshi rasm chizsa, musiqa va raqs o'ynasa, sahnada o'ynasa, demak, ijodiy loyiha u uchun.

Ushbu dasturni bo'lajak informatika o'qituvchilari doirasida amalga oshirish, guruh loyihalari davomida talabalarning faol o'zaro ta'siri orqali ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishda robototexnika fani quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

- ✓ dizayn, modellashtirish, elementar dasturlash bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ✓ mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- ✓ fanlarni o'rganish motivatsiyasini rivojlantirish;
- ✓ talabalar atrofidagi dunyoga yaxlit qarashni shakllantirish;
- ✓ talabalarni dizayn va modellashtirish asoslari bilan tanishtirish;
- ✓ muammoli vaziyatlarga ijodiy yondoshish qobiliyatini rivojlantirish;
- ✓ o'quvchilarning bilim qiziqishi va tafakkurini rivojlantirish;
- ✓ dastlabki texnik dizayn va dasturlash ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Bu usuldan boshqa pedagogik usullar bilan uyg'unlikda foydalanish ta'lim sifati va samaradoligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan har bir zamonaviy, o'z ustida izlanuvchan, kasbiga muhabbatli o'qituvchi darslarni o'quvchilarga tushinarli, qiziqarli, yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda noan'anaviy tarzda o'tishini ta'minlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

